

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ
ВАЗИРЛИГИ**

ҚАРШИ МУҲАНДИСЛИК ИҚТИСОДИЁТ ИНСТЕТУТУТИ

ЮЛДОШОВ АБДИСАЛИМ САИДОВИЧ

ИШЛАБ ЧИҚАРИШ МЕНЕЖМЕНТИ

МАЪРУЗА МАТНИ

5340200 – “Менежмент” (тармоқлар бўйича)
таълим йуналиши талабалари учун

Тошкент – 2010

Бугунги кунда "Таълим тўғрисида"ги қонун, "Кадрлар тайёрлаш Миллий дастур асосида олий таълим соҳасида жиддий ислохатлар ўтказилмоқда. Жумладан, ўқув жараёнига янги педагогик технология жорий этилмоқда, айниқса талабаларни мустақил иш олиб боришга, мустақил фикрлашга ўргатиш бош масалага айланмоқда.

Бу жараён бошқа ўқув фанлари қатори "Ишлаб чиқариш менежменти" фанини ўқитиш, бинобарин, унинг таркибий тузилмасини тубдан янгилашни тақозо этмоқда. Шуларни назарда тутиб, мазкур фан бўйича ушбу дарслик тайёрланди. Унда микро, мезо ва макро даражаларда замонавий ишлаб чиқаришни ва ҳудудларда ишлаб чиқаришни жадал ривожлантиришни таъминлаш, шу асосда иқтисодиётни изчил ва барқарор юксалтириш учун қулай шарт-шароит яратиш мақсадида қўлланиладиган усуллар, воситалар, шакллар, ҳамда "Ишлаб чиқариш менежменти" фанининг назарий ва методологик масалалари кэнг ёритилган.

Масъул муҳаррир: профессор Зайнутдинов Ш.Н.

Дарслик Тошкент Давлат Иқтисодиёт Университети "Корпоратив бошқарув" кафедрасининг катта ўқитувчиси Т.С.Исмаилова томонидан ишлаб чиқилди.

Такризчилар:

Турсунходжаев М.Л. – ТДТУ "Менежмент" кафедраси мудири, иқтисод фанлари доктори, профессор.

Салимов Б.А. – ТДИУ "Тармоқлар иқтисодиети" кафедраси мудири, иқтисод фанлари доктори, профессор.

МУНДАРИЖА

КИРИШ.....

I БЎЛИМ. БОЗОР ИҚТИСОДИЁТИ ШАРОИТЛАРИДА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ МЕНЕЖМЕНТИНИНГ УСУЛОЛОГИК АСОСЛАРИ

1-БОБ. ИШЛАБ ЧИҚАРИШ МЕНЕЖМЕНТИ ФАНИНИНГ МОҲИЯТИ ВА МАЗМУНИ

- 1.1.Ишлаб чиқариш менежментининг моҳияти.....
- 1.2.“Ишлаб чиқариш менежменти” фанининг мазмуни.....
- 1.3.Жаҳон молиявий инқироз шароитларида “Ишлаб чиқариш менежменти” фанининг ўрганиш зарурати.....
- 1.4.Асосий ўрганиш объектлари.....

2-БОБ. ИШЛАБ ЧИҚАРИШ МЕНЕЖМЕНТИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИ

- 2.1.Ишлаб чиқариш менежментини ўрганишга тарихий ёндашув.....
- 2.2.Бошқарув тафаккурининг капитализм давригача ва ўша даврдаги ривожланиши.....
- 2.3.Ишлаб чиқариш менежментини пайдо бўлиши ва эволюцияси.....
- 2.4.Бошқарувнинг замонавий муаммолари.....

3-БОБ. БОЗОР ИҚТИСОДИЁТИ ШАРОИТЛАРИДА ТОВАР ИШЛАБ ЧИҚАРИШ БОШҚАРУВ ОБЪЕКТИ СИФАТИДА

- 3.1.Саноат ишлаб чиқаришининг асосий элементлари.....
- 3.2.Бозор иқтисодиёти шароитларида маркетинг ишлаб чиқаришнинг асосий элементи сифатида.....
- 3.3.Бозор иқтисодиёти ва товар ишлаб чиқариш.....
- 3.4.Бозор иқтисодиёти концепцияси.....
- 3.5.Бозор муносабатларига ўтиш стратегияси.....
- 3.6.Рақобат турлари ва рақобат воситалари.....

4-БОБ.ИШЛАБ ЧИҚАРИШ МЕНЕЖМЕНТИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ УСУЛЛАРИ

- 4.1.Ишлаб чиқариш менежментини такомиллаштиришга тизимли-вазиятли ёндашув.....
- 4.2.Ишлаб чиқариш менежментини лойиҳалаштириш усуллари.....
- 4.3.Ишлаб чиқариш менежментини лойиҳалаштириш жараёни.....

5-бoб. ИШЛАБ ЧИҚАРИШ МЕНЕЖМЕНТИНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ

- 5.1. Бошқарув тизимининг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш.....
- 5.2. Бошқарувнинг алоҳида ташкилий тадбирлари ва техник воситаларини жорий қилишнинг самарадорлиги.....
- 5.3. Менежмент ташкилотини ижтимоий самарадорлиги.....
- 5.4. Самарали ишлаб чиқаришнинг асосий параметрлари ва шакли.....

6-бoб. КОРХОНАЛАР ИНТЕГРАЦИЙАЛАНИШИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ШАКЛЛАРИ

- 6.1. Молиявий - саноат гуруҳи фаолияти (МСГ).....
- 6.2. Корпорация фаолияти.....
- 6.3. Холдинг компанияларининг асосий хусусиятлари ва бошқалар.....

II БЎЛИМ. ИШЛАБ ЧИҚАРИШ МЕНЕЖМЕНТИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ

1-бoб. ИШЛАБ ЧИҚАРИШ МЕНЕЖМЕНТИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШНИНГ МОҲИЙАТИ ВА УСУЛЛАРИ

- 1.1. Ишлаб чиқариш менежментини тадқиқ қилишнинг асосий усуллари.....
- 1.2. Ишлаб чиқариш менежментини тадқиқ қилишнинг мазмуни ва мақсадлари.....
- 1.3. Бозор имкониятлари таҳлили.....

2-бoб. ИШЛАБ ЧИҚАРИШ МЕНЕЖМЕНТИДА МАРКЕТИНГ ТАДҚИҚОТЛАРИ ТИЗИМИ

- 2.1. Маркетингнинг вазифалари ва тамойиллари.....
- 2.2. Маркетингни бошқариш масалалари.....
- 2.3. Маркетинг стратегияси.....
- 2.4. Товарнинг сотилиши ва товар ҳаракати таҳлили.....
- 2.5. Бозорни рағбатлантириш таҳлили.....
- 2.6. Халқаро маркетинг ва уни бозор иқтисодиётидаги ўрни.....

3-бoб. БОШҚАРУВНИНГ ТАШКИЛИЙ ТУЗИЛМАЛАРИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ

- 3.1. Бошқарувнинг ташкилий тузилмаларини тадқиқ қилиш усуллари.....
- 3.2. Бошқарувнинг ташкилий тузилмаларини тадқиқ қилишга мақсадли ёндашув.....
- 3.3. Бошқарувнинг мавжуд ташкилий тузилмаси таҳлили.....

4-бoб. ИШЛАБ ЧИҚАРИШ МЕНЕЖМЕНТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙУНАЛИШЛАРИ

- 4.1. Республика иқтисодиётини бозор муносабатларига ўтказиш стратегияси.....
- 4.2. Ишлаб чиқариш менежментининг асосий вазифалари.....
- 4.3. Ишлаб чиқариш менежментини такомиллаштириш йуналишлари.....

5-бoб. ИШЛАБ ЧИҚАРИШ МЕНЕЖМЕНТИДА КАДРЛАР ТАЪМИНОТИНИНГ ТАҲЛИЛИ

- 5.1. Ишлаб чиқариш менежментида кадрлар таъминотининг мазмуни ва вазифалари.....
- 5.2. Иш вақтидан фойдаланилишининг таҳлили.....
- 5.3. Бошқарув тизими кадрлари таъминотининг таҳлили.....
- 5.4. Бошқарув аппарати ходимлари меҳнат шaroитларининг таҳлили.....

6-бoб. ИШЛАБ ЧИҚАРИШ МЕНЕЖМЕНТИДА РЕКЛАМА ВА АХБОРОТ ТАЪМИНОТИНИНГ ТАҲЛИЛИ

- 6.1. Реклама. Реклама таъминоти таҳлили.....
- 6.2. Бошқарув тизими ахборот таъминотининг таҳлили.....
- 6.3. Ахборот массивлари ва оқимларининг таҳлили.....

7-бoб. АХБОРОТ ТИЗИМИНИНГ САМАРАЛИ ТУЗИЛИШИНИ ИЗЛАШ

- 7.1. Самарали коммуникациянинг тамойиллари.....
- 7.2. Ички ахборот бозори.....
- 7.3. Самарали ахборот захиралари.....

8-бoб. ҲУЖЖАТЛАР ВА ҲУЖЖАТЛАР АЙЛАНИШИНИНГ ТАҲЛИЛИ

- 8.1. Ҳужжатларни ўрганиш усуллари, мақсадлари ва таркиби.....
- 8.2. Ҳужжатлар шакли ва мазмуни таҳлили.....
- 8.3. Ҳужжат айланиши таҳлили.....
- 8.4. Иш юритувнинг ташкилотини ўрганиш.....

9-бoб. БОШҚАРУВ ҚАРОРЛАРИНИ АСОСЛАШ, ҚАБУЛ ҚИЛИШ ВА УЛАРНИНГ БАЖАРИЛИШИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ ТАҲЛИЛИ

- 9.1. Бошқарув қарорлари таркиби, моҳияти ва турларининг таҳлили.....
- 9.2. Бошқарув қарорларини асослаш ва қабул қилиш усуллари таҳлили.....
- 9.3. Қарорлар қабул қилиш, асослаш ва уларни бажариш жараёнлари таҳлили.....

10-бoб. ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИ ИЛМИЙ-ТЕХНИК БОШҚАРИШ ТАҲЛИЛИ

- 10.1. Илмий-техник бошқарув бўлимлари ва вазифаларининг таҳлили.....
- 10.2. Бошқарув тизимини техник таъминлаш таҳлили.....
- 10.3. Маҳсулот сифатини бошқариш таҳлили.....

11-боб. ИШЛАБ ЧИҚАРИШ МЕНЕЖМЕНТИНИНГ ИЖТИМОЙИЙ МАСАЛАЛАРИ ТАҲЛИЛИ

- 11.1. Ижтимоий йуналиш моҳияти.....
- 11.2. Ишсизлик муаммоларини ҳал қилиб бориш.....
- 11.3. Ижтимоий бошқарув вазифалари бажарилиш таҳлили.....
- 11.4. Бошқарувнинг қўлланилаётган ижтимоий- руҳий усуллари таҳлили.....
- 11.5. Меҳнат жамоаларида ишнинг яхши бориши, баҳс ва низолар чиқиши сабаблар таҳлили.....

III БЎЛИМ. ИШЛАБ ЧИҚАРИШ МЕНЕЖМЕНТИНИ ЛОЙИҲАЛАШТИРИШ

1-боб. ИШЛАБ ЧИҚАРИШ МЕНЕЖМЕНТИ ЛОЙИҲАСИНИНГ МАЗМУНИ ВА УНИ ИШЛАБ ҲИҚИШ ТАРТИБИ

- 1.1. Ишлаб чиқариш менежментининг ташкилий - иқтисодий моделини ишлаб чиқиш.....
- 1.2. Ишлаб чиқариш менежменти лойиҳасининг мазмуни.....
- 1.3. Лойиҳалашнинг асосий босқичлари.....

2-боб. ИШЛАБ ЧИҚАРИШ МЕНЕЖМЕНИ ЛОЙИҲАСИНИНГ ТАМОЙИЛЛАРИ

- 2.1. Ишлаб чиқариш менежментини лойиҳалашнинг аҳамияти ва вазифалари.....
- 2.2. Ишлаб чиқариш менежментини лойиҳалаш тамойиллари.....
- 2.3. Ишлаб чиқариш менежменти тузилишини шакллантириш жараёнлари.....

3-боб. БОШҚАРУВНИНГ ТАШКИЛИЙ ТУЗИЛМАСИНИ ЛОЙИҲАЛАШТИРИШ

- 3.1. Ташкилий тузилмаларни лойиҳалаштиришнинг асосий тамойиллари ва усуллари.....
- 3.2. Бошқарувнинг таркибий бўлимларини шакллантириш.....
- 3.3. Таркибий бўлимлар ҳақидаги низомлар ва лавозим йуриқномаларини ишлаб чиқиш.....

4-боб. ИШЛАБ ЧИҚАРИШ МЕНЕЖМЕНТИ КАДРЛАРИ ТАЪМИНОТИНИ ЛОЙИҲАЛАШТИРИШ

- 4.1. Бошқарув аппаратини кадрлар билан таъминлаш тизими.....
- 4.2. Мутахассисларга бўлган талабни аниқлаш усуллари.....

4.3. Раҳбар ходимлар ва мутахассислар фаолиятини баҳолаш ва уларни аттестациядан ўтказишни ташкил қилиш.....

5-боб. ИШЛАБ ЧИҚАРИШ МЕНЕЖМЕНТИНИНГ РЕКЛАМА ВА АХБОРОТ ТАЪМИНОТИНИ ЛОЙИХАЛАШТИРИШ

5.1. Реклама агентлиги ишини ташкил қилиш.....

5.2. Ахборот фонди ва маълумотлар банкини ташкил қилиш.....

5.3. Ахборотни қайта ишлаш жараёнини лойиҳалаштириш.....

6-боб. БОШҚАРУВ ҚАРОРЛАРИНИ АСОСЛАШ, ҚАБУЛ ҚИЛИШ ВА УЛАРИНГ БАЖАРИЛИШINI ТАШКИЛ ЭТИШ ЖАРАЁНИНИ ЛОЙИХАЛАШТИРИШ

6.1. Бошқарув қарорларининг таркибини лойиҳалаштириш.....

6.2. Бошқарув қарорларини асослаш ва қабул қилиш жараёнларини лойиҳалаштириш.....

6.3. Қабул қилинган бошқарув қарорларининг бажарилишини лойиҳалаштириш.....

7-боб. ИШЛАБ ЧИҚАРИШ МЕНЕЖМЕНТИ ҚАРОРЛАРИНИНГ САМАРАДОРЛИГИ

7.1. Бошқаруви тизимининг самарадорлигини белгиловчи мезонлар.....

7.2. Ишлаб чиқариш менежменти қарорларини самарадорлигини баҳолаш.....

7.3. Бошқаруви аппарати ва унинг ташкилий тузилиши самарадорлигини баҳолашда кулланувчи курсаткичлар.....

8-боб. ТОВАРНИ БОЗОРГА ЙўНАЛТИРИШ ЖАРАЁНИНИ ЛОЙИХАЛАШТИРИШ

8.1. Савдо аппаратининг ташкилий тузилмаларини танлаш.....

8.2. Савдо агентларини жалб қилиш, танлаб олиш ва ўқитиб ўргатиш.....

8.3. Савдо агентлари ишининг самарадорлигини баҳолаш.....

9-боб. ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИ ИЛМИЙ - ТЕХНИК БОШҚАРИШНИ ЛОЙИХАЛАШТИРИШ

9.1. Корхонада илмий техник бошқарувнинг мақсад ва вазифалари.....

9.2. Илмий-техник бошқарувни ойиҳалаштиришнинг асосий йўналишлари.....

9.3. Бошқарувнинг техник воситаларига бўлган эҳтиёжни аниқлаш.....

10-боб. ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИ ИЖТИМОЙ БОШҚАРИШНИ ЛОЙИХАЛАШТИРИШ

10.1. Ижтимоий бошқарув.....

- 10.2. Ҳукукий бошқарув.....
- 10.3. Низо ва стрессларни бошқариш.....

11-боб. МЕНЕЖМЕНТ ТАШКИЛОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЛОЙИҲАСИНИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШГА ЖОРИЙ ҚИЛИШ

- 11.1. Лойиҳани жорий қилишнинг асосий босқичлари.....
- 11.2. Лойиҳани жорий қилиш ташкилоти.....
- 11.3. Лойиҳанинг жорий қилинишини назорат қилиш.....

IV БЎЛИМ. ИННОВАЦИОН МЕНЕЖМЕНТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ТИЗИМИДА.

1-боб. Инновацион технологик фаолият инновацион менежмент объекти сифатида.

- 1.1. Инновацион менежмент объекти.....
- 1.2. Инновацион менежмент тушунчаси, мақсади ва вазифалар
тизими.....
- 1.3. Миллий тизим, инновацион фаолиятни халқаро
бошқарилиши.....
- 1.4. Инновацион фаолиятда давлат механизмини
бошқариш.....
- 1.5. Инновацион менежментининг асосий функциялари.....
- 1.6. Инновацион фаолиятни ички режалаштиришнинг мундарижаси ва
вазифалари.....

2-боб. РИВОЖЛАНГАН ҲЕТ ЭЛ ДАВЛАТЛАРИНИНГ БОЗОР ИҚТИСОДИЁТИГА ЎТИШ МОДЕЛЛАРИ.

2.1.Америка	давлатларининг	бозор	иқтисодиётига	ўтиш
моделлари.....				
2.2.Европа	мамлакатларининг	бозор	иқтисодиётига	ўтиш
моделлари.....				
2.3.Осиё	мамлакатларининг	бозор	иқтисодиётига	ўтиш
моделлари.....				

“Ишлаб чиқариш менежменти” фанидан ўқув услубий мажмуа.....

На сегодняшний день в сфере высшего образования проводящая реформы на основании закона «Об образовании» и «Программы подготовки национальных кадров». В частности, в учебный процесс вводится новая педагогическая технология, в которой основной задачей являющаяся обучение студентов самостоятельным мышлением и самостоятельному ведению дела.

Этот процесс требует наряду с другими предметами изучения предмета «Производственный менеджмент» и полного его обновления. Учитывая эти факторы, по данному предмету подготовлен данный учебник. В нём рассмотрены вопросы обеспечения в микро, мезо и макро уровнях современного производства, а также улучшения и совершенствования территориальных производств.

Данный учебник предназначен для студентов экономических специальностей, а также для проведения научных семинаров, тренингов, бесед в учебных заведениях, сфере высшего и среднего образования, в которых готовят специалистов экономики и менеджеров.

Учебник разработан на кафедре «Корпоративное управление» Ташкенцкого Государственного Экономического Университета старшим преподавателем Т.С. Исмаиловой.

Рецензенты:

Турсунходжаев М.Л. – зав. кафедрой «Менеджмент» ТГЭУ, доктор экономических наук, профессор.

Салимов Б.А. – зав. кафедрой «Отраслевая экономика» ТГЭУ, доктор экономических наук, профессор.

Proof-readers: Professor, doctor of economical sciences Salimov B.A.(TSUE) Professor, doctor of economical sciences Tursunkhodjaev M.L. (TSTE)

Ismailova T.S. “The management of production”.- Textbook – Tashkent, TSUE., 2010.

The textbook profoundly states the theoretical, methodological and applied problems of the management of production and its phases, the issues of projection the production and organization according to the experimental and successive basis of the conditions of the development of market economy in the republic of Uzbekistan. This textbook is for the Economics students of the Higher Educational Establishments.

Content:

I Part. The Methodological basis of management of production in the conditions of market economy.

1-chapter. The concept and meaning of the subject of “the management of production”.

1.1. The concept of management of production

1.2. The subject and tasks of the “management of production” in the period of transition to relations

1.3. The meaning of the subject: “The management of production”

1.4. Main educational objects

2-chapter. Production as the means of managing in the conditions of market economy

2.1. The main elements of industrial production

2.2. Marketing as the main element of production in the conditions of market economy

2.3. the issues of the strategy to transfer to market relations

3-Chapter. The methods of developing the management of production

3.1. systematical-situational approach to the development of management of production

3.2. The methods of projection of managing the production

3.3. The process of projecting the management of production

4-Chapter. Evaluating the efficiency of managing the production

4.1. Evaluating the economical efficiency of managing system

4.2. The efficiency of providing the separate organizational events and technical devices of management

4.3. The social efficiency of Management

5-chapter. The modern styles of integration of the companies.

5.1. The function of financial and industrial group

5.2. The function of corporation

5.3. The main features of holding companies and others

II Part. The exploration of the management of production.

1-chapter. The concept and methods of exploration of management of production

1.1. The main methods of exploration of the management of production

1.2. The meaning and tasks of exploration of the management of production

1.3. The analysis of the opportunities of the market

2-chapter. The system of explorations of marketing in the management of production.

2.1. The marketing strategy

2.2. The analysis of sale and the circulation of goods

2.3. Learning the retailing and whole - selling

2.4. The analysis of stimulating the market

3-chapter. The exploration of the organizational structure of management

3.1. The methods of exploration of organizational structure of management

3.2. The purposive approach to the exploration of organizational structure of management

3.3. The ways of developing the management of production

4-chapter. The main ways of developing the management of production

4.1. The strategy of transferring the economy of the Republic to the market relations

4.2. The main tasks of the management of production

4.3. The directions of developing the management of production

5-chapter. The management of production, the analysis of supply of specialists

5.1. The management of production, the concept and tasks of supply of specialists

- 5.2. The analysis of usage of working hours
- 5.3. The management system, the analysis of the supply of specialists
- 5.4. The analysis of the labour conditions of the staff of the managerial body

6-chapter. The analysis of the advertising and informative supply of the management of production.

- 6.1. Advertising. The analysis of advertising supply
 - 6.2. The analysis of informative supply of the managerial system
 - 6.3. The analysis of the currents and massifs of the information
- 7-chapter. Searching the efficient structure of the information system.
- 7.1. The principles of efficient communication
 - 7.2. Internal market of information
 - 7.3. Efficient reserves of the information

8-chapter. Documents and the analysis of the circulation of documents

- 8.1. The methods, purposes and contents of the learning the documents
- 8.2. The analysis of style and meaning of documents
- 8.3. The analysis of the circulation of documents
- 8.4. Learning the organization of the manager-in-chief

9-chapter. The analysis of the processes of proving, adopting and providing the application of the decisions of the management.

- 9.1. The analysis of the composition, concept and types of the decisions of the management
- 9.2. The analysis of proving and adopting the decisions of the management
- 9.3. Proving the decision making, analyzing the adopting and applying processes

10-chapter. The Production, the analysis of scientific and technical management

- 10.1 the analysis of tasks of the chapters of scientific and technical management
- 10.2. the analysis of technical supply of the managerial system
- 10.3. the analysis of the management of the quality of product

11-chapter. The analysis of the social issues of the management of production

- 11.1. the analysis of performance of the tasks of social management
- 11.2. the analysis of socio-psychological methods applied in management
- 11.3. The excellent performance in labour unions, the analysis of the reasons for debates and conflicts

III Part. Projecting the management of production.

1-chapter. The concept of the project of management of production and the its procedure of production

- 1.1. Producing the organizational and economical model of the management of production
- 1.2. The meaning of the project of the management of production
- 1.3. The basic phases of projecting

2-chapter. The principles of the projects of management of production
2.1. The importance and tasks of projecting the management of production
2.2. The principles of projecting the management of production
2.3. The processes of developing the structures of the management of production

3-chapter. Projecting the organizational structure of management
3.1. The main principles and methods of projecting organizational structures
3.2. Developing the internal divisions of management
3.3. charters on internal divisions and creating the registering the positions

4-chapter. The management of production, projecting the supply of specialists
4.1. The system of supplying the managerial body with staff
4.2. The methods of defining the demands on specialists
4.3. Assessing the performance of managing staff and specialists and organizing the certification

5-chapter. The management of production, advertising and projecting the supply of information
5.1. Establishing the job of advertising agency
5.2. Establishing the fund of information and data
5.3. The projection of process of recycling the data

6-chapter. Approval and adoption of the decision of management body, and projecting the process of its application
6.1. Projecting the composition of the decisions of management
6.2. Projecting the processes of approving and adopting the decisions of management
6.3. projecting the application of adopted decisions of management

7-chapter. the efficiency of the decisions of the management of production
7.1. The categories that defines the efficiency of managerial system
7.2. Assessing the efficiency of the decisions of the management of production
7.3. managerial body and the points used to define the efficiency of its organizational structure

8-chapter. Projecting the process of directing the goods to the market
8.1. Choosing the organizational structure of market division
8.2. involving trade agents
8.3. Assessing the efficiency of the work of trade agents

9-chapter. Projecting scientific and technical management
9.1. The purpose and tasks of scientific and technical management in the company
9.2. Main divisions of projecting the scientific and technical management
9.3. Defining the needs of management to the technical devices

10-chapter. Projecting the social management

10.1. Social management

10.2. Legal management

10.3. Management conflict and stresses

11-chapter. Applying the creation of the project of developing the organization of management.

11.1. Main phases of applying the project

11.2. Organization of applying the project

11.3. Controlling the application of project

IV. Bibliography

Кириш

Мамлакатимиз барқарор ва самарали иқтисодий шакллантириш борасида амалга ошириб келинаётган ислохотлар бугунги кунда ўзининг натижаларини намоён этмоқда. Жумладан, қисқа вақт ичида иқтисодийда чуқур таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, аҳоли даромадларининг ўсишини таъминлаш, самарали ташқи савдо ҳамда инвестиция жараёнларини кучайтириш, қишлоқ хўжалигини ислоҳ қилиш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик соҳасини барқарор ривожлантириш, банк-молия тизими фаолиятини мустаҳкамлашда аҳамиятли ютуқлар қўлга киритилди.

Ўзбекистоннинг халқаро иқтисодий майдондаги нуфузи ва мавқеи сезиларли даражада ва мунтазам ошиб бормоқда. Бунда мамлакатимиз раҳбари Илом Каримов томонидан ижтимоий-иқтисодий ривожланиш стратегиясининг пухта ишлаб чиқилганлиги, иқтисодий ислохотлар мақсади ва вазифалари, амалга ошириш йулларининг аниқ ва тўғри кўрсатиб берилганлиги бош мақсад йулидаги ютуқ ва марраларнинг салмоқли бўлишига имкон яратди.

Ҳозирги даврда дунё мамлакатлари ижтимоий-иқтисодий тараққиёти ўзининг маъно-мазмунини жиҳатидан олдинги босқичлардан кэскин фарқ қилади. Бунда энг асосий ва муҳим жиҳат – миллий иқтисодийларнинг тобора интеграциялашуви ва глобаллашувининг кучайиб боришидир. Айни пайтда бу жараёнлар халқаро майдондаги рақобатнинг ҳам кэскинлашувига, ҳар бир мамлакатнинг халқаро меҳнат тақсимоотидаги ўз мавқеини мустаҳкамлаш учун курашининг кучайишига ҳам таъсир кўрсатади.

Бизнинг бугунги асосий вазифамиз жаҳон молиявий – иқтисодий инқирози чуқур тус олган бир шароитда ўтган 2009 йил якунларини танқидий баҳолаш ва шу асосда 2010 йилда мамлакатимизни йуналишларини белгилаб олишдан иборатдир. Шунини таъкидлаш керакки, аввало 2009-2012 йилларга мўлжалланган Инқирозга қарши чоралар дастури самарадорлигини ҳолисона баҳолаш муҳим принципиал аҳамият касб этади.

Бироқ, ўз ўрнида таъкидлаш лозимки, жаҳон иқтисодийига интеграциялашув ва глобаллашувнинг ижобий томонлари билан бир қаторда маълум зиддиятли жиҳатлари ҳам мавжуд. Жумладан, турли мамлакатлардаги иқтисодий ривожланишнинг бир текисда бормаслиги, дунё мамлакатлари ўртасида ижтимоий-иқтисодий ривожланиш жиҳатидан тафовутнинг, экологик таҳдидларнинг кучайиб бориши, турли мамлакатларда аҳоли сони ўзгаришининг кэскин фарқланиши каби

ҳолатлар жаҳон ҳўжалигининг яхлит тизим сифатида барқарор ривожланишига тўсқинлик қилади. Шунингдек, мазкур жараёнларининг яна бир хусусиятли жиҳати – жаҳоннинг бир мамлакатада рўй бераётган ижтимоий-иқтисодий ларзаларнинг муқаррар равишда бошқа мамлакатларга ҳам ўз таъсирини ўтказиши ҳисобланади. Жаҳон ҳамжамияти бугунги кунда бошидан кечираётган молиявий инқироз ҳам айнан шу маънода глобаллашув жараёнларининг салбий оқибати сифатида намоён бўлади.

Шунга кўра, биз мамлакатимиз ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг жорий ва истикболдаги чора-тадбирларини белгилашда жаҳон молиявий инқироzi оқибатларининг таъсирини ҳар томонлама ҳисобга олишимиз, иқтисодий ривожланиш дастурларини ушбу жараёнлар таъсири нуқтаи-назаридан шакллантиришимиз ва уларни изчил амалга оширишимиз тақозо этилади.

Бу борадаги чора - тадбирлар Президентимиз И.Каримовнинг «Жаҳон молиявий-иқтисодий инқироzi, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йуллари ва чоралари» номли асарларида кэнг ва батафсил баён қилиб берилган. Асарда жаҳон молиявий-иқтисодий инқирозининг мазмун-моҳияти, намоён бўлиш шакллари, келиб чиқиш сабаблари, унинг Ўзбекистон иқтисодиётига таъсири, мазкур инқироз оқибатларини олдини олиш ва юмшатишга асос бўлган омиллар баён қилиб берилган.

Шунингдек, мамлакатимиз меҳнаткашлари учун гоят мураккаб ва огир бўлишига қарамай 2009 йилда эришилган ижобий натижа ва ютуқлар баҳоланиб, республикаимиздаги иқтисодий салоҳиятдан янада кэнгроқ фойдаланиш имкониятлари кўрсатиб берилган.□ Бу ўзгаришлар жараенида миллий иқтисодиётнинг асоси бўлган ишлаб чиқариш менежментининг аҳамияти янада ошиб бормоқда.

Ишлаб чиқариш менежменти Ўзбекистон иқтисодиётини барқарор ва мутаносиб ривожлантириш, жаҳон бозорларида мустаҳкам ўрин эгаллаш, шулар асосида изчил иқтисодий ўсишни таъминлаш, халқимизнинг ҳаёт даражаси ва фаровонлигини янада ошириш борасидаги вазифаларни тўлиқ ва самарали амалга ошириш энг аввало жамиятимиз аъзолари томонидан уларнинг мазмун-моҳиятини теран ва чуқур англаб этилишини тақозо этади. 2009 йилга мўлжалланган иқтисодий дастўрнинг энг муҳим йуналишларини билиш мақсадида мазкур махсус курснинг жорий етилганлиги муҳим аҳамият касб этади.

Олий таълим тизимида “Ишлаб чиқариш менежменти“ фанидан мазкур дарслик “Менежмент” (тармоқлараро) таълим йуналиши талабалари учун мўлжалланган.

Талабаларга мазкур фан хусусиятлари доирасида Президент И.Каримовнинг "Жаҳон молиявий -иқтисодий инқироzi, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йуллари ва чоралари" номли асарида келтирилган материаллар, қоидалар ва хулосаларни пухта ўзлаштиришлари, келгуси фаолиятида самарали фойдаланишлари ҳамда ижодий ёндашишларини таъминлаш фанни ўрганиш олдида турган асосий вазифалардан биридир.

Дарсликда баён етилган фикр - мулоҳазалар, илгари сурилган муаммолар ва уларни ҳал этиш йулларини талабаларга янада кэнгроқ ва чуқурроқ тушунтириш мақсадида, Ўзбекистон Республика Президенти асарларидан, Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси, Иқтисодиёт вазирлиги, Қишлоқ ва сув ҳўжалиги вазирлиги,

Марказий банки ва бошқа қатор вазирлик ва идораларнинг маълумотларидан кэнг фойдаланилган.

I БЎЛИМ. БОЗОР ИҚТИСОДИЁТИ ШАРОИТЛАРИДА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ МЕНЕЖМЕНТИ ТАШКИЛОТИНИНГ УСУЛОЛОГИК АСОСЛАРИ

1-боб. “ИШЛАБ ЧИҚАРИШ МЕНЕЖМЕНТИ” ФАНИНИНГ МОҲИЯТИ ВА МАЗМУНИ

- 1.1. Ишлаб чиқариш менежментининг моҳияти.
- 1.2. “Ишлаб чиқариш менежменти” фанининг мазмуни.
- 1.3. Жаҳон молиявий инқироз шароитларида “Ишлаб чиқариш менежменти” фанининг ўрганиш зарурати.
- 1.4. Асосий ўрганиш объектлари.

Мавзунинг мақсади - Жаҳон молиявий инқироз шароитларида “Ишлаб чиқариш менежменти” курсининг мазмуни ва вазифаларини ўзлаштириш, талабаларга менежментни ташкил қилиш ва лойиҳалаштириш борасида маълум билимлар беришдан иборат.

1.1. Ишлаб чиқариш менежментининг моҳияти

Тадбиркорлик фаолиятини бошлашдан олдин қайси ишни, қандай амалга ошириш кераклиги ва бу қанчага тушишини билиш керак.

Ишлаб чиқариш жараёнини бошлашдан олдин унинг технологиясини ишлаб чиқиш, сарф-харажатлар нормаларини белгилаш, кадрларни жой-жойига қўйиш тартибини пухта ўйлаб кўриш ва ҳ.к. талаб этилади.

Бевосита моддий ишлаб чиқариш соҳасида меҳнат предмети бўлиб хом ашё ва материаллар, меҳнат қуроллари бўлиб-асбоб-ускуналар, бунинг натижаси бўлиб эсатайёр маҳсулот ҳисобланади.

Ишлаб чиқариш менежменти соҳасида меҳнат предмети бўлиб ахборот ҳисобланади; бошқарув ишининг объекти бўлиб одамлар, меҳнат жамоаси ва ишлаб чиқариш жараёнида юзага келадиган муносабатлар қатнашади; бошқарув ишининг натижаси бўлиб эса бошқарув қарорларини тайёрлаш учун зарур маълумотлар ва бошқарув қарорларининг ўзи ҳисобланади.

Ишлаб чиқариш менежменти-мураккаб кўп бўғинли тизим ҳисобланади. Менежментнинг тизимлилиги кадрлар, бошқарув органлари тузилмаси, бошқарув усуллари ва жараёнларининг уйғун бирлигида, маркетингда, турли бошқарув бўғинлари фаолиятининг ўзаро боғлиқлигида, бошқарув функцияларининг уйғун бирлиги ва қабул қилинадиган қарорларнинг хусусиятида, ишлаб чиқариш менежменти техник-ишлаб чиқариш, иқтисодий, ижтимоий, ҳуқуқий таъминотининг ўзаро боғлиқлигида намоён бўлади.

Юқорида санаб ўтилганларнинг ҳаммасини ташкил қилиш лозим. Бу ишлаб чиқариш менежменти ташкилотининг моҳиятини белгилайди. Менежмент ташкилотининг моҳияти қуйидаги аспектларда намоён бўлади:

а) бошқарув жараёнларини ташкил қилиш, яъни бошқарув функциялари, тузилмаси, усуллари ва жараёнлари, ахборот оқимлари: маълумотларни қайта ишлаш ва узатиш, бошқарув қарорларини асослаш тамойиллари ва уларни бажаришни ташкил қилиш жараёнларини тартибга солиш; ташкилий ва ҳисоблаш техникаси таркибини танлаш ва ҳ.к.;

б) бошқарув тизими ва бошқарилувчи тизим, топшириқлар ва уларнинг бажарилишини назорат қилиш, бошқарилувчи объектларнинг фаолиятини таҳлил қилиш ва баҳолаш тизими, яхши натижаларга эришишни рағбатлантириш шакллари раціонал уйғунлигини таъминлаш ва ҳ.к.;

в) бошқарувнинг турли тизимлари ўртасида меҳнатнинг иерархик тақсимооти шакллари белгилаш, ишлаб чиқариш ва бозор уйғунлиги, давлат, жамоа, хусусий, соҳавий ва ҳудудий бошқарув уйғунлиги ва ҳ.к.

Ишлаб чиқариш менежментининг асоси бўлиб бошқарув жараёни ҳисобланади. Жараён-бирон-бир бўғин доирасида ёки бўғинлар ўртасида кечиши мумкин бўлган ҳаракатдан иборат.

Бошқарув тизимларида ҳар хил ишларни бажарувчи турли ташкилий бўлимлар бўлиб, уларнинг уйғунлиги менежмент ташкилотининг моҳиятини ташкил қилади. Бошқача айтганда, бошқарув ишларининг барча турлари, бошқарув объектининг бутун фаолиятини илмий асосда ташкил қилиши лозим. Менежмент ташкилоти бошқарув ва ишлаб чиқаришнинг самарадорлигига жиддий таъсир кўрсатади.

Ишлаб чиқариш менежментининг илм-фан ютуқларига асосланиб ташкил қилиш самарали бошқарув қарорларини қабул қилиш ва уларни ўз вақтида бажариш; бозор муносабатларига ўтиш тажрибасини аниқлаш ва тарқатиш; бозор муносабатлари шароитида муваффақиятли фаолият кўрсатиш; ишлаб чиқариш, тақсимлаш ва истеъмол қилишда зарар кўрилишининг олдини олиш; бошқарув жараёнида меҳнатни тежашга имконият яратади ва ҳ.к.

1.2. “Ишлаб чиқариш менежменти” фанининг мазмуни

“Ишлаб чиқариш менежменти” фанининг мазмуни уч асосий бўлимга ажратилган:

1. Бозор иқтисодиёти шароитларида ишлаб чиқариш менежментини ташкил этишнинг усулологик асослари.

2. Ишлаб чиқариш менежментини ташкил этишни тадқиқ қилиш.

3. Ишлаб чиқариш менежментини ташкил этишни лойиҳалаштириш.

Биринчи бўлимда бозор шароитларида ишлаб чиқаришга бошқарув объекти сифатида тавсиф берилади, фаннинг моҳияти ва мазмуни, бозор иқтисодиёти шароитларида бошқарув органлари тизими, менежментни ташкил этишни янада такомиллаштиришнинг асосий усуллари кўриб чиқилади. Бу бўлимда шунингдек ишлаб чиқариш менежменти ташкилотини лойиҳалаштириш ва уни такомиллаштиришнинг самарадорлигини баҳолашнинг асосий усуллари ҳам берилади.

Иккинчи бўлимда иқтисодий тадқиқотлар ва ишловларни ўтказишнинг моҳияти билан боғлиқ масалалар кўриб чиқилади.

Иқтисодий тадқиқотларнинг назарий қоидалари ёритилади ва бошқарувнинг ташкилий тузилмаларини таҳлил қилиш бўйича амалий тавсиялар берилади, бошқарув аппарати ходимларининг ишини ташкил қилиш, бошқарув жараёнларини реклама ва ахборот билан таъминлаш масалалари кўриб чиқилади, товарларнинг бозорда сотилишини таҳлил қилиш, бошқарув қарорларини асослаш, қабул қилиш ва уларнинг бажарилишини ташкил этиш масалаларига эътибор берилади.

Учинчи бўлим ишлаб чиқариш менежментини ташкил этишни лойиҳалаштиришга бағишланади. Бу бўлимда бозор иқтисодиёти шароитларида

ишлаб чиқариш менежментини ташки этиш лойиҳасини ишлаб чиқиш тартиби ва унинг мазмуни, бошқарувни ахборот, реклама ва кадрлар билан таъминлашни лойиҳалаштириш масалалари ўрганилади.


Бу ерда шунингдек, бошқарув қарорларини асослаш, қабул қилиш ва уларнинг бажарилишини ташкил этиш, товарни бозорга йуналтириш масалалари кўриб чиқилади. Бўлим охирида ишлаб чиқариш менежментини такомиллаштириш лойиҳаларини ишлаб чиқаришга жорий қилиш масалалари кўриб чиқилади.

Бу фанни ўрганиш маърузалар ва амалий машғулотларда назарий материаллар билан ишлаш, ишлаб чиқариш амалиётини ўташ даврида илмий тадқиқотлар ва ишловлар ўтказиш, курс ва диплом ишларини ёзишни ўз ичига олади.

Фан бўлимларининг бош мақсади - менежментда қарорлар қабул қилиш ва уларни амалга оширишдаги ўзаро боғлиқлик ва алоқалар билан яхлитликда тушунишни таъминлайдиган қилиб жойлаштирилган ва шу тартибда ўқитилади.


Менежментни такомиллаштиришда тизимли-вазиятли ёндашув зарурлиги барча маърузаларда қайд этилади. Раҳбар бошқарув объектига мураккаб ижтимоий-иқтисодий тизим сифатида қараши, ички ва ташқи омилларнинг таъсирини, ҳар қандай қарор бошқарув ташкил қилишнинг барча жабхаларда қандайдир таъсир кўрсатишини ҳисобга олиши лозим.

“Ишлаб чиқариш менежменти” фанининг бошқа иқтисодий фанлар билан боғлиқлиги.




Иқтисодиёт назариясининг ривожланиш босқичларида ишлаб чиқариш менежментининг шаклланиш

Аристотел Ксенофонт	Қадимги дунё иқтисодий фикрлари
↓	
Дж. Локк, У. Петти, Р. Кантлон	Меркантилизм XV – XVII асрлар
↓	
П.Л.Буагилбер, Ф.Кене, А.Р.Ж.Тюрго	Физиократлар XVII - XVIII асрлар



Иқтисодий тизим

Иқтисодий тизим ишлаб чиқариш кучларининг ривожланиш даражаси билан туркумланади. Дунёдаги ривожланган мамлакатлар иқтисодий тизимнинг уч кўринишда киритадилар.



1.3. Жаҳон молиявий инқироз шароитларида “Ишлаб чиқариш менежменти” фанининг ўрганиш зарурати.

Бошқарув фани ривожланиб, инсон фаолиятининг йирик ва мураккаб мустақил соҳасига айланди. Унда жуда кўп киши банд бўлиб, улар меҳнат жамоаларига изчил таъсир кўрсатадилар, яъни улар бошқа кишиларни бошқарадилар, меҳнат

жамоаларининг ишини ташкил қиладилар.

Бошқарувчи-менежер ишининг муваффақияти ва самарадорлиги кўп жиҳатдан менежмент ташкилотининг савияси билан белгиланади.

Масалан, цех бошлиғи ишининг муваффақияти ва самарадорлиги ташкилот ва меҳнатга ҳақ тўлаш, ташкилот ва иш жойларига хизмат кўрсатиш, шунингдек, цех бошлиғининг қўл остидагилар билан муомала қила билиши, раҳбарлар билан ўзаро муносабатлари, бошқарув қарорларини ўз вақтида қабул қила олишига боғлиқ бўлади.

Бошқарув назарияси (менежмент асослари)дан маълумки, ишлаб чиқариш бошқаруви фанининг предмети, ишлаб чиқариш жараёнида кишилар ўртасида вужудга келувчи бошқарув муносабатлари ҳисобланади. Бошқарув муносабатлари бошқарувчи ва бошқарилувчи тизимлар ўртасида, яъни бошқарув аппарати ходимлари ва ишлаб чиқариш жамоаси ўртасида ўзаро ҳамкорлик ва алоқаларнинг мураккаб мажмуини ташкил қилади.

Бинобарин, ишлаб чиқариш менежменти ташкилоти бошқарувчи ва бошқарилувчи тизимлар, бошлиқ ва унинг қўл остидагилар ўртасида ишлаб чиқариш маҳсулдорлигининг мунтазам ошиб боришига имконият яратадиган муносабатлар, ўзаро ҳамкорлик ва алоқалар, бошқарув техникаси ва технологияси, меҳнатни ташкил қилишнинг тузилма ва шакллари ишлаб чиқиши лозим.

“Ишлаб чиқариш менежменти” фанининг мақсади бошқарувнинг барча функциялари ўзаро келишиб фаолият кўрсатишини таъминлашдан иборат. Ишлаб чиқариш менежментининг асосий вазифаси эса унумли меҳнат учун қулай шарт-шароитлар яратиш, шу билан бир вақтда бошқарув жараёни билан боғлиқ сарф-харажатларни қисқартириш ва бошқарув ходимларига нормал иш шароитларини яратиб бэриш ҳисобланади.

Оддий қилиб айтганда, ишлаб чиқариш менежментининг вазифаси бошқарув тизимининг ҳар бир бўғини, бошқарув аппаратининг ҳар бир ходими зарур ваколатларга эга бўлиб, уларнинг доирасида ишлаб чиқаришни бошқаришнинг бутун жавобгарлигини ўз зиммасига олишини таъминлашдан иборатдир. Бошқарув аппарати ходимларининг иши шундай ташкил қилиниши керакки, ҳар бир ходим ўз иши билан шуғулланиши лозим. Турмушнинг бу оддий қоидаси бир вақтнинг ўзида ишлаб чиқариш менежментининг асосий тамойили ҳисобланади.

Бозор иқтисодиёти тўхтаб қолишларни ёқтирмайди ва сусткашликларни кечирмайди. У ишлаб чиқаришнинг юқори суръати ва бошқарувнинг мутлақо янги усуларини буюради. Бироқ, бутун кишилик тарихида инсоният бошқарув усуллари, яъни кишиларга таъсир кўрсатиш усуллариининг бир-биридан жиддий фарқ қилувч уч гуруҳини ишлаб чиққанлигини назарда тутиш лозим.

Усулларнинг биринчи гуруҳи - иерархия бўлиб, унда асосий таъсир кўрсатиш воситаси раҳбар-ходим муносабатлари, кишига юқоридан туриб, мажбурлов ёрдамида таъсир қилиш (маъмурий усуллар) ҳисобланади.

Иккинчи гуруҳ - бозор, яъни маҳсулот ва хизматлар олди-сотдиси, мулкый муносабатлар, сотувчи ва харидорнинг иқтисодий ва моддий манфаатларига асосланган тенг ҳуқуқли горизонтал муносабатлар тизими (иқтисодий усуллар).

Учинчи гуруҳ-маданият, хулқ -атвор намуналари, яъни жамият, ташкилот томонидан ишлаб чиқиладиган ва тан олинадиган, хулқ атворини узгартиришига мажбур қиладиган қонун-қоидалар, кадриятлар, ижтимоий нормалар, хулқ-атвор андозалари, удумлар.

Иерархия, бозор ва маданият мураккаб ҳодисалар эканлигини тушуниб этиш муҳимдир. Жонли, реал ҳўжалик тизимлари ва ижтимоий тизимларда улар деярли ҳар доим мавжуд бўлади. Гап фақат уларнинг қайси бирини танлаш ва устун қўйиш ҳақида боради.

Бозор мустақил ҳуқуқий давлат маҳсули ва ҳўжалик воқелиги сифатида бошқарувнинг асосий воситасига айланиб бормоқда. Айнан у жамиятнинг ҳўжалик юритиш тартиби моҳиятини белгиламоқда.

Иерархия ҳеч қачон ўлмайди ва бузилмайди. У иккинчи планга чекинади, пастга-рақобатлашувчи корхона ва ташкилотлар поғонасига тушади ва унинг фойдалилиги бу ерда яна узоқ вақт сақланиб қолади. Корхоналарда бошқарувнинг бюрократик, механик тузилма ва тизимлари янада уйғунроқ, мослашувчанроқ, бюрократия таъсири нисбатан кам бўлган тузилма ва тизимларга ўрин бушатади.

Шу билан бир вақтда жамиятда, бизнинг иқтисодий, бошқарувга оид тафаккуримизда, психолгияда улкан маданий ўзгаришлар рўй бэриши лозим. Раҳбарлар ва меҳнаткашларнинг онгини бошлиққа эмас, истеъмолчига, исрофгарчиликка эмас, фойда олишга, бюрократга эмас, тадбиркорга, мулоҳазасиз ижрочига эмас, новаторга қаратиш зарур.

Бу соҳада жиддий олға ташлаш талаб этилади, чунки халқаро бизнес кўпчилик учун янги иш ҳисобланади. Ташқи иқтисодий фаолиятда иштирок этаётган қўшма корхоналар сони йилдан йилга ортиб бормоқда ва уларнинг барча ходимларини қисқа вақт ичида ўқитиб ўргатишнинг иложи йуқ. Шунга қарамай, бу муаммони ҳал қилишнинг қисқа йулларини қидириш ижодий фикрловчи кишиларнинг вазифаси ҳисобланади. Дунё жадал суръатларда ўзгариб бораётганига шубҳа йуқ. Яшаб қолиш учун биз ҳам ўзгаришимиз лозим.

Бугунги куннинг энг асосий вазифаси – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. Нуфузли халқаро экспертлар ва иқтисодчиларнинг таҳлил ва хулосаларига кўра, жаҳон молиявий инқирознинг дунё мамлакатлари иқтисодиётига огир таъсири тобора пасайиб боради ва 2010 йилда жаҳон иқтисодиётининг аста – секин ўсиши кутилади. □

2009 йилда глобал иқтисодиётнинг ўсиши тахминан 1 фоизга қисқарган бўлса, жорий йилда дунёда иқтисодий ривожланиш 3 фоиз атрофида ошиши мумкин, бу эса инқирозгача бўлган даврдаги кўрсаткичлардан анча пастдир.

2010 йилда ижтимоий – иқтисодий ривожланишнинг энг муҳим мақсади ва асосий устувор вазифаси – бу ислохотларни давом эттириш ва чуқурлаштириш, мамлакатимизни янгилаш ва модернизация қилиш, 2009 – 2012 йилларга мўлжалланган Инқирозга қарши чоралар дастурини сўзсиз бажариш ва шу асосда иқтисодий ривожланишнинг юқори ва барқарор суръатларини, самарадорлигини ҳамда макроиқтисодий мувозанатни таъминлашдан иборатдир. □

Биринчидан, молия-банк тизимидаги инқироз жараёнлари деярли бутун дунёни

қамраб олаётгани, ресессия ва иқтисодий пасайишнинг муқаррарлиги, инвестициявий фаоллик кўламининг чекланиши, талаб ва халқаро савдо ҳажмининг камайиши, шунингдек, жаҳоннинг кўплаб мамлакатларига таъсир кўрсатадиган жиддий ижтимоий талафотлар содир бўлиши мумкинлиги ўз тасдиғини топмоқда.

Иккинчидан, авж олиб бораётган глобал молиявий инқироз жаҳон молия-банк тизимида жиддий нуқсонлар мавжудлиги ва ушбу тизимни тубдан ислоҳ қилиш зарурлигини кўрсатди. Айни вақтда бу инқироз асосан ўз корпоратив манфаатларини кўзлаб иш юритиб келган, кредит ва қимматбаҳо қоғозлар бозорларида турли спекулятив амалиётларга берилиб кэтган банклар фаолияти устидан етарли даражада назорат йуклигини ҳам тасдиқлади.

Учинчидан, молиявий-иқтисодий инқирознинг ҳар қайси давлатдаги миқёси, кўлами ва оқибатлари қандай бўлиши кўп жиҳатдан бир қанча омиллардан келиб чиқади. Яъни, бу аввало, ана шу давлатнинг молия-валюта тизими нечоғлиқ мустаҳкам эканига, миллий кредит институтларининг қай даражада капиталлашуви ва ликвидлиги (тўлов имконига), уларнинг чет ел ва корпоратив банк тузилмаларига қанчалик қарам эканига, шунингдек, олтин-валюта захирасининг ҳажми, хорижий кредитларни қайтариш қобилияти ва пировард натижада — мамлакат иқтисодиётининг барқарорлик, диверсификасия ва рақобатга бардошлик даражасига боғлиқ.

Тўртинчидан, жаҳон молиявий инқирозидан имкон қадар тез чиқиш, унинг оқибатларини енгиллаштириш кўп жиҳатдан ҳар қайси давлат доирасида ва умуман, дунё ҳамжамияти миқёсида қабул қилинаётган чора-тадбирларнинг қанчалик самарадорлигига, уларнинг бир-бири билан уйғунлигига боғлиқ.

2008 йил ноябр ойида Вашингтонда, жаҳон ялпи маҳсулотининг 85 фоизини ишлаб чиқарадиган 20 та йирик давлат иштирокида бўлиб ўтган саммит глобал молиявий инқирознинг кўлами тобора кэнгайиб бораётганини тасдиқлади.

Жаҳон молиявий инқирозининг ҳар бир мамлакатга таъсири, ундан кўриладиган зарарнинг даражаси ва кўлами биринчи навбатда шу давлатнинг молиявий-иқтисодий ва банк тизимларининг нечоғлиқ барқарор ва ишончли эканига, уларнинг ҳимоя механизмлари қанчалик кучли эканига боғлиқлигини исботлашга ҳожат йуқ. Маъмурий-буйруқбозлик тизимидан бошқарувнинг бозор тизимига ўтиш жараёнида тадрижий ёндашувни, "Янги уй қурмасдан туриб, эскисини бузманг" деган ҳаётий тамойилга таянган ҳолда, ислохотларни изчил ва босқичма-босқич амалга ошириш йулини танладик. Мамлакатимизнинг узоқ ва давомли манфаатлари тақозо этган ҳолатларда ва кэскин вазиятлардан чиқиш, улар туғдирадиган муаммоларни ҳал этиш зарур бўлганда иқтисодиётда давлат томонидан бошқарув усуллари қўлланди ва бундай ёндашув охир-оқибатда ўзини тўла оқлади.

Шу ўринда Ўзбекистонда молиявий-иқтисодий, бюджет, банк-кредит тизими, шунингдек, иқтисодиётнинг реал сектори корхоналари ва тармоқларининг барқарор ҳамда узлуксиз ишлашини таъминлаш учун етарли даражада мустаҳкам захиралар яратилганини ва зарур ресурслар базаси мавжуд эканини таъкидлаш жоиз.

Ҳеч кимга сир эмаски, бугун кэнг кўламда тарқалиб бораётган жаҳон молиявий инқирозининг асосий сабабларидан бири — бу банклар ликвидлиги, яъни тўлов қобилиятининг заифлиги билан боғлиқ муаммонинг кэскинлашуви, кредит

бозоридаги танглик, содда қилиб айтганда, пул маблағларининг этишмаслиги билан изоҳланади. □

Шуни айтиш керакки, кўплаб давлатларнинг ташқи қарз масаласидаги пухта ўйланмаган сиёсати уларнинг иқтисодиётини заиф, ташқи омилларга қарам, хатарли вазиятлар олдида ҳимоясиз ва ночор аҳволга солиб қўйганини кўриш, кузатиш қийин эмас.

Ўзбекистон ўзининг мустақил тараққиёти даврида қисқа муддатли спекулятив кредитлардан воз кечиб, чет ел инвестицияларини узоқ муддатли ва имтиёзли фоиз ставкалари бўйича жалб этиш тамойилига доимо амал қилиб келмоқда.

Ўзбекистон ўзининг ишончли ва тўлов қобилиятига эга ҳамкор эканини, мамлакатимизда чет ел сармоясини жалб этиш бўйича ҳар томонлама қулай шарт-шароитлар яратилганини амалда исботламоқда.

Ўзбекистон бугун халқаро ҳамжамиятнинг ва глобал молиявий-иқтисодий бозорнинг ажралмас таркибий қисми ҳисобланади.

Бунинг тасдиғини ташқи дунё билан алоқаларимиз тобора кэнгайиб бораётганида, тараққий топган етакчи давлатлар кўмагида иқтисодиёт тармоқларини ривожлантириш, модернизасия қилиш, техник ва технологик қайта жиҳозлаш бўйича дастурларнинг амалга оширилаётганида, Ўзбекистоннинг халқаро савдо тизимида интеграсиялашувида, маҳсулот ва товарлар импорти ва экспортининг ўсиб боришида ва бошқа мисолларда яққол кўришимиз мумкин. □

Бу ўзгаришлар жараенида миллий иқтисодиётнинг асоси бўлган ишлаб чиқариш менежментининг аҳамияти янада ошиб бормоқда.

Ишлаб чиқариш менежменти Ўзбекистон иқтисодиётини барқарор ва мутаносиб ривожлантириш, жаҳон бозорларида мустаҳкам ўрин эгаллаш, шулар асосида изчил иқтисодий ўсишни таъминлаш, халқимизнинг ҳаёт даражаси ва фаровонлигини янада ошириш борасидаги вазифаларни тўлиқ ва самарали амалга ошириш энг аввало жамиятимиз аъзолари томонидан уларнинг мазмун-моҳиятини теран ва чуқур англаб этилишини тақозо этади.

2009 -2012 йилларга мўлжалланган Инқирозга қарши дастўрнинг энг муҳим йуналишларини билиш мақсадида мазкур махсус курснинг жорий етилганлиги муҳим аҳамият касб этади. Табиийки, “Ишлаб чиқариш менежменти” фанининг бугунги кунда ўрганиш, юқорида келтирилган мисол ва рақамлардан иқтисодиётимизнинг ривожланиши ва самарадорлик ҳолатларига жаҳон молиявий-иқтисодий инқироzi таъсирини камайитириш ва унинг оқибатларини бартараф этиш учун ҳамда кейинги давр мобайнида мамлакатимиз ҳудудларида иқтисодий ва молиявий салоҳиятнинг пухта пойдеворини, молия-банк тизимининг ишончли бошқарув механизмларини ўз вақтида шакллантириб ва мустаҳкамлаб олиш учун зарурдир.

1.4. Асосий ўрганиш объектлари

“Ишлаб чиқариш менежменти” курсининг ўрганишнинг асосий объектлари: ишлаб чиқаришнинг техник тайёргарлиги бошқаруви, ишлаб чиқаришнинг технологик тайёргарлиги бошқаруви, моддий-техник таъминот бошқаруви, маркетинг бошқаруви, маҳсулот сифати бошқаруви, жамоанинг ижтимоий ривожланиши бошқаруви бошқаруви функциялари ҳисобланади.

Бундай ёндашув “Ишлаб чиқариш менежменти” фанини бошқарув қарорларини асослаш, қабул қилиш ва уларнинг бажарилишини ташкил этишнинг амалий воситасига, бошқарув технологияси ва жараёнларини такомиллаштириш негизига, ҳар бир раҳбар, мутахассис ва бевосита ижрочи фаолиятининг ажралмас қисмига айлантиради.

Бозор муносабатлари шароитида ишлаб чиқариш менежменти ташкилоти бошқарилувчи объектни стратегик ривожлантириш соҳасида самарали қарорларни асослашнинг асосий воситасига айланиши, истиқболли йуналишга эга бўлиши лозим. Ишлаб чиқариш менежментининг истиқболли йуналиши бошқарилувчи объектни тадқиқ қилишнинг янги йуналишларини шакллантириш заруратини белгилайди.

Биринчидан, корхонани ривожлантириш истиқболи, унинг ички алоқалари тадқиқот ва таҳлил объектига айланади.

Иккинчидан, корхонанинг бошқа корхоналар билан алоқалари такомиллаштирилади. Халқаро алоқаларнинг тез ривожланиши ва корхоналарнинг жаҳон бозорига чиқиши билан жаҳон ҳўжалигидаги ютуқлар ишлаб чиқариш менежментини ташкил қилишнинг энг амалий еталонига айланади.

Ишлаб чиқариш менежментини ташкил қилиш фан сифатида “Корхонанинг муваффақияти ва бошқа корхоналарнинг ёмон аҳволда эканлиги, паст рентабеллиги нима билан белгиланади?” ёки “Корхонанинг муваффақиятини таъминлаш учун раҳбар нима қилиши мумкин?”, деган саволларга жавоб бериши лозим. Бу саволларга осон жавоблар мавжуд эмас, аммо бу муваффақиятни умуман тушунтириб бўлмайди, унга эришишнинг ишончли усул ва йуллари йуқ деган маънони англатмайди. Бунинг ўз самарадорлигини исботлаган жуда кўп усуллари ва йуллари мавжуд. Оддий жавоблар йуқлиги эса барча замонларда, барча одамлар ва вазиятлар учун бир хилда яроқли усул ва йулар мавжуд эмаслигидан далолат беради. Бу, шунингдек, ўтмишда муваффақиятли бўлган усул келажакда мутлақо самарасиз бўлиб чиқиши мумкинлигини ҳам англатади.

Республикада турли мулкчилик шакллари (давлат, жамоа, хусусий, аралаш) қарор топди, бозор муносабатлари ривожлантирилмоқда, корхоналарни давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш давом этмоқда.

Бозор иқтисодиёти шароитида маҳсулот ишлаб чиқарувчи бозор конъюнктураси, ахборотлар ва нарх-наво ҳаракатини ўрганиш асосида товар ва хизматлар бозоридан ресурслар сотиб олиш йули билан ўз ишлаб чиқаришининг моддий-техник таъминотини ташкил қилади.

Товар ва хизматлар бозоридан ресурслар бевосита ишлаб чиқарувчилардан ёки ярмаркалардан, аукционлардан улгуржи равишда сотиб олади. Бу эса бозор шароитларида ишлаб чиқаришнинг муҳим элементи ҳисобланган маркетингни чуқур билишни талаб этади.

Хулосалар

Жамиятда ва иқтисодиётда рўй бераётган ўзгаришлар одамларнинг тафаккурида ҳам ўзгариш яшашни талаб қилади.

Янги билимлар: маркетинг, менежмент, бозор назариясини ва бошқа билимларни эгаллаш зарур.

Менежментнинг вазифаси ишлаб чиқаришни самарали бошқариш учун зарур бўлган изчил ҳаракатлар назарияси ва тамойилларини ишлаб чиқишдан иборат.

Ишлаб чиқариш менежментининг ўрганиш предмети бошқарувчи тизим билан бошқарилувчи тизим ўртасидаги муносабатлар ҳисобланади.

“Ишлаб чиқариш менежменти” фанининг мазмуни менежментнинг методологик асосларини, ишлаб чиқариш менежментини тадқиқ қилиш ва лойиҳалаштиришни ўз ичига олади.

Ўз-ўзини текшириш учун саволлар

1. Менежер қандай билимларга эга бўлиши зарур?
2. Ишлаб чиқариш менежменти тўғрисида нималар дея оласиз?
3. Ишлаб чиқариш менежментининг мақсади ва асосий вазифалари нимадан иборат?
4. Бошқарув муносабатларини сиз қандай тушунасиз?
5. “Ишлаб чиқариш менежменти” фанининг мазмунини гапириб беринг.
6. Менежмент тамойиллари нималардан иборат.
7. Ишлаб чиқариш менежменти фанининг мазмуни.
8. Маркетинг тизимини тадқиқ қилиш йуллари.
9. И.А.Каримов ишлаб чиқариш инфратузилма тизими ривожига қандай баҳо бердилар?
10. “Ишлаб чиқариш менежменти” фанини ўрганиш зарурати нимада?
11. “Ишлаб чиқариш менежменти” фанининг бошқа фанлар билан боғлиқлиги?

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. “Ўзбекистон”, Т., 2008.
2. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанамиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. Халқ сўзи, 30 январ, 2010.
3. Каримов И.А. Мамлакатимизни модернизация қилиш ва янгилашни изчил давом эттириш - давр талаби. Т., 2009, 22 б.
4. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йуллари ва чоралари. Т., 2009, 56 б.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг “Жаҳон молиявий – иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг асосий йуллари ва чоралари” номли асарини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. Тузувчилар: Б.ЙУ.Ходиев, А.Ш.Бекмуродов, У.В.Ғофуров, Б.К.Тўхлиев. – Т.: Иқтисодиёт, 2009.- 120 б.
6. Каримов И.А. Эришган марраларимизни мустахкамлаб ислохотлар йулидан изчил бориш асосий вазифамиз. Тошкент оқшоми., 24-сон. 10 феврал, 2004.
7. Каримов И.А. Биз учун халқимиз, ватанамиз манфаатидан улуг мақсад йук. Т., Ўзбекисто, 2001

8. Зайнутдинов Ш.Н. ва бошқалар. Менежмент асослари. –Т: Молия, 2001.
9. Шарифхўжаев М., Абдуллаев Ё. Менежмент. –Т: Ўқитувчи, 2002.
10. Казанцева А.К. Основы производственного менеджмента. –М: Серия “В”, 2008.
11. Козловский В.А. Производственный менеджмент. Учебник: М, 2008.
12. Новицкий Н.И. Организация производства на предприятиях: Уч.усл. пособие – М: Финанси статистика, 2008.
13. Фатхутдинов Р.А. Производственный менеджмент -М, 2008.
14. Букин С.О. Основы менеджмента в вопросах и ответах –М, 2008.
15. Парахина В.Н. Теория организации -М, 2008.
16. Лафта Дж. К. Теория организации -М, 2008.
17. Смирнов Э.А. Теория организации -М, 2008.
18. Туровец О.Г., Родионова В.Н. Теория организации -М, 2008.
19. www.cer.uz Vse o menedjmente.

2. БОБ. ИШЛАБ ЧИҚАРИШ МЕНЕЖМЕНТНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИ.

- 2.1. Ишлаб чиқариш менежментини ўрганишга тарихий ёндашув.
- 2.2. Бошқарув тафаккурини капитализмнинг илк даврига ва ўша давридаги ривожланиши.
- 2.3. Ишлаб чиқариш менежменти пайдо бўлиш эволюцияси.
- 2.4. Бошқарувнинг замонавий муаммолари.

Мавзунинг мақсади – ишлаб чиқариш менежментини ўрганишда тарихий ёндашув ва ривожланишини кўриб чиқиш, ишлаб чиқариш менежменти пайдо бўлиш эволюциясини ва замонавий муаммоларини ўрганишдан иборат.

2.1. Ишлаб чиқариш менежментини ўрганишга тарихий ёндашув.

Бошқарувнинг фаолияти сифатлилиги манбалари иқтисоднинг равиши билан ҳамбарчас боғлиқдир ва узоқ ўтилишда пайдо бўлган, лекин ишлаб чиқариш менежментининг илм сифатли юзага келиши капитализмнинг пайдо бўлиши билан боғлиқ. Шундай, бўлса ҳам, бошқарувнинг айрим ғоя, принцип ва капитализмга маълум бўлган.

Хар бир авлод ўз муаммоларини моддий неъматлар яратиш, талаб ва таклиф, фойда ва зара, маҳнат ва бошқарув билан хал қилганлар, гарчи кўпгина инсоний муносабатларни бир хил намуналар билан бўлса ҳам, бошқарув ғоялари бугунгидай бўлмаган. Лекин замонавий ғоялар илгари (аввалги)лардан мукаммал деган фикрга олиб келмайди. Фақат бошқача яшаш шароити: ишлаб чиқариш кучлари, атроф-муҳит (авваламбор табиат) ва инсон ўзи ҳам ўзгаради, демак, бошқарувга ёндашувлар ўзгариши керак. Шу билан бирга ғоялар ва принциплар ўзгармай қолиши ҳам мумкин (меҳнатнинг бўлиниши ва кооперациядан, тартиб-интизом ва бошқалар.) лекин уларнинг амал қилиши аниқ вазиятнинг талаблари ва шароитлари билан боғланади (мослашади). Шуниси қизиқки, инсоният ривожланишига табиий механизми туфайли биологик эволюциядан жамият ривожига кўчди. Яъни академик Н.Н. Моисеев таъкидлаганидек, муз даврида бутунлай замонавий одам бўлган. Ва уларнинг фасил ўзларининг Ньютон ва Эйнштейнлар бўлган.

Цивилизациянинг занжирсимон ривожланиши келажакнинг ўтишига мувоффиқлигини ошкор этади, қуйидаги мақсадли қўллаб-қувватлаган ҳолатда: “Янгиси-бу эскисини унутиш учун яхшидир”. Менежмент тарихини ўрганиш менежерларни пайдо бўлган муаммони ечимини менежментнинг ўтмиши (тарихи) ҳақидаги ҳақидаги билимларни бойитиш орқали ўзига ишонч хиссини шакиллантиришга ёрдам беради.

XX асрнинг 60—80 йилларида ғарбда замонавий менежмент ривожлана бошланди. ғарб назариётчилари бошқарувнинг ижтимоий тизимлар мактабини ташкил қилиш мақсадида тизимли ёндашув асосларини ишлаб чиқишди, яхлит тизим билан унинг тисмлари муносабатлари масалаларини кўриб чиқишди, бир қанча ўзгарувчи омилларнинг бошқарувга таъсирини ўрганишди. Бу мактаб намояндалари (америкалик Ч. Барнард, Г. Саймон) замонавий менежментда қуйидаги тўрт ёндашувни асослаб беради. "Тизимли" ёки замонавий менежмент. Замонавий менежментнинг мақсади қарор қабул қилиш жараёнини электрон ҳисоблаш техникаси ҳамда энг янги математик усул ва воситаларни қўллаган ҳолда тадбиқ қилишдир. Тизимли менежмент қарорларнинг оқилоналигини таъминлашни ўз олдига вазифа қилиб қўйди.

Собик иттифоқнинг А. К. Гастев, П. М. Керженцев, В. Г. Афанасев, Д. В. Гвишиани, С. Е. Каменицер, О. В. Козлова, Д. М. Крук, А. М. Омаров, Г. Х. Попов каби олимлари менежмент назариясини ривожлантиришга ўзларининг салмоқли хиссаларини қўшганлар. Собик иттифоқда меҳнатни илмий ташкил қилиш ва бошқариш соҳасини илмий тадбиқ қилиш 1920 йилларда бошланган. Ўша йиллари Марказий меҳнат институти ММИ ташкил этилиб, меҳнатни илмий ташкил қилиш бўйича қатор конференциялар ўтказилди. Махсус журналлар чоп этилиши йулга қўйилди. Ўқув юртларида "Меҳнатни илмий ташкил қилиш" фани ўқитила бошланди. А. К. Гастев (1882—1941) ўзининг "Қандай ишлаш керак?", "Меҳнатни нормалаш ва ташкил қилиш" каби қатор асарларини чоп эттирди. Марказий меҳнат институти (ММИ) нинг ташкилотчиси ҳам Гастев бўлган. ММИ ва Гастевнинг илмий ишланмалари негизида меҳнатни илмий асосида ташкил қилиш борасида қатор муваффақиятларга эришилган. Чунончи, меҳнатни илмий асосда ташкил қилиш бўйича ўқитиш ва ходимларнинг малакасини ошириш тизими яратилган бўлиб, бу илғор тажриба чет давлатларда ҳам оммалашган. П. М. Керженцев (1881—1940) ҳам бошқариш бўйича қатор асарлар чоп эттирган. Булар қаторига "Меҳнатни илмий ташкил этиш", "Бошқаришни ташкил қилиш принциплари", "Вақт учун кураш" кабилар киради. Улар бошқариш бўйича дарсликларни ёзишда асос қилиб олинди. 1920 йилнинг бошларида Керженцев ташаббуси билан "Вақт" лигаси ташкил етилди. Лига Уў эътиборини меҳнатни ташкил қилишда тартибсизликларнинг ниҳоятда кўпайишига, беҳуда ишларга вақтнинг кўп сарфланаётганлигига, бошқарув тизимида функцияларнинг нооқилона тақсимооти кабиларга қаратди ва уларни бартараф этиш йулларини ишлаб чиқди. 1950 йилларнинг охиридан бошлаб бошқариш назариясининг ривожланиши янада кучайди. Шу йилларда меҳнатни илмий текшириш институти, бошқариш ва норматив бўйича марказий илмий-тадқиқот институтлари ташкил етилди. Мамлакатнинг етакчи олий ўқув юртларида (МДУ, ММИ, КХХН, МХХН, ТХХИ ва бошқалар) "Меҳнатни илмий ташкил қилиш", "Бошқариш" кафедралари, факултетлари ташкил этилиб, улар бўйича махсус фанлар ўқитила бошланди.

Россияда хозирча ягона, Москва бошқарув институти ташкил қилинган бўлиб, у корхона ёки тармок фаолиятининг бошқарув томонини такомиллаштириш масалалари бўйича директорлар маслаҳатчилари, деб юритиладиган бошқаришни ташкил қилиш бўйича мутахассисларни тайёрлайди.

Ўрта Осиёда менежментнинг назарий асослари ва унинг асосий принциплари қадим замонларда ҳам у ёки бу кўринишда мавжуд бўлган. Аммо улар Амир Темур ҳукумронлиги даврига келиб маълум шаклни касб этган, бунга Амир Темурнинг "Темур тузуклари" асари ёрқин мисол бўла олади. "Темур тузуклари" жаҳонга машҳур асардир. Унинг қўлёзма нусхалари дунёнинг деярли барча мамлакатлари (Хиндистон, Эрон, Англия, Дания, Франция, Россия, Германия, Арманистон, Ўзбекистон ва бошқалар) кутубхоналарида мавжуд. Асар икки қисмдан иборат. Биринчи қисм Амир Темурнинг ўз давлатини барпо этиш ва уни ҳар жиҳатдан мустаҳкамлаш, мукамал куролланган қудратли қўшин тузиш борасида татбиқ этган "тузуклари" ва режаларидан иборат бўлиб, унда ҳатто қўшиннинг жанговор сафланиш тартиби ҳам махсус жадваллар орқали кўрсатиб берилган. Асарнинг ўн уч қисм (кэнгаш)дан иборат иккинчи бобида эса Соҳибкироннинг кучли феодал давлатни барпо этиш, қўшин тузиш ва душман лашкарини синдириш юзасидан тузган кэнгашлари ва амалга оширган ишлари ўз ифодасини топган. Амир Темур зукко, тажрибали ва сиёсатдон давлат арбоби бўлган. У ўзи тузмоқчи бўлган давлатнинг марказий аппарата ва маҳаллий ҳокимиятнинг қандай, қайси ижтимоий тоифаларга таяниши, мансабдор шахслар ва уларнинг сифатлари ҳамда бурч ва вазифаларини олдиндан белгилаб берган.

"Тузуклар" муаллифининг фикрича, ҳар бир соҳиби тож давлат ва жамиятни малум ижтимоий-сиёсий гуруҳга таянган ҳолда бошқариши лозим. Ҳазрат Амир Темур "Тузуклар" да маълум қилишича, ўз фаолиятида қуйидаги 12 ижтимоий-сиёсий гуруҳга таяниб иш олиб борган. Ҳазрат Пайғабаримиз Муҳаммад Саллоллоху Алайҳиссаломнинг азиз ва мукаррам авлоди бўлмиш сайидлар, уламо ва шайхлар. Ҳаётнинг аччиқ-чучугини тотган билимдон кишилар. Дуогуй такводорлар. Амирлар, сарханглар, сипох солорлар, яъни лашкар ва қўшинбошликлари. Салтанат ишлари, унинг сиру асрорини билган, кэнгашса бўладиган доно ва ишончли кишилар. Вазирлар, саркитоб ва девон битиклари. Ҳакимлар, табиблар, мунажжимлар ва мухандислар. Ҳадис олимлари ва ровийлар, яъни ривоят айтувчилар (тарих-шунослар). Суфий ва орифлар. Ҳунар ва санъат ахли, яъни косиблар ва санъаткорлар. Ҳар турли мамлакатлардан келган сайёҳ ва тижорат ахли. Давлатни идора қилишда вазирлар, амирлар ва вилоятларда ўтирган ноибларнинг роли бениҳоя катта бўлган. Шунинг учун ҳам Амир Темур уларни танлаш ва вазифаларга тайинлаш ишига алоҳида аҳамият берган. Улар Соҳибкироннинг фикрича, садокатли, ахлоқий пок, адолатпеша, тинчликсевар ва ташаббускор одамлар бўлиши керак. "Тузуклар" муаллифининг фикрига кўра, масалан, вазирлар тўрт сифатга эга бўлишлари шарт. Асиллик, тоза наслик ва улуғворлик. Аклу фаросатлик. Сипох билан раият ахволидан бохабарлик ва уларга ғамхўрлик кўрсатиш, улар билан яхши муомалада бўлиш. Сабру бардошлилик, мулойимлик. "Тузуклар"да келтирилган маълумотларга кўра, Амир Темур ўз давлатани, бир учи Чину Мочин ва иккинчи учи Шом худудида бўлган улкан мамлакатни бор-юғи етти нафар вазир ёрдамида бошқарган. Вазирлар ва уларнинг вазифалари Эл-юртнинг ободонлиги, салтанатнинг устуворлиги кўп жиҳатдан мана

шу вазирларга боғлиқ бўлган. Бошқарув тизимининг шу тариқа оқилона ташкил этилиши унинг негизида инсон манфаатлари ётганлиги, давлат сиёсатининг бошқарувга ижобий таъсири дунёда буюк давлат пайдо бўлиши билан якунланди. Бу марказлашган буюк, иқтисодий баркамол, сиёсий барқарор давлатнинг шаклланишига олиб келган бошқарув назарияси фақат шу давлатдагина эмас, балки бошқа ўлкаларда ҳам давлатни илмий бошқариш назарияси сифатида қўлланила бошланди. Хозирги менежмент фанида таъкидланган бошқаришнинг иқтисодий, инсоний, оқилона ва самарали шаклини яратиш бўйича ҳаракатлар Амир Темурунинг "Темур тузуклари" да ўз аксини топиб, ҳозиргача ҳам ўзининг ҳимматини йўқотмаган. Аксинча, бугунги мустақил Ўзбекистоннинг иқтисодий ва сиёсий мустақиллиги гуркираб ривожланаётган пайтда ҳам бошқаришни ташкил қилишда муҳим дастур сифатида қўлланилмоқда.¹

2.2. Бошқарув тафаккурини капитализмнинг илк давригача ва ўша давридаги ривожланиши.

Капитализм тузумининг бошланғич даврида тадбиркор — мулк эгаси ишлаб чиқаришни ўзининг шахсий тажрибасига таяниб бошқарган. XVIII асрнинг охирида Англияда бўлган саноат инқилоби бошқарувга бўлган қизиқишни янада кучайтиради. Бошқарув ходимларини тайёрлашга алоҳида эътибор берила бошланди. Аммо XIX асрнинг иккинчи ярми ва XX аср чегарасида техника ва технологиянинг такомиллашуви, ишлаб чиқаришнинг кэскин ўсиши бошқаришни мураккаблаштириб юборади ва уни махсус билимларни талаб етувчи, фаолиятнинг махсус соҳасига айлантирди. Ушбу муаммоларни ҳал этиш учун бошқарув соҳасидаги тажрибани умумлаштириш, ишлаб чиқариш ва ходимларни бошқаришнинг самарали усуллари излашга олиб келди. Натижада бошқарув тўғрисидаги илм, фан вужудга келди. Ўша даврдан бошлаб то бугунги кунга қадар бошқарув таълимотида куйидаги тўртта йуналиш (мактаб) эволюцион тарзда ривожланган ва ўзининг тегишли ҳиссасини кўшган. 1404 - 1499 йиллар 1450 - 1501 йиллар Улуғбек Муҳаммад Тарағай, Алишер Навоий давлатни барпо этиши орқали ўрта асрларда буюк шахслар этишиб чиқиши учун моддий, сиёсий, ғоявий заминни яратди. 39 йиллик султонлик даврида фаннинг жуда кўп соҳалари, хусусан математика, фалакиёт, мусиқашунослик, тарих ва бошқариш илмлари бўйича забардаст олим, маданиятнинг улкан ҳомийси сифатида танилди. Унинг илмий мероси, у таъсис этган ва раҳнамолик қилган Самарқанд мунажжимлик мактаби, унинг кўп йиллик изланишларининг асосий маҳсули бўлмиш "Зижи жадиди Қўрагоний" ("Улуғбек Қўрагонийнинг астрономик жадвали") асари билан тарихда изини қолдирди. Сиёсий давлатни идора қилиш усуллари, тартиб-қоидалари билан боғлиқ бўлган хилма-хил муаммолари бўйича оз қарашларига эга бўлган сиёсий арбоб. Давлат ишларини бошқариш музокаралар олиб бориш мамлакат тинчлиги ва ободлиги учун курашган. "Ваҳфия", "Ихлосия", "Садди Искандарий", "Тарихи мулки Ажам" каби асарларида адолатли бошқаришнинг сир-синоатлари ҳақидаги таълимотни яратган. Энг оддий сиёсий масалалардан (адолатли шохни танлаш, тарбиялаш, давлат назорати каби) то энг мураккаб масалалар саналмиш

¹ Sharifxo'jaev M., Abdullaev YO. Menejment. –T: O'qituvchi, 2002.

давлатлараро муносабат, урушлар масаласи, давлатни идора этишда шох, омма ва фаннинг роли каби масалаларни амалиётга татбиқ қилган. Буюк Бобурийлар салтанатини тузиб, ўзаро урушлар, майда хонликларга барҳам берди, марказлашган давлат бошқарувига асос солди. Машхур "Бобурнома" асарини яратди. У ўз асарида бошқаришга оид бўлган принциплар, хусусан одиллик ва тadbиркорлик, жасурлик ва моҳирлик, истеъдод ва маърифат масалаларини ёритди. Бобурийлар (Жахонгиршоҳ) томонидан давлатни идора қилишнинг 12 моддадан иборат дастури яратилган. Бобурийлар томонидан маъмурий бошқарув соҳасини ислоҳ этиш, хазина масалалари борасида — куррурия (вилоят ва туман ҳокимлари) деб аталадиган ҳукумат амалдорлиги мансаби жорий етилди ва х.к. Вазифани бажаришнинг мақбул усуллари топиш мақсадида илмий таҳлилни қўллаш. Шундай қилиб, менежмент назарияси ва амалиёти турли даврларда ўзига хос кўринишларда шаклланган, 50—60-йилларда бошқарувнинг диққат марказида ташкилий таркиби турган, 60—70-йилларда стратегик режалаштириш вужудга келди, 80-йиллардан бошлаб эса илғор ғарб фирмаларида стратегик режалаштиришдан, стратегик бошқарувга ўтилади. Ҳозирги замон инфратузилма менежменти фани — фанлараро фандир. Инфратузилма менежментининг ҳар бир функциясини бугун махсус фанлар, индустриал-муҳандислик социологияси, ижтимоий психология, ижтимоий инженерия (ергономика), маркетинг кабилар ўрганади. Менежментнинг маркетинг назарияси билан уйғунлашуви бошқаришнинг бозор концепциясини вужудга келишига асос бўлди. Ҳозирги даврда бошқарув назарияси ва амалиётида содир бўлган ўзгаришлар "Тинч бошқариш инқилоби" номини олган.

Илмий менежмент мактаби XIX асрнинг охири ва XX асрнинг бошларида Америкада шакллана бошлаган. Бу мактаб бошқача ном билан, яъни бошқарувнинг мумтоз мактаби, деб ҳам юритилган. Бу мактаб ибтидосида америкалик муҳандис ва ихтирочи Ф. Тейлор (1856—1915) турган эди. Унинг назарияси кейинчалик "Тейлоризм" деган ном олган. У яратган тизим эса ишчиларнинг "сиқиб сувини олиш"нинг илмий тизими, деб аталган. Ф. Тейлор таълимотининг асосий мазмуни — ёлланма ишчилар унумдорлигини оширишда ғоятда самарадор ва мақбул усуллари излашдир. Унинг принципларига биноан, меҳнатнинг ҳар бир жараёни, унинг кўлами ва кетма-кетлиги аниқ-пухта ихтисослаштирилиши шарт, ҳар бир меҳнат тури қатъий вақт оралиғида тақсимланиши лозим, ҳар бир меҳнат жараёни ва ҳатто ҳар бир ҳаракат пухта ишлаб чиқилган қоидаларга бўйсундирилган бўлиши керак, юқоридан белгилаб берилган иш усуллари ва қоидаларни бажариш учун доимий талабчан назорат амалга оширилиши лозим, ишчилар малакаси ва савиясига қараб жой-жойига қўйилиши шарт, унумдорлиги икки барабар (100%) га ўсишига олиб келган. Айниқса, қўллаган харонометраж усули диққатга сазовордир. Ф. Тейлор назариясига кўра раҳбар ва мутахассисларни кам малака талаб қиладиган ижрочилик меҳнатидан ва уларга хос бўлмаган вазифалардан озод қилиш, ишчидан эса бошлиқларнинг барча буйруқларини ҳеч қандай мулоҳаза юритмасдан, бирор-бир шахсий ташаббус кўрсатмасдан аниқ ҳамда тез бажаришни талаб қилиш керак эди. Ф. Тейлор бошқаришни "аниқ конун ва қоидаларга таянадиган ҳақиқий илм, шунингдек, нима қилиш кераклигини аниқ билиш ва уни пухта ҳамда арзон усулда бажариш санъати", деб баҳолаган. Шундай қилиб, Ф. Тейлор "бошқарувнинг мумтоз мактаби" ни яратишга асос солди. У яратган бошқарув мактаби фақат Америкада

эмас, балки Европанинг бошқа мамлакатларида ҳам турли назария ва оқимлар кўринишида ривожланиб борди.

Тейлорнинг замондоши ва ишининг давомчиси америкалик иқтисодчи Г. Эмерсон меҳнатни илмий ташкил қилиш бўйича йирик мутахассислардан бўлиб, у бошқариш ва меҳнатни ташкил қилишнинг комплекс, системали тизимини ишлаб чиққан. Унинг "Меҳнат унумдорлигининг 12 принципи" номли асарида ёритилган. Г. Эмерсон илмий бошқарув принципини моҳиятига кўра, қуйидаги кетма-кетликда баён қилган. Аниқ қўйилган мақсад ва ғоялар. Оқил, соғлом фикр, жозибали, эътиборли маҳсулот. Интизом. ходимга нисбатан адолатли бўлиш. Тезкор, ишончли, тўлиқ, аниқ ва мунтазам ҳисоб-китоб. Диспетчерлаш. Меъёрлар ва жадваллар. Шароит билан таъминлаш. Операцияларни меъёрлаш. Стандарт йуриқномаларни тайёрлаш. Унумдорликни рағбатлантириш. Кўриниб турибдики, Г. Эмерсоннинг диққат-эътиборида, энг аввало икки, яъни аниқ қўйилган мақсад ва ғоя, шунингдек оқилона фикр турибди. Г. Эмерсон ишчининг иш вақтида бажарадиган ҳаракатларини ўрганиб, ишчига бериладиган иш ҳажми нормаларини, ишни бажаришнинг ортиқча, унумсиз ҳаракатларини бартараф етувчи энг мувофиқ усуллари ишлаб чиқди. Бунда масалан, нисбий иш ҳакиннинг махсус тизими оқилона фикр асосида қўлланилиб, унга кўра берилган нормани бажарган ишчиларга тариф ставкалари ва коэффициентлари оширилар, уни бажара олмаган ишчиларга эса ставкалари 20—30 фоиз пасайтирилиб, жарима солинган. Шу билан бирга берилган вазифани юқори даражада бажарилиши учун шароит ҳам яратилган.²

Ўтмишдаги бошқарувнинг самарадорлиги ва бошқарув ғоялари тўғрисида шундай ажойиб иншоотни (Миср пирамидалар даври ва бошқалар) қуришганлигини тасаввур қилган ҳосил ва қадимги ёзма ҳужжатларни анализ қилган ҳолда фикр юритиш мумкин. Шумерда пайдо бўлган ёзма манбалада (е.ав. 3000 й.) солиқларни йиғиш ва катта миқдорда мулк жамғариш учун ҳисоб ва назорат олиб бориш жрецларда бошқарув зарурати биринчи ўринда эканлиги тушунтирилади. Инвентаризация ва назорат ҳисоб-китоблар ва ҳужжатларни ҳисоботлар ёрдамида олиб борилган.

Пирамида ва мақбаралар яратишдаги Миср санъати (ер.ав. 4000 ва 525 йиллар орасида) нафақат меморлар, балки ишлаб чиқариш бошқаруви ва катта миқдордаги ишчиларнинг (100 000 тоннагача) 20 йил мобайнидаги муваффақиятига гувоҳлик беради. Балки қадимги Миср иншоотини қурган одамлар нафақат объектга қандай режалаштиришни билишган, балки мобилизация ва инсон ресурсларидан фойдаланишга, бошқарув ва ишлаб чиқариш ишчиларни назорат ва координация қилишга бўлган қобилиятларини кўрсата билишган.

Вавилон шоҳи Хамураппи (1702-1750 ер. ав.) фаолияти билан қонунлар тўпламининг наشري боғлайди, унда хусусий мулк, оила, меҳнат, савдо, шартномалар, ссудалар, шерикчилик, қарз рўйхатлари муносабатларининг қоидалари ўрнатилган. Хамураппи кодекси энг кам иш ҳақи ва мукофот бэриш, назорат ва жавобгарликни аниқлашнинг ҳуқуқий меъёрларини ўрнатади. Бу принуиплар 10 аср мобайнида амал қилади Вавилон ҳокимиятига бошқа бир истеъдодли бошқарувчи келгунча қадар. Новуходоносор (ер. ав. 603-562 йиллар)

² Sharifxo'jaev M., Abdullaev YO. Menejment. –T: O'qituvchi, 2002.

харбий ва ҳўжалик ишлида кўпроқ мувоффақиятга эришди. Ўша пайитдаги тўқимачилик фабрикаларидан махсулот ва жадал иш ҳақи тўлашни назорат қилш жараёнидаги рангли кодлаштириш намуналари бизгача этиб келди.

Қадимги яхудийлар тарихи одамлар ва жараёнлар бошқаришдаги камёб донишмандликка гувоҳлик беради. Ветхий Завет қулликдан ҳокимият ва нуфузлилиқ сари ўсган Юсуф ҳаёти ҳақида ҳикоя қилади. Унинг донни сақлашдаги бошқауруви қўшни халқларни йуқ қилиб ташлаган 7 йил мобайнидаги очлик даврида Мисрга катта ёрдам беради. Исроил қабиласининг сардори, яхудий лидерларнинг энг машҳури Моисей Мисрда таҳсил олган. У Мисрдаги деярли ярим млн исроилликларнинг қулликдан олиб чиқа олди. Ўтиш даври бирданига етарли узоқ муддатли бўлмади (40 йил): манашу вақтда қуллик билмайдиган авлод улғайди.

Моисей қонуни яхудийлар ҳаётининг ҳар жихатига алоқадор бўлган фуқаролик ва диний қонунларнинг структуралашган қаторини ўз ичига мукаммал олади. Моисей вакил қилиб юбориш принципларини асосида ва уни: “қуйи суд” ларнинг оддий ечимларини чиқариб ташлаш учун судларга ўринбосарлар тайинлади. Бу фалсафа ва ташкилий вакил тайинлашнинг режалаштиришэнг қадимги ва энг ҳаммабоп гувоҳликларидан биридир.

Қонунлар (ҳуқуқий нормалар) жамиятнинг устун (баланд келувчи) муносабатларини қайтаради. Греklarда ва римликларда меҳнат муносабатларида ўхшаш фикр-мулоҳазаларга эга бўлганлар. Савдогар, харидор ва судҳорларнинг биродарлиги балки айиб ишлаб, бузуқликнинг ҳар хиллиги деб ҳисоблангандир. Қуйи соддаликка қарамасдан, савдогар аҳоли Римда қандай бўлса, Грецияда ҳам шундай гуллаб яшнаган, гарчи харидорлар шаҳарларида ҳусусий мулкка эгалиқ қилишни ҳал қилмаган бўлсалар ҳам. Шундай бўлса ҳам, савдогарлар синфининг қатъий ижтимоий кўтарилиши юзага келди. Уруш пайтда Римда савдогар айнан зарур ҳисобланган. “Харбий саноат комплекси” термини еҳтимол янги замонавийлашгандир, лекин бу тушунчанинг ўзи ва бизнес мос келмаганидек эскирган. Ҳақиқатдан ҳам бир вақтнинг ўзида қуролсиз ва тинчликни хоҳловчини тасаввур қилиш қийин.

Ўрта асрларда ҳусусий бизнеснинг ривожланиши юзага келган. Феодал тизимда меҳнат фаоллигини зарур элементлари йуқ бўлган: индивидуал ҳолатни индивидуал тиришиш (ҳаракат) орқали ўзгартиришнинг озмоз имкониятлари бўлган ёки умуман йуқолиб кётган; ишлаб чиқаришнинг мақсади истеъмолчилиқ асосида бўлган, алмашинув учун ишлаб чиқаришга фақат чёгарани эътибор берилган; ўша давр фалсафаси моддий ишда индивидуаллик юқори баҳоламаган.

Иш ишчиларнинг талантига қисман мувоффиқ ҳосил бўлинган. Феодал лордлар бошқарув, назорат ва бухгалтерия усуллари ишлаб чиқаришган, -ўша пайтгача, ҳозир инсонлар амал қилаётган, келажак бизнес ва бошқарувда амал қилади—лекин тарихнинг бошқа даври билан солиштирилганда бошқарув бу даврда анча турғун бўлган. Бу ҳолат вақцайин ислохотчилар ва оппозиционерларнинг ўтишининг жамоат ва рақобациз иқтисодга қайтишни талаб қилишларидан билиши мумкин. Бундай талаб дунёда жамият ҳаётида синалган ва рад етилган илмий тажрибаларда ҳақиқий бўлиб кўринмайди. Шунга қарамай рақобат ўзгаришсиз қолди. Ўрта асрларнинг охири кунларидан ҳусусий тадбиркорликнинг америкача тизимнинг пайдо булишигача қадар давом этган давр Протестант капитализмнинг меркантилизми (савдо капитализми) деб номланади. Савдо капитализми бизнес

йириклашиш жараёнини бозор йириклашишнинг шартли конунини аниклади (ошкор этди). Бу оддий кашфиёт куплаб ислохотларга йул очди.

2.3. Ишлаб чиқариш менежменти пайдо булиш еволюцияси.

Савдо капитализми бошка тизимларга нисбатан купрок, яъни олти аср давом этди. У шубхасиз бутунлай тизим эмас эди, лекин ўз даврида яхши ишлади. Саноат революциясига асос яратишдан аввалрок руда казиб олиш, транспорт, алокалар ишлаб чиқаришдаги янги усуллар тушуниб етарли булиши керак эди.

Лекин битта очилиш бошқаруви тарихи узининг мухимлиги бўйича бошка барчасига тутилиши керак эди. У еркин фойда олиш деб номланди ва 1776 йил АҚШ ни Янги Дунё деб гапирилди. Янги меҳнат хусусияти учун янги миллат пишиб етилди. Саноат капитализмининг вазифалари ихтисослашуви, рационаллашиши ва таксимланишига ишондилар.

Зийрак (узокни кура оладиган) саноатчи ишчилар сонининг оддий купайиши билан ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш муаммолари хал этиб булмаслигини тушуниб этдилар. Йирик масштаби ишлаб чиқариш зарур бўлиб колди ва бу анча катта заводлар куришга олиб келди.

Завод, ялпи ишлаб чиқариш, ялпи бозорга нисбатан кам малакали ишчи кучининг куплиги битта ташкилий тузилма рамкаси фаолиятининг ҳар хил турларини координация киладиган бошқарувчи (менежер) ларга ехтиёжни келтириб чикарди.

Меҳнат таксимотини ихтисослашувининг ривожланиши, ишлаб чиқариш масштабини кэнгайиши ва бозорни туйиниши билан менежмент аста-секин илмий фанга айланди.

Умуман айтганда утмишдан капитализмгача бошқаруви тафаккури айнан ишлаб чиқаришни бошқаришга юналмаган. Бу билан ишлаб чиқарувчилар крестъянлар ва хунармандлар шугулланишган. Уларнинг меҳнати, замонавий тил билан ифодаланганда, системали эди. Завод, фабрикадаги ишчилар меҳнати бундай юқори маънога эга эмас, ишчи ўз меҳнатининг натижасини камда-кам кўради. Шунинг учун самарали меҳнатда уни фаоллаштириш зарур.

Менежментнинг илмий фан сифатида пайдо бўлиши ишчиларда ишлаб чиқаришда мувоффақиятга эришишнинг самарали йулларини қидиришдан бошланди.

Илмий менежмент мактаби XIX асрнинг охири ва XX асрнинг бошларида Америкада шакллана бошлаган. Бу мактаб бошқача ном билан, яъни бошқарувнинг мумтоз мактаби, деб ҳам юритилган. Бу мактаб ибтидосида америкалик муҳандис ва ихтирочи Ф. Тейлор (1856—1915) турган эди. Унинг назарияси кейинчалик "Тейлоризм" дэган ном олган. У яратган тизим эса ишчиларнинг "сиқиб сувини олиш" нинг илмий тизими, деб аталган. Ф.Тейлор таълимотининг асосий мазмуни – ёлланма ишчилар унумдорлигини оширишда ғоятда самарадор ва мақбул усулларни излашдир. Унинг принципларига биноан, меҳнатнинг ҳар бир жараёни, унинг кўлами ва кетма-кетлиги аниқ-пухта ихтисослаштирилиши шарт, Ҳар бир меҳнат тури қатъий вақт оралиғида таксимланиши лозим, ҳар бир меҳнат жараёни ва хатто ҳар бир ҳаракат пухта ишлаб чиқилган қоидаларга буйсундирилган бўлиши керак, юқоридан белгилаб берилган иш усуллари ва қоидаларни бажариш учун доимий талабчан назорат амалга оширилиши лозим, ишчилар малакаси ва савиясига қараб

жой-жойига қўйилиши шарт, унумдорлиги икки барабар (100%) га ўсишига олиб келган. Айниқса, қўллаган хронометраж усули диққатга сазовордир. Ф. Тейлор назариясига кўра рахбар ва мутахассисларни кам малака талаб қиладиган ижрочилик меҳнатидан ва уларга хос бўлмаган вазифалардан озод қилиш, ишчидан эса бошлиқларнинг барча буйруқларини ҳеч қандай мулоҳаза юритмасдан, бирор-бир шахсий ташаббус кўрсатмасдан аниқ ҳамда тез бажаришни талаб қилиш керак эди. Ф.Тейлоришлаб чиқаришни бошқаришни “аниқ конун ва қоидаларга таянадиган ?а?и?ий илм, шунингдек, нима қилиш кераклигини аниқ билиш ва уни пухта ҳамда арзон усулда бажариш санъати”, деб баҳолаган. Шундай қилиб, Ф.Тейлор "бошқарувнинг мумтоз мактаби" ни яратишга асос солди. У яратган бошқарув мактаби фақат Америкада эмас, балки Европанинг бошқа мамлакатларида ҳам турли назария ва оқимлар кўринишида ривожланиб борди.

Тейлорнинг замондоши ва ишининг давомчиси америкалик иқтисодчи Г. Эмерсон меҳнатни илмий ташкил қилиш бўйича йирик мутахассислардан бўлиб, у бошқариш ва меҳнатни ташкил қилишнинг комплекс, системали тизимини ишлаб чиққан. Унинг "Меҳнат унумдорлигининг 12 принципи" номли асарида ёритилган. Г. Эмерсон илмий бошқарув принципини моҳиятига кўра, қуйидаги кетма-кетликда баён қилган. Аниқ қўйилган мақсад ва ғоялар. Оқил, соғлом фикр, жозибали, эътиборли мҳсулот. Интизом, ходимга нисбатан адолатли бўлиш. Тезкор, ишончли, тўлиқ, аниқ ва мунтазам ҳисоб-китоб. Диспетчерлаш, меъёрлар ва жадваллар. Шароит билан таъминлаш. Операцияларни меъёрлаш. Стандарт йуриқномаларни тайёрлаш. Унумдорликни рағбатлантириш. Кўриниб турибдики, Г. Эмерсоннинг диққат - эътиборида, энг аввало икки, яъни аниқ қўйилган мақсад ва ғоя, шунингдек оқилона фикр турибди. Г. Эмерсон ишчининг иш вақтида бажарадиган ҳаракатларини ўрганиб, ишчига бериладиган иш ҳажми нормаларини, ишни бажаришнинг ортиқча, унумсиз ҳаракатларини бартараф етувчи энг мувофиқ усуллариини ишлаб чиқди. Бунда масалан, нисбий иш ҳакининг махсус тизими оқилона фикр асосида қўлланилиб, унга кўра берилган нормани бажарган ишчиларга тариф ставкалари ва коэффициентлари оширилар, уни бажара олмаган ишчиларга эса ставкалари 20—30 фоиз пасайтирилиб, жарима солинган. Шу билан бирга берилган вазифани ю?ори даражада бажарилиши учун шароит ҳам яратилган.³

Бошқарувига инсоний муносабатлар нуктаи назаридан ёндашиш кўпроқ америкалик социолог Энтон Мейо назарияси билан боғланади. У ишчилар кизиқишлари билан жиддий ҳисоблашишни илгари сурди ва охир оқибат ишчилар билан ижтимоий ва узурли муносабатда бўлишга утилишини исботлади.

Бир тукумачилик фабрикасида Мейо ва уч ёрдамчилари ишлаб чиқаришга мойил рағбатларнинг купгина турларини синаб курдилар. Ишчилар қарор қабул қилишга жалб етилмагунча ҳамма нарса, хатто пул ҳам қўл келмади. Уларнинг уз ишларидаги муваффақиятга қизикувчанлиги ишлаб чиқаришнинг ўсишига олиб келди, машиналар қандайдир тезликда ишлай олишига карамасдан, бизнинг ҳозирги кунларда ходимлар билан оддий муносабат шундай қабул қилинганки, хаттоки 1900 йилгача бўлган даврдаги ишчилар хайвон ҳисобланган, кейинчалик машина даражасига кўтарилган бепарво қарашларни тасаввур қилиш қийин. Хўжайинлар

³ Sharifxo'jaev M., Abdullaev YO. Menejment. –T: O'qituvchi, 2002.

қўзғалон кўтаргунча қадар нима хохласалар, фақат шуни қилганлар. Одамлар бўлишганда, саноатчилик инсоннинг шахсий кадр-қимматини аввал ҳеч қачон тан олмаган ишлаб чиқариш қуролларига қўшимча қўшади. Тадқиқот шуни кўрсатадики:

-инсоннинг ижтимоий ва психологик еhtiёжлари пул каби майл (рағбат) сифатида самаралидир;

-шуни бажарувчи ташкилот сифатида, ишчи жамоасининг бир - бирига ўзаро ижтимоий-психологик таъсири ҳам муҳимдир;

-бошқарувни ҳар қандай тўғри режалаштириш жараёнида ҳам инсон омилини этиборга олмаслик мумкин эмас.

Хозирги кунда инсон омили тадқиқоти бошқарувнинг муваффақиятли ёки муваффақияtsiz натижаларининг асосий сабабларидан бири сифатида тасаввур қилинади.

АҚШда Ф.Тейлор билан бир каторда ишчиларни бошқаришда такомиллаштириш билан шугулланувчи француз тоғ инженери Энри Файол Европа бошқаруви ишига катта хисса қўшди.

Илмий бошқаруви тарафдорлари саноатнинг ишлаб чиқариш муаммоларига таянган ҳолда А. Файол бошқарувчи бошқарувчанлик ролининг муҳимлигини кўрсатиб берди. У айтики, бошқаруви маъмурий фаолиятда, катта ва кичик саноат, тижорат, сиёсат, дин ва бошқалар ишини бошқаришда муҳим рол уйнайди.

А. Файол бошқаруви бошқарувчининг яхши тайёргарлигига боғлиқ деб ҳисоблайди. У бошқарувчиларнинг маъмурий муаммоларини ўрганиши учун бир ҳафтада бир марта йигиладиган мактаб яратади. У 1925 йил 84 ёшдаги вафотига қадар уз иш тажрибасининг давлат ва хусусий тадбиркорлик жорий қилинган ҳолда ҳаракат қилишни давом этди.

Файолнинг асосий бошқаруви принциплари 1916 йилда chop этилган “Умумий саноат бошқаруви” китобида тушунтирилган. Унда бошқарувнинг 14 та принципи келтирилган:

- 1.Меҳнатнинг таксимланиши
- 2.Ҳокимият
- 3.Тартиб-интизом
- 4.Буйруқ беришнинг ягоналиги
- 5.Бошқарувнинг ягоналиги (якка ҳокимлик)
- 6.Шахсий манфаатларнинг умумий манфаатларга бўйсунishi
- 7.Рағбатлантириш
- 8.Марказлаштириш
- 9.Бошқаруви ҳокимият чизиги
- 10.Тартиб
- 11.Тэнг ҳуқуқлик
- 12.Шахсий таркиб лавозимининг турғунлиги
- 13.Ташаббускорлик
- 14.Мудир шарафи

Бошқарувида 3 та кўриб чиқилган ёндашув турли хил бошқарув назарияларни ажратишга асос бўлиб хизмат қилди. Уларни ифодалаб берувчилар бизнес ҳар хил соҳа вакиллари эди.

Иқтисодиётнинг бошқарувига бўлган эътибори бошқаруви билан шуғулланувчи инсонлар фаолиятининг юналиши бўйича 4 та даврга ажралади.

1. Саноат капитализми (1776-1890) ишлаб чиқаришнинг самарадорлиги бўйича мутахассислар ва бошқарувчилар даври эди. Бизнесменларнинг кўпчилиги Адам Смитнинг фақат соғлом рақобатгина ҳамма учун товарлар мўллиги ва ҳаётнинг фаровонлигини таъминлайди деган “Халқлар бойлиги” фалсафасига ишондилар. Саноат капиталистларининг эътиборининг йўқлиги билан боғлиқ эди.

2. Молиявий капитализм (1890-1993) да молиячи доменлашади. Товар ишлаб чиқаришда қатнашмай туриб, у энг кўп фойда олиш учун молиявий ресурслар манипуляцияга йиғилган эди. Герберт Спенсернинг ижтимоий Дарвинизм принципи ҳукумронлик қилди, у ижтимоий соҳадаги “энг мувоффақлашган тиришқоқлик” га нафақат ижозатга эришишнинг энг қулай йўли ҳисобланишини ўргатади.

3. Миллий капитализм (1933-1950) – ҳукумат ҳисобланган халқ молиявий капиталистларнинг (сувистемол хиёнат) қилиши ва оғир ахволи ва ўзини химоя қилиш ва қўзғалон кўтаришга мажбур бўлган давр. Маълумки, бу пайтда собиқ иттифокда бутун дунё учун янги бўлган жамият қуриш ва хўжаликлаштириш мувоффақиятлар келтиради.

Ҳукуматнинг ҳар хил дастурлари миллий капитализм даври учун характерлидир. Бу хусусият бизга жамиятимизга ҳам намоён бўлади. Ҳақиқатда, давлат ва бизнес ўртасидаги кучсиз мувозанатни қўллаб - қувватлаш урунишларига ташаббускорлик қилишни давом эттириш лозим.

4. Бошқарув капитализмини (1950 йилдан бошлаб) одамлар ўз бошқарадиган, лекин эгалик қилмайдиган замонавий давр учун характерлашдир. Индивидуал тадбиркорлик, таваккали бўйича ҳам қарор қабул қилинади. Катта корпорацияларга талантили ва қобилиятли одамларнинг кўпи йиғилади. Лекин, базан кэнг қўламли жараёнларда одамлар йўқатадилар. Лекин бошқарувнинг такомиллаштиришга йўл кидирадилар.

2.4. Бошқарувнинг замонавий муаммолари.

Замонавий менежмент барча мактаб ва йўналишларга эришишни назарда тутиб, уларни бошқарув жараёнида интеграциялаштиради.

Ишлаб чиқариш ва бошқарувнинг интеграциялашуви корхонага ички ва ташқи муҳит ўртасида ўзаро алоқани кэнгайтиришни тарқатади (маркетинг ва ишлаб чиқариш; илмий тадқиқот – ишлаб чиқариш ва маркетинг ва бошқалар).

Макроиктисодий даражада бошқарув жаҳон иқтисодий тизимининг ўзгариши ва атроф муҳит қарама - қаршилигининг кучайиши, ҳамда ҳозирги ва келажак авлоднинг қизиқишлари билан боғлиқ бўлган глобал жараёнлар назарда тутиши лозим.

Бутун жаҳон эътиборида турган турғун ривожланиш концепцияси бошқарувнинг юқорида даражасида мақсад қўйиш асосида ётадиган қиймат тизимини кўриб чиқишни талаб этади. Жамиятнинг шахсий истеъмолнинг (шахсий муваффақият ва бойлик, фойда ва бошқалар) қиймат назарияси иқтисоднинг ва инсонни ўзининг ривожланишда атроф муҳит билан тэнглашиш (баландлашиши) талабига қарши чиқмоқда.

Макро даражада бошқарув парадигмаларининг алмашниши корхона даражасидаги мақсадни қўйиш ва мақсаднинг принциплари билан алмашмоқда.

Ижтимоий-ахлоқий маркетинг канцепцияси аллақачон жамиятнинг инновация кизиқишлар приаритетини ехтиёжини атрофдагиларга зарарсиз холда қондириш деб еълон қилади. Менежмент ва бизнеснинг жамият ва ташкилотда ишловчи алохида одамлар олдидаги ижтимоий жавобгарлигини тан олиш лозим. Шунинг учун корхона бошқарувида биринчи ўринда стратегия туради, у нафақат асослаш қуроли, балки ишлаб чиқариш, илмий-техника, иқтисодий, ташкилий ва ижтимоий характердаги узоқ муддатли мақсад ва вазифаларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш, нафақат қўйилган мақсадларга эришиш бўйича ташкилот фаолиятини бошқариш омили, балки бир вақтнинг ўзида корхонанинг ташқи бозор мухити билан алоқа қилиш воситаси хисобланади.

Замонавий ишлаб чиқариш менежмент қуйидаги ҳолатлар билан тавсифланади:

-менежмент мактабларининг классик принциплари приоритетини рад этиш, ишлаб чиқаришнинг ташқи омиллари бошқарувнинг таъсири, ихтисослашувнинг ривожланиши, харажатларнинг қисқариши, махсулот ишлаб чиқаришни рационал тарғиб этишдан ерта аниқланадиган корхона мувоффақиятини қўллаб-қувватлаш. Шу билан бирга ташқи мухитнинг доимий ўзгаришларга егилувчанлик ва мослашувчанлик муаммоси биринчи ўринда туради. Ташқи мухит омилларининг аҳамияти ташкилот менежменти мухитнинг ташкил етувчи жамият муносабатларининг барча тизимлари (жумладан, сиёсий, ижтимоий, иқтисодий) муракаблашиши билан боғлиқ холда бирданига ошади

-ташқи дунё билан узлуксиз боғлиқ бўлган ташкил етувчи қисмларининг бирлигида ташкилотни кўриб чиқиш вазифасини енгиллаштирувчи тизимлар назариясидан бошқарувда фойдаланиш. Корхона муваффақиятларининг асосий шарт - шароитлари ташқи мухитда жойлашган, шу билан бирга у билан чэгарали очик, корхона ўз фаолиятида ташқаридан келувчи қувват, ахборот ва бошқа ресурсларга бўлиқ. Функциялаштириш учун, тизим ташқи мухитдаги ўзгаришларга мослашиши лозим

-бошқарувга вазиятли ёндашувни тадбиқ этиш, у корхонанинг функционаллашувига мувоффиқ холда ўз табиатига кўра ташқи таъсир билан турли реакцияга киришади. Марказий момент бу ерда вазиятдир, бу айна пайтдаги ташкилотнинг ишига амалий эътибор қаратади. Мақсадга самарали эришиш имкониятига таъсир кўрсатиб, анча аҳамиятли омиллари ажратилиши специфик қабул қилишнинг муҳимлигини тан олиш шу ердан бошланади

-янги бошқарув қуйидаги омилларга катта эътибор қаратади: лидерлик ва бошқарув усули, ишчилар малакаси ва маданияти, ҳуқ - атвор мотивацияси, жамоода ўзаро муносабатлар ва одамларнинг ўзгаришлари билан реакцияга киришилиши.

Ривожланишининг янги шартлари ва омилларига кўпинча менежмент принциплари ва таърифида ўз аксини топади, инсонинг юксак роли, унинг профессионаллиги, сифат хусусиятлари, шунингдек, ташкилот ходимлари ўзаро тушунтиришларнинг барча тизимларини ифодалайди. Масалан, менежерлар учун мазкур асрнинг сўнгги 10 йиллигида фойдаланиш тавсия этиладиган муҳим принципларнинг ташкилотдаги барча ишловчиларга кўп учрайди: менежерларнинг ташкилотдаги барча ишловчиларга самимий муносабати; менежерларнинг ташкилотнинг мувоффақиятли фаолияти учун барча даражадаги жавобгарлиги;

ташкилот ташқарисидаги ва ичкарисисидаги алоқа (горизонтал ва вертикал); инсонларнинг очиқлик, ҳаққонийлик ва ишонччилик муҳитини юритиш; уларнинг ҳам шахсий, ҳам ташкилот ишининг ривожлантиришга бўлган таланти ва интилишларни амалга оширишга ёрдам бериш.

Бошқарувнинг янги принципларини амалий ифодалаш анча қийин ва у бизнес фалсафасини радикал қўриб чиқиш, ишчилар (шу жумладан менежерлар) психологиясининг ўзгариши, уларнинг малакасини оширишни ва шахсий потенциалларнинг юксалишини талаб этади. Кўп компаниялар (шу жумладан йириклари) ўз ташкилотларидаги буйруқли – иерархик муносабатлардан чекинишга ҳамда персоналнинг кучли жиҳатлардан фойдаланиш ва уни ривожлантириш учун шароит яратишга уринмоқдалар. Бир вақтнинг ўзида ривожланиш стратегиясини ва унинг мақсадларини шакллантириш, ташкилот ва менежментнинг структурасини яратиш, бошқарув қарорларини ишлаб чиқариш ва қабул қилиш, персонал билан ишлаш ҳамда ташкилот ва ундаги ишчилар ишининг самарадорлигини баҳолашга ёндашув ўзгармоқда.

Хулоса.

Бошқарувга тарихий ёндашув иқтисодий қонунлар ва бошқарув принципларининг амал қилишини тасаввур қилиш учун муҳимдир.

Ўтмиш тажрибаси менежерларда юзага келган муаммоларни ҳал қилишда ишонччилик хиссини шакллантиришда ёрдам беради.

Ўтмишдаги ва капитализмгача бўлган даврдаги бошқарув тафаккури тизимчилик билан характерланган ва умумлаштирилган принциплар, ҳозиргача ўз мазмунини сақлаб келган бошқарув аксиомаларини ишлаб чиқди.

Саноатлашган давр капитализмга туртки бўлди, бу капитализм фабрика ва заводлардаги ишга ўринлардаги меҳнат жамоасини бошқаришни рационаллаштиришдан бошланди, ёнланма меҳнат ва капитал ўртасидаги кэскин қарама-қаршиликларни энгиш орқали иқтисодий самарадорликни ошириш мақсаларига хусусийлик ва бошқарув фаолиятларига бўлинди.

Саноатлашган давр бошқарувнинг классик мактаблари интеграциясини тугатиб постиндустриал (ахборотли) даврда инсонлар иқтисодий муносабатларини ўзгартириб инсон ресурслари менежментига яқинлашди.

Ўзини-ўзи текшириш учун саволлар

1. Менежмент қачон пайдо бўлди ва унинг дастлабки иқтисодий шарт-шароитлари қандай бўлган?
2. Нима учун бошқарувга дастлаб илмий (рационал) ёндашув бўлган (Ф. Тейлор), кейинчалик эса бошқарув муносабатларига инсоний ёндашув зарурати юзага келган?
3. Файолнинг “Мундир хурмати” деб номланган принципи бизнес ва бошқарувга қандай таъсир этган?
4. Бошқариш таълимотидаги тўртта юналиш (мактаб) тўғрисида нималар дея оласиз?
5. "Илмий менежмент" мактаби ва Ф. Тейлор таълимотининг моҳияти нимада?
6. "Илмий менежмент"нинг намояндаси Г. Эмерсон қайси принципларни олға суради?

8. "Мумтоз менежмент"нинг намояндаси А. Фаёл кайси принципларни олға сурган?
10. "Тизимли" ёки замонавий ишлаб чиқариш менежментнинг моҳияти нимада?
11. Ўзбекистонда менежмент назарияси қачон шакллана бошлаган?
12. Ишлаб чиқариш менежментнинг қонун-қоидалари ва принциплари дэганда нимани тушунасан?
13. Амир Темур давлатни бошқаришда қандай принципларни асос қилиб олган?
14. Маъмурий – буйруқбозлик тизими шароитида давлат қандай принципларга асосланиб бошқарилган?
15. Бозор итисодиёти шароитида Ўзбекистонда давлатни бошқариш учун қандай принциплар асос қилиб олинган?
16. Бозор муносабатларига ўтишнинг беш тамойили тўғрисида нималар дея оласиз?

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. “Ўзбекистон”, Т., 2008.
2. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанамиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. Халқ сўзи, 30 январ, 2010.
3. Каримов И.А. Мамлакатимизни модернизация қилиш ва янгилашни изчил давом эттириш - давр талаби.Т., 2009, 22 б.
4. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йуллари ва чоралари.Т., 2009, 56 б.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг “Жаҳон молиявий – иқтисодий инқрози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг асосий йуллари ва чоралари” номли асарини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. Тузувчилар: Б.ЙУ.Ходиев, А.Ш.Бекмуродов, У.В.Ғофуров, Б.К.Тўхлиев. – Т.: Иқтисодиёт, 2009.- 120 б.
6. Каримов И.А. Эришган марраларимизни мустахкамлаб ислохотлар йулидан изчил бориш асосий вазифамиз. Тошкент оқшоми., 24-сон.10 феврал, 2004.
7. Каримов И.А. Биз учун халқимиз, ватанамиз манфаатидан улут мақсад йук. Т., Ўзбекисто, 2001
8. Зайнутдинов Ш.Н. ва бошқалар. Менежмент асослари. –Т: Молия, 2001.
9. Шарифхўжаев М., Абдуллаев Ё. Менежмент. –Т: Ўқитувчи, 2002.
10. Казанцева А.К. Основы производственного менеджмента. –М: Серия “В”, 2008.
11. Козловский В.А. Производственный менеджмент. Учебник: М, 2008.
12. Новицкий Н.И. Организация производства на предприятиях: Уч.усл. пособие – М: Финанси статистика, 2008.
13. Фатхутдинов Р.А. Производственный менеджмент -М, 2008.
14. Букин С.О. Основы менеджмента в вопросах и ответах –М, 2008.
15. Парахина В.Н. Теория организации -М, 2008.
16. Лафта Дж. К. Теория организации -М, 2008.
17. Смирнов Э.А. Теория организации -М, 2008.
18. Туровец О.Г., Родионова В.Н. Теория организации -М, 2008.
19. www.cer.uz Vse o menedjmente.

3-бoб. ЖАҲОН МОЛИЯВИЙ – ИҚТИСОДИЙ ИНҚИРОЗ ШАРОИТИДА ТОВАР ИШЛАБ ЧИҚАРИШ БОШҚАРУВ ОБЪЕКТИ СИФАТИДА

- 3.1. Саноат ишлаб чиқаришининг асосий элементи сифатидаи.
- 3.2. Бозор иқтисодиёти шароитларида маркетинг ишлаб чиқаришнинг асосий элементи сифатида.
- 3.3. Ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштириш, озиқ – овқат ва бошқа истеъмол товарлари ишлаб чиқаришни кэнгайтириш.
- 3.4. Бозор иқтисодиёти концепцияси.
- 3.5. Бозор муносабатларига ўтиш стратегияси.
- 3.6. Рақобат турлари ва рақобат васиталари.

Мавзунинг мақсади - ишлаб чиқариш тушунчасини ўзлаштириш, ишлаб чиқаришнинг асосий элементлари, шу жумладан маркетингни, ишлаб чиқариш корхоналарининг асосий турларини кўриб чиқиш, бозорни тадқиқ қилиш ва бозор муносабатларига ўтиш стратегиясига оид маълум билимлар бэришдан иборат.

3.1. Саноат ишлаб чиқаришининг асосий элементи сифатида.

Саноат ишлаб чиқариши бошқарув объекти сифатида мураккаб динамик ижтимоий-иқтисодий тизимни ташкил қилади. Саноатнинг динамиклиги ишлаб чиқариш ҳажмлари, кадрларнинг касбий ва малака даражасининг мунтазам ўсиб бориши, уларнинг тузилмаларидаги ўзгаришлар; ишлаб чиқаришнинг янги техникаси, технологияси ва ташкилотининг жорий қилиниши; янги маҳсулот турларининг ўзлаштирилиши; ишлаб чиқариш муносабатларида рўй берувчи ўзгаришлар билан белгиланади.

Саноат ишлаб чиқаришининг мураккаблиги унинг элементларининг хилма-хиллиги билан белгиланади.

Саноат ишлаб чиқаришининг мақсади жамият ва унинг аъзоларининг эҳтиёжларини қондира оладиган моддий маҳсулотларни яратиш, халқ хўжалигини техник жиҳатдан қайта жиҳозлаш, халқ хўжалигини ва республиканинг муҳофаа қудратини мустаҳкамлаш ҳисобланади. Ҳар қандай вазифа, шу жамладан бозор муносабатларига ўтиш вазифасининг ҳал қилиниши саноат билан боғлиқ бўлади.

Саноат ишлаб чиқаришининг бош элементлари ишлаб *чиқарувчи кучлари ва ишлаб чиқариш муносабатлари* ҳисобланади.

Ишлаб чиқарувчи кучлар - ишлаб чиқариш воситалари ва уларни ҳаракатга келтирувчи одамлар ҳисобланади.

Ишлаб чиқариш воситалари ишлаб чиқариш жараёнида инсон томонидан таъсир кўрсатиладиган меҳнат предметларини ва инсон меҳнат предметларига таъсир кўрсатишда фойдаланадиган меҳнат воситаларини ўз ичига олади.

Меҳнат воситаларига меҳнат куруллари: меҳнат предметларига таъсир кўрсатишда фойдаланиладиган ишлаб чиқариш бинолари, асбоб-ускуналар, машиналар киради.

Ишлаб чиқарувчи кучларнинг асосий элементлари одамлар, меҳнат жамоалари ҳисобланади. Техника, яъни ишлаб чиқариш асбоб-ускуналари, ҳар хил мураккаб машина ва механизмлар ишлаб чиқарувчи кучларнинг муҳим элементидир.

Шунингдек, меҳнат предмети ташкил қилувчи хом ашё, материаллар ва ярим фабрикатлар ҳам ишлаб чиқариш жараёнининг элементи ҳисобланади.

Ишлаб чиқариш технологияси ва ташкилоти ишлаб чиқаришнинг мустақил элементлари ҳисобланади.

Жаҳон молиявий – иқтисодий инқироз шароитида бутун ишлаб чиқариш муносабатлари тизими, шу жумладан бошқарув муносабатларини ҳам чуқур ва жиддий қайта қуриш талаб этилади. Ишлаб чиқаришнинг барча асосий элементлари ҳам ўзгартирилади.


Президентимиз жаҳон молиявий инқирози мамлакатимизнинг 2008 йилдаги ижтимоий-иқтисодий ривожланишига салбий таъсир кўрсатганлигини таъкидлаб ўтдилар.

«Бундай таъсир, – деб ёзадилар Президентимиз ўз асарларида, – авваламбор, умуман дунё бозоридаги талаб ва нархларнинг кэскин тушиб кэтишида ва табиийки, мамлакатимиз экспорт қиладиган маҳсулотларнинг муҳим турларига нисбатан ҳамда экспортга йуналтирилган етакчи тармоқлар ва улар билан боғлиқ турдош корхоналар фаолиятида намоён бўлмоқда. Бу эса, ўз навбатида, бутун иқтисодиётимизнинг мутаносиб ва самарали ривожланишига салбий таъсир кўрсатмоқда, кўзда тутилган лойиҳаларни амалга ошириш, ўз олдимизга қўйган мақсадларга эришиш йулида кўплаб муаммоларни туғдирмоқда. Мухтасар айтганда, 2008 йил биз учун, биринчи навбатда мамлакатимиз меҳнаткашлари учун ҳаёт мураккаб ва оғир бўлди. Лекин, юзага келган барча муаммо ва қийинчиликларга қарамай, халқимизнинг фидокорона меҳнати ва амалга оширилган тадбирлар евазига 2008 йилда иқтисодиётимизнинг нафақат барқарор фаолият кўрсатишига, балки унинг юқори ўсиш суръатларини изчил таъминлашга эришдик»⁴.

Барчамизга маълумки, 2008 йилда мамлакатимизда иқтисодий ислохотларни чуқурлаштиришнинг энг устувор йуналишлари белгилаб берилган эди. Ушбу устувор йуналишлардан келиб чиқувчи вазифаларни амалга оширишда салмоқли натижа ва сезиларли ўзгаришлар йулга киритилди: иқтисодиётнинг юқори барқарор суръатлар билан ўсиши ва макроиқтисодий мутаносиблиги таъминланди, ишлаб чиқаришни таркибий ўзгартириш ва модернизация қилиш, техник ва технологик янгилаш ишлари давом эттирилди (1.1.1-расм).


⁴ Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009, 15-б.

2008 йилда иқтисодий ислохотларни чуқурлаштиришнинг энг муҳим устувор ёъналишлари ҳамда амалга оширилган ишлар натижалари



Жумладан, 2008 йилда ялпи ички маҳсулотнинг ўсиш суръатлари 9 фоизни ташкил этди (1.1.2-расм).

ЯИМ нинг йиллар давомида ўсиш динамикаси, фоизда



1.1.2- расм

Ялпи ички маҳсулотнинг ишлаб чиқариш таркибида ҳам сезиларли ўзгаришлар юз берди (1.1.1-жадвал).

1.1.1 - жадвал


Ялпи ички маҳсулотнинг ишлаб чиқариш таркиби (%)

Кўрсаткичлар	Йиллар								
	2000	2001	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2008
Саноат	14,2	14,1	14,5	15,8	17,5	20,7	22,1	24,0	22,3
Қишлоқ хўжалиги	30,1	30,0	30,1	28,6	26,4	25,0	24,0	21,7	19,4
Қурилиш	6,0	5,8	4,9	4,5	4,8	4,9	5,1	5,5	5,6
Хизматлар соҳаси	37,2	38,2	37,9	37,4	37,2	38,4	39,5	39,4	43,3
Соф солиқлар	12,5	11,9	12,6	13,7	14,1	11,0	11,1	9,5	9,3

Жаҳон молиявий инқирозининг салбий таъсирлари саноат ишлаб чиқаришида нисбатан кўпроқ намоён бўлиши натижада унинг ялпи ички маҳсулотдаги улуши ўтган йилдаги 24 фоиз ўрнига 2008 йилда 22,3 фоизни ташкил этган. Қишлоқ хўжалиги салмоғининг 19,4 фоизга қадар пасайиши эса мамлакатимиз ялпи ички маҳсулоти таркибининг такомиллашиб, унда саноат, қурилиш ва хизмат кўрсатиш соҳаларининг улуши йилдан - йилга ошиб бораётганлигини англатади. Айни пайтда ялпи ички маҳсулот таркибидаги соф солиқлар ҳиссасининг 9,3 фоизга қадар қисқарганлиги мамлакатимиздаги солиқ юкининг тобора пасайиб бораётганлиги кўрсатади.

Мамлакатимиздаги асосий капиталга инвестициялар ҳажми сезиларли даражада ошиб, унинг ўсиш суръати мустақиллик йилларида илк бор 128,3% ни ташкил этди (1.1.3-расм).

Асосий капиталга инвестициялар ҳажмининг йиллар давомида ўсиш динамикаси, фоизда



1.1.3- расм

Давлат бюджети ортиғи билан бажарилиб, кўзда тутилган дефицит ўрнига ялпи ички маҳсулотга нисбатан 1,5 фоиз миқдорида профицитга эришилди (1.1.4-расм).

Давлат бюджети кўрсаткичларининг бажарилиши даражаси, фоизда



1.1.4- расм

Пухта ўйланган қатъий пул - кредит сиёсатини изчил олиб бориш туфайли инфляцияни кўзда тутилган прогноз кўрсаткичлари чەгарасида, яъни йиллик 7,8 фоиз даражасида сақлаб қолишга эришилди.

Молиявий инқирознинг салбий таъсирига қарамай, 2008 йилда иқтисодиётнинг асосий тармоқларида ҳам ижобий ўсиш суръатларига эришилди. Масалан, олдинги йилга нисбатан ўсиш суръати саноатда 12,7 фоизни, жумладан, истеъмол товарлари ишлаб чиқаришда 17,7 фоизни ташкил этди, хизмат кўрсатиш ҳажми 21,3 фоизга ўсди (1.1.2 - жадвал).

1.1.2 - жадвал

Иқтисодиётнинг асосий тармоқларидаги ўсиш суръатлари, фоизда

Ko'rsatkichlar	Йиллар								
	2000	2001	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2008
Саноат маҳсулоти	105,9	107,6	108,3	106,2	109,4	107,3	110,8	112,1	112,7
Истеъмол моллари ишлаб чиқариш	106,2	107,6	108,4	108,5	113,5	116,6	120,7	118,8	117,7
Қишлоқ хўжалиги	103,1	104,2	106,0	107,3	108,9	106,2	106,2	106,1	104,5
Хизмат кўрсатиш	115,7	114,7	108,6	109,5	113,8	116,3	120,1	126,6	121,3
Қурилиш ишлари	103,0	103,4	103,4	103,7	104,3	110,7	115,0	115,7	108,3
Транспортда юк ва йуловчи ташиш ҳажми	112,8	102,2	106,3	107,4	106,3	111,0	107,5	111,5	110,2
Чакана савдо айланмаси	107,6	109,6	102,1	104,2	105,2	105,1	114,7	121,0	117,2

Иқтисодиётнинг бошқа муҳим тармоқлари ҳам барқарор суръатлар билан ривожланди: қурилиш – 8,3 фоиз, транспортда юк ва йуловчи ташиш ҳажми – 10,2 фоиз, савдо соҳаси – 7,2 фоизга ўсди.

3.2. Бозор иқтисодиёти шароитларида маркетинг ишлаб чиқаришнинг асосий элементи сифатида

Маркетинг - товар ишлаб чиқарувчини истеъмолчи билан бозор орқали боғловчи энг муҳим бозор муносабатлари ва ахборот оқимларининг мажмуи ҳисобланади.

Маркетинг бозорни ўрганиш, истеъмолчининг буюртмасидан келиб чиқиб товарлар ассортиментини режалаштириш, товар ва хизматлар оқимини ишлаб чиқарувчидан истеъмолчига йуналтириш билан боғлиқ тадбиркорлик фаолиятини ва бошқа кўплаб жараёнларни ўз ичига олади. Маркетинг конструктор, технолог, иқтисодчилар ва ишлаб чиқаришнинг бошқа мутахассисларига бозор эҳтиёжларини билиш имкониятини беради ва истеъмолчи ушбу ишлаб чиқариш маҳсулотини қандай кўришни исташи, унга қанча пул тўлашга тайёрлиги, бу маҳсулот қачон, қаерда ва кимга талаб этилиши ҳақида ўйлаш, бунинг устида ишлашга уларни мажбур қилади. Бозор у ёки бу товарга бўлган эҳтиёжни аниқ-равшан кўрсатиб беради. Бозор ишлаб чиқарувчи таклиф қилган товарни ё қабул қилади, ёки рад этади.

Шундай қилиб, бозор маркетингни ишлаб чиқариш жараёнининг, бошига кўяди, зотан хўжалик юритишга доир қарорларни қабул қилишнинг негизида ишлаб чиқариш имкониятлари эмас, балки бозор талаби ва харидорларнинг эҳтиёжлари ётади. Агар марказлаштирилган, маъмурий-буйруқбозлик бошқарувида бозор ишлаб чиқариш жараёнининг охирида турган бўлса, бозор муносабатларига ўтилиши билан бозор талаблари ишлаб чиқаришнинг бошланғич босқичида очиқ-ойдин намоён бўлаётир.

Бозор, охир оқибатда ишлаб чиқаришнинг кўламини белгиловчи муҳим омилга айланиб бормоқда. Маркетинг бошқарувини ташкил қилиш мураккаб вазифа бўлиб, бозорни тадқиқ қилиш, режаларни ҳисоб-китоб қилиш, кадрларни олдиндан тайёрлаш, бошқарувнинг функция ва усуллари тубдан ўзгартиришни талаб этади. Маркетинг концепциясини фақат ишлаб чиқариш тубдан қайта қурилган тақдирдагина қўллаш мумкин бўлади. Акс ҳолда ишлаб чиқарувчи маҳсулот стратегиясида муқаррар бой бера бошлайди, талабнинг тез ўзгаришига мослаша олмайди. Бунинг оқибатида у фойда (даромад)нинг катта қисмини йўқотади ва ҳ.к.

3.3. Ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштириш, озиқ – овқат ва бошқа истеъмол товарлари ишлаб чиқаришни кэнгайтириш.⁵

Мамлакатимизда амалга оширилаётган инқирозга қарши чоралар дастурида ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштириш, озиқ - овқат ва бошқа истеъмол товарлари ишлаб чиқаришни кэнгайтиришни рағбатлантириш тадбирлари аҳамиятли ўрин тутди.

Маҳаллийлаштириш дастури ўз мазмунига кўра республикаимиз корхоналарида замонавий талабларга жавоб берувчи, рақобатбардош ва импорт ўрнини босувчи маҳсулотларни ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш, асоссиз импорт ҳажмини қисқартириш, экспортбоп маҳсулотларни ишлаб чиқариш, янги иш жойларини яратиш каби мақсадларни намоён этади. Мазкур дастўрнинг ривожланиш босқичлари Президентимиз ва ҳукуматимиз томонидан қабул қилинган бир қатор меъёрий ҳужжатлар, жумладан: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 14 январдаги 18-сонли қарори; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йил 22 июндаги ПҚ-386-сонли қарори; Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2007 йил 8 майдаги 93-сонли қарори; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2008 йил 28 майдаги ПҚ-879-сонли қарори; Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2008 йил 3 июлдаги 149-сонли қарори орқали белгилаб берилган.

Мамлакатимизда маҳаллийлаштириш жараёнларининг салмоқли натижаларга эришишида ишлаб чиқарувчиларга берилган имтиёз ва қулайликларнинг роли бекиёсдир. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2008 йил 28 майдаги ПҚ -879 -сонли қарорига кўра бутловчи қисмлар ва деталлар, тайёр маҳсулотлар, материаллар ва хом-ашё турларини ишлаб чиқарувчи корхоналар 2011 йил 1 январгача:

⁵ Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқироzi, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009, 36-б.

- четдан келтириладиган технологик асбоб - ускуналар ва улар учун еҳтиёт қисмлар, шунингдек маҳаллийлаштириладиган маҳсулотлар ишлаб чиқаришда технологик жараёнда фойдаланиладиган, республикада ишлаб чиқарилмайдиган компонентлар учун божхона тўловлари (божхонада расмийлаштириш йиғимларидан ташқари);

- маҳаллийлаштириш лойиҳалари бўйича ишлаб чиқарилган маҳсулотлар бўйича фойда солиғи, ягона солиқ тўлови (солиқ солишнинг соддалаштирилган тизимини қўллайдиган субъектлар учун);

- маҳаллийлаштириладиган маҳсулотлар ишлаб чиқариш учун фойдаланиладиган асосий ишлаб чиқариш фондлари бўйича мулк солиғи тўлашдан озод қилинадилар.

Маҳаллийлаштириш жараёнларини кучайтириш ҳамда маҳаллий ишлаб чиқарувчиларни янада рағбатлантириш мақсадида маҳаллийлаштириш дастурига лойиҳаларни киритишнинг мақсадга мувофиқлигини баҳолашга қўйиладиган қуйидаги ягона мезонлар ва талаблар мажмуи ишлаб чиқилган:

- Иқтисодиёт вазирлигининг хулосасига кўра мамлакат саноатини ривожлантиришнинг асосий устуворликларига мувофиқлик;

- маҳаллийлаштириладиган маҳсулотни ишлаб чиқаришни ташкил этиш учун қувватлар ва хомашё ресурсларининг мавжудлиги;

- маҳаллийлаштириш даражаси босқичма-босқич ошириб борилган ҳолда ишлаб чиқариш бошланган пайтдан бошлаб 12 ой мобайнида ишлаб чиқарилаётган маҳсулот бўйича маҳаллийлаштириш даражасининг камида 30 фоизга этиши;

- ТИФ ТН коди бўйича пировард маҳсулот товар позицияси бошланғич хомашёга таққослаганда камида биринчи 4 белгилардан бири даражасига ўзгариши таъминланиши;

- маҳаллийлаштириладиган маҳсулотнинг сотиш нархи ана шундай импорт қилинадиган маҳсулот нархидан юқори бўлмаганда лойиҳанинг иқтисодий ўзини қоплаши (Ўзбекистонгача бўлган транспорт сарф - харажатлари, божхона ва солиқ тўловлари ҳисобга олинган ҳолда);


- Иқтисодиёт ҳамда Ташқи иқтисодий алоқалар, инвестициялар ва савдо вазирликларининг хулосаларига кўра маҳаллийлаштириладиган маҳсулотга ички ва ташқи бозорларда барқарор талабнинг мавжудлиги;

- маҳаллийлаштириладиган маҳсулотга нисбатан халқаро стандартлар бўйича ишлаб чиқариш бошланган пайтдан бошлаб 18 ой мобайнида сифатни бошқариш тизими жорий этилиши.

Белгиланган қулай шарт-шароитлар ва имтиёзлар натижасида маҳаллийлаштириш дастури доирасидаги ишлаб чиқариш ҳажми йилдан - йилга ошиб бормоқда (2.3.1-расм). Расмдаги маълумотлардан кўринадик, мазкур кўрсаткич 2006 - 2008 йиллар мобайнида автомобиллар билан ҳисобланганда 1,9 марта, автомобилларсиз 3,5 марта ўсган.

Шунингдек, мамлакатимизда озиқ - овқат ва бошқа истеъмол товарлари ишлаб чиқаришни кэнгайтиришни рағбатлантиришга ҳам катта эътибор қаратилмоқда. Бунинг натижасида 2008 йилда мамлакатимиз ҳудудларида истеъмол товарларни ишлаб чиқариш ҳажми сезиларли даражада ўсди (2.3.1-жадвал).

Маҳаллийлаштириш дастури доирасида ишлаб чиқариш ҳажми, млрд. сўм



2.3.1 - rasm

Жадвалдан кўринадики, 2008 йилда республикамизда истеъмол товарларни ишлаб чиқариш ҳажми 7436,5 млрд. сўмни ташкил этиб, бу 2007 йилдагига нисбатан 117,7% га кўпдир. Айниқса, бу кўрсаткич Тошкент шаҳри (123,6%), Самарқанд (124,56%), Андижон (122,2%) вилоятларида юқори бўлган.

2.3.1 - жадвал

2008 йилда Ўзбекистон Республикаси ҳудудларида истеъмол товарларни ишлаб чиқариш ҳажми

Ҳудудлар	млрд. Сўм	2007 йилга нисбатан ўсиш суръати, %
Қорақалпоқистон Республикаси	102,6	115,2
Андижон	2151,9	122,2
Бухоро	401,6	106,9
Жиззах	155,2	116
Қашқадарё	246,7	117,3
Навоий	161,9	115,2
Наманган	266,5	116,3
Самарқанд	687,9	124,5
Сурхондарё	142	112,6
Сирдарё	110,8	117,8
Тошкент	785,4	111,3
Фарғона	639,1	106
Хоразм	152,2	108,9
Тошкент шаҳри	1432,7	123,6
Республика бўйича	7436,5	117,7

Агар истеъмол товарларини ишлаб чиқаришда ҳудудларнинг улушини баҳолайдиган бўлсак (2.3.2 - расм), бу борада энг юқори кўрсаткич Андижон вилояти (29%), Тошкент шаҳри (19%) ва Тошкент вилоятига (11%) тўғри келмоқда.



2.3.2 - расм.

Озиқ-овқат ва бошқа истеъмол товарлари ишлаб чиқаришни кэнгайтиришни рағбатлантириш бўйича қабул қилинган дастурларда мамлакатимиз ишлаб чиқариш корхоналари учун кэнг кўламли рағбатлантириш тизими назарда тутилган. Жумладан, улар учун 2012 йилнинг 1 январигача қ уйдаги солиқ ва божхона имтиёзлари берилмоқда:

- гўшт ва сутни қайта ишлашга ихтисослашган микрофирма ва кичик корхоналар учун бўшаган маблағларни ишлаб чиқаришни техник қайта жиҳозлаш ва модернизация қилишга мақсадли равишда йуналтириш шарти билан ягона солиқ тўлови ставкасини 50 фоизга қисқартириш;

- тайёр ноозиқ - овқат товарларнинг муайян турларини ишлаб чиқаришга ихтисослашган корхоналарни фойда ва мулк солиқларидан, микрофирма ва кичик корхоналарни ягона солиқ тўловидан озод қилиш.

Президентимиз ўз асарларининг Инқирозга қарши чоралар дастурига бағишланган қисмини якунлар эканлар, «Хеч шубҳасиз, Инқирозга қарши чоралар дастурини амалга оширишда иқтисодиётимиздаги ҳар қайси субъектнинг имкон қадар кўпроқ манфаатдор бўлишини, ушбу дастур ижроси уларнинг ҳар бири учун энг муҳим ишга айланишини таъминлаш мақсадида кўшимча рағбатлантириш чораларини излаб топиш катта аҳамият касб этади», деб таъкидладилар.

3.4. Бозор иқтисодиёти концепцияси.

Бозор иқтисодиёти аввало ишлаб чиқаришга боғлиқдир, уни ишлаб чиқариш тарақиётисиз тасаввур этиб бўлмайди. Ишлаб чиқариш паст даражада бўлса, бозор ибтидоийлигича қолаверади, оддий савдодан четга чиқа олмайди ва умумийлик даражасига кўтарила олмайди. Чунки бозор муносабатлари таъсири учун моддий

шароит бўлмайди, улар кэнгая олмайди, бозорнинг таъсир доираси жуда торлигича қолаверади.

Демак, бозор муносабатларига ўтиш, бозор иқтисодиётини шакллантириш, тадбиркорлар тизимини яратиш ишлаб чиқаришнинг ривожланишидан бошланмоғи зарур. Ишлаб чиқариш тарақиёти маълум даражага етмагунча таклиф ва талаб, рақобат асосидаги иқтисодий ҳаракат юз бермайди. Иқтисодий ривожланган мамлакатлар аввало кучли ва юқори даражали ишлаб чиқаришга эга бўлган мамлакатлардир. АҚШ, Япония, Германия, Англия, Франция, Канада каби мамлакатларни олсак, булар саноати юқори ишлаб чиқаришга эга бўлган мамлакатларки, бу мамлакатларда ривожланган бозор иқтисодиёти шаклланган. Буларнинг ишлаб чиқариши юксак техника, технология, юқори унумли, самарали тузилишга эга бўлиб, ҳақиқатан ҳам халқ фаровонлигини таъминлай оладиган бозор иқтисодиёти мавжуд.

Шунинг учун ҳам кучли ва ҳар томонлама ривож топган иқтисодиёт аввало тараққий этган ишлаб чиқаришдир. Бозор иқтисодиётидаги мамлакатлар албатта шундай ишлаб чиқаришни яратган ва шу асосда ўз мавқеларини белгилаб бормокдалар.

Ҳар бир мамлакатда юқори даражали ишлаб чиқаришни яратиш жараёни ҳар хил кечади. Тарихда "саноат революцияси" ва индустрлаштириш даврлари бўлиб, ривож топган мамлакатлар бу даврларни турлича тарзда ва турлича давр ичида бошларидан кечиришган. Бу жараён аввало Англияда бошланган бўлса, сўнгра бошқа Европо мамлакатларида юз берган. АҚШ ва Японияда эса ўзига хос ҳолда амалга ошган. Хозир ҳам бозорга ўтаётган мамлакатларда бу жараён турлича, бирида тез, бирида секинлик билан юз бермокда. Кейинги вақтларда бу ўрта ва майда мамлакатларда тезроқ амалга ошмокда. Бу вазифани мамлакатлар фақат ўз ички имкониятлари орқали амалга оширса, ҳозирги мамлакатлараро ҳамкорлик жараёни тезлаштира бошлади. Чунки бошқа мамлакатлардан қарз олиш, янги техника ва технологияни сотиб олиш, фан-техника ютуқларидан, замонавий лойиҳалардан фойдаланиш кабилар ишлаб чиқаришнинг юксалишини ва унинг бозорга мослашуви жараёнини тезлаштиради.

Зеро, қандай бўлмасин тезроқ маълум ишлаб чиқариш даражасига эришиш албатта зарур ва фақат шу юл билан бозорга ўтиш, унинг ривожини таъминлаш мумкин. Юқори даражали ишлаб чиқаришсиз ривож топган бозор иқтисодиётига ўтиш фақат хаёлий фикрдир, чунки амалда бу нарса ҳеч бўлмаган ва бўлиши ҳам мумкин эмас.

Кучли ишлаб чиқаришга эга бўлган мамлакатлар саноати юксалган мамлакатлар қаторига киради. Бундай мамлакатлар пост индустрия даврида кўпая бошлади. Демак, пост индустрия даври мавжуд экан, индустрия даври ҳам мавжуд бўлиши керак. Индустрия даврининг вазифаси йирик, кучли ишлаб чиқаришни яратишдан иборат. Бу умуман бозор тараққиёти давридан олдин бўлиб, ҳақиқатан шундай ишлаб чиқариш асосида бозор ўз даврини бошлаши мумкин.

Демак, ишлаб чиқариш даври ҳам мавжуддир. Юқори даражали ишлаб чиқариш бозор муносабатларига ўтиш ва унинг ривожланиши учун зарур шарт экан, булар кетма-кет келадиган тараққиёт даврлари бўлиб, бозор иқтисодиёти ишлаб чиқариш даврини тақозо этади.

Тарихда алоҳида ишлаб чиқариш даври мавжуд бўлган, деган хулосани учратмаслик мумкин. Аммо бу даврни, юқори ишлаб чиқариш юзага келадиган даврни, инкор этиб бўлмайди. Чунки бозор истисодиёти ривожланган мамлакатларнинг барчаси бу даврни босиб ўтган.

Бозор иқтисодиёти моҳияти устида сўз юритганимизда унинг инсон манфаатидан келиб чиқиши, манфаатлар уйғунлигини таъминлай олишини таъкидлаган эдик. Бунда инсон шахсий манфаати асос бўлиб ҳисобланади, бу эса унинг истеъмол даражасидан келиб чиқади. Бозор шароитида бу фақат талаб орқали амалга ошади. Чунки инсон истеъмоли, унинг эҳтиёжи бозорча талабга айланмагунча реаллаша олмайди. Бинобарин, талаб бозорнинг асосини ташкил этади ва бозор механизмлари асосида ҳам шу талаб ётади. Талаб бозор мазмунини белгилайди, чунки бозор иқтисодиёти асосан талабга қаратилган.

Демак, бозор умуман талаб билан белгиланади ва у билан характерланади. Шунинг учун ҳам талабнинг бозор учун умумий хусусиятлилиги, аҳамияти, асосийлиги, бозорнинг шу билан белгиланиши кабиларни этиборга олсак, буни талаб даври, деб айтиш мумкин. Чунки бозор талабни қондириш жараёнидан иборатдирки, ҳақиқатан ҳам бозор иқтисодиётини акс эттирувчи ҳодиса талабдир.


Шундай қилиб, бозор иқтисодиёти шаклланиши икки даврни: ишлаб чиқариш ва талаб даврини ўз ичига олади. Бозор иқтисодиётига ўтиш фақат ишлаб чиқариш даври туфайли содир бўлиши мумкин. Бинобарин ишлаб чиқаришгина товарлар ва товарлашган хизматлар мўл-кўллигини таъминлайди. Талаб даври эса инсоннинг ҳар томонлама талабларини қондириши мумкин.

Ишлаб чиқариш даври асосан бозор муносабатларига ўтиш, унинг иқтисодиётини шакллантириш босқичига тўғри келиб, бунда бозорга мос ишлаб чиқаришни яратиш талаб этилади. Бозор сари бўлган ҳаракатнинг самарадорлиги асосан шунга боғлиқ бўлади.

Ишлаб чиқариш ва талаб даврига хос фикрларни жуда аниқ, очиқ ва мукамал бўлмаса ҳам, чет иқтисодий адабиётларида учратиш мумкин. Бундан ташқари гарбий иқтисодчиларнинг тадбиркорлик фирмаларининг бозор фаолиятига нисбатан тамойилларини белгилаш концепцияларига хос даврларни келтириш мумкин. Буларнинг кўзга кўринган вакиллари Ф. Котлер, Т. Левий, П. Друккерлардир.

Айтайлик, "ишлаб чиқариш концепцияси", бу йуналишда асосий мақсад ишлаб чиқариш бўлиб, бозор ва бозор талабини чегарасиз, деб билишади, яъни нима бўлса ҳам ишлаб чиқарилса бўлди, дейилади. Чунки бу биз айтган ишлаб чиқариш даврига хос нарс ва таклиф паст даражада бўлади. Сўнгра "реализация концепцияси" даври келади. Бунда тамойил "мана товар, енди сотаверинг" маъносига эга бўлади. Буни ишлаб чиқариш даврининг кейинги босқичлари, яъни юқори даражага яқинлашиш босқичи, дейиш мумкин. Учинчи давр маркетинг тамойили даври бўлиб, бунда ишлаб чиқариш ва маҳсулотни сотишгина эмас, балки асосий мақсад истеъмолчиларнинг эҳтиёжи, уларнинг талабини қондиришдир. Демак, маркетинг даври ишлаб чиқариш давридан сўнг талаб даврининг бошланишига тоғри келади. Бундан маркетинг ишлаб чиқариш давридан сўнг юзага келган ва у талаб даври маҳсули, дейиш мумкин. Чунки унда ишлаб чиқариш муаммоси ҳал бўлиб, талаб даври, яъни талаб муаммоларини ҳал қилиш даври бошланади.

1 - тархдан ишлаб чиқариш ва талаб даврлари, ғарб олимлари айтган концепцияларнинг боғлиқлигини кўришимиз мумкин. Бу даврлар расман маълум вақтда очик ойдин бўлган дейишга асос бўлмаса ҳам бозор иқтисодиёти шаклланиши ва унинг мазмуни буларни тақозо этади.



2.1. тарх. Ишлаб чиқариш ва талаб даврларига оид ифода-тушунчалар.

Бозор иқтисодиётининг ривожда капитализмнинг ўрни катта. Ҳақиқатан ҳам бозор, унинг икки даври шу тузумда тўда шаклланиб, самарали ривожланмоқда. Бошқача ўилиб айтганда, бозор иқтисодиёти шароитини яратишда, ишлаб чиқариш даврини муваффақиятли босиб ўтишда ва талаб даврини юзага келтиришда капиталистик хўжалик тизимининг роли бекиёс.

Шунинг учун бозор иқтисодиёти муносабатларига ўтиш, уни шакллантиришда капиталистик тажрибадан фойдаланиш, унинг хўжалик усулини асос қилиб олиш юқори самара бэриши мумкин.

Бозор муносабатлари тусатдан ва бирданига шаклланмай, билки мавжуд иқтисодий тизимдан ўсиб чиқади. Шу сабабли эски тизимни собиткадамлик билан ислох ета бориб, бозор иқтисодиётига келиш мумкин.

Бозор ислохатлари дэганда халк иштирокида, лекин давлат томонидан ишлаб чиқилган, бозор муносабатларини шакллантиришга қаратилган чора –т адбирларни давлат назорати остида амалга оширилиши тушунилади.

Концепция – бу бозор иқтисодиётига ўтишнинг умумий жихатлари ва миллий хусусиятлари назарда тутилади, ислохатнинг асосий юналишлари белгиланади. Айнан ишлаб чиқилган концепцияга таянган холда бозолр ислохатини таъминловчи юридик қонунлар мажмуаси яратилиб улар хаётга жорий этилади.

Ислохатлар қуйидаги йирик гуруҳларга бўлинади:

- мулкый муносабатлар ислохати;
- аграр ислохат;
- молия - қредит ислохати;
- социал ислохатлар;
- ташкил иқтисодий алокалар ислохати.

Бу ислохатларнинг кетма - кетлиги, ўтказиш усуллари ва муддатлари хар хил бўлади. Улар комплекс характерда бўлади ва иқтисодиётнинг ҳамма сохаларида

ўтказилади. Бир соҳа ислох этилиб, бошқаси эскичасига қолса, бозор муносабатлари шакллана олмайди, бинобарин, ислохатлар самарали бўлмайди.

Ривожланган ёш мамлакатлар ўз олдларига эришиш осонроқ бўлагн мақсадларни қўйиб, “муқобил ривожланиш” назариясининг турли концепцияларига таяниб, ўз йулини мана шу назариялар доирасида излашга мажбур эдилар. Бу концепцияларнинг асосийлари қуйидагилар.

“Муқобил ривожланиш” назариясининг турли концепциялари

Концепциялар	Мақсад
“Асосий ехтиёжлар”	• Аҳолининг энг кам тирикчилик ехтиёжини таъминлаш • Иш билан банд қилиш муаммоларини ҳал этиш
“Мақбул ёки тегишли технология”	• Аҳоли бандлигини таъминлаш • Маҳаллий хом-ашёни, аввало қишлоқ хўжалик хом-ашёсини қайта ишлашга қаратилган сермехнат технологияни ривожлантириш
“Ўз кучига жамоа бўлиб таяниш”	• Мавжуд захиралардан тўлароқ фойдаланиш • Ривожланаётган мамлакатларнинг тараққий этган мамлакатларга қарамлигини камайтириш мақсадида ҳамкорликни мустаҳкамлаш.
“Янги ҳалқаро иқтисодий тартиб ”	• Ривожланаётган мамлакатларнинг иқтисодий жихатдан мустамлака ҳолатидан қутулиши. • Иқтисодий қоллоқликни тугатиш. • Тэнг ҳуқуқли шериклар сифатида тан олиниш. • Ўз манфаатларига мувофиқ келадиган. Янги нархларни, ҳалқаро савдо меъёрларини, валюта курсини белгилаш • Замонавий технологияни сотиб олиш имкониятларини кэнгайтириш.

Бозорга ўтишнинг муқобил юллари

Муқобил юллар	Тадбирлар
Бозорсиз тараққиёт ёки “Либераллаштириш” йули	• Бозорсиз тараққиётга ўтишдан олдин дастлаб маъмурий-буйруқбозлик тизими бағрида. • Истеъмол товарлари бозорини барқарорлаштириш. • Бюджет такчиллигини юкотиш. • Инвестиция соҳасини соғломлаштириш кузланади. • Сунгра бозорга утиш мумкинлиги таъкидланади. Маъмурий-буйруқбозлик тизимидаги бошқаришни енгил - елпи косметик таъмирлаб, йирик ҳал хужалиги микёсидаги пропорцияларни шакллантириш ва назорат қилишни марказ ихтиёрига қолдириб, корхоналарга қисман шартнома асосида бозорга маҳсулот чиқаришга рухсат берилади.
Бозор “экстремизми” ёки бозорга ҳатлаб утиш юли	• Асосий гоя – кэскин чораларни зудлик билан қуриш ва 19 аср андозасидаги еркин бозорга утиш • Давлатнинг иқтисодга аралашуви мутлақо чек қуйиш. Бундай юл меҳнаткашларнинг ижтимоий ҳимоясини, жамиятнинг шу бугунги ва

	келажакдаги илмий-техника тараккиёти, экология, муҳофизат соҳаларидаги манфаатларига умуман қафолат бермайдиган бозор регуляторига умид боғлайди.
Бошқариладиган бозор ёки тартибга солинадиган бозор	• Асосий гоя – яқка ҳокимлик тартибидан, маъмурий-буйруқбозлик бошқаруви ва марказлаштирилган раҳбарлик усулидаги режалаштиришдан бозор муносабатларига, демократик жамиятга ўтиш. • Давлатнинг иқтисодий ҳаётдаги салмоғини 20-30 фоизга тушириш.

Жадваллардан қурилиб турибдики, нафақат бозор иқтисодиётига ўтиш юллари, шу билан бирга унинг андозалари ҳам хилма-хилдир. Шу боисдан бозор иқтисодиётининг маълум андозалари уларни амалга оширувчи муайян мансублигига қараб ажратилади.

3.5. Бозор муносабатларига ўтиш стратегияси

Бозор жойида қотиб турмайди. У товарларни қарор сотиш масаласига доир маълумотларни тўплаш ва таҳлил қилишдан иборат муттасил меҳнатни талаб қилади. Бозор масалалари билан товар ишлаб чиқарувчилар, уларнинг иқтисодий хизматлари, жумладан, маркетинг ва мол сотиш бўлими, иқтисодий таҳлил хизмати, илмий-техник технологиялар ва бошқарув бўлими шуғулланиши лозим.

Бозор ҳақидаги маълумотларни турли манбалардан: матбуотдан, телефон ва хат орқали, сўров ўтказиш йули билан олиш мумкин.

Сўров ўтказиш интервью олиш ёки телефон орқали сўраш билан тўлдирилиши мумкин. Маълумотлар тўпланганидан кейин, улар таҳлил қилинади ва бозордаги вазият масалалари юзасидан ҳулоса чиқарилади. Бозорда юзага келган вазиятдан келиб чиқиб, ишлаб чиқариш ва таъминот-сотиш фаолиятини ривожлантириш бўйича тавсиялар тузиш мумкин.

Товар ишлаб чиқарувчилар вақти-вақти билан (йилда бир неча марта) бозордаги ўз “координат”ларини, унинг миқдори чегараларини аниқлаб олишлари зарур. Бозордаги ўз ҳиссаси миқдорини билмай туриб, унда бирон-бир қадам ташлаш жуда мушкул. Шунингдек, бозорнинг потенциал сиғимини билиш ҳам жуда муҳим.

Бозорнинг потенциал сиғими деганда маълум вақт оралиғида амалга оширилиши мумкин бўлган харидлар ҳажмини тушуниш лозим.

Бозор-турмушнинг шартли ҳақиқати бўлиб, у ҳар қандай ҳолда ҳам ҳаётларни четга суқуриб ташлайди, теран ва пухта ўйланган ҳаракатларни талаб қилади.

Амалиёт бизнинг ташқи бозорларимиз шок ҳолатида эканлигини кўрсатади. Улар энг муҳим нарсани-ўзини қандай тутиш кераклиги, бозорга чиқиш стратегияси қандай эканлигини билмайдилар.

Бозорга чиқиш стратегиясининг умумий кўриниши қуйидагича:

1-босқич - бир қатор тадбирлар (мақсадларни белгилаш, ташкилий тузилмани такомиллаштириш, кадрларни тайёрлаш ва малакасини ошириш, интизомни мустаҳкамлаш, меҳнат, молиявий ва моддий сарф-харажатларни камайтириш)ни амалга ошириш ҳисобига дастлабки сармоя (капитал)ни тўплаш.

2-босқич-замонавий технологиялар ва энг янги ишлаб чиқариш асбоб-ускуналарини сотиб олиш. Буни шунингдек қўшма корхоналар ташкил қилиш йули билан ҳам амалга ошириш мумкин.

3-босқич-принципиал жиҳатдан янги юқори сифатли маҳсулот яратишга қодир бўлган истеъдодли менежерлар ва конструктор-технологларни тарбиялаб этиштириш.

4-босқич-халқаро даражадаги маҳсулот моделини яратиш ва у билан ташқи ва ички бозорга чиқиш.

5-босқич-ишлаб чиқаришни юқори сифатли маҳсулот билан улгуржи савдо қилишга қодир бўлган юқори рентабелли, рақобатбардош хўжаликка айлантириш.

Бизда рақобатбардош маҳсулот бор-буни чет еллик бизнесменлар тан оладилар, аммо биз савдо қилишни билмаймиз, бозорнинг тинимсиз ўзгарувчи шарт-шароитларига мослаша олмаймиз. Бозорга чиқиш стратегиясининг асосий мақсади-юқори сифатли маҳсулот ишлаб чиқариш ва максимал фойда олишга эришишни таъминладан иборат. Фақат шундагина ходимлар турмуш даражасининг кэскин кўтарилиши ва белгиланган ижтимоий дастурларнинг бажарилишини башорат қилиш мумкин.

Бозорга чиқиш стратегиясини ишлаб чиқиш товар ишлаб чиқариш циклининг муҳим босқичи ҳисобланади.

Америкадаги компанияларнинг катта гуруҳи ўртасида ўтказилган сўровлар талабни шакллантириш ва бозорга чиқиш, товарларни истеъмолчига етказиб бэриш муваффақиятнинг маҳсулот технологияси ва уни ишлаб чиқаришдан ҳам муҳимроқ шарти ҳисобланади. Уларнинг фикрича, янги товарнинг бозорда сотилишини таъминлаш масалалари бу товарни оммавий ишлаб чиқариш технологияси масалаларига қараганда муҳимроқдир.

Бозорга ўтишнинг муқобил юллари

Муқобил юллар	Тадбирлар
Бозорсиз тараккиёт ёки “Либераллаштириш” юли	- Бозорсиз тараккиётга утишдан олдин дастлаб маъмурий-буйруқбозлик тизими бағрида. - Истеъмол товарлари бозорини барқарорлаштириш. - Бюджет такчиллигини юкотиш. - Инвестиция соҳасини соғломлаштириш кузланади. - Сунгра бозорга утиш мумкинлиги таъкидланади. Маъмурий-буйруқбозлик тизимидаги бошқаришни енгил - елпи косметик таъмирлаб, йирик хал хужалиги микёсидаги пропорцияларни шакллантириш ва назорат қилишни марказ ихтиёрига колдириб, корхоналарга қисман шартнома асосида бозорга маҳсулот чиқаришаг рухсат берилади.
Бозор “экстремизми” ёки бозорга хатлаб утиш юли	- Асосий гоя – кэскин чораларни зудлик билан куриш ва 19 аср андозасидаги еркин бозорга утиш - Давлатнинг иктисодга аралашуви мутлако чек қуйиш. Бундай юл меҳнаткашларнинг ижтимоий ҳимоясини, жамиятнинг шу бугунги ва

	келажакдаги илмий-техника тараккиёти, экология, муҳофизат соҳаларидаги манфаатларига умуман қафолат бермайдиган бозор регуляторига умид боғлайди.
Бошқариладиган бозор ёки тартибга солинадиган бозор	• Асосий гоя – яқка ҳокимлик тартибидан, маъмурий-буйруқбозлик бошқаруви ва марказлаштирилган раҳбарлик усулидаги режалаштиришдан бозор муносабатларига, демократик жамиятга утиш. • Давлатнинг иқтисодийётдаги салмоғини 20-30 фоизга тушириш.

Жадваллардан қурилиб турибдики, нафақат бозор иқтисодиётига утиш юллари, шу билан бирга унинг андозалари ҳам хилма-хилдир. Шу боисдан бозор иқтисодиётининг маълум андозалари уларни амалга оширувчи муайян мансублигига қараб ажратилади.

3.6. Рақобат турлари ва рақобат воситалари

Рақобат - бу тадбиркорликнинг ажралмас бир булагидир.

Рақобат – умумижтимоий категориюа бўлиб, ижтимоий жараён қатнашчилари ўртасида яхшироқ яшаш учун бўладиган қурашни англатади

Рақобат иқтисодий фаолият иштирокчиларининг ўз манфатларини тулароқ юзага чиқариш, яъни яхши даромад топиш, ўз мавқеини мустаҳкамлаш, ўз қобилиятини намоён этиш ва имиж (обру-эътибор)га эга бўлиш учун бошқалар билан қурашадилар.

Бозор тизимида рақобатнинг муқаммал ва номуқаммал рақобатдан иборат икки асосий тури бор.

Муқаммал ёки соф рақобат шундай рақобат-ки, унда қупчилик қатнашади. Эркин рақобатли бозорда сотувчилар ва харидорлар қупчилик бўлиб, улардан ҳар бири монополь мавқега эга бўлмайди, бозорда қуравонлик қилиб ўз измини қургиза олмайди.

Номуқаммал рақобат чекланган рақобат, табиатан монополь рақобатдир. Бунда қупчилик бўлмаган, лекин товарларнинг қатта қисмини тақлиф етувчи ёки сотиб олувчи фирмалар рақобатлашади. Номуқаммал рақобатнинг олигополистик рақобат деган тури ҳам борки, унда гоят озчилик, лекин йирик фирмалар қатнашади. Шу боисдан рақобат тор доирада юз беради. Олигополистик рақобатга мисол қилиб, автомобил бозоридаги рақобатни олиш мумкин. Масалан, Германияда “Мерседес Бенц”, “БМВ”, “Фольксваген” ва “Опел” каби фирмалар автомобил бозорида рақобатлашадилар, уларга бас келадиган фирмалар умуман йуқ. Аммо улар ҳам жаҳон бозорида “Форд”, “Таёта”, “Пежо” ва “Волво” каби фирмалар рақобатига юликади.

Номуқаммал рақобатнинг яна бир тури соф монополистик рақобатдир. Бу рақобатга хос белги шуки, бунда у ёки бу тармоқда айнан бир фирманинг

хукмронлик қилишидир. М., Тошкент трактор заводи Ўзбекистондаги трактор бозорида танҳо хукмрон, ундан бошқа тракторсозлик заводлари йук. Лекин четдан, хорижий мамлакатлардан келтирилган тракторлар унинг товари билан рақобатлашади.

Соф монополияни икки омил юзага келтиради:

а) технологик монополия техникавий янгиликлар йирик фирмалар кулида тупланади, натижада бошқалар улардан фойдалана олмайдилар ёки фойдаланган тақдирда ҳам бунга катта пул тулайдилар, натижада уларнинг товарлари қимматга тушиб, рақобатга чидай олмайди;

б) табиий монополия ер ости ва ер усти бойликлари айрим фирмаларнинг ихтиёрида бўлиб, бошқалар улардан фойдалана олмайди. Масалан, бир фирма нефтга бой бўлган ерни сотиб олган бўлса, бошқа фирмалар шу ерда нефт қазиб олиб, нефт бозорида рақобат қила олмайди.

Рақобат кураш воситалари ва усуллари жихатидан **халол рақобат ва гирром рақобатга** бўлинади.

Халол рақобат қонуний, юл берилган ва ҳамма тан олган, инсоний усуллар билан узаро беллашувдир.

Гирром рақобат ман етилган воситалар ёрдамида ва гайриинсоний усуллар билан олиб борилган курашдир.

Гирром рақобат ёввойи бозор иқтисодиётининг, халол рақобат маданий (цивилизациялашган) бозор иқтисодиётининг белгиси ҳисобланади. Гирром рақобат юз берганда жосуслик, қўпоровчилик, рекет, тухмат, товар белгисини ўғирлаш ва хатто қотиллик каби усуллар қулланилади, рақибни турли юллар билан обрусизлантириш чоралари курилади.

Халол рақобатда маданий усуллар қулланилади. Бу усуллардан нарх воситасида рақобатлашув, товар сифатини ошириш орқали курашиш, сервис (хизмат курсатиш) орқали беллашув кэнг тарқалган. Бу усуллардан алохида-алохида эмас, балки биргаликда фойдаланиш ҳам қулланилади.

Рақобатнинг турли усулларини қўллашдан асосий мақсад, харидорни уз товарига жалб этиб, унинг пулини олишдир. АҚШда буни “Истеъмолчи доллари учун кураш” деб атайдилар. Рақобатчилик усули қанчалик самарали бўлса, ғолиб чиқиш имконияти шунчалик кўп булади.

Ҳозирги рақобат курашида товар рекламасига алохида эътибор берилади.

Реклама товарнинг нафлиги ҳақида ҳолисона ахборот бўлиб, турли йуллар билан харидорга етказилади. Бозор қондасига биноан рекламага пул аямаган фирма рақобатда ғолиб чиқади. Реклама савдо-сотикни ҳаракатга келтирувчи кучдир.

Хулоса

Бозор иқтисодиётини тартибга солишдаги энг асосий иқтисодий механизмларининг моҳияти ва қисқача таъсир этиш мазмуни билан танишилди. Албатта, улар алохида мустақил таъсир этадилар ва ҳар бирининг узига хос ўрни мавжуддир. Давлат ёки жамоатчилик бу механизмларни биргаликда, бир-бирига боғлаган ҳолда ва бир-бирини тулдириб умумий мақсад сари ҳаракатлартирилган ҳолда фойдаланади. Бозор давлатнинг тартибга солиш фаолиятини чэгаралайди, жуда нозиклик билан иш тутишни талаб этади.

Ишлаб чиқариш мураккаб ижтимоий-иқтисодий тизим бўлиб, инсон унинг асосий ва энг фаол элементи ҳисобланади.

Ишлаб чиқаришнинг асосий бўғини корхона бўлиб, у икки тизим: бошқарувчи ва бошқарилувчи тизимларнинг бирлигидан ташкил топади.

Саноат ишлаб чиқаришининг мураккаблиги унинг элементларининг хилма-хиллиги билан белгиланади.

Ишлаб чиқаришнинг мақсади моддий маҳсулот яратиш ҳисобланади.

Маркетинг-бу ишлаб чиқарувчини истеъмолчи билан боғловчи энг муҳим бозор муносабатлари ва ахборот оқимларининг мажмуи ҳисобланади.

Ўзини-ўзи текшириш учун саволлар:

1. Ишлаб чиқаришнинг асосий элементларини айтиб беринг.
2. Саноат ишлаб чиқариши қандай ташкил қилинади?
3. Товарлар бозоридан ресурсларни ким сотиб олади?
4. Ишлаб чиқаришдаги маркетингнинг мақсади нима?
5. Бозорга чиқиш стратегиясининг босқичларини сананг.
6. Енгил саноат ривожланишини таҳлил қилиб беринг.
7. машинасозлик саноатида қандай ўзгаришлар рўй берди.
8. Ўзбекистонда саноат тармоқларини ривожланиши.
9. Ишлаб чиқаришнинг асосий бўғини.
10. Ишлаб чиқариш корхоналари иқтисодий кўрсаткичларини таҳлили.
11. Бозор иқтисодиётининг тартибга солиниш заруриятини бозор фаолияти мазмуни билан биргаликда тушунтиринг.
12. Бозор иқтисодиётини тартибга солиш ўандай йуллар билан амалга оширилади?
13. Бозор иқтисодини тартибга солишнинг ўандай усул ва механизмлари бор?
14. Улар ўандай хусусиятларга эга?
15. Бозор иқтисодиёти тартибга солинишидаги маъмурий усуллар?
16. Маъмурий усулларнинг моҳияти ва ҳаракат мазмунини тушунтиринг.
17. Иқтисодий усулларнинг моҳияти ва ҳаракат мазмунини тушунтиринг.
18. Иқтисодий ва маъмурий усулларнинг кулланиш услуби боғлиқлигини тушунтиринг

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. “Ўзбекистон”, Т., 2008.
2. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. Халқ сўзи, 30 январ, 2010.
3. Каримов И.А. Мамлакатимизни модернизация қилиш ва янгилашни изчил давом эттириш - давр талаби. Т., 2009, 22 б.
4. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йуллари ва чоралари. Т., 2009, 56 б.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг “Жаҳон молиявий – иқтисодий инқрози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг асосий йуллари ва чоралари” номли асарини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. Тузувчилар: Б.ЙУ.Ходиев, А.Ш.Бекмуродов, У.В.Ғофуров, Б.К.Тўхлиев. – Т.: Иқтисодиёт, 2009.- 120 б.
6. Каримов И.А. Эришган марраларимизни мустаҳкамлаб ислохотлар йулидан изчил бориш асосий вазифамиз. Тошкент оқшоми., 24-сон. 10 феврал, 2004.

7. Каримов И.А. Биз учун халқимиз, ватанимиз манфаатидан улуг мақсад йук. Т., Ўзбекисто, 2001
8. Зайнутдинов Ш.Н. ва бошқалар. Менежмент асослари. –Т: Молия, 2001.
9. Шарифхўжаев М., Абдуллаев Ё. Менежмент. –Т: Ўқитувчи, 2002.
10. Казанцева А.К. Основы производственного менеджмента. –М: Серия “В”, 2008.
11. Козловский В.А. Производственный менеджмент. Учебник: М, 2008.
12. Новицкий Н.И. Организация производства на предприятиях: Уч.усл. пособие – М: Финанси статистика, 2008.
13. Фатхутдинов Р.А. Производственный менеджмент -М, 2008.
14. Букин С.О. Основы менеджмента в вопросах и ответах –М, 2008.
15. Парахина В.Н. Теория организации -М, 2008.
16. Лафта Дж. К. Теория организации -М, 2008.
17. Смирнов Э.А. Теория организации -М, 2008.
18. Туровец О.Г., Родионова В.Н. Теория организации -М, 2008.
19. www.cer.uz Vse o menedjmente.

4-боб. ИСХЛАБ ҲИҚАРИСҲ МЕНЕЖМЕНТИНИ ТАКОМИЛЛАСҲТИРИСҲ УСУЛЛАРИ

4.1. Ишлаб чиқариш менежментини такомиллаштиришга тизимли-вазиятли ёндашув.

4.2. Ишлаб чиқариш менежментини лойиҳалаштириш усуллари.

4.3. Ишлаб чиқариш менежментини лойиҳалаштириш жараёни.

Мавзунинг мақсади - ишлаб чиқариш менежменти ташкилотини лойиҳалаштириш, такомиллаштириш, тажриба, эксперт, меъёр усуллар ҳамда математик моделлаштириш, таҳлилий ҳисоб-китоб усули ва бошқа усулларни ўрганиш, бошқарув ташкилотини лойиҳалаштириш жараёни билан таништиришдан иборат.

4.1. Ишлаб чиқариш менежментини такомиллаштиришга тизимли- вазиятли ёндашув

Бозор муносабатларига ўтилиши, истеъмолчи учун зарур бўлган янги маҳсулотнинг ўзлаштирилиши, маҳсулот сифатининг оширилиши, мулкдорнинг ўзгариши ва шу кабилар ишлаб чиқариш менежменти ташкилотини такомиллаштиришни талаб қилади. Ишлаб чиқариш ҳажмлари ва ёъналишларининг ўзгариши билан янги ишлаб чиқариш ташкилотига зарурат туғилади, бошқарувнинг янги усуллари ва функсиялари пайдо бўлади, иқтисодий иш ҳажмлари ўзгаради, бошқарув қарорларини қабул қилишга янги талаблар қўйилади.

Ишлаб чиқариш менежменти ташкилотидаги ўзгаришлар кўпинча янги тсех, янги аниқ линиянинг очилиши ёки ишлаб чиқариш ва бошқарувнинг механизатсиялаштирилиши ва автоматлаштирилиши натижасида бошқарувнинг ташкилий тузилмасини қайта қуриш билан боғлиқ бўлади.

Бунда ташкилий тузилма фақат бошқарув ташкилоти шаклидангина иборат бўлишини ҳисобга олиш лозим. Унинг мазмуни бошқарув қарорларини тайёрлаш, қабул қилиш ва бажариш жараёнларини; маълумотларнинг мазмуни, ҳажми, уларга ишлов бериш ва уларни узатиш муддатлари ва усулларини; бошқарув органларини

замонавий техника билан жиҳозлаш, бошқарув аппарати ходимларининг ишини ташкил қилишни; раҳбар ходимлар ва мутахассис кадрларни танлаш ва жой-жойига қўйишни ўз ичига олади.

Бинобарин, ишлаб чиқариш менежменти ташкилотига ягона тизим сифатида қаралиши, бу тизимни такомиллаштириш еса комплекс равишда, унинг барча элементлари билан узвий ва уйғун боғлиқликда амалга оширилиши лозим.

Тизим бир-бири билан ўзаро муносабат ва алоқада бўлиб, маълум бирлик, яхлитликни ҳосил қилувчи кўплаб элементлардир.

Масалан, меҳнатга ҳақ тўлашнинг янги устувор тизимининг жорий қилиниши ахборот тизимида ўзгаришлар қилиш, иш ҳақи ҳисоб-китобида меҳнат сарфини, ишга муносабатни ўзгартиришни талаб қилиши мумкин. Агар ижтимоий-иқтисодий тизимдаги барча ўзаро боғлиқликлар мувофиқ равишда ҳисобга олинмаса, бошқарув органлари ишида номутаносибликлар вужудга келиб, кутилган ижобий натижалар ўрнига салбий натижалар олиниши мумкин.

Ишлаб чиқариш менежменти ташкилотига тизимли ёндашув кўпгина муаммоларни самарали ҳал қилиш имконини беради. Уни қўллаш мақсадларини аниқ шакллантириш, иш кўлами ҳақида тасаввур ҳосил қилиш, бошқарувнинг барча функсия, усуллари ва жараёнларини қўйилган мақсадларга еришишга бўйсундиришни таъминлайди.

Бозор муносабатларига ўтиш шароитларида ишлаб чиқаришнинг иқтисодий тизими муҳим ўрин тутди, зотан у ишлаб чиқариш ва бошқарувда кечувчи барча ҳўжалик, молиявий, ташкилий жараёнларнинг бирлигини ифода этади.

Иқтисодий тизим бошқа барча тизимларнинг самарали фаолиятига катта таъсир кўрсатади. Шу билан бирга, бошқа тизимлар ҳам, айниқса, янгилиниш шароитларида ижтимоий тизим иқтисодий тизимга таъсир кўрсатиши мумкин.

Ижтимоий тизим бугунги кунда тобора муҳим аҳамият касб етиб бормоқда, зотан иқтисодиётда, жамиятда ижтимоий ўзгаришлар содир бўлмоқда, янги ҳамкорлик шакллари вужудга келмоқда ва ҳ.к. Умумлаштириш тизимни умумий кўринишда, шунингдек, ушбу тизим элементларининг ўзаро боғлиқликларини кўриш имконини беради.

Бироқ умумлаштириш фойдали еканлигига қарамай, унчалик аниқ бўлмайди. Бошқарув ташкилотини такомиллаштиришда маълум тизимлар (корхона, тармоқлар) ўртасидаги фарқларни еътиборга олиш зарур. Вазиятли ўзгарувчилар деб номланувчи бу жиддий фарқлар икки хил: ички ва ташқи бўлади.

Бу вазиятли ўзгарувчиларни биз бошқарув назариясида батафсил кўриб чиққанмиз. Ўшанда биз ички ўзгарувчилар маълум корхонани тавсифлайди, ташқи ўзгарувчилар еса корхонадан ташқаридаги муҳитнинг омиллари ҳисобланади, деб айтган едик.

Барча кўп сонли вазиятли ўзгарувчилар ва бошқарув жараёнининг барча функсиялари бир-бири билан ўзаро боғлиқ, уларни бир-биридан алоҳида кўриб чиқиб бўлмайди.

Ҳар қандай муҳим омилнинг ўзгариши, худди сойга ташланган тош каби, доиралар ҳосил қилади, яъни корхона фаолиятида акс этади.

Ишлаб чиқариш менежментини такомиллаштиришга вазиятли ёндашув (ҳар қандай тизимга оид) корхона ишининг самарадорлигига жуда кўп ички ва ташқи омиллар таъсир кўрсатишини англатади. Шунинг учун такомиллаштириш усуллари

вазиятга қараб белгиланади. Маълум вазиятда унга кўпроқ мос келадиган энг самарали усул ҳисобланади.

4.2. Ишлаб чиқариш менежментини лойиҳалаштириш усуллари

Ишлаб чиқариш менежментини такомиллаштириш бўйича ишлар бозор муносабатларига ўтиладиган бугунги кунда айниқса мунтазам олиб борилади.

1. Бунда бошқа ривожланган мамлакатлар ёки саноат тармоқларининг тажрибасидан фойдаланишга ҳаракат қилинади. Бу ишлаб чиқариш менежменти ташкилотини такомиллаштиришни асослашнинг тажриба усули деб аталади.

Тажриба усулининг қўлланиши бошқа корхоналардаги шундай вазифаларнинг ечимларини ўрганиш ва амалда юзага келган вазиятнинг таҳлили асосида ўз корхонасида ўзгаришлар қилишни аниқлатади.

2. Ташкилий вазифаларнинг ечимини тайёрлаш ва асослашнинг бошқа бир усули эксперт усулидир. Бу усул ҳам ҳал қилинувчи вазифаларнинг моҳиятини яхши билувчи мутахассисларнинг тажрибасига асосланади. Турли экспертлардан аниқ хулосалар олиш учун сўровномалар тайёрланади ва уларга тажрибаларнинг ҳар хил вариантлари олдиндан ёзиб қўйилади. Турли экспертларнинг хулосалари қайта ишланади ва умумлаштирилган натижа олинади.

3. Алоҳида ташкилий вазифалар (ташкилий тузилмалар, ходимларнинг сонини белгилаш)ни ҳал қилиш амалиётида меъёр усули кенг қўлланади.

Ташкилий вазифаларнинг ечимларини асослаш учун хизмат қила оладиган қатор меъёрлар ишлаб чиқилган. Улар орасида бошқарув нормаси (раҳбарлар ва уларнинг қўл остидаги ходимлар сонининг нисбати); намунавий штат рўйхатлари, иш жойларини ташкил қилишнинг намунавий лойиҳалари ва бошқа нормалар бор.

4. Ташкилий ечимларни асослашда параметрик (омилга оид) усул муҳим аҳамиятга эга. Унинг моҳияти бошқарилувчи ўзаро боғлиқ объект ва бошқарувчи тизимни тавсифловчи ўзаро боғлиқ бўлган омилларни аниқлашдан иборат. Корхоналарнинг гуруҳлари бўйича ўтказилган махсус тадқиқотларнинг маълумотларига кўра объект параметрлари (омиллари) ва бошқарув субъектининг миқдорий нисбати ҳақидаги материалларга ишлов бериш натижасида боғлиқлик (функсионал ёки корреляцион) шакли ва бу боғлиқликларнинг миқдорий ифодаси топилади.

Бунда, одатда, бошқарувчи тизимнинг ишига 2-3 омилнинг таъсирини кўрсатувчи параметрик (омилга оид) боғлиқликлар аниқланади.

5. Сўнгги йилларда бошқарувни лойиҳалаштириш мақсадлари учун математик моделлаштириш усуллари қўлланмоқда. Бошқарув ташкилоти соҳасида моделлаштириш усулини қўллаш энг яхши ечимларни ишлаб чиқариш жараёнида емас, балки дастлабки ҳисоб-китоблар пайтида топиш имконини берадики, бу ишлаб чиқаришдаги кўпгина хато ва ёъқотишларнинг олдини олади.

Моделлаштириш деганда тавсифланувчи реал мавжуд бўлган объект (намунавий ва нонамунавий тизимлар, муҳандислик қурилмалари)нинг асосий жиҳатларини математик рамзлар, техник-иқтисодий кўрсаткичлар, графиклар ёки плакатлар кўринишида шартли белгилаш тушунилади. Моделлаштириш модели моделда эксперимент ўтказиш имконини беради. Ҳозирги кунда моделлаштириш усули, тизимли ёндашув воситаси сифатида, барча фаолият соҳаларида қўлланилади. Ижтимоий-иқтисодий тизимни моделлаштириш алоҳида асос

маълумотларни осонгина ўзгартириш, лойиҳа ёки бошқарув қарорининг турли вариантларини кўриб чиқиш ва унинг оқибатларини олдиндан кўриш имконини беради. Одатда, бошқарув ташкилоти модели бошқарув фаолиятининг қайсидир битта жиҳатини қамраб олади. Шунинг учун моделлаштириш бошқарув ташкилотини лойиҳалаштиришнинг хилма-хил усуллари ўрнини тўлиқ боса олмайди.

Моделлаштиришнинг маркетинг, математик, график, аралаш усуллари фарқ қилинади. Моделлаштириш объектлари бошқарув органлари тузилмаси, бошқарув органлари функциялари, маълумотларни тўплаш, узатиш, қайта ишлаш ва қарор қабул қилиш жараёнлари, ишлаб чиқариш тузилмаси, бошқарув усуллари, бошқарув қарорларини тайёрлаш, қабул қилиш ва уларнинг ижросини ташкил етиш жараёни, информатсион алоқалар, бўлимлар ва мутахассисларнинг маъмурий-ҳуқуқий муносабатлари, одамларнинг ижтимоий-рухий муносабатлари ҳисобланади.

6. Таҳлилий ҳисоб-китоб усули ишлаб чиқариш менежменти ташкилотини такомиллаштириш мақсадлари учун енг мақбул усул ҳисобланади. У бошқарув бўғини ва тизимчасидан келиб чиқиб, юқорида санаб ўтилган усулларида уйғунликда фойдаланишни назарда тутди.

Таҳлилий ҳисоб-китоб усули еришилиши лозим бўлган мақсадларни аниқ белгилаш асосига қурилади. Ишлаб чиқариш менежменти ташкилоти қўйилган мақсадларга қисқа вақт ичида, кам сарф-харажатлар билан еришиш учун қулай шарт-шароит яратиши лозим.

4.3. Ишлаб чиқариш менежментини лойиҳалаштириш жараёни

Ишлаб чиқариш менежментини лойиҳалаштириш ва уни такомиллаштириш жараёни одатда қуйидаги босқичлардан ўтади:

1. Бошқарув объекти олдида жамоа ҳал қилиши лозим бўлган вазифаларни белгиловчи мақсадни қўйиш. Масалан, корхонани хусусийлаштириш, янги ишлаб чиқариш технологиясига ўтиш, бошқарув усуллари ўзгартириш. Шу билан бир вақтда бошқарувчи тизим олдида қўйилувчи ва умумий вазифаларни ҳал қилишга қаратилган мақсадлар белгиланади.

2. Лойиҳалаштиришнинг кейинги босқичи ишлаб чиқаришнинг ҳолати ва ривожланиш тенденциялари, шу жумладан бошқарув объекти ва бошқарувчи тизимнинг таҳлили ҳисобланади. Хўжалик юритиш фаолиятини таҳлил қилиш жараёнида ижобий тажриба ва ишлаб чиқариш захиралари, уларнинг бошқарувчи тизимга таъсири даражаси аниқланади.

Ишлаб чиқариш-хўжалик юритиш фаолияти ва мавжуд бошқарув тизимининг таҳлили олдиндан тузилган ва бошқарув объекти директори томонидан тасдиқланган тақвимий иш графигига кўра ўтказилиши лозим. Таҳлилни ўтказиш учун бу корхонанинг ходимларини жалб қилиш зарур. Корхона жамоаси бажариладиган ишларнинг режаси билан таништирилиши лозим.

Бу принтсипиал аҳамиятга ега. Ишлаб чиқариш менежментини такомиллаштириш, айти даврдаги аҳволнинг таҳлили, аниқ чора-тадбирларни ишлаб чиқишда ходимларнинг иштирок етиши бу чора-тадбирларни амалга оширишни енгиллаштиради.

3.Мақсадларни белгилаш ва таҳлил ўтказишдан лойиҳалаштириш топшириғини тузишга ўтилади. Унинг мазмуни лойиҳани ишлаб чиқиш жараёнида ҳал қилиниши лозим бўлган асосий вазифалар билан белгиланади.

Топшириқда ишлаб чиқариш менежментини такомиллаштиришнинг асосий ёъналишлари: ташкилий тузилма, ахборот билан таъминлаш, бошқарув қарорларини қабул қилиш усуллари ва функциялари белгиланади.

4.Сўнг ишлаб чиқариш менежментини такомиллаштиришнинг танланган ёъналишлари бўйича чуқур ташкилий-иқтисодий тадқиқотлар ўтказилади ва бошқарувни лойиҳаси ишлаб чиқилади. Ишлаб чиқариш менежментини такомиллаштириш лойиҳаси ўз ифодасини топадиган асосий ҳужжат “Тадқиқот натижалари ва белгиланган чора-тадбирлар тўғрисида ҳисобот” ҳисобланади.

5.Ишлаб чиқариш менежментини такомиллаштириш лойиҳасининг якуний босқичи ихтисослашган ташкилотлар томонидан амалга оширилади ва бу уларнинг юқори сифатини кафолатлайди.

Хулосалар

Бозор муносабатларига ўтилиши менежмент ташкилотини такомиллаштиришни талаб қилади.

Тизим-маълум яхлитлик, бирликни ҳосил қилувчи кўплаб элементлар демак.

Тизимли ёндашув мақсадларни аниқ таърифлаш, иш кўламини тасаввур қилиш, бошқарувнинг барча функцияларини қўйилган мақсадларга еришишга бўйсундириш имконини беради.

4. Менежментни лойиҳалаштиришнинг асосий усуллари: тажриба, эксперт, меъёр, омилга оид, математик моделлаштириш, таҳлилий ҳисоб-китоб усуллари ҳисобланади.

5. Менежментни лойиҳалаштириш босқичлари: мақсадни белгилаш, бошқарув тизимининг ҳолатини таҳлил қилиш, чуқур тадқиқ қилиш ва таклифларни ишлаб чиқиш, жорий қилиш режасини ишлаб чиқиш ва унинг бажарилишини назорат қилиш.

Ўзини-ўзи текшириш учун саволлар

1. Тизимли-вазиятли ёндашувга таъриф беринг.
2. Вазиятли ёндашув тизимли ёндашувдан нима билан фарқ қилади?
3. Иқтисодий-математик моделлаштиришнинг моҳияти ҳақида гапириб беринг.
4. Менежментда мақсадли ёндашувнинг аҳамиятини сиз қандай тушунасиз?
5. Лойиҳалаштириш босқичларини санаб беринг ва улар ўртасидаги алоқани аниқланг.
6. Мақсадни белгилаш босқичига нималар киради?
7. Режани ишлаб чиқиш ва уни бажарилишини ким назорат қилади?
8. Менежментни лойиҳалаштиришни асосий усуллари.
9. Тизим деганда нимани тушунасиз?
10. Бозор иқтисодиёти шароитида ишлаб чиқариш жараёнининг кечиши.

Адабиётлар

- 1.Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. “Ўзбекистон”, Т.,2008.
2. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. Халқ сўзи, 30 январ, 2010.

3. Каримов И.А. Мамлакатимизни модернизасия қилиш ва янгилашни изчил давом еттириш - давр талаби.Т., 2009, 22 б.
4. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф етишнинг ёъллари ва чоралари.Т., 2009, 56 б.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг “Жаҳон молиявий – иқтисодий инқрози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф етишнинг асосий ёъллари ва чоралари” номли асарини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. Тузувчилар: Б.ЙУ.Ходиев, А.СҲ.Бекмуродов, У.В.Ғофуров, Б.К.Тўхлиев. – Т.: Иқтисодиёт, 2009.-120 б.
6. Каримов И.А. Эришган марраларимизни мустахкамлаб ислохотлар ёълидан изчил бориш асосий вазифамиз. Тошкент оқшоми., 24-сон.10 феврал, 2004.
7. Каримов И.А. Биз учун халқимиз, ватанимиз манфаатидан улуг мақсад ёъқ. Т., Ўзбекисто, 2001
8. Зайнутдинов СҲ.Н. ва бошқалар. Менежмент асослари. –Т: Молия, 2001.
9. Шарифхўжаев М., Абдуллаев Ё. Менежмент. –Т: Ўқитувчи, 2002.
10. Казантсева А.К. Основы производственного менеджмента. –М: Серия “В”, 2008.
11. Козловский В.А. Производственный менеджмент. Учебник: М, 2008.
12. Новитский Н.И. Организатсия производства на предприятиях: Уч.укул. пособие – М: Финанси статистика, 2008.
13. Фатхутдинов Р.А. Производственни менеджмент -М, 2008.
14. Букин С.О. Основы менеджмента в вопросах и ответах –М, 2008.
- 15.Парахина В.Н. Теория организасии -М, 2008.
16. Лафта Дж. К. Теория организасии -М, 2008.
17. Смирнов Э.А. Теория организасии -М, 2008.
- 18.Туроветс О.Г., Родионова В.Н. Теоия организасии -М, 2008.
19. www.cer.uz Vse o menedjmente.

5-боб. ИСҲЛАБ ҲИҚАРИСҲ МЕНЕЖМЕНТИНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАСҲ

- 5.1. Бошқарув тизимининг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш.
- 5.2. Бошқарувнинг алоҳида ташкилий тадбирлари ва техник воситаларини жорий қилиш самарадорлиги.
- 5.3. Менежментнинг ижтимоий самарадорлиги.
- 5.4. Самарали ишлаб чиқаришнинг асосий параметрлари ва шакли.

5.1. Бошқарув тизимининг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш

Олдимизда республикани қисқа вақт ичида жаҳон бозорига олиб чиқиш вазифаси турибти. Бунинг учун ижтимоий ишлаб чиқаришнинг самарадорлигини ошириш, бошқарув аппарати фаолиятини якуний натижаларга, бозор ва маҳсулот истеъмолчиларининг еҳтиёжларини тўла қондиришга ёъналтириш зарур.

Меҳнат маҳсулдорлигини оширмай, меҳнат ва ишлаб чиқариш интизомини мустаҳкамламай, раҳбар ходимлар ва мутахассисларнинг масъулиятини оширмай туриб ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириб бўлмайди.

Бугун беш, ўн йил олдинга назар ташлар эканмиз, бозор муносабатларининг пойдевори айнан шу йилларда барпо этилишини унутмаслигимиз керак.

Самарадорлик кенг маънода ишнинг унумдорлиги, яъни қўйилган мақсадга минимал сарф-харажатлар билан еришишни тавсифловчи тушунча ҳисобланади.

Ишлаб чиқариш самарадорлиги (S_{ish}) деганда фойдали якуний натижаларнинг ишлатиладиган ёки ишлатилган ресурслар ҳажмига нисбати тушунилади.

$$S_{ish} = \frac{D_b - \text{баланс даромади}}{X_{ish} - \text{ишлаб чиқариш харажатлари}}$$

Бошқарув тизимининг самарадорлиги деганда бошқарув жараёни, бошқарув фаолиятининг унумдорлиги тушунилади.

Бошқарув тизимининг даромад бўйича иқтисодий самарадорлиги (S_{bosh}) режадаги ёки амалда олинган даромаднинг бошқарув харажатларига нисбати билан белгиланади.

$$S_{bosh} = \frac{D_b - \text{баланс даромади}}{X_{bosh} - \text{бошқарув харажатлари}}$$

5.2. Бошқарувнинг алоҳида ташкилий тадбирлари ва техник воситаларини жорий қилиш самарадорлиги

Ишлаб чиқариш менежментини такомиллаштириш тадбирларининг иқтисодий самарадорлиги ҳисоб-китоби лойиҳалаштириш ва жорий қилишнинг барча босқичларида ўтказилади.

Лойиҳалаштиришдан олдинги босқичда менежментни такомиллаштириш зарурми, бу самарали бошқарувга олиб келадими-ёъқми - аниқлаш зарур.

Лойиҳалаштириш босқичида бошқарувнинг энг мақбул усуллари, вариантлар бўйича капитал сармоялар ва сарф-харажатларнинг миқдорлари белгиланади ва аниқлаб олинади.

Ишлаб чиқариш менежментини такомиллаштириш тадбирлари жорий этилганидан кейин амалда еришилган самарадорлик миқдорини аниқлаш лозим.

Таннарх бўйича иқтисодий самарадорлик (S_{tan}) қуйидаги формулага кўра аниқланади:

$$S_{tan} = \frac{M_{tan}}{X_{bosh}}$$

бу ерда: M_{tan} - маҳсулот таннархи,
 X_{bosh} - бошқарув харажатлари.

Бошқарувнинг самарадорлигини (S_{bosh}) аниқлаш учун, шунингдек бошқарув ходимлари меҳнатига ҳақ тўлаш фондининг бутун корхона жамоаси иш ҳақи фондига нисбати (режадаги ва амалдаги)дан ҳам фойдаланилади.

V_{ih} - бошқарув ходимларининг иш ҳақи

$S_{bosh} \cdot q$ -----

F_{ih} - умумий иш ҳақи фонди

Асосий фондларнинг нисбатан тежалиши (T_{af}) ҳисоб - китоби қуйидаги формулага кўра аниқланади:

$T_{af} = \frac{F_{as} \cdot T - F_r}{F_{as}}$,

бу ерда: F_{as} , F_r - асосий ва режадаги даврларда асосий фондларнинг ўртача йиллик қиймати.;

T - товар маҳсулоти ўсишининг индекси.

Иқтисодий самарадорликни аниқлаш ишлаб чиқариш менежменти ташкилотини такомиллаштириш тадбирларини жорий қилиш масаласини ҳал қилишнинг зарур шарти ҳисобланади. Таклифлар маҳсулдорликни оширган ёки ходимнинг меҳнат шароитларини яхшилаган тақдирдагина жорий қилиш учун қабул қилиниши мумкин.

Ишлаб чиқариш менежменти ташкилотини лойиҳалаштириш пайтида лойиҳа ечимларини асослаш мақсадида иқтисодий самарадорлик аниқланади, тадбирлар жорий қилинганидан кейин еса тадбирларнинг унумдорлигини аниқлаш мақсадида амалдаги самарадорлик ҳисоблаб чиқарилади.

5.3. Менежмент ташкилотининг ижтимоий самарадорлиги

Ижтимоий самара деганда жамоада ходимларнинг фаоллигини оширишга кўмаклашадиган барқарор муҳит, нисбатан қулай меҳнат ва маиший шарт-шароитларни яратиш, жамоани ижтимоий ривожлантириш ва унга хизмат кўрсатиш тушунилади.

Ижтимоий самарани миқдорий ҳисоблаб бўлмайди, уни корхонада рўй берувчи сифат ўзгаришларига кўра аниқлаш мумкин. Қатор ҳолларда ижтимоий самара билвосита натижалар билан ўлчанади. Масалан, ижтимоий-рухий вазиятнинг яхшиланиши кадрларнинг қўнимсизлигини қисқартириш ва малака савиясини ошириш имконини беради.

Айрим ҳолларда ижтимоий натижалар маълум миқдорий натижаларда ўзининг бевосита ифодасини топади. Масалан, корхонанинг кадрлар билан комплектланганлигининг умумий кўрсаткичи ($S_{ком}$) қуйидаги формула билан аниқланади:

X_{amal} - ходимларнинг амалдаги сони

$S_{ком} \cdot q$ -----

X_{sht} - ходимларнинг штат бўйича сони

Қабул қилинувчи қарорларни баҳолаш ҳар бир бошқарув бўғинининг энг муҳим вазифаларидан бири ҳисобланади. Аммо бундай баҳолашни амалга ошириш жуда қийин. Уни бошқа ёндош кўрсаткичлар орқали билвосита амалга ошириш мумкин.

Бажарилган қарорлар сони (S_q) шундай кўрсаткич ҳисобланади. Қарорларнинг бажарилиши кўрсаткичи амалда бажарилган қарорлар сонининг қабул қилинган қарорларнинг умумий сонига нисбати тарзида аниқланади.

$$S_{qb} = \frac{Q_b}{Q_q}$$

бу ерда S_{qb} -қарорларнинг бажарилиш кўрсаткичи,

Q_b -бажарилган қарорлар кўрсаткичи,

Q_q -қабул қилинган қарорлар сони.

Бозор иқтисодиёти енг аввало ходимларни ижтимоий ҳимоялашга ёъналтирилган бўлиши лозим.

Барча корхоналар, мулкчилик шаклидан қатъий назар, барча ходимларига ҳавфсиз меҳнат шароитларини яратиб беришлари шарт. Шунингдек, улар ходимнинг соғлиғи ва меҳнат қобилиятига етказилган зарар учун белгиланган тартибда жавобгар бўладилар. Корхона ўз ходимларининг меҳнат ва маиший шароитларини мунтазам яхшилаб бориши, уй-жойлар, тиббиёт муассасалари, соғломлаштириш ва спорт мажмуалари, маданият муассасаларини барпо этиши лозим.

5.4. Самарали ишлаб чиқаришнинг асосий параметрлари ва шакли

Бу мураккаб, кўп планли муаммони бирёқлама ҳал қилиб бўлмайди. Ишлаб чиқариш ташкилотларининг кўп ҳолларда автоном ёки тобе режимда ишловчи кўп сонли тизимчалари ягона оптимумни бера олмайди. Гап ҳозирги замон ишлаб чиқариш ташкилотларини ташкил қилувчи тизимчаларнинг фаолиятини яхшилаш, барқарор бозор муносабатлари, турғун аъъаналарга ега бўлган ривожланган мамлакатларнинг йирик корпоратсиялари тўплаган катта тажрибадан фойдаланиш ҳақида бормоқда.

Персоналдан бошлайдиган бўлсак кишилар – ҳар қандай ишлаб чиқариш ташкилотининг асосини, корхонанинг “олтин фонди”ни ташкил қилади. Ишлаб чиқариш ташкилоти маъмурияти барқарор, шу билан бирга маълум даражада ўзгарувчан меҳнат жамоасига ега бўлишни орзу қилади.

Ишга фақат ўқишни истайдиган ва ўқий оладиган ходимларни қабул қилувчи кўпгина илғор ишлаб чиқариш ташкилотларининг тажрибаси маълум. Бундай ходимлар ишдан деярли бўшатилмайди, айнан улар ишлаб чиқариш ташкилотининг “ўзгарувчан” қисмини ташкил қилади. Тажрибали ходимларнинг барқарор қисми билан бир қаторда, уларни бошқарувнинг матритсали усуллари қўллаган ҳолда янги технологияларни ўзлаштиришга жалб қилиш мумкин бўлади. Персонални бошқариш хизмати ходимларни мунтазам ўқиб-ўргатиш, малакасини ошириш, кўшимча касбларни егаллашини таъминлайди.

Маъмурият моддий ва маънавий рағбатлантиришни бирга самарали қўшиб олиб бориш ҳақида мунтазам қайғуради. Бундан ташқари, ишлаб чиқариш ташкилотлари ходимлари маъмуриятнинг меҳнат, турмуш ва дам олиш шароитларини яхшилаш борасидаги доимий ғамхўрлигини ҳис қилишлари керак. Ходимларни корхона фаолиятига жалб қилиш жуда муҳим. Булар ходимлар томонидан сотиб олинувчи ёки ишлаб топилувчи актсиялар, ходимлар қизиқишини

ишлаб чиқариш ташкилоти фаолиятини такомиллаштиришга моддий ва маънавий имтиёзлар орқали жалб қилишнинг бошқа хил усуллари бўлиши мумкин.

Ишлаб чиқариш сардорлари четда пул ишлаш ҳақида ўйламай, бутун диққатини асосий ишига қаратишлари учун уларга бундай шароитларни яратишга алоҳида еътибор бериш лозим.

Ишлаб чиқариш ташкилотининг асосий мақсади (бу максимал даромад, минимал таннарх, янги маҳсулотни ўзлаштириш ва ҳ.к. бўлиши мумкин) барча ходимлар томонидан аниқ англаб олиниши керак, чунки у жамоанинг уюштиришга имкон яратади.

Самарали ва маҳсулдор ишлаб чиқариш ташкилотини яратиш маҳаллий ва хорижий менежмент ва фан-техника тараққиёти тажрибасидан фойдаланишни талаб қилади. Ишлаб чиқариш ташкилоти тузилиши бошқарув поғоналарининг минимал сонидан ташкил топиши керак.

Ҳар бир бошқарув поғонасининг қарор қабул қилиш тизими аниқ мезонларга ега бўлиши, ишлаб чиқариш ташкилоти бўлинмаларига тўлиқ мустақиллик берилиши лозим. Ишлаб чиқариш ташкилотининг ахборот тизими барча бошқарув поғоналарини ишончли, етарли ва арзон коммуникациялар билан таъминлаши зарур.

Янги лойиҳаларни ишлаб чиқишга, салмоқли инвестицияларни жалб қилган ҳолда, тендер ёлон қилиш керак. Бу ишлаб чиқариш ташкилоти чиқарувчи маҳсулот ёки кўрсатувчи хизматнинг рақобатбардошлигини ва юксак даражада сифатли бўлишини таъминлайди.

Товарларни самарали реализация қилиш учун замонавий маркетинг усуллари– иқтисодий таҳлил, бозор конъюнктурасини ўрганиш ва пухта ўйланган реклама қўлланиши керак.

Ишнинг муваффақиятига ишлаб чиқариш ташкилоти қатнашчилари ҳам ишончли таъминотчилар ва манфаатдор ҳамкорлар сифатида таъсир кўрсатадилар. Товарнинг олға силжиши ёки хизматлар кўрсатилишига тегишли инфратузилма кўмаклашади. Албатта, биз хали ишлаб чиқаришнинг самарали ишлашига имкон яратувчи барча ҳал қилиниши лозим бўлган масалаларни ҳам кўриб чиқмадик. Бироқ, уларни чуқур тушуниш ва ишлаб чиқиш нисбатан янги бозор шароитларида иш олиб бораётган кўпгина ишлаб чиқариш ташкилотлари учун умумий саналган бошқа муҳим муаммоларни ҳам аниқлаш ва ҳал қилиш имконини беради.

Хулосалар

Меҳнат маҳсулдорлигини оширмай, меҳнат ва ишлаб чиқариш интизомини мустаҳкамламай, раҳбар ходимлар ва мутахассисларнинг масъулиятини оширмай туриб ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириб бўлмайди.

Самарадорлик ишнинг унумдорлигини тавсифлайди, бу якуний фойдали натижаларнинг сарфланган ресурслар ҳажмига нисбатидир.

Иқтисодий самарадорлик ресурслари, ишлаб чиқариш менежментини такомиллаштириш тадбирларини лойиҳалаштириш ва жорий қилишнинг барча босқичларига жорий қилиш.

Ижтимоий самарадорлик - бу янада қулай меҳнат ва маиший шароитларни яратиш демак.

Ижтимоий самарани одатда миқдорий ҳисоблаб бўлмайди, у корхонадаги сифат ўзгаришларидан келиб чиқиб аниқланади.

Ўзини-ўзи текшириш учун саволлар

1. Менежментнинг иқтисодий самарадорлиги нима учун баҳоланади?
2. Ишлаб чиқаришнинг самарадорлиги билан менежментнинг самарадорлиги ўртасидаги фарқ нимада?
3. Маҳсулот таннархи бўйича менежментнинг самарадорлиги қайси формулага кўра аниқланади?
4. Менежментнинг иқтисодий самарадорлиги қайси ҳолларда аниқланади?
5. Иқтисодий ва ижтимоий самарадорлик ўртасидаги фарқ нимада?
6. Ишлаб чиқари корхоналарини самарали қилиш ёъллари.
7. Ишлаб чиқариш корхонасининг асосий мақсади.
8. Ишлаб чиқариш корхонасининг ахборот тизими.
9. Бошқарув тизимининг иқтисодий самарадорлиги.
10. Бошқарувнинг техник воситаларнинг жорий қилишнинг самарадорлиги.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. “Ўзбекистон”, Т., 2008.
2. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. Халқ сўзи, 30 январ, 2010.
3. Каримов И.А. Мамлакатимизни модернизация қилиш ва янгилашни изчил давом эттириш - давр талаби. Т., 2009, 22 б.
4. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф етишнинг ёъллари ва чоралари. Т., 2009, 56 б.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг “Жаҳон молиявий – иқтисодий инқрози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф етишнинг асосий ёъллари ва чоралари” номли асарини ўрганиш бўйича ўқув кўлланма. Тузувчилар: Б.ЙУ.Ходиев, А.СҲ.Бекмуродов, У.В.Ғофуров, Б.К.Тўхлиев. – Т.: Иқтисодиёт, 2009.-120 б.
6. Каримов И.А. Эришган марраларимизни мустахкамлаб ислохотлар ёълидан изчил бориш асосий вазифамиз. Тошкент оқшоми., 24-сон.10 феврал, 2004.
7. Каримов И.А. Биз учун халқимиз, ватанимиз манфаатидан улуг мақсад ёъқ. Т., Ўзбекисто, 2001
8. Зайнутдинов СҲ.Н. ва бошқалар. Менежмент асослари. –Т: Молия, 2001.
9. Шарифхўжаев М., Абдуллаев Ё. Менежмент. –Т: Ўқитувчи, 2002.
10. Казантсева А.К. Основы производственного менеджмента. –М: Серия “В”, 2008.
11. Козловский В.А. Производственный менеджмент. Учебник: М, 2008.
12. Новитский Н.И. Организация производства на предприятиях: Уч.усл. пособие – М: Финанси статистика, 2008.
13. Фатхутдинов Р.А. Производственный менеджмент -М, 2008.
14. Букин С.О. Основы менеджмента в вопросах и ответах –М, 2008.
15. Парахина В.Н. Теория организации -М, 2008.
16. Лафта Дж. К. Теория организации -М, 2008.
17. Смирнов Э.А. Теория организации -М, 2008.
18. Туровец О.Г., Родионова В.Н. Теория организации -М, 2008.
19. www.cer.uz Vse o menedjmente.

6-боб. КОРХОНАЛАР ИНТЕГРАТСИЙАЛАНИСҲИНИНГ ЗАМОНАВИЙ СҲАКЛЛАРИ.

6.1. Молиявий - саноат гуруҳи фаолияти (МСГ).

6.2. Корпоратсия фаолияти.

6.3. Холдинг компанияларининг асосий хусусиятлари ва бошқалар.

Мавзунинг мақсади - Молиявий саноат гуруҳининг ҳозирги шароитдаги ривож, истикболини ҳамда корпоратсия фаолияти ва холдинг компанияларининг асосий хусусиятларини ўрганиш.

6.1. Молиявий - саноат гуруҳи фаолияти (МСГ).

Бугунги кунда замонавий молиявий-саноат гуруҳи (МСГ) бир-бири билан боғлиқ бўлган кўпгина фаолиятларни ўз ичига олган тузилмалардан иборат. Мазкур тузилмалар корхоналарнинг капиталлари, турли молиявий-кредит ва инвеститсияларнинг бирлашуви оқибатида юзага келади. Уларнинг бош мақсади: фойда олишни юқори босқичга кўтариш, ишлаб чиқариш ва молиявий муносабатларнинг самарадорлигини ошириш, ташқи ва ички бозорда ўзаро рақобатни кучайтириш, технология ва кооператсия алоқаларини мустаҳкамлаш, гуруҳ ва гуруҳга кирган ҳар бир аъзонинг иқтисодий еҳтиёжи ўсишини таъминлашдан иборат. МСГ нинг ривож ва такомиллашуви бугунги шароитда замонавий йирик ишлаб чиқаришни шакллантиришдаги истикболли ёълидир.

МСГнинг ҳозирги шароитдаги ривож ва унинг истекболи унинг кўп тармоқли ёъналишга ега ёки ега емаслигига боғлиқдир. Кўп тармоқли ёъналишга ега бўлган ташкилот бугунги бозор муносабатларида ўз ўрнига ега бўлиши табиийдир.

МСГ фаолиятининг барқарорлиги маълум даражада унинг еркинлиги шароитига қарамасдан ушбу фаолият, унинг таркиб ва тузилмалари, соҳалари ихтисослашаётгани табиий жараёндир. Бозор муносабатлари шароитида фаолиятларнинг ихтисослашуви унинг барқарорлигини ва ҳаётийлигини таъминлайди. Шунга кўра МСГ таркибини шакллантириш технологик жиҳатдан бир-бирига муносиб ва яқин бўлган корхоналар, ташкилотлар, компанияларда амалга оширилиши лозим. Мана шу фаолият натижасида бир қанча ёъналишда бўлган моддий ва молиявий ресурслари ихчамлаштирилган енг муҳими асосий мақсадга ёъналтирилган бўлади. Натижада, иккинчи даражали еҳтиёжлар кейинга сурилиб, асосий фаолиятнинг тараққиётига, унинг самарадорлигига еришилади.

Бу ёъналиш илмий тадқиқотларга асосланган МСГни ташкиллаштиришда, айниқса, илмий-техника тараққиёти жараёнларини тезлаштирувчи тармоқларда (ёкилғи-энергетика, электрон саноат мажмуаларида ва б.) катта аҳамиятга ега бўлади. Бу жараён тармоқнинг ихтисослашган ёъналишига салбий таъсир кўрсатмаган ҳолда, унинг фаолият доирасини кенгайтиришга, енг муҳими фаолиятнинг барча жараёнларини асосий мақсадга ёъналтиришга хизмат қилиши табиий МСГ фаолиятининг характери бир томондан унинг иқтисодий жиҳатдан мақсадга мувофиқлигини белгиласа, иккинчи томондан у фаолият кўрсатаётган мамлакатнинг бозор муносабатлари шароитида тараққиёт даражаси билан боғлиқдир. МСГ фаолиятида жараёнларнинг универсалланиши бугунги кунда унинг барқарорлик хусусиятини белгилайдиган омил бўлиб келаётгани шубҳасиздир.

МСГ турли услубларда ташкил етилади. Улардан энг кўп тарқалгани барча иқтисодий-ҳуқуқий ваколатга ега ва шунга мувофиқ ҳуқуқий ва ҳўжалик юритиш жавобгарлиги бўлган янгидан ташкиллашаётган алоҳида қатнашчиларнинг ўз капиталларининг ихтиёрий қўшилувидан тузилган акциядорлик жамиятларидир.

Иккинчи усули МСГни ташкил этаётган қатнашчиларнинг ўз ихтиёрлари билан акция пакетларини қатнашчилар гуруҳининг бирига беришдан иборат. Одатда, улар банк ёки бирон бир молиявий-кредит ташкилоти бўлиши мумкин.

Учинчи усули корхона, компания, ташкилотларнинг бевосита МСГ аъзоларига айланиб қолишидир. Акция пакетларини ихтиёрий топшириш орқали ҳар доим ҳам МСГ ташкил етилавермайди, балки бу ҳолат ташкилотларнинг бир-бирига қўшилиши, бирикишидан ҳам юз бериши мумкин.

Халқаро характердаги МСГ ўзининг бош компанияси ва бошқа мамлакатлардаги бўлимлари, филиаллари, шуъба корхоналари жамиятларидан ташкил топади. МСГ молиясига хорижий сармоя қанчалик кўпроқ киритилса, шунга мувофиқ равишда ўзининг тузилмавий ташкилотларида шунча кўп хорижий бўлимларига ега бўлади.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, хорижга нафақат молиявий-саноат гуруҳларининг тармоқлари балки уларнинг бевосита молиявий кичик таркиблари ҳам олиб чиқиши мумкин.

Бу ўз навбатида умумгуруҳ шаклидаги молиявий муаммоларни ўтказиш жараёнини тезлаштиради ҳамда маҳаллий шароит бозор муносабатлари ва аҳволдан келиб чиқиб, барча фаолиятнинг истиқболини белгилаб беради (турли мамлакатлардаги валюта муносабатларининг ўзгариши, инфляция даражаси ва солиқ имтиёзлари).

Замонавий МСГ учун ўз молиявий ресурслари билан бош компания ва филиаллар, филиаллар ва унинг тармоқлари ўртасидаги муносабатларни мувофиқлаштириш катта аҳамиятга ега. Молиялаштиришнинг бош компания томонидан ёки филиалдан филиалга қараб амалга оширилиши фирмаларнинг умумий стратегиясидан ва ички молиявий аҳволдан келиб чиқади.

МСГ фаолиятининг кенгайиши хорижий тармоқлар сонининг ҳамда шунга мувофиқ тўғридан-тўғри ўсиши, кўпайиши асосида олиб борилиши еътиборга олиниши шарт. Булар хориждаги янги ишлаб чиқариш қувватларини молиялаштириш ёки амалда фаолият кўрсатаётган корхоналар акциялар назорат пакетини сотиб олиш кўринишида бўлиши мумкин.

МСГ иқтисодий ва молиявий муносабатларда бозор иқтисодиёти даврида фаолият олиб бораётган бошқа субъектлар олдида бир қатор имтиёзларга ега хомашё етиштирилишидан тортиб, то маҳсулот ишлаб чиқарилишигача бўлган жараёнлар технология занжирлари мустақамланади ва ишлаб чиқариш интегратсияси юз беради:

- фаолиятнинг диверсификацияланиши бозор муносабатларидаги барқарорлик ва бардошликни таъминлайди

- ишлаб чиқаришнинг қайта қурилиши учун тузилмавий реал бўлган имкониятлар ва шарт-шароитлар яратиб беради

- ишлаб чиқариш ва молиявий мақсадлар учун қўзланган капитал жамғармаларини шакллантиришнинг ишончли ва реал бўлган асослари яратилади

- МСГ доирасида ва унинг ташқарисида молиявий ресурслар билан унинг фаолият чегарасини ва таъсир доирасини кенгайтиришга қаратилган имкониятлар пайдо бўлади

-МСГ турли тармоқлари ўртасида тузилган гуруҳларнинг стратегия танловига мувофиқ капитални қайта тақсимлаш жараёни рўй беради

-гуруҳларнинг молиявий қудрати ўсади, молиявий барқарорлиги ва бўнак капиталидан фойдаланиш самарадорлиги ошади.

МСГ ташкилий қурилиши марказлаштирилган бошқарувдан тубдан фарқ қилади. Булар алоҳида гуруҳларнинг ташкилий жиҳатдан самарадорлиги, ваколати ва жавобгарлиги меъёри, ўзаро келишилган бошқарув қарорларини қабул қилиш жиҳатларини ўз ичига олади. МСГ тизимида илмий-тадқиқот ва тажриба-конструкторлик фаолиятини татбиқ этиш ва уни бевосита истеъмолчи фаолиятига яқинлаштириш ишлаб чиқаришга уларни жорий этиш муддатларини кескин қисқартиради. Маркетинг хизмати ёлга қўйилгани туфайли таъминот ва сотишга доир бўлган маблағ айланиши маромига тушади ва ўз ўрнини топади.

Иқтисодий мақсадга мувофиқ инвестиция қарорларини қабул қилиш, гуруҳлар молиявий ҳолати барқарорлигини таъминлайдиган воситадир. Шунинг учун МСГ тизимида махсус таҳлил этиш бўлинмалари мавжуд бўлади. Унинг тартибини инвестиция лойиҳалари тадқиқоти ва унинг жорий этилишига масъул бўлган юқори малакали экспортлар ташкил этади.

Инвестиция жараёнининг фаоллашувига таъсир кўрсатувчи омиллар:

- * МСГ доирасида тўғридан-тўғри молиялаштириш, яъни қимматли қоғозлар улуши ҳисобида инвестиция компанияларини шакллантириш, бу жараёнда кредитланадиган ташкилотларнинг қизиқишларини ортириш мақсадида қимматли қоғозлар сотиб олинишининг имкониятларини қайта кўриб чиқиш,

- * МСГнинг барча қатнашчилари маблағи ҳисобига таваккалчилик шаклидаги инвестиция лойиҳаларини молиялаштириш кўзда тутилган фондларни ташкил қилиш;

- *МСГ аъзоларининг аниқ фаолиятлари билан бевосита боғланган ва манфаатдор бўлган, молиявий ресурслари жамланган қўшма, манфаатдор ва шубба ташкилотлари механизмидан унумли фойдаланиш,

МСГ фаолияти самарадорлигини ошириш мақсадларида қуйидаги вазифаларни бажариш лозим бўлади,

- * МСГ таркибига нафақат йирик, балки ўрта ва ҳатто майда корхоналарни киритиш ва улар билан белгиланган тартибда узвий кооператсия алоқасини олиб бориш;

- * МСГ доирасида шубба, манфаатдор бўлган ва қўшма корхоналарни тузиш механизмини кенгайтириш, шулар қатори хориж капиталини жалб этиш;

- *МСГ контсернли асосини кенгайтириш, бу ўз ўрнида технологик занжирларнинг иқтисодий асосини ва хўжалик юритишда кооператсиялашнинг самарадорлигини белгилаб беради;

- * гуруҳлар доирасидаги молиявий ташкилотлар фаолиятлари шакли ва турларини кенгайтириш, уларнинг таркибига нафақат универсал бўлган, балки, ихтисослашган банклар, инвестиция фондлари ва молиявий компанияларни ҳам киритиш зарур. Бу тадбир вақтинча бўш бўлиб турган молиявий ресурсларни таваккалчилик оқибатидан сақлаб, жалб қилиш ва фойдаланишда жуда қўл келади;

- * МСГ доирасида инвестициялаш даражасини кўпайтириш учун давлат маблағларини кенг жалб қилиш, бунда бюджет ассигноватсияларини тўғридан-тўғри ажратиш ёъли билан емас, балки банклар аро кредитларни ажратиш ёълидан фойдаланиш аҳамиятлидир;

*маҳаллий бюджет ва минтақавий банклар маблағини жалб қилиш орқали минтақавий МСГ ларни тузишни фаоллаштириш.

Тажриба шуни кўрсатмоқдаки, кейинги пайтларда корхоналарнинг МСГ таркибига кириш ҳолати бирмунча кўпайди. Бунинг сабаби шундаки, манфаатли технологик ва хўжалик алоқаларини ёлга қўйиш мақсадида корхоналар ва молиявий-кредит муассасалари устидан акциядорлик назоратини ўрнатиш имконияти мавжуд бўлишидир. Жуда кўп корхоналарни еса минтақавий ва манфаатли федерал дастурларни амалга оширишда ҳамкорлик қилиш, бунда зарур бўлган давлат томонидан қўллаб-қувватланиш, айланма маблағларни тўлдириш ресурслари ва ишлаб чиқаришнинг техник жиҳатдан жихозланиш, узоқ муддатли ва истиқболли инвестиция лойиҳаларини ўзлаштириш имконияти пайдо бўлиши кизиқтирмоқда.

Дунё тажрибаси шуни кўрсатмоқдаки, саноат корхоналарини, тадқиқот ишлари билан шуғулланувчи ташкилотлар, савдо фирмалари ва банклари, ички шартнома муносабатларига асосланган кўпгина тизилмаларни ўз ичига олган МСГлар, кўпгина мамлакатларнинг бозор иқтисодиёти муносабатларига киришида муҳим роль ўйнамоқда.

Худди мана шу даражада ишлаб чиқариш ёлидаги ташкилотлар ратсионал ҳамкорликка еришадилар, давлат органлари билан шартнома алоқалари яхшиланади, бир қатор хўжалик субъектлари фаолиятида ҳамкорлик корпоратив режа ва дастурлар бажарилиши назорати, ишларни мувофиқлаштириш ҳамда тайёргарлик кўриш имкониятлари пайдо бўлади. Натижада ташқи инвесторларни жалб этиш, фонд бозорида фаолиятнинг корпоратив стратегиясини амалга ошириш ишлари фаоллашади, акциядорлар манфатларини ҳимоя қилиш ва ҳаётга татбиқ этиш, бошқа бошқарув функцияларининг бажарилиши тезлашади. Мана шу асосда интегратсиялашган ва алоҳида олинган бошқарув структуралари муносабатларини излаш жараёни бошланади.

МСГ самарали бозор иқтисодиёти ўз моҳияти билан давлат микро-иқтисодиётини бошқаришнинг ретранслятори бўлиб ҳисобланади. Шундай қилиб, ишлаб чиқаришнинг макроиқтисодий бошқарилиши, халқаро иқтисодий ҳамкорлик қилиш барқарорлиги ошади. МСГ федерал ижроий ҳокимиятининг табиий ҳамроларидир. Улар кўпгина мамлакатларда бўлганидек, ўз иқтисодиётларини тезкор модернизатсияланиши мақсадида стратегиясини ишлаб чиқиш ва амалга оширишда кўл келади.

6.2. Корпоратсия фаолияти.

Тараққий этган бозор иқтисодиётига асосланган мамлакатларда йирик ишлаб чиқаришни бошқаришда корпоратсия енг кўп тарқалган ташкилий бошқарув ҳисобланади.

Бу мустақил бўлган ҳуқуқий шахс сифатида ташкил топган қатнашчилар манфаатини ифодалайдиган ва ҳимоя қиладиган ташкилот ёки ташкилотлар уюшмасидир.

Корпоратив қонунчилиги асосида, корпоратсия учун ким егалик қилишдан қатъий назар ҳуқуқий шахс сифатида фаолият кўрсатади. Корпоратсия ўз номидан битимлар тузади, кредитлар олади, ссудалар беради ва бошқа фаолиятларни олиб боради, акциядорлар корпоратсия ҳаракати учун жавобгар емаслар. Мана шундай

ҳукукий мустақиллик корпоратсия учун ниҳоятда муҳим бўлган шартдир. Индивидуал актсиядорлар кўп бўлган бундай шароитда корпоратсиянинг нормал фаолият олиб бориш учун мустақилликнинг аҳамияти катта.

Замонавий корпоратсия ўз таркибида кўплаб шўъба жамиятлари, бўлимлари, филиаллари, агентликлари, турли босқичда хўжалик юритиш мустақиллиги ҳамда турли ҳукукий статуслари бўлган бошқа хўжалик тузилмаларидан ташкил топади. СХунинг учун ҳам корпоратсия фаолияти учун бошқарилиш шакли ва услублари муҳимдир.

Актсиядорлар компания устидан бевосита раҳбарлик олиб бормайди. Улар ўзларининг бошқариш ҳуқуқларини унинг президенти ёки бош директориға берадилар. Лекин қандайдир усулда у қабул қиладиган қарорға таъсир кўрсатиши мумкин. Бу ўринда улар кўпинча ўзларининг овоз бериш ҳуқуқларидан фойдаланадилар.

Ҳар бир актсия актсиядорлар учун овоз ҳуқуқини беради. Актсиядорлар ўзларининг директорларини сайлайдилар. Улар ижрои орган фаолиятини назорат қилиб боради. Кенгаш бошқарувчиларини ёллаш ва ишдан бўшатиш билан бирга уларнинг қабул қилган қарорларини қайта кўриб чиқиш ва бекор қилиш ҳуқуқларига ега.

Корпоратсия қонунчилигига кўра бошқарув кенгаши маъмуриятини емас, балки унинг пайчилари манфаатларини ҳимоя қилишлари зарур.

Кўпчилик корпоратсияларға хос бўлган асосий хусусиятлар шундан иборатки, уларнинг актсиялари бозорда еркин равишда сотилиши ва сотиб олиниши мумкин.

Корпоратсиялар бозорда иқтисодиётнинг фундаментал бўлган иккита муаммосини очишда муҳим роль ўйнайди. Биринчиси йирик инвеститсия учун капиталларни жалб етишдир.

Бозор иқтисодиёти ривожланган мамлакатларда корпоратсиянинг ўзи зарур бўлган маблағларни топиш имкониятиға ега. Бунинг учун у минглаб, ҳатто миллионлаб хусусий инвесторларни ўз фаолиятиға жалб етади. Улар ўз навбатида ўз капиталларининг жойлаштирилуvidан манфаатдорлар. Корпоратсия фаолиятида иштирок етиш унинг қатнашчилари учун қатор енгилликлар беради, биринчидан, хусусий улуш аниқ белгиланган бўлади ва уни кейинчалик сотиш мумкин бўлади, иккинчидан пайчилар чегараланган жавобгарлик билан ҳимоя қилинган бўлади. Йирик даражадаги лойиҳаларни амалға ошириш учун маблағларни жалб қилиш корпоратсия шароитида ниҳоятда қулайдир.

Иккинчи муаммо диверсификатсия, яъни таваккалчилик ҳаракати зарарини енгиллаштиришдир. Ҳар бир инвестор компанияларға оз миқдорда маблағни қўйишға интилади. Актсиялари еркин тарзда сотиладиган ва сотиб олинадиган корпоратсиялар шу таркибдаги диверсификатсиялар учун қулай шароит яратиб беради.

Ҳозирги шароитда корпоратсияни бошқаришда доимий бўлиб қолган, функционал ва бошқа тузилмаларни ҳамда замонавий шаклларни қўллаш мумкин. Марказлашган раҳбарлик қилишдан марказлашмаган бошқарув тизимиға ўтишда қулай шакллардан фойдаланиш мумкин. Бу жараённинг асосий кўринишлари қуйидагилардир: ишлаб чиқариладиган маҳсулотларнинг турлари бўйича компанияларда бўлимлар ташкил етиш, компания ёки бир нечта бўлимларға уларнинг ишлаб чиқариш-хўжалик фаолиятларини мувофиқлаштириш учун гуруҳли

юқори бошқарувчиларни жорий етиш, функционал органларни олий кооператив раҳбарликка бўйсундириш.

Корпоратсия бошқаруви тузилмаларини қайта марказлаштириш, умумкорпоратсия даражасидаги фаолиятни ишлаб чиқариш хўжалик соҳаларига ажратишдир. Бу ҳолда бўлимларни бошқариш девони кенг ваколатга ега бўлади. Унга ишлаб чиқариш хўжалик фаолияти натижалари ва маҳсулотларининг бозорга бардошлилиги учун жавобгарлик масъулияти юкланади. Олий раҳбарлар учун узоқ муддатли истиқболли вазифалар кенгайиб бораётган ташқи алоқалар, директорлар кенгаши фаолиятини ташкиллаштириш билан шуғулланиш имкониятлари пайдо бўлади.

Корпоратсия доирасида ҳуқуқий ва масъул турли органлар ўртасида: маркетинг раҳбарлари, техник тадқиқотлар, таъминот, ишлаб чиқариш ва сотиш ишлари бўйича тақсимланади.

Бундай фаолият кўп турдаги маҳсулотлар барқарор ишлаб чиқариладиган тармоқларда катта аҳамият касб этади. Чунки ишлаб чиқаришнинг бундай ҳолатида кўп миқдорда иқтисод қилишнинг реал имкониятлари мавжуд бўлади. Бу шароитда ишлаб чиқаришни бир блокка жамлаш мақсадга мувофиқдир (масалан, нефть қазиб олиш, металлургия саноати).

Бозор муносабатларида истеъмол қилишнинг юқори даражада контсентратсияланувида барча сотувга доир фаолиятни бирлаштириш катта аҳамиятга ега бўлади (масалан, аерокосмик саноати).

Ишлаб чиқаришда диверсификатсиянинг кенгайиши, ички ва ташқи алоқаларнинг мураккаблашиб бориши, техник янгиликларни татбиқ етиш динамизми, маҳсулотларни бозорда сотиш рақобати кучайгани жиддий қийинчиликларни келтириб чиқаради ва бу ўз навбатида бошқарувнинг соф функционал шаклларида фойдаланишни ёъққа чиқаради. Корпоратсия таркибларининг кўпайиши, ишлаб чиқариладиган маҳсулотлар турларининг ва уларни бозорда сотиш муносабатларининг кўпайиши натижасида бошқарувнинг функционал тузилмалари алоҳида функционал бўйича масъулият ва ҳуқуқларнинг хилма-хиллигидан келиб чиқиб атрофдаги ўзгаришларга етарли даражада муносабат билдира олмай қоладилар. Бунинг натижаси ўлароқ бошқарувда мавқе устунлиги бўйича жанжаллар келиб чиқади, зарур қарорлар қабул қилиш узоққа чўзилади, коммуникатсия чизиқлари узаяди, назорат қилиш функтсияларини амалга ошириш мураккаблашади.

Корпоратсия бошқарувида унга доир ўрнатилган қатъий функционал чизмаларидан воз кечиб, бошқарувни тузилма бўлинмалари бўйича амалга ошириш ишлаб чиқаришни диверсификатсиялаш даражасини ўстиришда яна ҳам яқинроқ намоён бўлади.

Турли кўринишдаги маҳсулотлар ишлаб чиқарилишига ўтилиши муносабати билан функционал тузилмалар ишлаб чиқариладиган маҳсулотлар турига қараб автоном детсентрализатсиялашган бўлимлари бўйича бошқарувни ташкиллаштириш томон юз тутиши кўринади.

Бошланғич ишлаб чиқариш хўжалик бўлинмаларини мустахкамлаш, корпоратсияларда дитсентрализатсиялаш чегараларини белгилаш, ишлаб чиқаришга доир камчиликлар ва сарфлаш харажатларини камайитириш билан баҳоланади. Юқори раҳбарлик бўлинмаларининг таъсирини кучайтириш, қаттиқ молиявий

назорат ўрнатиш ва умум ишлаб чиқариш хўжалик фаолияти жараёнини режалаштириш ишлари билан боғлиқдир.

Корпоратсияларни бошқаришни юқори даражада уюштириш алоҳида диққат-эътиборни жалб этади. Вазифаларни, жавобгарлик масъулиятини ва ваколатлилик чегараларини тақсимлаш шакллари ишлаб чиқиш жараёни кетмоқда.

Корпоратсиянинг олий бошқарув мансаблари куйидагича дифференцияланади: президент ёки бошқарув раиси, вitse-президент, гуруҳ вitse-президент, ижрочи вitse-президент, ижроия қўмитаси раиси ва б.

Корпоратсиялар бошқаруви тизимида президент маслаҳатчиси ёки бош бошқарувчи, корпоратсия фаолиятига сезиларли даражада таъсир кўрсатувчи тавсиялар ва ҳалол баҳо берадиган ҳамда тенг стратегик тарзда компания ишини кўриб чиқадиган мустақил эксперт лавозими киритилиши кейинги пайтларда кўплаб кузатилмоқда.

Мустақил экспертиза ўтказиш учун директорлар кенгаши таркибига иқтисод, бозор муносабатлари, молия, капитал кўйилиши, бошқарув масалалари бўйича ихтисослашган олимлар киритилмоқда. Маълум бир ишлар учун жавоб бермайдиган ва қандайдир алоҳида функция билан алоқадор бўлмаган бундай мутахассис компаниянинг директорларидан бири ҳисобланади ва қабул қилинаётган чоратadbирлар, олий раҳбарлик қарори характерига маълум даражада таъсир кўрсатади. Техник тараққиётнинг истиқболидаги ёъналиши билан алоқадор бўлган бир қатор йирик саноат компанияларида кейинги йилларда янги техника ғояларини татбиқ етадиган ва унинг тезкорлик билан ҳаётга жорий етилишига бевосита ёрдам берадиган олий раҳбарлик қошида махсус гуруҳлар ташкил қилиш амалиёти кўлланилмоқда.

Корпоратсия бошқаруви тизимида функционал штаблар хизматлари фаолиятини ёъналтириш ва ташкиллаштиришдаги сезиларли ўзгаришлар ҳам шундай ўзгаришларнинг натижасидир. Мазкур ўзгаришлар олий раҳбарлик еhtiёжларини яхшилаш, корпоратсиялар турли тармоқларига хизмат кўрсатишнинг функционал хизматларини ихтисослаш, режалаштириш ва назорат ишларининг самарадорлигини оширишга қаратилган. Компания бошқаруви тизимида атроф-муҳит муаммолари, истеъмолчилар билан бўлган муносабатларни ўрганиш ва бошқа масалалар билан шуғулланувчи органлар ҳам тузилиши мумкин. Ишлар ҳажмининг ўсиши, ишлаб чиқаришнинг деверсификацияланиши, бозор муносабатларининг мураккаблашуви, корпоратсия доирасида компанияларнинг катта ҳудуди тарқоқлиги корпоратсия барча асосий хизматларининг қайта марказлаштирилишига олиб келади.

Корпоратсия даражасида функционал тармоқлар сони камаяди, шу билан бирга бўлимларда ишлаб чиқариш, сотиш, тadbқиқот ва лойиҳа-кострукторлик ишлари, моддий техника таъминоти, транспорт ҳомашёси, материаллар, ярим фабрикатлар ва тайёр махсулотлар билан боғлиқ ишларга раҳбарлик қиладиган штаб органлар тузилади.

Корпоратсиянинг ташкилий тараққиёти бўйича функциялар ва тармоқларнинг пайдо бўлиши аҳамиятли тендентсиялардан саналади. Бошқарув ташкилий тизимини истиқболли режалаштириш, марказлашган ва марказлашмаган муносабатларнинг ўзгаришини лойиҳалаш юқоридаги органларнинг мазмунидир.

Корпоратсияни бошқариш амалиётида яна бир жараён-супер бўлимлар тузилиши рўй бериши зарур бўлган ижобий жараёндир.

Бу жараён икки хил ёъналишда давом этади: биринчи ҳолда икки ёки бир неча бўлимлар бирлашади ва улар орасида корпоратсиянинг мустақил равишдаги йирик мустақил тармоқлари пайдо бўлади, бошқа ҳолатда бевосита бир қатор бўлинмаларнинг ишлаб чиқариш-хўжалик фаолиятини бошқарадиган гуруҳли аппарат олий бўлинмасида орган бўлиб қолади.

Йирик ишлаб чиқариш - хўжалик гуруҳларнинг ташкил топиши (супер бўлимлар) маҳсулотларнинг янги турларини тадқиқ етиш ва ўзлаштириш билан боғлиқ бўлим, маълум маҳсулотларни истеъмол қилувчиларга хизмат кўрсатиш бир неча бўлимларнинг техник, ишлаб чиқариш ва бошқариш потентсиалларидан фойдаланишга тўғри келади. Шундай гуруҳнинг асосий фаолияти молиявий назорат қилиш, ишлаб чиқариш ва маҳсулот сотишнинг узоқ муддатли режалаштиришни таъминлаш, техник тадқиқотлар ва илмий изланишларни ташкиллаштиришдан иборатдир.

Барча янги шаклларни ташкиллаштиришнинг енг муҳим элементи ЭХМ асосида ишлайдиган бошқарувнинг ахборот тизимини яратишдан иборат. Ҳар бир тараққий етган мамлакатнинг иқтисоди кучли корпоратсиялар фаолиятига таянади, дунё бозори еса трансмиллий корпоратсияси фаолиятига таянади. Бизнинг саноатимизнинг ташкилий тизими корпоратив тизимга яқин туради. Кўплаб бир-бирига яқин турадиган корхоналар ратсионал ташкил етилган хўжалик алоқалари ва аниқ технологик занжирли таркибларда фаолият кўрсатган ва ташкил топган. Шунга қарамасдан илгари бошқарувнинг тармоқли тизими корпоратсия типидagi тармоқларнинг интегратсиялашуви ва кўп тармоқли бирлашмаларнинг ташкил бўлишига тўсқинлик қилган. Бугунги кунда идоравий тўсиқлар ёъқ. Шунинг учун ишлаб чиқаришнинг тармоқлараро шаклланишига кенг ёъл очиб берилиши лозим.

Ватанимиз иқтисодининг ташкилий тузилмаларини кучли тармоқлараро корпоратсияси асосида қайта қуриш зарурий амалий вазифадир. Жуда кўп корхоналарнинг корпоратсия асосида қайта қурилиши уларнинг яшаб қолишини таъминлайдиган омиллардандир. Кадрларнинг илмий тармоқлари, ижтимоий инфратузилмаларнинг сақланиб қолиши, буюртмалар олиш, моддий-техник таъминотни таъминлаш ва тайёр маҳсулотни сотиш, қайта ташкил қилинишига боғлиқ. Бу ёъналиш ўтиш даври қийинчиликларини енгилда ишончли омилдир.

Трансмиллий корпоратсия (ТМК) миллий даражага кўтарилган корпоратсиянинг алоҳида туридир. У ўз фаолиятининг дунё бозорида хорижий филиаллар ва шуъба жамиятлари воситачилигида олиб борувчи ташкилотдир. Бу хорижий активлари бўлган компаниядир, яъни капитали ва назорати бўйича миллий ҳисобланиб, фаолият ёъналиши халқаро асосда бўлади. Назорат остида бўлган хорижий корхоналар тузилиши (шуъба жамиятлари ва филиаллари) йирик миллий корпоратсияларнинг капитали экспорт асосида юз беради. Ҳозирги замон шароитида ТМК дунё бозорининг асосий субъектларидан бири бўлиб қолди. ТМК тараққиёти хўжалик ҳаётининг интернатсияланишувининг кучайиши асосида рўй беради.

ТМК назорат остида бўлган хорижий корхоналар асосида кенгайган хорижий тармоқларни тузади ва трестлар, контсернлар кўринишида фаолият кўрсатади. Улар миллатлараро корпоратсиялардан тубдан фарқ қилади, чунки улар турли миллатлар капиталининг бирикувидан ташкил топади. ТМК ишлаб чиқариш ёъналиши алоҳида хусусиятга ега. ТМК XIX аср охири XX аср бошларида йирик монополияларнинг

хорижга чиқарилиши билан хорижий ишлаб чиқариш филиаллари асосидла ташкил топган. XX асрнинг 50-60 йиллардаги хорижий иқтисодий муносабатлар тизимида ТМК ўзининг муносиб ўрнини топди, улар 50% атрофида саноат ишлаб чиқаришида ва 60% атрофида дунёнинг индустриал ривожланган мамлакатлари ташқи савдосини назорат қила бошлади. Бугунги кунда ТМК фаолият доираси тобора кенгайиб бормоқда, бу дунё ҳўжалигида интернатсионаллаш жараёнининг чуқурлашаётганидан далолат беради.

ТМК бошқарувининг ташкилий тизимлари бевосита унинг моҳияти билан узвий боғланган. Хорижда кенг кўламдаги филиаллар, ваколатхоналар ва шуъба фирмаларига ега бўлишига қарамасдан ТМК маълум бир мамлакат ҳудудида бош корхона сифатида ҳуқуқий жиҳатдан рўйхатдан ўтган бўлади. Бош офиснинг олий бошқарув таркиби компаниянинг барча “пирамидалари”, шу жумладан, унинг хорижий тармоқлари устидан назорат ўрнатишга кафолатланган. Бу унинг қаттиқ марказлашган хусусиятидан далолат беради.

Миллий компанияларда бошқарувнинг номарказланиши жараёнининг кучайиши билан ТМК бошқарувнинг янги усуллари кўллашга интилади, бунинг учун бош офиснинг олдинги функсияларини ўзининг хорижий тармоқларига беради, бу тезкор бошқарув жараёнига айниқса тааллуқлидир.

Номарказлашган ТМКда фойда олиш марказлари ёки автоном тармоқлари асосан ҳўжалик бўлими ҳисобланади. Улар маҳсулотларни сотиш ва турли хизматларининг мустақил ҳисоб китобини олиб борадилар.

Кўп ҳолларда стратегик аҳамиятдаги ҳўжалик марказлари бўйича бошқарув тизимларининг бўлиниш ҳолати юз беради. Йўқорида санаб ўтилган функсиялардан ташқари бозордаги келажак тенденциялари, маҳсулот рақобатбардошлиги, маркетинг изланишлари ва ҳ.к. таҳлилларини ҳисобга олган ҳолда мазкур тармоқ тараққиётининг стратегик режалаштирилиши амалга оширилади.

Бошқарувнинг номарказлашуви бош офис томонидан молиявий-иқтисодий назоратнинг қисқаришига олиб келди ва хорижий тармоқларга доир қарор қабул қилишда кенг кўламда фаолият олиб бориш имконини яратди. Шунга қарамасдан кўп йиллар давомида ҳукмронлик қилган бошқарувнинг марказлашуви кўпгина ТМК олий бошқарувнинг қуйи босқичга ҳукмронлиги аниқ кўринишдаги вертикал хусусиятга ега бўлди.

Вертикал интегратсия ТМК га компаниянинг асосий бизнеси ҳамда ишлаб чиқаришнинг босқичма-босқич, махсус технологияга асосланган фаолиятни бошқариш имкониятини яратади.

Ишлаб чиқаришни диверсификатсиялаш зарурлиги, фаолиятга янги жараёнларни татбиқ этиш ТМК бошқарув тизимида ўзгартиришлар киритиш заруратини туғдирди. Компанияларда бошқарувнинг матричли тизими жорий этила бошлади. Бунда ТМК бошқариш усули ниҳоятда кенгайиб кетди, шунинг учун бошқарувнинг синалган енг содда вертикал ва горизонтал алоқасига ўтилди.

Бошқарувнинг замонавий тарзда қайта қурилиши фан ва техниканинг тараққиёти, енг аввало, компания ички тузилиши компютерлашгани билан боғлиқдир.

Электрон алоқа ахбротларнинг электрон узатилиши, компания бош офисидаги глобал жараёнларни фаол бошқариш имконини туғдиради. Бу ўз навбатида жойларда тактик бошқарувни амалга ошириш имконини беради. Бошқарувнинг

ташкилий шакллари ҳўжалик юритиш, янги шаклларининг тараққий етиши ва унга мосланиши орқали юзага келади.

6.3. Холдинг компанияларининг асосий хусусиятлари ва бошқалар

Холдинг компанияси бошқа компанияларнинг назорат аксия пакетларига егалик қилувчи ташкилот бўлиб, уларга нисбатан назорат ва бошқарув муносабатларини олиб боради. Холдинг бозор муносабатларини олиб боради. Холдинг бозор муносабатлари шароитида замонавий корпоратсия ва бошқа ташкилий тузилмаларнинг хусусий бошқарув ва молиявий ядроси ҳисобланади.

Фаолият юритишга кўра холдинглар соф, тезкор ва аралаш тармоқлар кўринишида бўлади. Соф холдинглар ўз фаолиятларини шуъба жамиятларига нисбатан фақат назорат бошқарув функтсияларини ўташ билан олиб боради. Аралаш холдинглар еса тадбиркорлик фаолияти билан алоқада бўлган саноат, савдо, транспорт ва бошқа жараёнлар билан юқорида баён қилинганидан ташқари турли фнуктсияларни ҳам бажаради.

Холдинг компанияларининг асосий хусусияти шундан иборатки, улар фақатгина бошқа аксиядорлик жамиятларининг аксиялар пакетини назорат қилувчи аксиядорлар жамияти манфаатини ҳимоя қилмайди. Уларнинг шуъба ва бўйсинувчи корхоналари ўз устав катталигига ега бўлган ҳуқуқий шахслар ҳисобланадилар. Ислоҳотлар ўтказиш йилларида мазкур институтларнинг фаолият юритишига доир зарур тажрибалар тўпланди.

Ҳозирги шароитда холдинг тизимининг учта тури: интегралланган саноат компаниялари, конломератлар, банк холдинги мавжуд. Табиий монополит бўлган тармоқларда давлат назорати ўзини оқлайди. Барча тараққий етган мамлакатларда давлат айрим тармоқларни бошқариб тайинлаб туради. Масалан, электр енергияси тарифлари ана шундай муносабатларни талаб қилади.

Бундан ташқари давлат хусусийлаштириш, табиий монополияларни йириклаштириш ёки кўшиш тўғрисида қарор қабул қилади. Бундай тармоқларга нисбатан аксиядорлик назорати табиий жараён ҳисобланади. Табиий монополияларга нисбатан қўлланиладиган давлат томонидан мувофиқлаштирилиб, бошқариб туриладиган жараёнларни бозор қонунлари бўйича тараққий етадиган тармоқларга нисбатан қўллаб бўлмайди.

Холдинг маълум ташкилий тизим асосида тузилиши ва амалда фаолият кўрсатаётган фирмаларнинг назорат аксия пакетларини топшириш ёъли билан тузилади, ёки янги холдингги аксиядорлик жамияти ҳам тузилиши мумкин. Бунда янгидан тузилган жамиятлар аксиялари назорат пакетларини ўзларида сақлаб қолиниши шарт қилиб қўйилади.

Ҳозирги шароитда асосан, конгломерат типигаги йирик компаниялар оралик холдингларини ҳам тузишлари мумкин. Булар компания тузилмасидаги катъий бир вазифани бажарувчи алоҳида жамиятлар ёки тармоқлар бўлиши мумкин. Улар патент ва литсензияланган хизмат кўрсатиш ёрдамида инвеститсия холдинги билан шуғулланишлари мумкин. Оралик ёки субхолдингларни тузишдан мақсад маълум бир иш участкаларида барча ресурслар турларини, интеллектуал потентсиални жамлашдан иборатдир. Бу ўз навбатида компания манфаатидан келиб чиқиб, турли

факторлар гуруҳидан максимал даражада фойдаланиш имконини яратади. Мазкур тенденция илмий ёналишдаги ишлаб чиқаришлар учун хос бўлган хусусиятдир.

Бозор муносабатларидаги холдинг тизими алоҳида олинган компаниялар олдида қатор устунликларга эга. Булар хом-ашё етиштиришдан тортиб, тайёр маҳсулот ишлаб чиқаришгача бўлган тор доирада технологик занжирни тузиш, уларни истеъмолчига етказиб бериш, савдо, маркетинг ва бошқа хизмат турларида иқтисодни таъминлаш, ишлаб чиқариш диверсификациясидан унумли фойдаланиш, ягона солиқ ва молиявий кредит сиёсатини юритиш, холдинг тизими доирасида молиявий ва инвестиция ресурслари билан фойдали бўлган фаолият олиб бориш имкониятларини яратишдан иборат.

Бундан ташқари холдинг тизимига кирган ҳар бир корхона холдинг акцияларига эга бўлгач, холдинг барча субъектларининг самарали фаолият юритишида иқтисодий манфаатдор бўлади.

Холдинг компаниялари бир томондан ўз назорати остида саноат ва савдо корхоналари молиявий институтларни ҳам бирлаштириши мумкин. Иккинчи томондан ўз навбатида холдинг компанияси функциясини молиявий-кредитлар ёрдамида ишлаб чиқариш ва тижорат ташкилотларини, инвестиция фондлари, суғурта компанияларини ўзида қамраб олган йирик банклар ва бошқа молиявий институтлар ҳам бажариши мумкин.

Шундай холдинг компаниялари мавжудки, улар саноат корхоналари акция пакетларини бошқара туриб, ишлаб чиқариш масалалари билан шуғулланмайдилар, аксинча акционерларини ташкил етишга ихтисослашадилар. Мазкур компаниялар назорат пакетларига егаллик қилишлари учун жуда кўп куч сарф қиладилар, кейин еса мазкур пакетнинг кўпгина қисмини паст нархларда аукционларда сотиб юборадилар. Бундай холдинглар давлат капитали иштирокида ташкил етилса ҳам, давлат бюджетига реал фойда келтирмайдилар.

Холдинг компанияси турли соҳада фаолият юритаётган компанияларга тегишли кўпгина мулклар устидан назорат ўрнатиши мумкин. Уларнинг умумий баҳоси компания шубҳа корхоналарининг барча умумий активидан юқори бўлиши мумкин. Холдинг компанияси бошқарувининг олий органи акциядорларнинг умумий мажлиси ҳисобланади, улар оралиғида еса бошқарув аппарати ҳисобланади. Шубҳа корхоналари директорларининг кенгаши холдинг раҳбарияти томонидан тайинланади ва уларнинг ишончли вакили ҳисобланади. Бош холдинг компанияси тактика ва стратегия масалалари билан шуғулланади, тараққиёт мақсадларини белгилайди, холдинг тизими субъектлари ўртасида мувофиқлаштириш ва коммуникатсия алоқаларини амалга оширади, ресурсларнинг оптимал тақсимланиши ва фойдаланиши мақсадида ягона молиявий раҳбарлик фаолиятини олиб боради, олий бошқарув аъзолар тақибини танлайди ва тасдиқлайди, ресурсларни барча турларини бошқаради, аудиторлик фаолиятини юритади.

Холдинг компанияси тавсиялар, кўрсатмалар, фармойишлар ишлаб чиқариш билан стратегик раҳбарликни амалга оширади, шубҳа жамиятлари тузатув кенгашида иштирок этади, вето ҳуқуқидан фойдаланади, иқтисодий ва молиявий таъсир ўтказиш ёли билан раҳбарлик қилишнинг турли хил услубларидан фойдаланади.

Холдинг компаниясининг устунлик жиҳатлари:

бошқа фирма устидан назорат ўрнатишнинг ҳуқуқий жиҳатдан соддалиги ва бирлашиши, қўшилиш ёки бошқа фирмалар активини сотиб олишдан кўра нисбатан арзонлиги;

холдинг тизими жараёнида шуъба корхонаси ихтиёрлигига ва ўз фикрини билдиришга шароит яратилади;

холдинг назоратидаги хорижий шуъба жамиятларини тузиш корпоратсия учун корпоратив тизим фаолияти чекланган мамлакатлар бозорига кириш учун ҳуқуқий асос яратиб беради.

Қуйидаги хилларда холдинг компаниялари фаолият юритганда иқтисод учун максимал даражада фойда келтиради:

-ишлаб чиқариш юқори даражада марказлашган саноат тармоқларида (масалан, қора ва рангли металлургияда);

-табiiй монополчи бўлган тармоқларда (масалан, газ саноати, энергетика);

-умумий технологик занжирда бирлашган корхоналар конгломерат интегратсияси юз берадиган тармоқларда (масалан, нефть қазиб олиш, нефтни қайта ишлаш);

-криминал тижорат тузилмалари корхоналарнинг актсия, назорат пакетларининг назоратсиз сотиб олиниши рўй берганда (бу ҳолда актсияларнинг назорат холдинг компанияларига берилиши лозим).

Холдинг компанияларини тузишда дифференциалли ёндашув ва уни қўллаб - қувватлаш шундай тизимларнинг самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Янгидан тузилган холдинг компанияси қонунчиликда белгиланган тартибда рўйхатдан ўтказилиши лозим. Қайд етилган кундан бошлаб, ҳуқуқий шахс ҳисобланади, фирма номланишга, ўз белгиси ва муҳрига ега бўлади. Холдинг компаниялари ўз номидан шартномалар тузади, мулкiiй ва мулкiiй бўлмаган ҳуқуқларга ега бўлади. Холдинг компанияси даромадлари уларнинг портфелида бўлган актсиялар дивидентлари ва қимматли қоғозлар фоизлари ҳамда тадбиркорлик фаолиятлари ҳисобидан шаклланади, бунга компаниянинг шуъба корхоналари томонидан ўзаро тузилган шартномага мувофиқ холдинг компанияси ҳисоб рақамига ўтказилган пул маблағлари ҳам киради.

Бугунги кунда миллий даражада юзага келаётган турли компаниялар ўртасида холдинг актсияларига ўзаро егалик қилиш каби услуби ҳам кенг ёйилмоқда. Бу компаниялар турли миллатларга мансуб бўлади. Холдингларнинг интернатсиялланишуви кўпгина йирик компаниялар турли минтақа ва мамлакатларда ўз фирмаларининг ваколатхона, шуъба жамиятларини очишга бўлган интилишлари оқибатида юз бермоқда. Минтақавий тармоқлар бош холдинг компаниялар назорати остида бўлган минтақавий субхолдинглар билан бошқарилмоқда.

Дунё тажрибасдан маълум бўлишича, холдинг компаниялар тез суръатлар билан ривожланиб бормоқда ва улар йирик корпоратсиялар устидан барқарор назорат ўрнатганлар. Шуниси еътиборга молики, субхолдингларни жойлаштриш масаласи бош холдинг компанияси томонидан ҳал қилинади. Чунки бунда бир қатор объектив омиллар албатта, инобатга олинади. Ишлаб чиқариш ва тижорат характеридаги масалаларни ҳал қилишдан ташқари бу масалада турли мамлакатлардаги солиқ солиш даражаси ҳам солиштириш ёъли билан таҳлил қилинади.

Холдинг компаниясининг шуъба жамиятлари ўзаро муносабатларида функционал ва технологик алоқалари мавжуд бўлмаса ва иқтисодиётнинг турли

хил тармоқларига мансуб бўлса, бундай компаниялар диверсифитсияланган ҳисобланади. Бундай холдинг компаниялари шуъба жамиятлари фаолиятига доир масалаларга фақат молиявий бошқарув ёъли билан аралашади, бошқа тезкор масалалар ҳар бир шуъба жамияти бошқаруви томонидан мустақил тарзда ҳал етилади.

Холдинглар мулкчилик шаклига кўра давлат, хусусий ва аралаш тарздаги хусусий - давлат тузилмавий тармоқларга бўлинади. Давлат холдинглари миллий манфаатлардан келиб чиқиб, холдинг таркибига кирувчи хўжалик субъекти олдида турган турли вазифаларни адо етишга кўмаклашади, уларнинг бажарилишини таъминлайди. (Саноат тармоқларининг қайта ташкилланишига кўмаклашиши, ишлаб чиқаришни модернизатсиялаш, инноватсия фаолияти, сотув бозорларига егалик қилиш ва ҳ.к.). Давлат холдинглари субхолдинглар орқали ўз фаолиятини турли тармоқларда олиб боради. Давлат холдинг компаниялари билан бошқариладиган акциядорлик компаниялари бозор шароитида хусусий корпоратсиялар учун амалда бўлган қонунчилик меъёрларига амал қилади.

Бугунги кун шароитида шахсий холдинг компаниялари ва аралаш шахсий давлат компаниялари олдинги ўринларда туради. Бунда давлат шахсий фирмалар акционерлик капиталида иштирок етади.

Консортсиум битим асосида тузиладиган бирлашмалар шаклидир (ҳуқуқий шахс сифатида ташкил етилиши ёки ташкил етилмаслиги мумкин). Консортсиум заёмлар, акцияларни жойлаштириш бўйича ҳамкорликда йирик молиявий оператсияларни ўтказиш ёки илмий ва капитални жалб қилиш лойиҳаларини амалга ошириш учун бир неча банклар, корхоналар, компаниялар, фирмалар, илмий марказлар, давлат тузилмалари билан шартнома асосида ҳамкорлик қилишни назарди тутати. Бу фаолият халқаро даражада ҳам олиб борилиши мумкин.

Бунинг оқибатида банк ва саноат капиталини кўшиб кетади. Лекин консортсиум таркибига кирувчи шериклар тўлиқ ҳолда ўзларининг иқтисодий ва ҳуқуқий мустақилликларини сақлаб қоладилар. Консортсиум мақсадлари билан боғлиқ бўлган фаолиятлар бундан мустасно. Консортсиум унинг қатнашчиларининг техник ва тижорат рақобатбардошлилигини ошириш мақсадида тузилади.

Консортсиумнинг ҳуқуқий шакли ҳуқуқий шахс сифатида ташкил топади, масъулияти чекланган акциядорлик жамиятлари ва бошқалар бўлиши мумкин. Улар вақтинчалик ёки доимий фаолият кўрсатиши мумкин. Вақтинчалик консортсиумлар нисбатан катта миқдорда бўлмаган миллий ва хорижий қимматли қоғозларни жойлаштириш ҳамда қисқа муддатли битимларни амалга ошириш учун тузилади. Доимий консортсиумлар маълум давлатлар ёки гуруҳ мамлакатларнинг қимматли қоғозларини жойлаштириш, айрим акциядорлик жамиятлари қоғозлари билан катта ҳажмдаги молиявий, тижорат ва инвеститсия муомалаларини олиб боради. Консортсиум одатда йирик банк ёки банк монополияси томонидан бошқарилади, келишув қатнашчилари-консортларни танлайди, қарз бериш шартларини ёки акциядорлик жамиятларини ташкил қилиш шартларини ишлаб чиқади, ҳужжатларни ҳуқуқий расмийлаштириш, қарзларни биржа котировкасига киритиш, аксия ва бошқа қимматли қоғозларни сотиб олувчилар ўртасида жойлаштириш билан шуғулланади. Бошқарувчи монополия консортсиум томонидан чиқариладиган қимматли қоғозларни сотишни таъминлайдиган турли филиаллар ва агентликлари бўлган кенг тармоққа ега бўлади. Консортсиум аъзолари воситачилик

тақдирланиш ҳуқуқига егадирлар. Рақобатлантириш миқдори заёмларини жойлаштиришдаги уларнинг унумли, акциялар эмиссиялари суммаси ёки консортсиум томонидан сотилган акциялар ва қимматли қоғозлар суммасига пропорционал тарзда белгиланади.

ХИХ аср охири ХХ аср бошларида консортсиумлар асосан миллий ва халқаро бозорларда молиявий оператсияларни бажариш учун банклар ўртасида битимлар, келишувлар тузиш билан шуғулланган. ХХ аср ўрталарида келиб контсортсиумлар саноат соҳасида кенг фаолият юрита бошлади, яъни йирик саноат, илмий техника, қурилиш ва бошқа лойиҳаларни сотиш билан шуғулланади. Шу тарзда контсортсиумлар йирик саноат бирлашмалари томонидан атом реакторлари қурилишига ҳам жалб етилганлар. Хусусий ва давлат тузилмалари контсортсиум қатнашчилари бўлиши мумкин. Бугунги илмий-техник тараққиёт ўзининг олий нуқтасига кўтарилаётган жараёнда, контсортсиумлар турли соҳада фаолият кўрсатаётган тармоқларнинг янги технологиялар билан алоқадор бўлган тузилмалар билан фаолият кўрсатишга интилоқда. Контсортсиумларнинг корхоналар билан ҳамкорликда илмий тадқиқот ишларини олиб бораётгани ана шу ёъналишнинг белгисидир. Контсортсиумни бошқариш қуйидаги тартибда олиб борилади. Унинг аъзолари ичидан лидер сайланади ва у қўшма фаолиятни мувофиқлаштириб боради. Шартнома мажбуриятлари юзасидан жавобгарлик умумий хажмга қўшган улушларига қараб контсортсиум аъзоларига тегишлидир. Контсортсиум доирасида улушли, ҳамжиҳатлик шаклидаги жавобгарлик маъсулиятлари бўлиши мумкин.

Контсортсиум ҳар бир аъзоси ўз фаолияти улушини молиялаштиради, ўз мажбуриятига тегишли қисмни бажариш учун тижорат ва техник таваккалчилик оқибатини ўз бўйнига олади.

Контсортсиум фаолиятининг интернатионалланиши унинг алоҳида хусусиятидир. Жумладан, халқаро майдонда дунё савдоси ва капиталларнинг ҳаракатланишига доир молиялаштириш масалаларида банклар билан ҳамкорлик қилиши мумкин. Асосий функсияси дунёнинг исталган мамлакатида капитал лойиҳаларни молиялаштириш учун заёмларни жойлаштиришдир. Шу ёъналишдаги контсортсиумлар ўрта ва йирик экспорт қилувчиларга ўз кредитларини таклиф этади, валютанинг барча кўринишларида вақтли улушларни жалб қилади. Қатнашчилар ва пайларнинг тақсимланиши контсортсиумнинг халқаро хусусиятига мувофиқ келади ва унинг доирасида турли мамлакатлар банк монополиялари ўртасида бир битимга еришилади.

Замонавий контсортсиумлар учун кўп миллатли ваколатчилик асосий хусусиятга ега. Бугунги кунда бир бутун давлатлар контсортсиумнинг қатнашчилари сифатида фаолият кўрсатмоқдалар. Халқаро ёълдошли алоқа тизими-интелсат ана шундай контсортсиумлардандир.

4. Xodimning egallagan lavozimiga loyiqligi qanday aniqlanadi?
5. Boshqaruv apparati xodimlarining mehnat sharoitlari qanday bo'lishi kerak?
6. Ishlab chiqarish menejmenti kadrlar ta'minoti mazmuni.
7. Ishlab chiqarish menejmenti kadrlar ta'minoti vazifalari.
8. Boshqaruv tizimida kadrlar ta'minotining taxlili.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. "O'zbekiston", T., 2008.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Xalq so'zi, 30 yanvar, 2010.
3. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi. T., 2009, 22 b.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T., 2009, 56 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Jaxon moliyaviy –iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning asosiy yo'llari va choralari" nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. Tuzuvchilar: B.YU.Xodiev, A.SH.Bekmurodov, U.V.G'ofurov, B.K.To'xliev. – T.: Iqtisodiyot, 2009.-120 b.
6. Karimov I.A. Erishgan marralarimizni mustaxkamlab isloxotlar yo'lidan izchil borish asosiy vazifamiz. Toshkent oqshomi., 24-son. 10 fevral, 2004.
7. Karimov I.A. Biz uchun xalqimiz, vatanimiz manfaatidan ulug maqsad yo'q. T., O'zbekisto, 2001
8. Zaynutdinov SH.N. va boshqalar. Menejment asoslari. –T: Moliya, 2001.
9. Sharifxo'jaev M., Abdullaev YO. Menejment. –T: O'qituvchi, 2002.
10. Kazantseva A.K. Osnovi proizvodstvennogo menedjmenta. –M: Seriya "V", 2008.
11. Kozlovskiy V.A. Proizvodstvenniy menedjment. Uchebnik: M, 2008.
12. Novitskiy N.I. Organizatsiya proizvodstva na predpriyatiyah: Uch.usul. posobie – M: Finansi statistika, 2008.
13. Fatxutdinov R.A. Proizvodstvenni menedjment -M, 2008.
14. Bukin S.O. Osnovi menedjmenta v voprosax i otvetax –M, 2008.
15. Paraxina V.N. Teoriya organizasii -M, 2008.
16. Lafta Dj. K. Teoriya organizasii -M, 2008.
17. Smirnov E.A. Teoriya organizasii -M, 2008.

18. Turovets O.G., Rodionova V.N. Teoriya organizatsii -M, 2008.

19. www.cer.uz Vse o menedjmente.

6-bob. ISHLAB CHIQARISH MENEJMENTI REKLAMA VA AXBOROT TA'MINOTINING TAHLILI

6.1. Reklama. Reklama ta'minoti tahlili.

6.2. Boshqaruv tizimining axborot ta'minoti tahlili.

6.3. Axborot massivlari va oqimlarining tahlili.

Mavzuning maqsadi - reklama va reklama ta'minoti, axborot tarkibi, axborot ta'minoti tizimi va axborot oqimlari tushunchalarini o'zlashtirish, reklama va axborot ta'minotining tahlili borasida ma'lum bilimlar berishdan iborat.

6.1. Reklama. Reklama ta'minoti tahlili.

Reklama pullik axborot tarqatish vositalari orqali, moliyalashtirish manbai aniq ko'rsatilgan holda amalga oshiriladigan kommunikatsiyalarning mavjud shakllarini o'z ichiga oladi.

Gazeta va jurnallar, radio va televidenie, tashqi ko'rgazmali vositalar (plakatlar, kalendarlar, gugurt qutilari va h.k.), transport planshetlari (poezdlar, avtobuslar, stadionlar, suv havzalarida), kataloglar, bildirgichlar, tsirkulyalar axborot tarqatish vositalari hisoblanadi.

Reklama axborot tarqatishning eng rentabelli usulidir. Reklama butun dunyoda qo'llanadi. 1991 yili AQSH ning reklama uchun sarf-xarajatlari 61,3 mlrd. dollarni tashkil etdi. Reklama berishda avtomobil va oziq-ovqat sanoati, chakana savdo va aloqa, tamaki sanoati etakchilik qiladi. Reklama xarajatlari umumiy sotuv hajmiga nisbatan 0,6-5,6% ni tashkil etadi. Reklama xarajatlarining sotuv hajmiga nisbatan rekord foizi "Noksell" korporatsiyasida qayd etilgan - 22,2% (F. Kotler. "Osnovo' marketinga", 512-bet).

Reklama ildizlari olis moziyga borib taqaladi. Tashkilotlar reklama ishiga har xil yondashadilar. Kichik firmalarda reklama bilan odatda bir xodim shug'ullanadi. Yirik firmalarda esa reklama bo'limlari faoliyat ko'rsatadi. Ko'pgina firmalar reklama agentliklarining xizmatidan foydalanadi.

Reklama agentligining negizi to'rt bo'limdan tashkil topadi: e'lonlarni ishlab chiqish va ifoda etish bilan shug'ullanadigan ijodiy bo'lim; reklama vositalarini tanlash va e'lonlarni joylashtirish uchun mas'ul bo'lgan reklama vositalari bo'limi; aholining xususiyatlari va ehtiyojlarini o'rganuvchi tadqiqot bo'limi; agentlik faoliyatining tijoriy jihatlarini bilan shug'ullanadigan tijorat bo'limi.

Reklama ta'minotining tahlili reklama vazifalarining qo'yilishini o'rganish, kommunikatsiya va sotuv maqsadlarini aniqlash, qo'llanadigan reklama byudjetini

hisoblash usullarini o'rganish, ya'ni reklama qiymatini aniqlashni o'z ichiga oladi. Reklamaga puxta o'ylangan ijodiy yondashuv talab etiladi, ya'ni reklama qanday tuzilishi, qanday yaratilishini bilish, reklamani tarqatishning asosiy vositalarini, reklama berilishining takroriylikini o'rganish lozim.

Reklama ta'minotining tahlili shuningdek reklama dasturini, uning kommunikativ va savdoga oid samaradorligini baholashni nazarda tutadi.

Savdoga oid samaradorlik ko'rsatkichlari sotuv hajmi reklama berilganidan keyin qanchaga oshganidan dalolat beradi. Reklamaning savdoga oid samaradorligini o'lchash usullaridan biri reklama berilganidan keyingi sotuv hajmini taqqoslash hisoblanadi. Reklamaning savdoga oid samaradorligini o'lchashning yana bir usuli sotuv hajmini ma'lum davrdagi reklama xarajatlariga taqqoslashdan iborat.

6.2. Boshqaruv tizimining axborot ta'minoti tahlili

Har qanday rahbar o'z faoliyatida boshqaruv ob'ektining xolati haqidagi ma'lumotlarga tayanadi. SHuning uchun ham axborot boshqaruv mehnatining predmeti va mahsuli hisoblanadi.

Axborotni mehnat predmeti sifatida tavsiflaganda uning qator xususiyatlarini hisobga olish lozim. Eng avvalo axborot - bu uzoq vaqt foydalaniladigan mehnat predmeti hisoblanadi. Ish va sarf-xarajatlarning eng katta hajmi axborot massivlari - ma'lumotlar bankini tashkil qilishning dastlabki bosqichi bilan bog'liq bo'ladi. Keyinchalik bu ma'lumot banklari vaqti-vaqti bilan yangilanib, tuzatilib turiladi, ammo ulardan foydalanishda davom etiladi. Axborot o'zini o'zi rivojlantirish qobiliyatiga ega. Axborot ta'minoti tahlilining maqsadlari uchun axborotning quyidagi turlarini ajratish muhimdir:

1. tavsiflanayotgan jarayonlardan kelib chiqib - ishlab chiqarish-iqtisodiy, texnik-texnologik, tashkiliy, ijtimoiy va h.k.;
2. tashqi va ichki axborot;
3. direktiv, me'yor, rejaga oid;
4. muntazam, o'zgaruvchan, uzoq vaqt saqlanadigan, tezkor, davriy;
5. hosil bo'lish darajasiga ko'ra - birlamchi, ishlab chiqarishga oid, umumlashma.

Axborotni tashkil etish uchun uni saqlash, ro'yxatga olish, to'plash, qayta ishlash, berish va undan foydalanish tartibini ko'p jihatdan belgilab beradi. Axborot ta'minotining tahlili uchun usullar va ta'minot ahvolini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni tanlab olish muhim ahamiyatga ega.

Tizimli tahlil, birinchidan, axborot ta'minotini boshqaruv tizimining elementlaridan biri sifatida ko'rib chiqish, ikkinchidan, axborot ta'minotini boshqaruvning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib tahlil qilish, uchinchidan, axborot ta'minotini dinamik tizim sifatida ko'zdan kechirishni nazarda tutadi.

Axborot ta'minotining tahlili boshqaruv tizimining pog'onalari (tsex, korxona, birlashma, aktsiyadorlik jamiyati, vazirlik) bo'yicha alohida va butun boshqaruv tizimi bo'yicha umumiy ravishda o'tkaziladi. Har qanday tahlil turiga quyidagi bosqichlar xos bo'ladi:

- a) axborot ta'minotining etalon holatini tanlash;
- b) axborot ta'minotining amaldagi ahvolini tahlil qilish;
- v) etalondan chekinish hollari va ularning sabablarini aniqlash;
- g) aniqlangan chekinishlarni bartaraf etish.

Tahlilning vazifalari axborot tarkibini, uning ob'ektivligi, to'g'riligi, aniqligi va ishonchliligini aniqlash, axborotning to'liqligi va zarurligini baholash, axborotning foydaliligi, to'g'riligi, o'z vaqtida kelgani, foydalanish uchun qulayligini tahlil qilishdan iborat.

Axborot ta'minoti tahlilining eng murakkab vazifalaridan biri axborotni to'plash, uzatish va qayta ishlash texnik vositalari hamda axborot tashuvchi vositalarning to'g'ri tanlanganligini baholashdan iboratdir. Axborotning mazmuni va unga bo'lgan ehtiyojni tahlil qilishda funktsional bo'linmalar va tarmoq rahbarlarining ob'ektiv talablaridan, ya'ni axborotga bo'lgan real talablardan kelib chiqiladi.

Axborot ta'minoti mazmunining tahlili boshqaruvda qo'llanadigan ko'rsatkichlar tarkibi, ularning hisob-kitobi va o'zaro aloqalari algoritmlarini, zarur axborotni olish jarayoni va uning harakatini o'rganishni nazarda tutadi.

Axborot ta'minoti murakkab va ko'p bo'g'inli bo'lib, ma'lumotlarning juda ko'p turlarini o'z ichiga oladi. Axborot ta'minotining tahlili boshqaruv tizimining axborotga bo'lgan ehtiyojini yanada to'liqroq qondirish, maqbul boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish, qabul qilish va ularning bajarilishini tashkil etish jarayonini engillashtirish uchun o'tkaziladi.

Boshqaruv tizimini axborot ta'minoti tahlilining maqsadi menejmentni tashkil etish takomillashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdan iborat. Axborot ta'minoti tizimining tahlili semantik (ma'nosiga ko'ra), pragmatik (iste'mol nuqtai nazaridan), iqtisodiy (axborot bilan bog'liq sarf-xarajatlar nuqtai nazaridan), sintaksik (tarkibiy), texnik (axborot tashuvchi moddiy vositalar nuqtai nazaridan), dinamik (axborot oqimlarining harakati nuqtai nazaridan) turlarga bo'linadi.

Axborot ta'minoti **semantik** (ma'no) jihatining tahlili axborotning to'liqligi, to'g'riligi, aniqligi, ishonchliligi, fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlari va ilg'or tajribalarni aks ettirish darajasini baholashni nazarda tutadi.

Axborot ta'minoti **pragmatik** jihatining tahlili esa axborotning foydaliligidini tahlil qilishni nazarda tutadi. U axborot ta'minoti darajasini, ya'ni boshqaruv uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlar bilan ta'minlanganlik, ma'lumotlarning o'z vaqtida olinishi, ularning to'liqligi va foydalanish uchun qulayligi va shu kabi omillarni baholashdan iborat bo'ladi.

Axborot ta'minoti tizimining tejamliligi tahlili axborot ta'minotining kompleksligi, uning markazlashtirilganligi va ixtisoslashtirilganligi, axborot xizmati ko'rsatish xarajatlarining darajasi, axborotlarning yangilanib turilishi, boshqa axborot tizimlari bilan aloqa qilishga qulayligi va boshqa shu kabi jihatlarini baholashni nazarda tutadi.

Axborot ta'minotining **sintaksik** (tarkibiy) tahlili esa operativ axborotni shartli-turg'un axborot, ya'ni hujjatga aylantirishning to'g'riligi va maqsadga muvofiqligini baholashni nazarda tutadi. Bunda axborot massivida vujudga kelgan aloqalar: axborotni kim, kimga va qachon berishi va kim, kimdan va qachon olishi, axborot boshqaruvning turli pog'onalari bo'ylab qanday taqsimlanishi, axborotning boshqaruv qarorlari tarkibi va mazmuniga mosligi o'rganiladi.

Axborot tashuvchi moddiy vositalar to'g'ri tanlanganligi va axborot massivlaridagi ma'lumotlar bankining tashkil etilishini baholash axborot ta'minoti tahlilining murakkab vazifalari hisoblanadi. Ular mavjud axborotni ro'yxatga olish va unga ishlov berish texnikasi, axborotni berish usulini o'rganish bilan aniqlanadi.

Axborot oqimlari harakatining tahlili axborot oqimlarining intensivligi, aniqligi, barqarorligi va izchilligini o'rganishni nazarda tutadi.

Axborot to'liqligining tahlili rahbar xodimlar va mutaxassislar bilan suhbatlashish yoki ular orasida so'rov o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Suhbat jarayonida ular o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bilan qanday ta'minlanganligi, ya'ni qanday ma'lumotlar etishmayotgani, mavjud ma'lumotlarning qaysi qismi deyarli ishlatilmayotganini aniqlash mumkin. Tahlil asosiga turli boshqaruv qarorlarining axborot bilan ta'minlanganligi qo'yilsa, axborotning to'liqligini yanada aniqroq tavsiflash mumkin bo'ladi. Bunda turli qarorlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarning me'yor tarkibi va soni belgilanadi (qarorning standart modeli), ularni amalda mavjud axborotga taqqoslash esa uning to'liqlik darajasini ko'rsatadi.

Axborot ta'minoti tahlilida ma'lumotlarning amaliy tarkibi va mazmuni turli ehtiyojlar bilan taqqoslanadi. Amaliy ehtiyojlar odatda real ehtiyojlarga ko'p jihatdan mos keladi. Bunday taqqoslash keraksiz, foydasiz ma'lumotlarni aniqlash va etishmayotgan ma'lumotlarni kiritish imkonini beradi.

6.3. Axborot massivlari va oqimlarini tashkil etishning tahlili.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida juda ko'p axborot mavjud bo'ladi. Har bir funktsional tizimda uning faoliyat doirasiga javob beruvchi o'z axborot massivi shakllantiriladi. Shu bilan bir vaqtda, turli bo'g'in rahbarlari zarur ma'lumotlarga ehtiyoj sezadilar. Axborot massividan foydalanish tahlili markazlashtirilgan tartibda foydalaniluvchi tizimga oid umumiy ma'lumotlarni; alohida funktsional bo'linmalarining ish doirasiga xos bo'lgan ma'lumotlarni; xodimlarning alohida guruhlar tomonidan alohida qarorlarni asoslash jarayonida foydalaniladigan ma'lumotlarni ajratish imkonini beradi. Bu ma'lumot turlarining har biri alohida axborot massivini hosil qiladi.

Tahlil jarayonida alohida axborot turlarini turli massivlarga kiritish, ularni turkumlash va kodlashtirish imkoniyatlari aniqlanadi.

Tahlil paytida tizimga oid umumiy, funktsional va maxsus ma'lumotlarning salmog'i, operativ va tashqi xotiraning nisbati hamda uning muntazam foydalaniladigan va uzoq vaqt saqlanadigan ma'lumotlar salmog'iga mosligi hisoblanadi.

Axborot harakatini tadqiq qilish, ya'ni axborot oqimlarini o'rganish tahlilning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Axborot oqimlari ishlab chiqarish tizimida (boshqaruv apparatining tarkibiy bo'linmalari o'rtasida) zarur aloqalarni va uning tashqi muhit (mahsulot etkazib beruvchilar va iste'molchilar, turli tashkilotlar) bilan aloqalarini ta'minlaydi.

Axborot manbalari hamda ularni qabul qiluvchilar o'rtasida ratsional aloqalarning o'rnatilishi boshqaruv tizimi samarali ishlashining zarur shartlaridan biri hisoblanadi.

Axborot oqimlarining tahlili odatda tadqiqot o'tkazish bilan boshlanadi. Bu tadqiqotni ikki usulda o'tkazish mumkin:

1. ushbu korxonada mavjud oqimlarni tadqiq qilish hamda boshqaruv apparati va ijrochilar tomonidan hal qilinadigan vazifalar doirasini aniqlash yo'li bilan;
2. boshqaruv apparati bo'linmalarining vazifalarini aniqlash, bu vazifalarni hal qilish uchun zarur axborotni tahlil qilish va ushbu vazifalarni mavjud axborot oqimlariga taqqoslash yo'li bilan.

Axborot oqimlarining tadqiqoti zarur axborot hajmini aniqlash, axborot oqimlarining sxemasini tuzish bilan yakunlanadi.

Axborot oqimlari xarakati gorizontal va vertikal tahlili. Ierarxik pog'onalar bo'yicha harakat tahlili axborotning vorisiyligini aniqlash imkonini beradi. Bu tahlil xulosalari turli pog'onalardagi axborot ta'minoti tarkibini aniqlash uchun asos bo'ladi.

Axborotning gorizontal harakati, uni alohida funktsional bo'linma doirasida va funktsional bo'linmalar o'rtasida uzatish qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish sxemasi hamda axborot harakati sxemalarini bir-biriga taqqoslash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Axborot tashuvchi vositalarni tahlil qilishning eng maqbul usuli tizimli tahlil hisoblanadi. Unda hodisalar sifatida ma'lum qarorlarning qabul qilinishi ko'zdan kechiriladi, qarorlarni qabul qilish yo'llari esa axborot oqimlaridan iborat bo'ladi. Tahlil jarayonida axborot o'tishining eng qisqa yo'llari qidirib topiladi.

Boshqaruv tizimlari taxlili axborot ta'minoti natijalari boshqaruv jarayonlarini ratsionalizatsiya qilish bo'yicha takliflar tayyorlashda, ish tarkibini boshqaruv apparati pog'onalari va bo'linmalari o'rtasida taqsimlashda, boshqaruvning tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirishda qo'llanadi.

Xulosa

Reklama pullik axborot tarqatish vositalari orqali amalga oshiriladigan kommunikatsiyalarning mavjud shakllarini o'z ichiga oladi.

Gazeta va jurnallar, radio va televidenie, plakatlari, bildirgichlar, kataloglar, transport planshetlari va shu kabilar axborot tarqatish vositalari hisoblanadi.

Axborot - bu boshqaruv mehnatining predmeti va mahsulidir. Har qanday rahbar o'z ishida axborotga tayanadi.

Reklama va axborot ta'minoti tahlilining maqsadi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun boshqaruv mehnatni tashkil etishni takomillashtirishdan iboratdir.

Axborot oqimlari vertikal va gorizontal tahlil qilinadi.

O'zini-o'zi tekshirish uchun savollar

1. Reklama ta'minotining tahlili nimalardan tashkil topadi?
2. Axborot ta'minotining tahlili nimalardan tashkil topadi?
3. Axborot ta'minoti tahlilining bosqichlarini sanab bering.
4. Axborot ta'minoti semantik jihatining tahlili nimadan iborat?
5. Axborot oqimlarini tadqiq qilish qanday yakunlanadi?
6. Reklama ta'minotining samaradorligini aniqlash.
7. Nimalar axborot tarqatish vositalari xisoblanadi?
8. Axborot ta'minotining ishlab chiqarishga ta'siri.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. "O'zbekiston", T., 2008.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Xalq so'zi, 30 yanvar, 2010.
3. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi. T., 2009, 22 b.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T., 2009, 56 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Jaxon moliyaviy –iqtisodiy

- inqrozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning asosiy yo'llari va choralari" nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. Tuzuvchilar: B.YU.Xodiev, A.SH.Bekmurodov, U.V.G'ofurov, B.K.To'xliev. – T.: Iqtisodiyot, 2009.-120 b.
6. Karimov I.A. Erishgan marralarimizni mustaxkamlab isloxotlar yo'lidan izchil borish asosiy vazifamiz. Toshkent oqshomi., 24-son.10 fevral, 2004.
 7. Karimov I.A. Biz uchun xalqimiz, vatanimiz manfaatidan ulug maqsad yo'q. T., O'zbekisto, 2001
 8. Zaynutdinov SH.N. va boshqalar. Menejment asoslari. –T: Moliya, 2001.
 9. Sharifxo'jaev M., Abdullaev YO. Menejment. –T: O'qituvchi, 2002.
 10. Kazantseva A.K. Osnovi proizvodstvennogo menedjmenta. –M: Seriya "V", 2008.
 11. Kozlovskiy V.A. Proizvodstvenniy menedjment. Uchebnik: M, 2008.
 12. Novitskiy N.I. Organizatsiya proizvodstva na predpriyatiyah: Uch.usul. posobie – M: Finansi statistika, 2008.
 13. Fatxutdinov R.A. Proizvodstvenni menedjment -M, 2008.
 14. Bukin S.O. Osnovi menedjmenta v voprosax i otvetax –M, 2008.
 - 15.Paraxina V.N. Teoriya organizasii -M, 2008.
 16. Lafta Dj. K. Teoriya organizasii -M, 2008.
 17. Smirnov E.A. Teoriya organizasii -M, 2008.
 - 18.Turovets O.G., Rodionova V.N. Teoiya organizasii -M, 2008.
 19. www.cer.uz Vse o menedjmente.

7-bob. AXBOROT TIZIMINING SAMARALI TUZILISHINI IZLASH.

- 7.1.Samarali komunikatsiya tamoyillari.
- 7.2.Ichki axborot bozori.
- 7.3.Samarali axborot zaxiralari.

7.1. Samarali komunikatsiya tamoyillari.

Kommunikatsiyalar so'zlar, harflar va xatlar yordamida muomala qilish vositasi sifatida ko'zdan kechiriladi. Bu vosita yordamida bir xodim boshqasi bilan o'zining bilim va tushunchalarini o'rtoqlashadi, ya'ni aks aloqa mavjud bo'ladi. Kommunikatsiyalar insonlarning o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishish uchun tashkilotga uyushish vositasi hisoblanadi.

Ishlab chiqarish tashkilotining har bir xodimi tashkilot tuzilishidagi mavqeiga ko'ra bir vaqtning o'zida axborot manbai va uni oluvchi hisoblanadi. Axborot oson to'planadigan erda ko'proq jamlanadi, bu ma'lumotlarni olish oson bo'lmagan erlarda esa ular kam uchraydi.

Rahbar: "Men nimalarni bilishim kerak?", degan savolga javob berishi lozim. Shunda u qaror qabul qilish uchun o'ziga nima kerakligini belgilab oladi. Olingan axborot baholanadi va uning asosida qo'l ostidagilarning faoliyatini belgilovchi qarorlar qabul qilinadi.

Vaqt, hajm va vositalarni tanlash – bularning barchasi qaror qabul qilish jarayonida quyiga qarab boruvchi axborot oqimi bilan bog'liq bo'lib, rahbarning hukmiga bo'ysunadi.

Samarali kommunikatsiyaning oldida ko'p to'siqlar uchraydi, bular: puxta tuzilmagan xabarlar, xato tarjimalar, uzatish yoki saqlash jarayonidagi yo'qotishlar, e'tiborsizlik, tushuntirilmagan taxminlar, xabarning muallifiga ishonchsizlik, baholashdagi shoshqaloqlik. Agar bu to'siqlar ro'yxatida birgina xato ro'y bersa ham kommunikatsiya buziladi.

Og'zaki murojatda har bir keyingi uzatishda 30%ga yaqin ma'lumot yo'qolishi aniqlangan. Demak, bir pog'onadagi og'zaki aloqa boshqasiga mos kelmaydi. Hatto izohlar bilan yuboriluvchi yozma xabarlar ham uzatish paytida o'z ma'nosini qisman yo'qotadi. Axborotni xotirada saqlash jiddiy muammo hisoblanadi. Afsuski, diqqatsiz eshitish insonning odatiy zaifligi bo'lib qolmoqda.

Aniqlik printsipti – xabar uni oluvchi tomonidan tushuniladigan tarzda ifodalangan va uzatilgan taqdirdagina aniq hisoblanadi. Bironta ham xabar toki tushunilmagunicha tugallangan hisoblanmaydi, bu esa e'tiborni talab qiladi va uni tekshirib ko'rish lozim bo'ladi.

Yahlitlik printsipti – boshqaruv xabarlarining maqsadi – korxona maqsadlariga erishishda odamlar o'rtasida ularning hamkorligi jarayonida o'zaro bir-birlarini tushunishlariga ko'maklashish.

Norasmiy tashkilotdan strategik foydalanish printsipti. Kommunikatsiya rahbar rasmiy tashkilotning kommunikatsiyasiga qo'shimcha ravishda norasmiy tashkilotdan foydalangan taqdirda samarali ishlaydi. Shuning uchun rahbarlar qo'l ostidagilarga ko'pincha norasmiy tarzda – shaxsan yoki boshqalar orqali – boshqa holda ularning diqqat e'tiboriga tushmay qolishi mumkin bo'lgan vaziyatlar bilan tanishishni so'rab murojaat qiladilar.

Kommunikatsiya kanallarining samaradorligi past: tepadan pastga qarab – 20%, pastdan tepaga qarab – 10%. Gorizontall kommunikatsiyalarning samarasi baland – 90%. Buni hisobga olib, korxonalar axborotni uzatishni tezlashtirish va uni yaxshiroq tushunish uchun kommunikatsiyalarning chaparasta yoki gorizontall kanallaridan foydalanishga ruxsat beribgina qolmay, buni hatto talab ham qiladilar. YOzma xabarlar ma'lum ustunlikka ega–ularni yuridik maqsadlarda saqlab qolish mumkin. Og'zaki axborotning asosiy afzalligi–tez va to'liq ma'lumot almashish imkoniyatining mavjudligida. Biroq suhbatdoshlar aniqlashtiruvchi savollarni doim ham beravermaydilar, shuning uchun ham ular to'liq darajada to'g'ri tushuniladi deb bo'lmaydi.

Axborotni nazorat qilish. Har qanday korxonada rahbarlar kommunikatsiyalarni nazorat qilishda ma'lum qiyinchiliklarga ro'para keladi. Ishlab chiqarish tashkilotining tashkiliy tuzilishi qarorlar qabul qilish uchun tom ma'nodagi kommunikatsiya tarmog'i hisoblanadi.

Ko'pgina xodimlar axborotga haddan ortiq ko'mib tashlanadi. Ular bu ma'lumotlarga to'liq ishlov berishga ulgurmaydilar, natijada ma'lum axborotni tushirib qoldirishlari ham mumkin.

7.2.Ichki axborot bozori.

Ishlab chiqarish korxonalari tizimidagi axborot oqimi bu tashkilot faoliyatining jiddiy elementi hisoblanadi. Kommunikatsiya har bir ishlab chiqarish tashkilotining hal qilinmagan muammolari ro'yxatida qoladi deb hisoblash uchun barcha asoslar mavjud. Barcha rahbarlarni so'rab olinuvchi va uzatiluvchi ma'lumotlar uchun javobgar deb hisoblash kerak.

Axborotlar, hisobga olish va baholash tizimlari ichki bozorga ega bo'lgan va firma bo'yicha harakatlanuvchi tovarga aylanib qoldi. Biroq bu tovarga narx qo'yishning samarali mexanizmi mavjud emas. Keraksiz axborotlardan qochish maqsadida, ichki axborot xizmatlari o'z xizmatlari tariflarini belgilashlari va o'zini o'zi moddiy ta'minlash shartlarida ish olib borishlari kerak. Bunda foydalanuvchilar xaridorlarga aylanadi va ko'rsatilgan xizmat uchun o'z byudjetlaridan haq to'laydi. Bunday tartib olingan ma'lumotni uning qiymati nuqtai nazaridan to'g'ri baholashga da'vat etadi.

7.3.Samarali axborot zaxiralari.

Ishlab chiqarish tashkilotini o'zgartirishda eng so'nggi o'zgaruvchi soha – buxgalterlik hisobi tizimi xisoblanadi. Axborotdan to'g'ri foydalanishni ta'minlash va uning hajmini kamaytirish uchun:

- ishlab chiqarish tashkilotlari foydalanuvchilarga ularning qarorlar qabul qilishda axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan qo'shimcha tizimlar yaratish imkonini berishlari kerak. Buning keng tarqalishini personal kompyuterlar tizimi ta'minlaydi;

- ko'pgina ishlab chiqarish tashkilotlari ishga qabul qilish, kasbiy tayyorgarlik va boshqa kadrlarga doir masalalarni hal qilishda sarf-xarajatlar va erishilgan natijalarni tahlil qilish imkonini beruvchi o'z kadrlariga doir axborotlarga ehtiyoj sezadi;

- foydali ma'lumotlar ishlab chiqarish tashkiloti doirasida keng tarqatilishi kerak. Ko'pgina tezkon ma'lumotlar ixcham ko'rinishda rahbariyatga taqdim etish uchun to'planadi. Birlamchi ma'lumotlarning aksariyat qismi ulardan samarali foydalanishi mumkin bo'lgan bevosita ijrochilarga etkazilishi lozim;

- nihoyat, axborot bepul bo'lmaydi va ishlab chiqarish tashkilotlari ortiqcha ma'lumotlarga haq to'laydi. Ichki axborot bozorini tashkil qilish foydalanuvchilar aynan o'zlariga kerak bo'lgan ma'lumotlarni olishlariga imkon bergan bo'lardi.

Asbob-uskunalar, ishlab chiqarish zaxiralari va asosiy fondlar emas, balki inson sarmoyasi raqobatbardoshlik, iqtisodiy o'sish va samaradorlikni ta'minlovchi omil hisoblanadi.

Agar ishchining dastlabki ish haqi stavkasi, aytaylik, yiliga 25 ming dollar bo'lsa, u butun ish faoliyati davomida 4 mln. dollar turadi. Agar gap bunday miqdorga mashinalar sotib olish haqida ketsa, yuqori rahbariyat miqyosida qaror qabul qilingan bo'lardi.

Kadrlarning malakasini oshirishga sarflanadigan xarajatlarni baholashning umumiy qabul qilingan protseduralari yo'qligi tufayli, rahbarlar va personalni boshqarish xizmatlari o'z xodimlari haqidagi ma'lumotlarni to'plab va baholab borishlari kerak.

Axborot kuchli rivojlanish vositasi hisoblanadi. Yangi ishlab chiqarish tashkilotlari rahbarlarni olib borayotgan axborot hajmini o'z xodimlariga etkazishga majbur qilmoqdalar. Muhimi – axborotlarni ulardan ish manfaatlarida foydalanishga qodir odamlar qo'lga berish. Bunga erishishning eng to'g'ri yo'li–foydalanuvchilarning ma'lumot to'plash tizimini ishlab chiqishda qatnashishini ta'minlashdan iborat. Xizmatdoshlar dastlab o'z mehnatlarining samaradorligini o'lchashga qat'iy qarshilik bildiradilar. Xodimlarga axborotlardan ish manfaatlarida samarali foydalanishga ko'maklashuvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini berilgach, qo'rquvlar ortga chekinadi.

Ayrim rahbarlar qo'shimcha maosh so'rashga xizmat qiladi (agar axborot yaxshi bo'lsa) yoki odamlarni ishdan chalg'itadi (agar axborot yomon bo'lsa) degan xavotirda, qo'l ostidagilar bilan axborotlarni o'rtoqlashishni istamaydilar. Biroq, axborotga ega

bo'lmay turib, xodimlar ishlab chiqarish tashkilotiga qo'yilgan yangi talablarga mos darajada munosabat bildirgan olmaydilar. Ishlab chiqarish tashkiloti esa bu axborot ular uchun nimani anglatishini va undan qanday to'g'ri foydalanish mumkinligini o'z xodimlariga ko'rsatishi lozim.

Xulosa.

Axborotlar, hisobga olish va baholash tizimlari ichki bozorga ega bo'lgan va firma bo'yicha harakatlanuvchi tovarga aylanib qoldi. Biroq, bu tovarga narx qo'yishning samarali mexanizmi mavjud emas. Keraksiz axborotlardan qochish maqsadida, ichki axborot xizmatlari o'z xizmatlari tariflarini belgilashlari va o'zini o'zi moddiy ta'minlash shartlarida ish olib borishlari kerak. Axborot kuchli rivojlanish vositasi hisoblanadi. Yangi ishlab chiqarish tashkilotlari rahbarlarni o'sib borayotgan axborot hajmini o'z xodimlariga etkazishga majbur qilmoqdalar. Muhimi – axborotlarni ulardan ish manfaatlarida foydalanishga qodir odamlar qo'lga berish. Bunga erishishning eng to'g'ri yo'li – foydalanuvchilarning ma'lumot to'plash tizimini ishlab chiqishda qatnashishini ta'minlashdan iborat. Xizmatdoshlar dastlab o'z mehnatlarining samaradorligini o'lchashga qat'iy qarshilik bildiradilar. Xodimlarga axborotlardan ish manfaatlarida samarali foydalanishga ko'maklashuvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini berilgach, qo'rquvlar ortga chekinadi.

O'zini-o'zi tekshirish uchun savollar

1. Samarali kommunikatsiyaning printsiplari.
2. Ichki axborot “bozori”.
3. Samarali axborot zaxiralari.
4. Kommunikatsiya tushunchasi.
5. Ichki axborot imkoniyatlari.
6. Kommunikatsiya yo'llari ishlab chiqarish menejmentining elementi sifatida.
7. Axborotlarni hisobga olish yo'llari.
8. Ma'lumot to'plash tizimini ishlab chiqish.
9. Axborotlardan samarali foydalanish chora tadbirlarini ishlab chiqish.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. “O'zbekiston”, T., 2008.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Xalq so'zi, 30 yanvar, 2010.
3. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi. T., 2009, 22 b.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T., 2009, 56 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Jaxon moliyaviy –iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning asosiy yo'llari va choralari” nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. Tuzuvchilar: B.YU.Xodiev, A.SH.Bekmurodov, U.V.G'ofurov, B.K.To'xliev. – T.: Iqtisodiyot, 2009.-120 b.

6. Karimov I.A. Erishgan marralarimizni mustaxkamlab isloxotlar yo'lidan izchil borish asosiy vazifamiz. Toshkent oqshomi., 24-son.10 fevral, 2004.
7. Karimov I.A. Biz uchun xalqimiz, vatanimiz manfaatidan ulug maqsad yo'q. T., O'zbekisto, 2001
8. Zaynutdinov SH.N. va boshqalar. Menejment asoslari. –T: Moliya, 2001.
9. Sharifxo'jaev M., Abdullaev YO. Menejment. –T: O'qituvchi, 2002.
10. Kazantseva A.K. Osnovi proizvodstvennogo menedjmenta. –M: Seriya "V", 2008.
11. Kozlovskiy V.A. Proizvodstvenniy menedjment. Uchebnik: M, 2008.
12. Novitskiy N.I. Organizatsiya proizvodstva na predpriyatiyah: Uch.usul. posobie – M: Finansi statistika, 2008.
13. Fatxutdinov R.A. Proizvodstvenni menedjment -M, 2008.
14. Bukin S.O. Osnovi menedjmenta v voprosax i otvetax –M, 2008.
15. Paraxina V.N. Teoriya organizasii -M, 2008.
16. Lafta Dj. K. Teoriya organizasii -M, 2008.
17. Smirnov E.A. Teoriya organizasii -M, 2008.
18. Turovets O.G., Rodionova V.N. Teoiya organizasii -M, 2008.
19. www.cer.uz Vse o menedjmente.

8-bob. HUJJATLAR VA HUJJATLAR AYLANISHINING TAHLILI

- 8.1. Hujjatlarni o'rganish usullari, maqsadlari va tarkibi.
- 8.2. Hujjatlarning shakli va mazmuni tahlili.
- 8.3. Hujjat aylanishi tahlili.
- 8.4. Ish yuritishni o'rganish.

Mavzuning maqsadi - hujjatlarni o'rganish usullari, ish yurituvning olib borilishi bilan tanishtirish, hujjatlar va hujjat aylanishi shakllari va mazmunining tahlili sohasida bilim berishdan iborat.

8.1. Hujjatlarni o'rganish usullari, maqsadlari va tarkibi.

Hujjatlar tahlilining maqsadi hujjat aylanishini maksimal qisqartirish imkoniyatlarini aniqlash va uning boshqaruv apparatidagi harakatini tezlashtirishdan iborat.

Bu quyidagi ishlarni amalga oshirishni talab etadi:

1. Hujjatlarning tarkibi va harakatini o'rganish.
2. Harakat yo'nalishlarini o'rganish.
3. Hujjatlar majmuini o'rganish.
4. Ish yuritish xujjatlarini: hujjatlarni ro'yxatga olish, hujjatlarning ijrosi ustidan nazorat, hujjatlarni ishlarga guruhlashni o'rganish, hujjatlarni operativ va arxivda saqlashni o'rganish.

Hujjatlar tahlilida quyidagi ma'lumotlar manbai xizmat qiladi: ish yurituv bo'yicha yo'riqnomalar va boshqa me'yoriy hujjatlar; markaziy kantselyariyaning hisob va bildirish

ma'lumotlari; ishlar nomenklaturasi; tarkibiy bo'linmalarda, alohida ijrochilarda bo'lgan va arxivda saqlanayotgan ishlar; ishlov berish jarayonidagi hujjatlar; boshqaruv apparati va uning alohida tarkibiy bo'linmalari ishi haqida hisobot; turli ma'lumotnomalar va hisobot hujjatlari.

Hujjatni tuzilgan (yoki kelgan) vaqtdan to arxivga topshiriladigan paytigacha bevosita kuzatish hujjatlar bilan ishlashni o'rganishning muhim usuli hisoblanadi.

Bu usul qator afzalliklarga ega: u barcha idoralar to'liq hisobga olinishini ta'minlaydi; hujjatlar bilan bajarilgan operatsiyalar majmuini aks ettirish, hujjatlar bilan ishlashning turli sarflari bilan mantiqiy aloqa o'rnatish imkonini beradi; hujjatlarning yo'nalishlarini yanada aniqroq hisobga olishni ta'minlaydi.

8.2. Hujjatlarning shakli va mazmuni tahlili.

Hujjat shakli - uning elementlari tarkibi va standart bichimdagi qog'ozga ularning joylashtirishdan iborat. Hujjat shakliga faqat bu shaklni to'ldiruvchi xodimlarning emas, ushbu hujjatni o'quvchi, saqlovchi, undan foydalanuvchi va unga ishlov beruvchi xodimlarning ham mehnat sarfi hajmlari bog'liq bo'ladi.

Hujjat shakllarining tahlili keraksiz rekvizitlarni, bir-birini takrorlovchi shakllarni ko'rsatib berishi lozim. Ichki hujjatlarning mufassal tahlili keraksiz hujjatlarni hujjat aylanishidan chiqarish va mehnat sarfini qisqartirish imkonini beradi.

Hujjatlarning u yoki bu boshqaruv funktsiyalarining bajarilishiga taalluqliligini aniqlash uchun ularni vazifasiga ko'ra guruhlash talab etiladi: texnik, rejaga oid, me'yoriy, direktiv va h.k. Hujjatlarni bunday guruhlash har qanday bo'linmadagi hujjatlar harakatining umumiy qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Hujjatlar tuzishning davriyligi katta ahamiyatga ega: haftalik, oylik, chorak, yarim yillik, yillik. Hujjatlar shaklini bunday turkumlash hujjatlar oqimining tuzilmasini, ma'lumotlarga ishlov berishning izchilligini, xodimlar va hisoblash texnikasining ish bilan yuklanish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Tashqi (direktiv) hujjat o'z yo'lini rahbar rezolyutsiyasidan boshlab, ijro etilganidan keyingina tamomlaydi. Hujjatni hammadan keyin ijro etish haqida ko'rsatma bergan rahbar imzolaydi.

8.3. Hujjat aylanishi tahlili.

Hujjat aylanishi sxemasi ishlab chiqarishni turli omillar ta'sirida boshqarish natijasida yuzaga keladi va korxona, muassasa ishini ifoda etadi. Ma'lumotlarga ishlov berish tizimini tahlil qilish uchun barcha aylanuvchi hujjatlarni guruhlariga ajratish lozim: texnik, rejaga oid, buxgalteriya, me'yoriy va h.k. Bunday turkumlashga asosan hujjat aylanishining mavjud sxemasi tahlildan o'tkaziladi. Bu ma'lumotlarga ishlov berishning umumiy jihatlarini aniqlab, uni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Tahlil hujjatlarning har bir guruhi bo'yicha alohida o'tkaziladi. Masalan, rejaga oid hujjatlar harakatining tahlili bunday turdagi hujjatlar qaysi bo'limda va qancha ishlab chiqilishi, rejaga oid hujjatlarni ishlab chiqishda qaysi bo'limlar ishtirok etishi va qaysilari ishtirok etmasligini aniqlash imkonini beradi.

Me'yoriy - bildirish hujjatlari harakatining tahlili bunday hujjatlardan o'z faoliyatida foydalanadigan bo'linmalarni, bunday hujjatlarning nechtasiga ega bo'lish va ularni qaerda saqlash kerakligini ko'rsatib beradi. Rejaga oid hisobot va me'yor-bildirish hujjatlarining shakllanish va harakat qonuniyatlaridan kelib chiqib hujjat aylanishining

sxemasini tuzish mumkin. Hujjat aylanishi sxemasi hujjatlar tarkibi va ularga ishlov berilishini mufassal o'rganish natijalarining umumlashtirilishi hisoblanadi. Bunday sxema bajariluvchi ish turlari, hujjat shakllari va xodimlarning funktsiyalari o'rtasidagi o'zaro aloqa va bog'liqliklarni grafik shaklda ko'rsatish imkonini beradi.

8.4. Ish yuritishni o'rganish

Ish yuritishni o'rganish qog'oz oqimlarini tartibga solish va jiddiy qisqartirish, ortiqcha hujjatlarni chiqarib tashlash va shu yo'l bilan byurokratizmga barham berishni nazarda tutadi.

Hozirgi zamon ish yurituvini o'rganish amaliyotida iqtisodiy-texnik usullar, ish kunini suratga olish, so'rov o'tkazish, xronometraj va grafik tadqiqot usullari keng qo'llanadi. Ish yurituvni o'rganishda ish yurituvchilarning ishini tashkil qilish va ish vaqtini yuklash, ish yurituvning ayrim ish turlarini bajarishdagi mehnat sarfi, ularning mexanizatsiyalashtirilish va avtomatizatsiyalashtirilish darajasiga e'tibor berish lozim.

Ish yurituvning tashkil etish quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'rganiladi:

- 1.Hujjatlarni ro'yxatga olish.
- 2.Hujjatlarning ijrosi ustidan nazoratning tashkil etilishi.
- 3.Hujjatlarni operativ va arxivda saqlash.
- 4.Hujjatlar bo'yicha bildirgich ma'lumotlarning tuzilish tashkiloti.

Hujjatlarni ro'yxatga olish ish yurituvning muhim funktsiyasi bo'lib, ijro ustidan nazorat, ishlarni shakllantirish, saqlash va izlash tashkiloti bilan uzviy bog'liqdir. Hujjatlarning ro'yxatga olinishini o'rganishda qaysi hujjatlar ro'yxatga olinishi va qaysilari olinmasligini, bitta hujjat necha marta va qaerda ro'yxatga olinishi, kim ro'yxatga olishi, ro'yxatga olishdagi mehnat sarfi, hujjatlarni ro'yxatga olish shakli, ro'yxatga olish operatsiyalarini bajarish shakllari (qo'lda, kompyuterda), ro'yxatga olish daftarlari va varaqchalarini saqlash tashkilotini aniqlash lozim.

Hujjatlar ijrosi ustidan nazorat boshqaruv apparati ishining sifati va tezkorligi ustidan nazorat bilan uzviy bog'liqdir. Ijro ustidan nazorat boshqaruv apparatida hujjatlar bilan ishlashni muntazam va faol takomillashtirishning muhim vositasi bo'lib xizmat qilishi lozim. Hujjat ijrosi ustidan nazoratni tashkil etishni o'rganishda hujjatlarning ijrosini kim va qay tarzda nazorat qilishi, nazorat qilinuvchi hujjatlar tarkibi, nazorat bo'yicha yo'riqnomalar mavjudligi, alohida guruhlariga mansub hujjatlar umumiy sonining necha foizi nazoratga olinishi, ijro muddatlarini belgilash tartibi, ijro muddatini kechiktirgani uchun jazo choralari, hujjatlarni nazoratdan chiqarish tartibi, nazorat qiluvchi apparat shakllari (daftarlari, varaqchalar)ni aniqlash zarur.

Hujjatlar ijrosi ustidan nazoratni o'rganish natijalari yuzasidan alohida ma'lumotnoma tuziladi.

Hujjatlarni operativ va arxivda saqlashni ishlarning shakllantirilishi tahlilidan boshlash lozim. Hujjatlarni ishlarga guruhlash katta ahamiyatga ega. Agar guruhlash noto'g'ri amalga oshirilgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan hujjatni izlab topib bo'lmaydi. Ishlarning shakllantirilishini tahlil qilishda ishlar nomenklaturasi sifatini, nomenklaturada ko'rsatiladigan ma'lumotlarni, nomenklaturalarni ishlab chiqish tartibini, ishni jildlarga (qismlarga) bo'lish, saqlash muddatlarini belgilash tamoyillarini aniqlash lozim.

Shuningdek, ishlarni arxivda saqlashga tayyorlash ishlarining tashkil etilishini chuqur o'rganish va saqlash tashkilotini tahlil qilish zarur.

Hujjatlar bo'yicha ma'lumotnomalar berish to'liq ish yuritishni tashkilotining saviyasiga bog'liq bo'ladi. Ma'lumotnomalar bilan ishlash jarayonini o'rganishda ma'lumotnomalar berilishining takroriylik darajasi, ularning mazmuni va harakatini, rahbariyat tomonidan va tashqaridan eng ko'p talab qilinadigan ma'lumotnomalarni, hujjatlar haqida bildirgich ma'lumotlarning mavjudligi va xususiyatini aniqlash lozim.

Xulosa

Hujjatlar tahlilining maqsadi hujjat aylanishini maksimal qisqartirish va uning boshqaruv apparatidagi harakatini tezlashtirishdan iborat.

Hujjatlar tahlili hujjatlar tarkibi va harakati, harakat yo'nalishlari (oqimlari)ni o'rganish, ish yuritishni tashkilotish, hujjatlar ijrosi va saqlanishi ustidan nazoratni o'rganishni nazarda tutadi.

Ish yuritishni o'rganishning muhim usulik usuli hujjat tuzilgan (yoki kelgan) paytdan to arxivga topshiriladigan vaqtgacha bevosita kuzatib borish hisoblanadi.

Hujjatlar shaklini turkumlash hujjatning tuzilishi, oqimlar, ma'lumotlarga ishlov berish vaqti va izchilligi, xodimlar va hisoblash texnikasining ish bilan yuklanish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Ish yuritishni tashkil etish quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tahlil qilinadi: hujjatlarni ro'yxatga olish, hujjatlar ijrosi, hujjatlarni operativ va arxivda saqlash.

O'zini-o'zi tekshirish uchun savollar

1. Hujjatlar va ish yurituvni o'rganish maqsadlari hamda usullarini aytib bering.
2. Hujjatlar va ish yurituvning tahlili uchun ma'lumotlar manbaini aniqlang.
3. Siz qaysi hujjat turlarini bilasiz?
4. Qaysi hujjatlar ichki, qaysilari tashqi hujjatlar turkumiga kiradi?
5. Hujjatlar ijrosi ustidan nazorat qanday amalga oshiriladi?
6. Hujjatlarni o'rganish usullari.
7. Hujjatlarni shakli va mazmunini taxlili.
8. Hujjat aylanishini taxlili.
9. Hujjatlarni o'rganish maqsadlari.
10. Hujjatlarni o'rganish tarkibi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. "O'zbekiston", T., 2008.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Xalq so'zi, 30 yanvar, 2010.
3. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi. T., 2009, 22 b.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T., 2009, 56 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Jaxon moliyaviy –iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning asosiy yo'llari va choralari" nomli

- asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. Tuzuvchilar: B.YU.Xodiev, A.SH.Bekmurodov, U.V.G'ofurov, B.K.To'xliev. – T.: Iqtisodiyot, 2009.-120 b.
6. Karimov I.A. Erishgan marralarimizni mustaxkamlab isloxotlar yo'lidan izchil borish asosiy vazifamiz. Toshkent oqshomi., 24-son.10 fevral, 2004.
7. Karimov I.A. Biz uchun xalqimiz, vatanimiz manfaatidan ulug maqsad yo'q. T., O'zbekisto, 2001
8. Zaynutdinov SH.N. va boshqalar. Menejment asoslari. –T: Moliya, 2001.
9. Sharifxo'jaev M., Abdullaev YO. Menejment. –T: O'qituvchi, 2002.
10. Kazantseva A.K. Osnovi proizvodstvennogo menedjmenta. –M: Seriya "V", 2008.
11. Kozlovskiy V.A. Proizvodstvenniy menedjment. Uchebnik: M, 2008.
12. Novitskiy N.I. Organizatsiya proizvodstva na predpriyatiyah: Uch.usul. posobie – M: Finansi statistika, 2008.
13. Fatxutdinov R.A. Proizvodstvenni menedjment -M, 2008.
14. Bukin S.O. Osnovi menedjmenta v voprosax i otvetax –M, 2008.
- 15.Paraxina V.N. Teoriya organizasii -M, 2008.
16. Lafta Dj. K. Teoriya organizasii -M, 2008.
17. Smirnov E.A. Teoriya organizasii -M, 2008.
- 18.Turovets O.G., Rodionova V.N. Teoiya organizasii -M, 2008.
19. www.cer.uz Vse o menedjmente.

9-BOB. БОШҚАРУВ ҚАРОРЛАРИНИ АСОСЛАСХ, ҚАБУЛ ҚИЛИСХ ВА УЛАРНИНГ БАЖАРИЛИСХИНИ ТАСХКИЛ ЭТИСХ ЖАРАЁНЛАРИ ТАХЛИЛИ

- 9.1. Бошқарув қарорлари таркиби, моҳияти ва турларининг таҳлили.
- 9.2. Бошқарув қарорларини асослаш ва қабул қилиш усуллари таҳлили.
- 9.3. Қарорлар қабул қилиш, асослаш ва уларни бажариш жараёнлари таҳлили.

Мавзунинг мақсади - бошқарув қарорларининг турлари, уларни қабул қилиш ва бажаришнинг ташкилоти, уларнинг моҳиятини ўзлаштириш, қарорларни асослаш, қабул қилиш ва бажарилишини ташкил этишнинг таҳлили борасида маълум кўникмалар ҳосил қилишдан иборат.

9.1. Бошқарув қарорлари таркиби, моҳияти ва турларининг таҳлили.

Қарорларни асослаш, қабул қилиш ва бажарилишини ташкил этиш бошқарув жараёнининг асосий мазмуни ҳисобланади. Қарор фақат ресурслар билан таъминланган ва унинг бажарилиши ташкил этилган тақдирдагина реалдир.

Бошқарув қарорларининг қабул қилиниши ва бажарилиши жараёнининг таҳлили қуйидагилардан ташкил топади: қабул қилинувчи қарорларнинг таркиби ва мазмунини ўрганиш; қарорларни асослашда қўлланувчи усулларнинг мақсадга мувофиқлигини баҳолаш; қарорларни асослаш ва қабул қилиш жараёнларини такомиллаштириш имкониятларини аниқлаш.

Бошқарув истиқболли бўлиши керак. Қарорларнинг истиқболлилик жиҳатларидан бири уларнинг изчиллиги ҳисобланади. Қабул қилинган қарор қай даражада истиқболли эканлигини таҳлил қилиш учун қабул қилинган ва бажарилган истиқболли, жорий ва тезкор қарорларнинг нисбати аниқланади. Бу маълумотлар бир нечта раҳбарнинг маълум даврдаги фаолиятини ўрганиш натижасида олиниши мумкин.

Қарорларнинг изчиллигини аниқлаш учун “мақсадлар дарахти” усули қўлланиши мумкин. Бунда қарорларнинг идеал тизими амалда қабул қилинган қарорлар таркибига таққосланади.

Бошқарув ишлаб чиқариш жараёнини олдиндан белгилаши ва ёъналтириши лозим, бинобарин, қарорларнинг асосий қисми қўйилган мақсадлардан келиб чиқувчи, олдиндан белгиланган дастур сифатида ишлаб чиқилиши керак.

Бошқарув қарорлари илмий асосланган ва объектив бўлиши зарур. Таҳлил жараёнида бу объектив асосланган ва раҳбар иродаси билан қабул қилинган қарорлар сонининг нисбатини ўрганиш орқали аниқланиши мумкин. Бир нечта вариант орасидан танлаб олинган ва тегишли мутахассислар томонидан кўриб чиқилган қарорлар илмий асосланган қарорлар ҳисобланади. Барча техник, иқтисодий ва ижтимоий ўзгаришларнинг ҳисобга олиниши қабул қилинувчи қарорларнинг объективлигини ифодаловчи муҳим омилдир. Бошқарув қарорлари ҳуқуқий меъёрлар, тармоқ қоидалари, усулик кўрсатмаларга мос келиши керак. Бу мослик даражаси белгиланган қонун - қоидаларга жавоб бермаганлиги учун бекор қилинган қарорлар салмоғи билан аниқланади. Ҳар бир қарор ресурс билан таъминланган бўлиши лозим. Таҳлил жараёнида қарорларнинг ресурс билан таъминланганлиги даражаси керакли ресурслар мавжуд бўлмагани туфайли бажарилмаган қарорлар сонининг ўз вақтида бажарилган қарорлар сонига нисбатини аниқлаш ёъли билан ҳисоблаб чиқарилиши мумкин.

Қабул қилинган қарорлар таҳлили қарорларнинг ўз вақтида қабул қилинганлигини ҳамда уларнинг иқтисодий ва ижтимоий самарадорлигини ўрганишни ҳам назарда тутди.

9.2. Бошқарув қарорларини асослаш ва қабул қилиш усуллари таҳлили.

Бошқарув аппаратининг иш амалиётида қарорларни асослашнинг дастурий-мақсадли, оптималлаштириш, таҳлилий ҳисоб-китоб, тизимли ва тажрибавий усуллари қўлланади.

Ҳар қандай бошқарув қарори маълум мақсадларга еришиш учун қабул қилинади. Қарорларни асослашнинг дастурий-мақсадли усуллари қўллаш ушбу қарорнинг бажарилиши натижасида еришилиши лозим бўлган мақсадни муфассал ишлаб чиқишни англатади. Бундай мақсад одатда раҳбар ташкилот томонидан белгиланади. Мақсад белгиланганидан кейин унга еришиш дастури ишлаб чиқилади. Бу дастур бошқарувнинг алоҳида бўлинмалари учун “мақсадлар дарахти”ни ишлаб чиқиш, зарур ресурслар ва уларни олиш манбаларини аниқлаш, ижрочилар ва ижро муддатларини белгилаш ҳамда таҳлил жараёнида қарорларни асослаш усуллари аниқлашни назарда тутди.

Қарорларни асослашнинг оптималлаштириш усуллари оператсияларни ўрганиш усуллари қўллашга асосланади. Улар чизиқли дастурлаштириш, омилли таҳлил, оммавий хизмат кўрсатиш назарияси, математик статистика, еҳтимоллик назариясининг турли усуллари ўз ичига олади. Таҳлил қилинаётган жараёнларнинг хусусияти ва вужудга келган алоқа шаклларида келиб чиқиб оптималлаштириш усулларида бири танланади. Агар жараён учун чизиқли алоқалар хос бўлса, чизиқли дастурлаштириш усуллари, чизиқсиз алоқаларда еса - чизиқсиз дастурлаштириш усуллари қўланади ва ҳ.к.

Ноаниқлик кучайганида, яъни қарор тасодифийлик даражаси юқори бўлган жараёнга тааллуқли бўлса, оммавий хизмат кўрсатиш назарияси қўланади. Ўрганилаётган функсияга таъсир қилувчи омилларнинг барқарор мажмуига, бироқ омиллар ўзгаришининг ўзгарувчан (еҳтимолий) даражасига ега бўлган қарорларни асослаш учун корелляцион-регрессив таҳлил аппаратида фойдаланилади. Бу усулларнинг барчаси оператсияларни тадқиқ қилиш орқали амалга оширилади.

Таҳлилий ҳисоб-китоб усули бошқарув объекти фаолияти натижаларининг таҳлили билан объектни қарор қабул қилинаётган соҳада ривожлантиришнинг башорат ҳисоб-китобларини уйғунлаштиришга асосланади. Бу асослаш усули кенг қўланади. Таҳлилий ҳисоб-китоб усули тактик қарорларни асослашнинг асосий усули ҳисобланади.

Омилли усул таҳлилий ҳисоб-китоб усулининг турларидан бири бўлиб, у натижаларига қатор омиллар таъсир кўрсатадиган ишлаб чиқариш жараёнларини ривожлантириш ёлларини аниқлаш учун қўланади.

Тизимли усуллар асосида экспертларнинг мантиқий фикрлашлари ва тажрибаси ётади. Бу усул бошқарув аппарати ходимларининг фаолиятини баҳолашда кенг қўланади.

Тизимли усуллар жумласига “ақлга ҳужум усули” ҳам киради. Бу усулда қабул қилинаётган қарорларнинг вариантлари коллегиял равишда муҳокама қилинади.

Қарорларни ишлаб чиқишнинг тажрибавий усуллари раҳбар ходимлар ва мутахассисларнинг шахсий тажрибаси, вазиятлар ва уларни ҳал қилиш усуллари умуллаштиришга асосланади.

9.3. Қарорлар қабул қилиш, асослаш ва уларни бажариш жараёнлари таҳлили

Қарорларни асослаш асосан бошқарув аппаратининг ихтисослаштирилган функционал бўлинмалари томонидан қатъий изчилликда амалга оширилади. Қарорларни асослашнинг биринчи босқичи асос маълумотларни олиш ҳисобланади, ундан кейин ишни таҳлилий ишлаб чиқиш босқичи келади.

Ишлаб чиқиш босқичи иқтисодий-техник ҳисоб-китоблар, лойиҳалаш-конструкторлик ишлари, моделлар, ижтимоий-психологик асослашлар мажмуидан иборат бўлади. Бу оператсиялар юқори малакали мутахассисларни жалб қилишни талаб ётади.

Қарор қабул қилиш босқичи ишнинг фаол ва енг масъулиятли қисми ҳисобланади. Қарорни асослаш қай даражада пухта ва мукамал амалга оширилган бўлмасин, уни қабул қилиш босқичида қарорнинг енг самарали варианты танлаб олинади. Қарор тасдиқланганидан кейин бажариш мажбурий бўлган кўрсатмага айланади.

Қарор қабул қилиш процедураси қарорнинг лойиҳасини уни тайёрлаган бўлинма доирасида муҳокама қилиш; қарорнинг олдиндан танланган вариантларини ёндош функционал бўлинмаларнинг раҳбарлари билан муҳокама қилиш; қарор лойиҳасини жамоат ташкилотлари вакиллари ва бутун жамоа билан муҳокама қилиш; қарорнинг ресурс таъминотини текшириш; қарор лойиҳасини ташқи манфаатдор ташкилотлар билан келишиш; қарорнинг маъқулланган лойиҳасини тасдиқлаш учун тақдим етишдан иборат бўлади. Тўғри, бу мураккаб жараёндан қарорларнинг барча турлари ҳам ўтавермайди, кўпгина жорий қарорлар учун процедура қисқартирилади.

Қарор қабул қилиш жараёнининг таҳлили енг аввало мавжуд қарор қабул қилиш процедураларини ушбу тоифа қарорлар учун белгиланган намунавий процедураларга таққослашдан иборат бўлади. Бунда информатсион чекинишларни аниқлаш айниқса муҳимдир.

Иш амалиётида асоссиз келишишлар, экспертизалар, қарор лойиҳаларини кўриб чиқиш босқичларининг чўзилиши, сўровларга ўз вақтида жавоб бермаслик ҳоллари жуда кўп учрайди. Бу қарор қабул қилиш жараёнининг алоҳида оператсияларини бажариш вақтининг чўзилишига олиб келади.

Ҳар бир қарор қайси поғона раҳбариятнинг ваколатларига тегишли бўлса, ўша раҳбарият миқёсида қабул қилиниши лозим.

Хулоса

Қарорларни асослаш, қабул қилиш ва уларнинг бажарилишини ташкил етиш бошқарув жараёнининг асосий мазмуни ҳисобланади.

Бошқарув қарорлари қўйилган мақсадлардан келиб чиқади.

Менежерларнинг иш амалиётида қарорларни асослашнинг дастурий-мақсадли, оптималлаштириш, таҳлилий ҳисоб-китоб, тизимли ва тажрибавий усуллари қўлланади.

Қарор қабул қилиш процедураси ахборот тўплаш ва унга ишлов бериш, қарорнинг турли вариантларини ишлаб чиқиш, лойиҳаларни муҳокама қилиш, ресурс таъминотини текшириш, мақбул қарорни танлаш, лойиҳани ижрочиларга етказиш, ижрони назорат қилишдан иборат бўлади.

Қарорни қабул қилиш босқичи раҳбар ишининг фаол ва енг масъулиятли қисми ҳисобланади.

Ўзини-ўзи текшириш учун саволлар

1. Бошқарув қарорларининг моҳияти нимадан иборат?
2. Бошқарув қарорларини қабул қилиш ва бажариш жараёнининг таҳлили нималарни назарда тутаяди?
3. Қабул қилинган қарорнинг истикболлилиги қандай аниқланади?
4. Қайси қарор турларини биласиз?
5. Бошқарув қарорларини бошқарувнинг ҳар бир поғонасида ким тайёрлайди ва ким қабул қилади?
6. Бошқарув қарорлари таркиби.
7. Бошқарув қарорлари моҳияти ва турларини таҳлили.
8. Бошқарув қарорларини асослаш усуллари таҳлили.

9. Бошқарув қарорларини қабул қилиш жараёнининг таҳлили.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. “Ўзбекистон”, Т., 2008.
2. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. Халқ сўзи, 30 январ, 2010.
3. Каримов И.А. Мамлакатимизни модернизация қилиш ва янгилашни изчил давом эттириш - давр талаби. Т., 2009, 22 б.
4. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф етишнинг ёллари ва чоралари. Т., 2009, 56 б.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг “Жаҳон молиявий – иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф етишнинг асосий ёллари ва чоралари” номли асарини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. Тузувчилар: Б.ЙУ.Ходиев, А.СҲ.Бекмуродов, У.В.Ғофуров, Б.К.Тўхлиев. – Т.: Иқтисодиёт, 2009.-120 б.
6. Каримов И.А. Эришган марраларимизни мустаҳкамлаб ислохотлар ёлидан изчил бориш асосий вазифамиз. Тошкент оқшоми., 24-сон. 10 феврал, 2004.
7. Каримов И.А. Биз учун халқимиз, ватанимиз манфаатидан улуг мақсад ёқ. Т., Ўзбекисто, 2001
8. Зайнутдинов СҲ.Н. ва бошқалар. Менежмент асослари. –Т: Молия, 2001.
9. Шарифхўжаев М., Абдуллаев Ё. Менежмент. –Т: Ўқитувчи, 2002.
10. Казантсева А.К. Основы производственного менеджмента. –М: Серия “В”, 2008.
11. Козловский В.А. Производственный менеджмент. Учебник: М, 2008.
12. Новитский Н.И. Организация производства на предприятиях: Уч.усл. пособие – М: Финанси статистика, 2008.
13. Фатхутдинов Р.А. Производственный менеджмент -М, 2008.
14. Букин С.О. Основы менеджмента в вопросах и ответах –М, 2008.
15. Парахина В.Н. Теория организации -М, 2008.
16. Лафта Дж. К. Теория организации -М, 2008.
17. Смирнов Э.А. Теория организации -М, 2008.
18. Туровец О.Г., Родионова В.Н. Теория организации -М, 2008.
19. www.cer.uz Vse o menedjmente.

10-БОБ. ИСҲЛАБ ҲИҚАРИСҲНИ ИЛМИЙ-ТЕХНИК БОСҲҚАРИСҲНИ ТАҲЛИЛИ

1. Илмий-техник бошқарув бўлимлари вазифаларининг таҳлили.
2. Бошқарув тизимини техник таъминлашни таҳлили.
3. Маҳсулот сифатини бошқаришни таҳлили.

Мавзунинг мақсади - илмий-техник бошқарув органлари ва уларнинг функциялари билан таништириш, фан-техник тараққиётини бошқариш ҳамда иш ва

махсулот сифатининг таҳлили борасида маълум кўникмалар ҳосил қилишдан иборат.

10.1. Илмий - техник бошқарув бўлимлари вазифаларининг таҳлили

Илмий - техник бошқарув ишлаб чиқариш техникаси ва технологиясини такомиллаштириш орқали корхона ва унинг таркибий бўлинмалари самарадорлигини ошириш имконини беради.

Корхона муҳандислик хизматининг бўлинмалари, жамоат конструкторлик ва технологик бюролари илмий-техник бошқарув органлари ҳисобланади. Илмий-техник бошқарувнинг умумий функцияларига техник режалаштириш, техник ташкилот, техник оператив бошқарув, техник ҳисобга олиш ва назорат киради. Бу функциялар бош муҳандис хизмати томонидан ва янги техникани жорий қилиш, ташкилий-техник тадбирлар ўтказиш, ишни илмий ташкил қилиш режаларини ишлаб чиқиш ёъли билан амалга оширилади.

Илмий-техник бошқарувни таҳлил қилишда янги техника ва технологияни жорий қилиш режаларининг мавжудлиги, конструкторлик ишларининг илмий асосланганлиги, техника ва технологиялар соҳасида илмий тадқиқотларнинг ўтказилиши, конструкторлик тайёргарлиги ва ишлаб чиқаришнинг конструкторлик таъминоти, технологик тайёргарлик ва ишлаб чиқаришнинг технологик таъминоти, технологик асбоб-ускуналарга хизмат кўрсатиш, техникани таъмирлаш, иш жойларини зарур ташкилий-техник ашёлар билан жиҳозлаш, назорат-ўлчаш асбобларининг ишини таъминлаш ва уларга хизмат кўрсатиш, техник ташкилот режаларининг мавжудлиги ва уларнинг бажарилишига алоҳида ёътибор бериш лозим.

Илмий-техник бошқарув шунингдек илмий-техник тарғибот ва тажриба алмашиш, техник ижодкорлик ва кашфийётчиликни таъминлаш, илмий-техник бошқарувнинг жамоат органларига меҳнат жамоасини жалб қилишни назарда тутди.

Илмий-техник бошқарувнинг юқорида кўрсатилган ва бошқа функцияларининг аниқ бажарилишида ишлаб чиқариш самарадорлиги ва меҳнат унумдорлигини оширишнинг улкан захиралари ёътади.

Илмий-техник ишловни корхона ўз кучи ҳамда четдан жалб қилинадиган илмий ва лойиҳалаш ташкилотлари ёърдами билан амалга оширади.

Бозор иқтисодиётига ўтиш корхоналарда илғор техника ва технологияларнинг энг янги намуналаридан фойдаланиш борасида улкан имкониятлар очади. Эндиликда корхоналар чет ел контсернлари билан мустақил равишда алоқа ўрнатишлари, энг янги техника ва технологиялардан ўзаро фойдали асосда фойдаланиш юзасидан шартномалар тузишлари мумкин.

10.2. Бошқарув тизимини техник таъминлашни таҳлили

Бошқарув тизимини техник жиҳозлаш бошқарув сифатини ошириш ва у билан боғлиқ сарф-харажатларни камайтиришнинг муҳим шарти ҳисобланади. Бошқарув тизимларининг техник таъминотига қўйиладиган асосий талаблар қуйидагилардир: бошқарув жараёнлари ва алоҳида иш турларини комплекс механизатсиялаштириш ва автоматлаштириш, ҳар хил техника воситаларининг унумдорлиги, улардан

узлуксиз фойдаланилиши, бошқарув техникасининг иш билан юкланиши ва ундан тежамли фойдаланилишини таъминлаш.

Бошқарув тизимини техник таъминлашни таҳлили мақсади қуйидагилардан иборат:

1.бошқарув жараёни ва алоҳида иш турларининг механизатсиялаштирилиш ва автоматлаштирилиш даражасини баҳолаш;

2.бошқарув жараёнини техник таъминлашнинг комплекслилиги даражасини аниқлаш;

3.техник воситаларнинг механизатсиялаштирилаётган бошқарув жараёнлари хусусиятига мослигини аниқлаш;

4.мавжуд техникадан фойдаланилишини баҳолаш, ортиқча техникани аниқлаш ва қўшимча техникага бўлган еҳтиёжни асослаш.

Бошқарув тизимини техник таъминлаш ташкилотининг таҳлили бошқарув меҳнатининг техник жиҳозланганлигини ўрганишдан бошланади.

Таҳлилнинг асосий ёъналишларидан бири техник воситалар таркибини ва уларнинг бошқарув бўғинлари бўйича тақсимланишини ўрганиш ҳисобланади. Техника тузилишини бошқарув ишлари тузилмасига таққослаш уларнинг иш турларига мослиги даражасини аниқлаш имконини беради.

Таҳлил жараёнида бошқарув меҳнати техник жиҳозланишининг комплекслилигини аниқлаш муҳимдир. Техник воситалар таркибини таҳлил қилишда уларнинг ишончли ишлаш даражаси баҳоланади. Бунинг учун захирадаги техниканинг салмоғи аниқланади. Шунингдек, бошқарув техникаси ишининг иқтисодий самарадорлиги, у билан боғлиқ сарф-харажатлар миқдорини ҳам аниқлаш лозим. Бошқарув техникасидан фойдаланиш таҳлилида унинг қувват хусусиятларининг ўзлаштирилиши даражаси аниқланади. Бунда ўрнатилган машиналарнинг иш ўлчамлари паспорт маълумотлари таққослаб кўрилади. Ҳисоблаш техникаси қувватидан ҳамма ерда ҳам тўлақонли фойдаланилавермайди. СХунинг учун ҳам бошқарув техникасининг ишлаб чиқариш қувватидан фойдаланилиши таҳлилининг ёъналишларидан бири бу техникадан фойдаланишнинг амалдаги ташкилий шакллари ўрганиш ҳисобланади.

Бошқарув жараёнларини механизатсиялаштириш ва автоматаштириш илмий-техник бошқарувнинг муҳим ёъналиши ҳисобланади. Бу моддий база нафақат техник, балки иқтисодий ва ижтимоий аҳамиятга ҳам егадир. Бошқарув жараёнларини механизатсиялаштириш ва автоматлаштириш қўл меҳнати ва жисмоний меҳнатни кенг кўламда машиналар билан алмаштириш, меҳнат самарадорлигини ошириш, иш жойларида қулай санитария-гигиена шароитларини яратиш имконини беради.

Йирик корхоналарда бошқарув жараёнларини механизатсиялаштириш ва автоматлаштириш билан махсус бўлим шуғулланади, ўрта ва кичик корхоналарда еса бу вазифа муҳандислик хизмати ва бош муҳандис зиммасига юкланади.

Хизматнинг асосий мақсади бошқарувнинг самарадорлиги ва меҳнат унумдорлигини ошириш, бошқарув жараёнларини такомиллаштириш учун бошқарув тизимини механизатсия ва автоматлаштириш воситалари билан жиҳозлашдан иборат. Бошқарув жараёнларининг механизатсиялаштирилиши ва автоматлаштирилишини таҳлил қилишда уларнинг самарали ёъналишларини ишлаб чиқиш режаларининг мавжудлиги, ностандарт технологик асбоб-ускуналарнинг

лойиҳалаштирилиши, бу асбоб-ускуналарнинг ўз вақтида ясалиши, ишлов режалари бажарилишининг ташкил етиш ва жорий қилиш устидан муаллифлик назоратининг мавжудлигига еътибор бериш лозим. Комплекс механизатсиялаштириш ва автоматлаштириш даражасини, улар ходимларни катта қўл меҳнатини талаб қиладиган ишлардан қай даражада халос етгани, меҳнат, моддий ва молиявий сарф-харажатларни механизатсия қай даражада камайтира олганини аниқлаш талаб етилади.

Шунингдек, режа-иқтисод бўлимининг бошқарув жараёнларини механизатсиялаштириш ва автоматлаштириш бўйича ишлаб чиқилувчи тадбирларнинг иқтисодий самарадорлигини ҳисоб-китоб қилиш борасидаги фаолияти, бухгалтериянинг бу соҳадаги ҳисоб ва ҳисобот ишлари ҳам таҳлил қилинади.

Механизатсиялаштириш ва автоматлаштириш бўйича истиқболли вазифалар корхонани ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш режаси билан белгиланади. Режада тадбирларнинг мазмуни, жорий қилиш муддатлари, иқтисодий самарадорлиги, ижрочилар ва ижро учун масъуллар кўрсатилади. Режа тадбирларини ишлаб чиқишда алоҳида ишларда банд бўлган ходимларнинг касби ва ихтисослиги, асосий ва қўмакчи оператсиялар ва иш турларининг механизатсиялаштирилиши даражаси аниқланади, меҳнат ташкилотининг янада юқори поғонасига кўтарилиш имконини берадиган қўмакчи ишларнинг ратсионализатсиялаштирилиши ва механизатсиялаштирилиши даражаси белгиланади.

Бошқарув аппарати ходимлари меҳнатини механизатсиялаштириш ва автоматизатсиялаштириш, бошқарув ахборотини тўплаш, қайта ишлаш, узатиш ва ишлов бериш бўйича техник воситаларни жорий қилиш режанинг муҳим бўлими ҳисобланади.

10.3. Маҳсулот сифатини бошқариш таҳлили

Бозор муносабатлари ишлаб чиқарувчи билан истеъмолчи ўртасидаги барча муносабатларда принтсипиал ўзгаришлар ясашни назарда тутади.

Ишлаб чиқариш корхоналари ва маҳсулот харидорлари ўртасидаги муносабатлар маҳсулот сифатидан келиб чиқиб фақат хўжалик ҳисоби асосида курилади. Ишлаб чиқариш корхонаси маҳсулот сифати учун харидор олдида ҳар доим тўлиқ жавобгар бўлади.

“Харидор доимо ҳақ” деган тамойилга кўра, сифатсиз маҳсулот натижасида харидорга етган зарар амалдаги қонунлар ёки маҳсулот етказиб бериш учун тузилган шартнома шартларига кўра қопланиши лозим. Бу маҳсулот ишлаб чиқарувчиси зиммасига фақат сифатли маҳсулот ишлаб чиқариш мажбуриятини юклайди.

Бундан ташқари, бозор шароитларида ишлаб чиқарувчи корхона ўз товар ва хизматлари сифати ва нархларининг рақобатбардошлигини таъминлаши лозим. Бозор паст сифатли, бунинг устига нархи ҳам баланд бўлган маҳсулотларни умуман қабул қилмайди. Ишлаб чиқарувчи корхона ўз маҳсулотининг сифатини ошириши лозим, акс ҳолда у рақобатга дош беролмайди ва синади.

Маҳсулот сифати асосан ишлаб чиқаришнинг техник шартлари билан белгиланади. Бироқ, маҳсулот техник шартларга жавоб бериши, техник

шартларнинг ўзи еса юқори ёки паст сифатли бўлиши мумкин. Ниҳоят, маҳсулот сифати харидорнинг реал еҳтиёжларига жавоб бериши мумкин. Товар ва хизматлар техник шартларга ҳам, истеъмолчиларнинг реал еҳтиёжларига ҳам жавоб бериши керак; техник шартларнинг ўзи ҳам юқори сифатли бўлиши лозим. Маҳсулот сифатини бошқариш таҳлилида мавжуд техник шартларни пухта ўрганиш, уларнинг илмий асосланганлиги ва янгилигини аниқлаш, бутун технологик жараён занжири ва маҳсулот сифатини назорат қилиш процедурасини ўрганиш зарур.

Маҳсулот сифати учун жавобгарлик ЎАпонияда бўлгани сингари ишчиларнинг ўзига ёки маҳсулотни ишлаб чиқарувчи тсехга юкланиши мумкин. Маҳсулот сифатини текширишнинг икки усули - танлов асосида назорат ва оператсион назорат (ишлаб чиқариш жараёнида) мавжуд.

Танлов асосида назорат маҳсулотнинг катта партиясидан маълум фоизини текшириш ва бунинг асосида маҳсулот сифати ҳақида хулоса чиқаришни назарда тутди. Танлов асосида назорат сарф-харажатларни камайтиради, аммо унинг натижалари маълум даражада рискка ега бўлади, чунки бутун партия ҳақида қарор кичик партияни текшириш натижаларига кўра қабул қилинади.

Ишлаб чиқариш “назоратдан чиқиб”, паст сифатли маҳсулотлар ишлаб чиқарила бошланган жойларда оператсион назорат қўлланади.

Ўтказилган тадқиқотлар асосида маҳсулот сифатини муваффақиятли бошқариш учун товар етказиб берувчилар ва истеъмолчиларнинг саъй-ҳаракатларини бирлаштириш ёъли билан сифат бошқарувининг комплекс тизимлари ишлаб чиқилиши лозим.

Хулоса

Илмий-техник бошқарув техника ва технологияни такомиллаштириш ёъли билан ишлаб чиқариш самарадорлигини оширишни назарда тутди.

Корхона муҳандислик хизматининг бўлинмалари, олий ўқув юртлари ва илмий-тадқиқот институтлари илмий-техник бошқарув органлари бўлиб ҳисобланади.

Илмий-техник бошқарувни таҳлил қилишда янги техника ва технологияларни жорий қилиш режаларининг мавжудлиги, ишларнинг комплекслилиги ва бу режаларнинг бажарилишига алоҳида еътибор бериш лозим.

Бошқарув тизимини техник ва технологик жиҳозлаш бошқарув сифатини ошириш ва бошқарув сарф-харажатларини камайитиришнинг муҳим шартларидан бири ҳисобланади.

Бозор муносабатлари ишлаб чиқарувчи ва истеъмолчининг ўзаро муносабатларида принтсипиал ўзгаришлар яшашни назарда тутди, ишлаб чиқариш корхонаси маҳсулот сифати учун харидор олдида ҳар доим тўлиқ жавобгар бўлади.

Ўзини-ўзи текшириш учун саволлар

1. Илмий-техник бошқарувнинг умумий функтсияларини айтиб беринг.
2. Бошқарув тизими техник таъминотининг таҳлили қандай мақсадларни кўзлайди?
3. Бошқарув тизимини механизатсиялаштириш ва автоматлаштириш ўртасидаги фарқ нимада?
4. Ишлаб чиқариладиган маҳсулот сифатига қайси омиллар таъсир қилади?
5. Маҳсулот сифатини текширишнинг икки усулини айтинг.

6. Илмий техник бошқарув бўлимлари вазифалари.
7. Бошқарув тизимини техник таъминлаш.
8. Махсулот сифатини бошқаришнинг тахлили.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. “Ўзбекистон”, Т., 2008.
2. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанамиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. Халқ сўзи, 30 январ, 2010.
3. Каримов И.А. Мамлакатимизни модернизация қилиш ва янгилашни изчил давом эттириш - давр талаби.Т., 2009, 22 б.
4. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф етишнинг ёллари ва чоралари.Т., 2009, 56 б.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг “Жаҳон молиявий – иқтисодий инқрози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф етишнинг асосий ёллари ва чоралари” номли асарини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. Тузувчилар: Б.ЙУ.Ходиев, А.СҲ.Бекмуродов, У.В.Ғофуров, Б.К.Тўхлиев. – Т.: Иқтисодиёт, 2009.-120 б.
6. Каримов И.А. Эришган марраларимизни мустахкамлаб ислохотлар ёлдан изчил бориш асосий вазифамиз. Тошкент оқшоми., 24-сон.10 феврал, 2004.
7. Каримов И.А. Биз учун халқимиз, ватанамиз манфаатидан улуг мақсад ёқ. Т., Ўзбекисто, 2001
8. Зайнутдинов СҲ.Н. ва бошқалар. Менежмент асослари. –Т: Молия, 2001.
9. Шарифхўжаев М., Абдуллаев Ё. Менежмент. –Т: Ўқитувчи, 2002.
10. Казантсева А.К. Основы производственного менеджмента. –М: Серия “В”, 2008.
11. Козловский В.А. Производственный менеджмент. Учебник: М, 2008.
12. Новитский Н.И. Организация производства на предприятиях: Уч.укул. пособие – М: Финанси статистика, 2008.
13. Фатхутдинов Р.А. Производственный менеджмент -М, 2008.
14. Букин С.О. Основы менеджмента в вопросах и ответах –М, 2008.
15. Парахина В.Н. Теория организации -М, 2008.
16. Лафта Дж. К. Теория организации -М, 2008.
17. Смирнов Э.А. Теория организации -М, 2008.
18. Туровец О.Г., Родионова В.Н. Теория организации -М, 2008.
19. www.cer.uz Vse o menedjmente.

11-bob. ISHLAB CHIQUVISH MENEJMENTINING IJTIMOIV MASALALARI TAHLILI

- 11.1. Ijtimoiy yo'nalish mohiyati.
- 11.2. Ishsizlik muammolarini xal qilish borish.
- 11.3. Ijtimoiy boshqaruv vazifalari bajarilish tahlili.
- 11.4. Boshqaruvning qo'llanilayotgan ijtimoiy-ruxiy usullari tahlili.
- 11.5. Mehnat jamoalarida ishning yaxshi borishi, bahs va nizolar chiqishi sabablarining tahlili.

Mavzuning maqsadi - ijtimoiy boshqaruv nazariyasi, mehnat jamoasiga ta'sir ko'rsatish usullarini o'zlashtirish, ijtimoiy boshqaruv funktsiya va usullarining bajarilishi hamda mehnat jamoalaridagi bahs va nizolarni hal qilishning tahlili borasida ma'lum ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

11.1. Ijtimoiy yo'nalish mohiyati.

Tsivilizatsiyali jamiyat uchun bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yunalishi zaruriy holatdir. Bu inson manfaati, himoyasi, uning turmush darajasi, muammosidan kelib chiqib, jamiyat bozor munosabatlari kamchiliklariga, ular yuzaga keltiradigan salbiy okibatlarga befarq bula olmaydi. Bozor rivojining ijtimoiy yunalishda bo'lishi hozirgi zamon talabi bo'lib, bu sohada, ayniqsa taraqqiy etgan mamlakatlarning tajribasi katta.

Yuqorida ta'qidlaganimizdek, bozor iqtisodiyotining ustunligi inson manfaatlaridan kelib chiqishligi, uning rivoji shu tufayli amalga oshirilishidadir. Lekin bu absolyut holat deb bulmaydi. Chunki har o'anday ob'ektiv ijtimoiy xolatdek bozor iqtisodiyotida ham beboshlik, tomonlar manfaatlarining doimo bir me'yorda ta'minlanmasligi jarayoni mavjud.

Bozor iqtisodiyotidagi salbiy oqibatlar faqat uning "kuli etmasligi" bilan borliq bulmay, umuman uning taraqqiyotidagi normal holatlar bilan xam borlangan. Xususiy manfaatni ta'minlash uchun bo'lgan harakatning o'zi uchun bozorda qulayliklar axtarish shafkatsiz raqobat kurashi tufayli yuz berishi va bunda imkoni bor usullardan foydalanish hamda har qanday urinishlarga yul o'uyib berilsa, albatta bu juda orir oo'ibatlarga olib kelishi turgan gap. Boshqacha qilib aytganda, bozor oqibatiga oddiy xalqni iste'molchi sifatida yakkama-yakka, ruparama-rupara qo'yish inson taqdiriga befarq qarash bo'ladi. Shuning uchun ham bozor iqtisodiyoti oqibati natijasida paydo bo'ladigan og'ir sharoitga tushib qolishning oldini olish uchun imkoni boricha yordam qo'lini cho'zish davlatning muhim vazifasidir.

Bozor taraqqiyotidagi raqobat kurashining natijasi uning ishtirokchilari uchun ikki xil natija bilan yakunlanadi. G'olib tomon o'z iqtisodiy imkoniyatlarini orttirib borsa, mag'lub - o'z imkoniyatlaridan mahrum bo'lib boradi. Lekin bu yuzaki ko'rinish. Ichki holat, birinchidan, umuman korxonalar takdiri, ishlovchilar daromadi bilan, ikkinchidan, inflyatsiya, asosiy aholining turmush darajasi muammosi masalasi bilan bog'liqdir.

Bunday hodisa, ayniqsa o'tish davrida kuchayadi, chunki iqtisodiyotda tub o'zgarishlar yuz beradi. O'zbekistonda bozorning shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari ustida suz yuritganimizda uch birlik iqtisodiy jarayoniga e'tibor bergan edik. Ayni vaqtda milliy iqtisodiyotning shakllanishi, industrlashtirishning amalga oshuvi va bozor munosabatlarga ugish iqtisodiyotdagi, uning tizimidagi, tuzilishidagi, moddiy asosidagi yuz berayotgan asosli tub o'zgarishlar ijtimoiy muammoni juda ham keskin o'ilib kuyadi.

Demak, O'zbekiston sharoitida bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan borliq ijtimoiy muammo milliy iqtisodiyot va industrilashtirish tugdiradigan ijtimoiy muammolar bilan kushilib ketib, bunda ijtimoiy muammo o'z ta'sirini juda ham kuchaytiradi.

Bozor iqtisodiyoti ijtimoiy iunalishining asosiy mazmunini aholining ijtimoiy himoyalanishi tashkil etadi. Bundagi eng muhim chora-tadbirlar avvalo ishsizlik, aholi daromadi tabaqalanishi muammolarini echishdan iborat.

Aytganimizdek, bozor rivoji raqobat kurashining ta'siri ostida bir tomondan, rivojlanish va ikkinchi tomondan, ishsizlikning o'sib borishi, kambag'allikning paydo bo'lishi bilan amalga oshadi. Ma'lumki, raqobatga bardosh berolmagan xo'jaliklar pirovardida faoliyatini tuxtatish yoki o'zgartirishi, faoliyat hajmini qisqartirishga va natijada ishlovchilarni bushatishga majbur buladi. Jamiyat, mamlakat bo'yicha olsak bu katta miqdordagi ishsizlikning ko'payishiga olib keladi.

Ishsizlikning o'sishi, kambag'allashuv o'tish davrida ancha tezlashishi mumkin. Chunki ayni vaqtda strukturaviy o'zgarish yuz berib boradi, ya'ni raqobatsiz ham keraksiz korxonalar o'rniga boshkalari, ya'ni manfaatli lari tiklanib, talabga mos xo'jaliklar paydo bo'lib boradi. Masalan, O'zbekistonda hozirgi vaqtda bir qancha yirik korxonalar shunday xolatda bo'lib, ularda ishlab chiqarish o'zgarishi tezlashib bormoqda. Sobiq sovet tuzumi davrida yuzaga kelgan iqtisodiy aloqalarning o'zgarishi natijasida bir xil korxonalar maxsulotiga talab ortsa, boshqalariga kamayib bormoqda. Bu korxonalarning ishlab chiqarish xajmi bilan bog'liqdir.

Yana shu narsani qayd qilish kerakki, ishsizlik bozor sharoitida hamma vakt ham bevosita xodimga bog'liq emas. Tugri, ish joyi qisqarishida birinchi navbatda, layoqatsizlar ishdan bushatiladi. Bu, albatta barcha ishsizlarni o'z ichiga olmaydi. Chunki raqobat tufayli butun bir korxona faoliyatini to'htatadiki, bunda ishsizlik barchaga bir xil ta'sir etadi va eng qobiliyatli, yukori malakali ishchi, texnik xodimlar xam ishsiz bo'lib qoladi. Raqobat ta'sirida yuzaga kelgan ishsizlikka tushib qolishlikda xodimning hech qanday aybi bulmaydi va uni bozor sharoiti shunday ahvolga tushirib qo'yadiki, u albatta himoyalanishi kerak.

Bundan tashqari bozor doirasidan chetda bo'lgan nogironlar, qariyalar, ko'p bolali oilalar ham borki, ular ham himoyaga muhtoj.

P. Samuelson va V. Nordxaus aytganidek, bir oilada to'kin - sochinlik va boshqasida kambag'allik mavjud bo'lsa, talab va taklif yomon ishlashi bozor mexanizmining aybi bilan emas, balki daromad taqsimotining kamchiligi va nomukammalligi tufayli yuz beradigan hodisadir. Bunga davlat qayta taqsimlash siyosati orqali yordam berishi mumkin.

Bunday ahvol daromadlar q'rtasidagi farq tufayli yuzaga kelib, pirovardida iqtisodiy tanlov tamoyiliga borib taqaladi. Aholi daromadi ustida qisqacha tuxtalib o'taylik. Ma'lumki, insonning iqtisodiy faoliyati uning uchun daromad olish bilan yakunlanadi. Daromad hillarining asosiy qismi pul shakliga ega, chunki yaratilgan mahsulotdan odamlar o'ziga tegadiganini pul daromadi sifatida oladilar. Bu pul xarid uchun sarflanib, ehtiyoj qondiriladi. Bozor itisodiyotida pul resurslar egalariga va resurslardan foydalanish tufayli kelgan pirovard natijalarga bog'liqdir.

Bozor iqtisodiyotida daromad olish cheklanmaydi va xar bir chiqarish omiliga qarab doimo o'sib borish xususiyatiga ega. Har bir resurs egasi, ya'ni ish kuchi egasi ish haqi, kapital egasi foyda va er egasi renta oladilar. Shu bilan birga pul egasi foiz qilib qo'ygan mexnati uchun qarilik pensiyasini oladi. Lekin daromad olish bu bilan

cheklanmaydi. Avvalo bir qism daromad natural holda olinadi. Bundan tashqari ish kuchi egasi ish haqi bilan bir qatorda foyda oladi. Bular hammasi bozor qoidasi asosida yuz beradi. Bunda resurs omillari bergan natija asosida bozorga xos ekvivalent tao'simoti xukmronlik qiladi. Lekin bunga qo'shimcha ravishda noekvivalentlik ham mavjud bo'lib, bozor qonunlari ta'sirisiz insoniylik munosabatlari mahsuli sifatida ishga noloyiq aholi qismi uchun qo'llaniladi. Bu qism miqdori umumdavlat talab - ehtiyoji asosi bilan belgilanadi.

Daromad pirovardida bozorning resurslar sarfini qanchalik inobatga olganligiga bog'likdir. Aytaylik, tadbirkor va uning ixtiyoridagi ishchilar kanchalik urinmasin, mehnat unumdorligi yuqori bo'lmasin, uning ohiri bozorga bog'liq.

Ya'ni tovar yoki xizmatning talabga tug'ri kelishiga, xaridorgirligiga, sotilishiga, yo qisman sotilishiga, kutgan, yo kutmagan baholarda sotilishiga bog'liq.

Daromadlar xili ham, tarkibiy tuzilishi ham turli bo'ladi. Daromadlar tarkibiy kismining asosini ish haqi, maosh tashkil etadi. Masalan, AQShda 80-yillar boshida ish haqi daromadlar yig'indisining 3/4 qismiga teng bo'lgan. Ish haqining hajmi asosan mehnat unumdorligi darajasiga bog'liq. Yuqori malakali mehnatning haqi ham yuqori bo'ladi. Lekin ish haqiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa tomonlar ham mavjud. Masalan, ish haqi darajasiga mehnatning og'ir-engilligi, nufuzli va nufuzsizligi, yashash va ish sharoitlari, ishdagi ko'nimlik kabilar ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, ish haqi yollovchi va yollanuvchilarning kelishuvlariga ham bogliq bo'ladi.

Xozirgi davrda yuqori malakali ishchilarga talab katta. Shuning uchun g'arb mamlakatlarida ish kuchiga sarf etilgan kapital yuqori ish haqini ta'minlaydi, deyishadi. Ish kuchiga sarf etilgan investitsiya ish qobiliyatini ko'taradi, insonga bilim, hunar, kasb berib, mehnat mahoratining o'sishiga olib keladi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida daromadning bunday bog'liqligi o'z bilimi, malakasi uchun sarf-xarajatni ayamalik va katta hajmda amalga oshirishga olib keladi.

Renta, foiz er bilan pul egaligiga hamda bu resurslarning darajasiga bog'liq bo'lsa, foyda tadbirkorlik sifatidagi xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. Lekin tadbirkor normal foyda bilan bir qatorda ortiqcha foydaga ham ega bo'lishi mumkin. Bu tadbirkorning yaxshi ish yuritishi uchun tulov bo'lib, bu xatarli, tavakkalchilik uchun iqtisodiy foyda sifatida to'laniladi. Chunki erkin bozorda raqobat tufayli qanchalik boshqa tomonlar e'tiborga olinmasin baribir bozorda ma'lum darajada noma'lumlik mavjud bo'ladiki, kutilmagan hodisa bo'lib qolishi extimoldan holi emas.

Lekin yuqori foyda monopolik xolatida ham yuz berishi va boshqaning mehnati natijasi bo'lishi mumkin. Uning foydasini bir qismi o'z yuo'ri faoliyatining bir qismi bo'lib boshqalarning mehnatidan foydalanish hisobiga, kapitalistik shaklda ham bo'ladi. Bunda daromad xillari bir - biriga qo'shilib ketadi. Masalan, er egasi o'zi kapital sarf etib, ishchilarni yollab, o'zi ham bevosita ishlasa, bundagi renta, foyda, ish haqi va boshqalar hisobiga yuqori foyda olish kabilarini bir-biridan ajratish qiyin. Masalan, AQSHda 1994 yilda oila ish haqi va maoshi barcha darajalarga nisbatan 73 foiz, mulkdorlik daromadi—8 foiz, korporatsiyalar foydasi — 8,0 foiz, ssuda protsenti—10 foiz, renta—1,0 foizni tashkil etgan. Bu, albatta doimiy ko'rsatkichlar emas, ular o'zgarib turadi. Lekin bu ko'rsatkichlar o'tgan yillarga taqqoslanilsa, rentaning pasayib borishini, shuningdek, korporatsiyalar foydasining ham biroz pasayishini va ish haqi qismining ko'payishini ko'rsatadi.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida yuqori darajali ishbilarmon, yaxshi xizmat ko'rsatuvchi raqobatda ustun chiqadi. Ish natijasi, faoliyat hosili turlicha bo'lib, bunda iqtisodiy tanlov ta'sirini ko'ramiz va bunday voqelik daromadlarning doimo turliligi, oz - ko'p, yuqori va pastligini ta'minlab turadi. Buning bozor munosabatlari ta'siridagi oqibati kuchlidir. Chunki raqobat kuchayadi, faoliyat tezlashadi, sifat yuqori. Shuning uchun ham iqtisodiy tanlovga asoslangan bozor taqsimot munosabatlari tenglikni inkor etib, tengsizlikni tasdiqlaydi. Bu esa iqtisodiy o'sishda katta turtki bqladi.

Tengsizlik yuzaki qaraganda, adolatsizlikni bildiradi, ammo adolatli va adolatsiz tengsizlik mavjudligini yoddan chiqqmaslik kerak. Albatga yuqori malakali, demak, yuqori unumli mehnat uchun past ish haqi olishdagi tengsizlik adolatli tengsizlikdir. Shuningdek, tadbirkorlikda ham shaxsiy xususiyatlar va tavakkalchilik darajalariga nisbatan yuqori yoki past foyda olishdagi tengsizlik xam adolatlidir. Eki bo'lmasa dividend, renta kabi daromadlar ham adolatlidir, chunki ular mulk uchun olinadigan daromad turlaridir.

Adolatsiz daromadlar va tengsizlikni ham inkor qilib bo'lmaydi. Birjadagi kurs o'zgarishi xisobiga birdaniga katta foyda olishda albatta adolatsizlik bor, bu faqat omadning o'zi. Yirik puldorlarning bankka pul qo'yib katta daromad olishini ham adolatli deb bo'lmaydi, chunki bunda hech oqanday mehnat, urinish, hatto o'ylab ko'rish ham sodir bo'lmaydi.

Albatta, adolatli daromadlar ortib borishi kerak, chunki bu halol tsivilizatsiyali jamiyatga mos keladi. Tengsizlik insoniyatga xos narsa, u harakatni, jarayonni tezlashtiradi va turtki xizmatini ado etadi, ya'ni rivojlanish uchun intilish tug'diradi. Zero, barchaning harakati hamma uchun bir xil unum berishi, bir xil daromad keltirishi mumkin emas. Bu insonning qobiliyati, malakasi, fikr yuritishiga bog'liq.

Daromad turliligi oilalarda juda sezilarlidir. Chunki bunga avvalo oilaning katta-kichikligi, ishlovchilarning ko'p - ozligi, qolaversa ish unumlarining turliligi kabilari ta'sir etadi. Shunga ko'ra bir xil oilaning daromadi yuqori bo'lsa, ikkinchi oilaniki kam bo'ladi. Shuning uchun oilalar boy va kambag'al oilalarga bo'linadi. Bu ham bozor iqtisodiyotidagi oddiy va tabiiy xolatdir.

Tenglik xuddi adolatlilikdek tuyiladi. To'g'ri, tenglik barchaning bozor iqtisodiyotida ishtirok etish, faoliyat ko'rsatish, daromad olish huquqiga ega bo'lish, mulkdor bo'lish kabilarda o'z ifodasini topadi. Lekin daromaddagi tenglik boqimandalikka, javobgarlikni sezmaslikka, beg'amlikka olib keladi, bu bozor iqtisodiyoti qonuniyatlariga tamoman zid.

Tengsizlik bozor iqtisodiyotining barcha jabhalariga xosdir, ya'ni ayrim ishlovchilar, mulkdorlar, oilalar, mamlakatlar bo'yicha olsak, barchasida daromad tengsizligi, iste'moldagi tengsizlik, hayotiy sharoitlar tengsizligi kabilarni ko'ramiz. Bu tengsizlik normal holat bo'lib, yuqori daromad uchun harakat kilishga intilishni kuchaytiradi.

Kambag'allik, ishsizlik va aholining ijtimoiy ximoyalash muammolari bozor iqtisodiyoti taraqqiyoti natijasida o'zgarib bormoqda. Chunki tsivilizatsiyali rivoj topgan bozor iqtisodiyoti o'zining ijtimoiy yunalishi bilan daromad darajasini ko'tarmoqdaki, bu jamiyat uchun ijobiy xodisadir. Bozor iqtisodiyoti mexanizmi aralash iqtisodiyot sharoitida oilaviy farovonlikka mo'ljallangan va tovar ishlab chiqarilishi insonlarning tirikchilik ehtyojini qondirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Ishlab chiqarish davridan

so'nggi talab davrida bozor mexanizmi tovarlar, xizmatlar seroblighi va ularning talabni to'la qondirish darajasida bo'lishini taqozo etadi.

Mehnat unumdorligi darajasining yuqoriligi moddiy ishlab chiqarishga nisbatan nomoddiy sohalarning ustuvorlik bilan rivojlanishini ta'minlaydi.

Bunday iqtisodiy taraqqiyot darajasida insonparvarlik tamoyilining moddiy asoslari yaratilgan bo'lib, boylar va kambag'allar qarama-qarshiligining keskinligi yo'qotiladi. Iqtisodiyotning demokratiklik tamoyili ustunligi ta'minlanib, mulkdorlar ko'payadi. Ish kuchi egalarining ayni vaktida mulk egasi bo'lishi imkoniyati turiladi. Ish kuchining mexoriyati o'sib, malakali mehnat ishlab chiqarishda, umuman, iqtisodiyotning barcha soxalarida xal qiluvchi o'rinni egallab boradi. Ishchilar aktsiya egalari bo'lib, ish haqi bilan birga dividend oladilar, korxonaga, aktsiyaga qarab egalik huquqiga ega bo'ladilar.

Bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yunalishi ikki tomonlama amalga oshib boradi. Birinchisi va asosiysi, mulk egalariining faoliyati tadbirkorlikning rivojlanishidan iborat. Mulk turlaridan kat'i nazar, kapitalmi, ish kuchini, ermi, pulmi baribir har biri o'z mulkidan foydalanishni ko'paytirishga harakat qiladi, uning unumdorligini oshirib, samarasini ko'paytiradi. Ikkinchisi, davlat ortiqcha daromadga ega bo'lganlarning bir kism daromadlarini markazlashtirib, kambag'allarga beradi va bu ularning farovonligini ta'minlab borishi bilan bog'liq holda amalga oshadi.

Umuman, mulkdorlar ichida nufuzli bo'lish uchun harakat qilish asosan insoniylikni ta'minlash, insonparvar bo'lishga undaydi. Bu esa bozor iqtisodiyotidagi ijtimoiylikning eng muxim omillaridandir. Umuminsoniy faoliyat, inson g'amxo'rliqi iqtisodiy hayotda asosiy xususiyatlarga aylanib boradi.

Demak, bozor iqtisodiyotining o'zi ijtimoiy yunalishda bo'lib, farovonlikni ta'minlab boradi. Lekin bozor iqtisodiyoti o'z faoliyat doirasidagi ishtirokchilargagina ta'sir ko'rsatadi, qolganlari esa davlat ta'siri doirasida bo'ladi. Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlari tajribasi asosiy masala yoki muammo kambag'alga to'g'ri moddiy yordam ko'rsatish, uni qo'llash yoki ximoyalashda emas, balki ITP — ilmiy texnik progressda, resurslarning samarali ishlashida ekanligini ko'rsatadi. Mehnat unumdorligini keskin ko'tarish va buning asosida o'rtacha iste'molini oshirib borish o'zidan-o'zi minimal hayotiy darajani ko'taradi. Ijtimoiy progress asosi sifatida texnologik progress shunday sharoitlar yaratadiki, unda inson arziydigan hayotning ishonchli imkonini ko'lga kiritishi va kambag'allikdan xoli bo'lishi mumkin.

11.2. Ishsizlik muammolarini hal qilib borish.

Davlatning aholini ijtimoiy himoyalash sohasidagi yirik faoliyati ishsizlikning oldini olishdan iborat. Ishsizlik umumiy iqtisodiy tenglikning buzilishi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy ko'rsatkichlardandir.

Uch xil ishsizlikni bir - biridan farqlagan xolda ko'rsatish mumkin. Birinchisi normal holatdek mazmunga ega bo'lib, ish axtarish, ishga joylashuv bilan borliq ishsizlikdir. Bunday ishsizlik doimo bo'lishi mumkin, chunki ma'lum qism odamlar ishdan ishga ko'chish, ko'nglidagidek va mos ish axtarish tufayli vaqtincha ishsiz xisoblanadi. Bu friksion ishsizlik deb ataladi.

Ikkinchi xil ishsizlik—ishlab chiqarishdagi tuzilma o'zgarishlari tufayli bo'lib, bu ham doimiy mavjud bo'ladi. Chunki bu asosan rivojlanish bilan borliq voqelikdir. Aytaylik, mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, yangi texnologiyaga o'tish tufayli mavjud

mutaxassisliklar o'zgarishi yuz beradi. Bundan tashqari harbiy sanoat konversiyasi (ayniqsa Rossiya sanoatida keng miqyosda davom etmoqda) yoki boshqa xom ashyoga o'tish, yangi xil materiallar ishlatishga o'tish tufayli ishlab chiqarishni uzgartirish kabilar mutaxassislikni ham o'zgartirishga olib keladi. Albatta, bunday o'zgarishlar ma'lum darajadagi va miqdordagi ishsizlikni tashkil qilib, mehnat bozorida ishtirok etishga olib keladi. Bunday ishsizlik tuzilmaviy ishsizlik deyiladi. Buni ham friksion ishsizlikka o'xshagan butunlay yo'q qilib bo'lmaydi. Chunki tuzilma texnologik o'zgarishlarni tuxtatib bo'lmaganidek va tashqi iqtisodiyotdagi aloqalar rivoji, umuman, bozordagi tovarlar extiyoji — talabining o'zgarishlarini to'xtatib bo'lmaganidek, bu xil ishsizlikning butunlay oldini olishning iloji yq'q.

Uchinchi xil ishsizlik — ancha murakkab va uning ta'siri va mazmuni boshqacharoq. Ma'lumki, iqtisodiyot rivoji va uning asosi bo'lgan ishlab chiqarish taraqqiyoti bir tekisda davom etmaydi. Vaqti-vaqti bilan yoki ma'lum muhlat ichida ko'tarilish, pasayish yuz berib turadi. Bir vaqtlari zaruriyatga ko'ra xom ashyoviy taraqqiyot tezlashib, bunday tarmoqlar juda kengaygan. So'ngra texnologik o'zgarishlar natijasida moddiy sig'implilikning oldini olish natijasida va tabiiy xom ashyolarning kamayib borishi bilan bu tarmoqlar qisqara bordi, Shuningdek, buning ta'siri xom ashyolarning birlamchi qayta ishlovchi tarmoqlariga ham o'tdi.

Keyingi yillardagi rivojlanish ilimga oid mahsulotlar ishlab chiqarish, shuningdek, ma'lumot va bilim sohasi, so'rlikni saqlash hamda boshqa xizmatlar tarmoqlarining tezlikda o'sishi bilan bog'likdir. Bu esa to'g'ridan-to'g'ri mavjud ish kuchi va talab kilinadigan ish kuchi o'rtasidagi sifat farqini oshiradi. Masalan, tog' sanoati mutaxassisiga dastur tuzuvchilik ishi taklif etilsa yoki metallurgiya mutaxassisiga tibbiyotga xos ish taklif etilsa, albatta hech ma'qul bo'lmaydi.

Iqtisodiy taraqqiyotdagi notekislik vaqti-vaqti bilan ish faoliyatining susayishiga olib kelishi bilan bog'langan ishsizlik tsiklik xususiyatli ishsizlikdir. Ko'rinib turibdiki, bunday ishsizlik o'z xususiyati bo'yicha oldingilardan farqlanadi. Buning ular kabi zaruriyati yoq va ish faoliyatini kuchaytirish, ish joyllarini kopaytirishga bog'liq bo'ladi.

Umuman, ishsizlik deganda birinchi va ikkinchi xili e'tiborga olinmay, faqat uchinchisi, ya'ni tsiklik ishsizlik tushuniladi. Ishsizlikning oldini olishda ham uchinchi xil ishsizlik ko'zda tutilib birinchi va ikkinchilari xisobga kirmaydi.

Bozor iqtisodiyotida ishsizlik kasali doimiylikka ega. Bu esa og'ir ijtimoiy muammolarga olib kelishi mumkin. Ish bilan bandlikni faqat bozorcha kelishuv va unda mehnat ish haqiga almashadi deb tushunish etarli emas. Chunki ish bilan bandlik hayot tarzidan iboratdir. Ishsiz qolish turmush tarzining tub o'zgarishi degan xodisadir. Bunda daromad bilan birga insoniy o'zgarishlar yuz beradi. Zero, ishsizlik katta ijtimoiy salbiy oqibatdir. Doimiy ishsizlik kambagallikdan qashshoqlikka olib kelishi mumkin.

Ommaviy ishsizlik ijtimoiy salbiy oqibatlar bilan birga katta iqtisodiy ziyon keltiradi. Bu ma'lum darajadagi ishlab chiqarilmagan maxsulot qismidir, amaliy ma'lumotlarga ko'ra ishsizlik 1 foizga ohsa, xalq xo'jaligi o'rtacha 2,5 foiz mahsulot yoqotadi.

Shuning uchun ishsizlikka qarshi kurashib, iloji boricha uning oldini olish zarur.

Bu sohadaga asosiy vazifa davlat zimmasiga tushadi. Davlatning bir qator choralarni, hatto zaruriyat taqozosi bilan sun'iy ish joylari tashkil etishi ham foydadan xoli emas.

Bundagi muhim tadbirlar qatoriga mehnat bozorini rivojlantirish, mehnat birjalarini taraqqiy ettirishlar ham kiradi. Bu sohada ITPning keng kullanishi, inkirozga qarshi siyosatni qo'llab borish, eksport - import va ish kuchi integratsiyasi siyosatlarini amalga oshirib borish yaxshi natijalar beradi.

Davlat mehnat bozoriga ta'sir ko'rsatib borishi kerak. Chunki bu bozor tovarlar bozoridan, undagi taklif va talab muvozanatidan farqlanadi. J. Keynsning ta'qidlashicha, davlat ishsizlik bilan kurash olib borishi va buni iste'mol va investitsiya tovarlariga bo'lgan talabni oshirishi va moliyaviy faol siyosatni kq'llash yuli bilan amalga oshirishi zarurdir. Shuningdek, davlatning umumiy bilim darajasi va qayta o'qitishga qaratilgan chora-tadbirlarni kengaytirishi ishsizlikka qarshi kurashda juda ko'l keladi. Chunki bu ishchining har qanday sharoitga moslashishi, yangi mehnat sharoitlariga ko'nika olishiga yordam beradi.

Tuzilma o'zgarishlar ishlovchilardan yukori bilimdonlikni talab etadi. Yaponiyaning, ayniqsa 50-yillardan boshlangan yirik tuzilma ishlab chiqarishdagi kam ijtimoiy xarajatlar bilan amalga oshganligi buning misoli bo'lishi mumkin. Agar 50-yillarda Yaponiya ishlab chiqarishida engil sanoat asos bo'lgan bo'lsa, 60-yillarda metallurgiya, kumir sanoati, kemasozlik, avtomobil sanoati asos bo'lgan. 70-yillarga kelib, ilmga oid tarmoklar asos bula boshladi. Davlatning bunday sharoitlarda odamlarni ko'llashi Janubiy Koreyada ham amalga oshirildi. Bunda davlatning ijtimoiy ximoya siyosati eng kambag'al mamlakatlardan va ishga layokatlilarning deyarli yarmi ishsiz bo'lgan mamlakatdan rivoj toptan mamlakatga aylanishida juda katta yordam bergan. Ishsizlikning oldini olishga qaratilgan ijtimoiy ximoyada kasaba uyushmalari ham o'z ta'sirini ko'rsatishi darkor. Lekin keyingi yillarda rivojlangan mamlakatlarda aralash iqtisodiyot rivojlanishi bilan bularning ta'siri susaymoqda. Masalan, AQShda 1945 yili ishga layokatlilarning 35 foizi kasaba uyushmasining a'zosi bo'lgan bo'lsa, 1995 yili bu kursatkich 14 foizga tushib qolgan. Bu kasaba uyushma a'zolarining qisqarishini ko'rsatadi. Buning bir necha sabablari bor. Aytaylik, siyosiy sohadagi bo'lgan salbiy munosabat va qonunchilikdagi kasaba uyushmalariga nisbatan buning ta'siri, intellektual mehnat va ayollar mehnati qismining ortib borishi yosh ishchilarning bu tashkilotlarga qiziqmasligi kabilar buning sababi bo'lishi mumkin. Chunki kasaba uyushmalarining mehnat bozoriga ta'siri pasayib bormoqda.

Amerika hukumati esa bunday hodisaga faol qatnashmay, o'zini deyarli chetda tutadi va kasaba uyushmalarining shakllanishi hamda faoliyati uchun imkon tug'dirib, ularga munosabatini o'zgartirmay kelmoqda.

Ishsizlik darajasiga ichki omillar bilan birga tashqi omillar xam ta'sir etadi. Kapital va tovarlar importga, eksportga albatta ishsizlikni kuchaytirishi mumkin. Ishchilarning migratsiyasini olsak, chetga chiqish ishsizlikni kamaytira, mamlakatga chetdan ishchilarning kelishi ishsizlikni ko'paytirishga olib kelishi mumkin.

O'zbekistonda ishsizlikka qarshi qaratilgan ijtimoiy ximoya o'tish davri xususiyatlari bilan ancha murakkablashadi va hajmi kengayadi.

O'zbekistonda sobiq sovet davrida asosan yashirin holdagi ishsizlik mavjud edi. Keyingi yillarda ularning miqdori 2 milliondan ortikligi ma'lum bo'ldi. Bu asosan aholisi zich bo'lgan Farg'ona vodiysi viloyatlari, faqat qishloq joylarga taalluqli edi.

Umumàn, hozirgi tuzimimiz uchun ishsizlik xuddi yangi ijtimoiy-iqtisodiy holàtdek tuyiladi. Shuning uchun hám bu sohàdàgi ishlàrning ko'p qismi yangidàn, birinchi qàdàmlàrdàn boshlànib, kompleks ràvishdà àmàlgà oshishi zàrur. Ishni huquqiy

màsàlälàrdàn boshlàsh, ungà borliq qonunlàrni yaràtib, ishgà tushirish, bu sohà bilàn shug'ullànuvchi orgànlàr ishini jonlàntirish birinchi dàràjàdàgi ishlàrdir.

Ishsizlik bilàn muammoni hàl qilishdà yangi ish joylàrni tàyyorlàsh, ommàviy ràvishdà yangi zàrur yoylàrni o'rgànish muhimdir. Bundà àvvàlo màydà korxonàlàrning pàydo bo'lishigà e'tibor berish keràk. Chunki bizning shàroitimizdà bu eng istiqbolli sohà. Shu pàytgàchà bizdà yirik korxoonàlàr àsos bo'lib kelgàn edi. Bozor iqtisodiyoti esà màydà korxonàlàr hàjmini orttirishni tàlàb etàdi và buning uchun shàroitlàr yaràtàdi.

Xizmàt ko'rsàtish tàrmoqlàrini olàdigàn bo'lsàk, màydà korxonalar uchun kàttà qulàyliklàr màvjud. Àsosàn bu tàrmoq shulàr qoshibà àvj olàdi. Mamlakatimizdà esà bu sohà judà orqàdà bo'lib, rivoj topgàn màmlakàtlàrgà qiyoslàgàndà deyarli yuqori dàràjàdà.

Bundàn tàshqàri yangi ish joylàri bàrpo etilàyotgàn yangi tàrmoqlàr qàytà yuzàgà kelàyotgàn yirik korxonalarda ko'plàb pàydo bo'lib turàdi.

Ishsizlik bilàn borliq vàzifàlàrni muvaffàqiyatli bàjàrishdà mehnàt birjàlàrinint o'rni kàttà. Ulàr hududlàr bo'yichà tàshkil etilib, keng tàrmoqli bo'lishlàri và imkon borichà o'z fàoliyatlàrini kengàytirishlàri, bundày joylàrdàgi hokimiyatlàr bilàn birgà ish kilib borishlàri yuqori sàmàrà beràdi.

Ishsizlik bilàn bog'liq bo'lgàn ishlàr àmàliyoti hàyotimiz uchun yangi bo'lgànligi sàbàbli bu sohàdà kàttà muvaffàqiyatlàrgà erishgàn màmlakàtlàr tàjribàlàridàn o'zimizning shàroitimizgà mos holdà foydàlànish àhàmiyatlidir. Shu bilàn birgà bozor iqtisodiyoti màhsuli bo'lgàn ishsizlikkà tààlluqli yanà bir nàrsàgà e'tibor berish zàrur. Bundày holàtning io'tisodiyotgà tà'siri màsàlàsidir.

Mà'lumki, ishsizlik ikki tomonlàrà màzmungà egà, birinchisi àytgànimizdek, io'tisodiyot uchun kàttà zàràr keltirib, ishlàb chio'àruvchi kuchlàr tàràqqiyotini sekinlàstiràdi. Eng muhimi ishlovchining ijtimoiy àhvolini yomonlàstiràdi và ungà moddiy và ruhiy zàràr keltiràdi. Lekin, ikkinchidàn, umumàn ishlàb chiqàrishgà ijobiy tà'sir ko'rsàtàdi, ya'ni ishchi ishsizlik holàtigà tushmàslik uchun ràqobàt kuràshidà qàtnàshàdi. Bundà ishchi màlàkàli, intizomli bo'lish, unumli mehnàt qilish và ish joyini sàqlàsh uchun ràqiblàrgà nisbàtàn ustun bo'lishgà hàràkàt qilàdi. Bulàr mehnàt unumdorligining yuqori dàràjàdà bo'lishidà, mehnàt sàmàràdorligining oshishidà àhàmiyatlidir.

11.3. Ijtimoiy boshqaruv vazifalari bajarilish tahlili

Ishlab chiqarish menejmentining ijtimoiy masalalari deganda mehnat jamoasidagi ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Bu munosabatlar jumlasiga sotsiologik, psixologik, ma'naviy va axloqiy munosabatlar kiradi. Ijtimoiy masalalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun jamoa maqsadlari va irodasining birligi, o'zaro hamkorlik va yordam, demokratiya va oshkoralik, intizom va mas'uliyat, inson shaxsiga hurmat, tanqid va o'zini o'zi tanqid qilish zarur.

Korxonada ijtimoiy boshqaruvni butun boshqaruv apparati, eng faol ravishda esa - tarmoq rahbarlari amalga oshiradilar. Bunda korxonaning ijtimoiy-ruxiy xizmati, sotsiolog va ruxshunoslar, kadrlar bo'limi muhim o'rin tutadi.

Hozirgi kunda ijtimoiy-psixologik xizmatlar faqat yirik korxonalarda mavjud bo'lib, tadqiqiy xususiyatga ega bo'lgan vazifalarnigina bajaradi; ayrim korxonalarda sotsiolog va psixologlar faoliyat ko'rsatadi.

Ijtimoiy munosabatlar funktsiyalari bajarilishi tahlilida eng avvalo korxonani ijtimoiy rivojlantirish rejasining mavjudligi va rejada belgilangan tadbirlarni amalga oshirishga e'tibor berish, bunda bajarish muddatlarini hisobga olish lozim. Rejada ijtimoiy rivojlantirishning barcha masalalari, shu jumladan mehnat va maishiy turmush sharoitlari, tibbiy xizmat kafolatlari va sh.k. aks ettirilishi zarur.

Korxona xodimlarning mehnat va turmush sharoitlarini muntazam yaxshilab borishi, uy-joylar, tibbiyot muassasalari, sog'lomlashtirish, sport majmualari, dam olish uylari, sport inshootlari, madaniyat markazlari qurishi lozim.

11.4. Boshqaruvning qo'llanilayotgan ijtimoiy-ruxiy usullari tahlili

Boshqaruvning ijtimoiy- ruxiy (psixologik) usullari-kishilarga ularning ijtimoiy va psixologik xususiyatlari orqali ta'sir ko'rsatish usullaridir. Boshqaruvning ijtimoiy-ruxiy usullarini ongli ravishda qo'llash mehnat jamoalarida ro'y berayotgan hodisalarni chuqur o'rganish, xodimlarning kayfiyati, asab tizimiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni bilishni talab etadi.

So'rov o'tkazish yo'li bilan yoki so'rovnoma ma'lumotlari yordamida tahlil o'tkazishda barcha bo'g'in rahbarlari o'z ishida ijtimoiy-ruxiy usullardan qay darajada foydalanayotganlari, mehnat jamoasida qanday ijtimoiy-psixologik muhit hukmronligi, rahbar kishilarning psixologiyasi va o'zaro munosabatlarini qay darajada bilishi va bu bilimlardan amalda qanday foydalanishini aniqlash lozim. Tahlil jarayonida, shuningdek, mehnat jamoasida barqaror muhitni yaratish, xodimlarning faolligini oshirish, boshqaruvni demokratlashtirish uchun ijtimoiy tartibga solishning qaysi usullari qo'llanayotgani ham aniqlanadi. Ijtimoiy tartibga solish usullari: ichki tartib qoidalari, intizomiy ta'sir ko'rsatish shakllari qanday amalga oshirilayotganini bilish ham muhimdir.

Psixologik ta'sir ko'rsatish usullari kadrlarni tanlash va o'qitib-o'rgatish, xodimlarda mehnatga rag'bat, yuksak onglilik, burch va mas'uliyat hislarini uyg'otishni nazarda tutadi.

11.5. Mehnat jamoalarida ishning yaxshi borishi, bahs va nizolar chiqishi sabablarining tahlili

“Korxona to'g'risida”gi Qonun korxonalarga o'z xodimlari haqida muntazam qayg'urish, ularning mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash, o'z xodimlari, ularning oilalari, urush va mehnat faxriylarining manfaat va ehtiyojlarini qondirish, yaxshi ishlashga muntazam rag'batlantirish, mehnat jamoalarida yuzaga keladigan bahs va nizolarni o'z vaqtida hal qilish majburiyatini yuklaydi.

Yaxshi ishlashga rag'batlantirish tahlilida quyidagilarni aniqlash lozim:

*korxona og'ir jismoniy mehnat, monoton va kam malaka talab qiladigan ishlarni keskin kamaytirish borasida qanday ishlayapti;

*texnologik jarayonlar sanitariya normalari va texnika xavfsizligi talablariga mos keladimi, ular ishlab chiqarishda jarohatlanishning oldini olishni ta'minlaydimi;

*og'ir qo'l mehnatini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, ish joylarini tashkil qilish va ularga xizmat ko'rsatish, qulay ish sharoitlarini yaratish bo'yicha qanday choralar ko'rilyapti;

- *oshxona va bufetlarda umumiy ovqatlanish qanday tashkil qilingan, yordamchi xo'jalik qanday rivojlantirilmoqda;
- *xodimlarga tibbiy xizmat ko'rsatish qanday tashkil qilingan, xodimlarning kasbiy kasallanish darajasi qanday;
- *bolalar bog'chalari, yaslilar, oromgohlar va boshqa bolalar muassasalari tizimi qay darajada rivojlangan;
- *sanatoriylar, dam olish uylari, sport bazalari mavjudmi.

Bahs va nizolarni tahlil qilishda:

- * korxonada bahs va nizolar qancha ko'p chiqishi, ularning sabablari va x.k. aniqlanadi.

Xulosa

Axolini ijtimoiy ximoyalash bozor iqtisodiyotini tarkibiy qismiga aylanib ketadi. Shuning uchun xam ijtimoiy ximoyalash asoslari o'tish davridayoq shakllanmog'i zarur. Bundagi kechiqish bozor soxasidagi muvaffaqiyatlarga teskari ta'sir ko'rsatishi turgan gap. Buning oldini olib borish ayni vaqtda bozor iqtisodiyotiga o'tishni tezlashtiradi va bundagi og'irlik va yuqotishlarni kamaytiradi. Iqtisodiy rivojlangan kuchli mamalakatlar tajribalari bozorning boshlang'ich davridayok uning xarakatiga ijtimoiy yonalish mazmunini berish tsivilizatsiyali bozor iqtisodiyotini yaratishdagi zarur shart ekanligini kursatmoqda.

Ijtimoiy boshqaruv deganda mehnat jamoasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish tushuniladi. Bu munosabatlar jumlasiga sotsiologik, psixologik, ma'naviy va axloqiy munosabatlar kiradi.

Ijtimoiy boshqaruv funktsiyalarini boshqaruv apparati, eng faol ravishda esa - tarmoq rahbarlari amalga oshiradilar.

Boshqaruvning ijtimoiy-psixologik usullari kompleks ravishda qo'llanishi lozim; ularning bajarilishi so'rov o'tkazish yoki so'rovnoma ma'lumotlari yordamida tahlil qilinadi.

“Korxonalar to'g'risida”gi Qonun rahbarlarga o'z xodimlari haqida muntazam qayg'urish, ularning mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash majburiyatini yuklaydi.

Rahbarlar xodimlarni yaxshi ishlashga muntazam rag'batlantirishlari, mehnat jamoasida yuzaga keluvchi nizo va bahslarni o'z vaqtida hal qilishlari lozim.

O'zini-o'zi tekshirish uchun savollar

1. Mehnat jamoasini ijtimoiy boshqarishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni sanab bering.
2. Korxonada ijtimoiy boshqaruv qanday amalga oshiriladi?
3. Ijtimoiy boshqaruv usullarini sanab bering.
4. Mehnat jamoasidagi ijtimoiy-psixologik muhitni qanday aniqlash mumkin?
5. Yaxshi ishlashga rag'batlantirishni tahlil qilishda nimalarni aniqlash lozim?
6. Ijtimoiy boshqaruv vazifalari.
7. Ijtimoiy psixologik usullar deganda nimani tushinasiz?
8. Mexnat jamoalarida nizolar chiqishi sabablari.
9. Bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo'nalishi deganda nimani tushunasiz?
10. Bozor iqtisodiyoti ijtimoiy yo'nalishining asosiy tomonlarini aniqlang.
11. Ishsizlikning paydo bo'lishi, uning turlari va ijtimoiy oqibatlar.
12. Daromadlarning tabaqalanishini o'anday tushunish kerak?
13. Davlatning axolini ximoyalash faoliyatini tushuntirib bering.

14. Bozor iqtisodiyoti sharoitida farovonlik muammosini qanday tushunasiz?
15. Bozor iqtisodiyotida daromadlar manbai .
16. Bozor iqtisodiyotida daromadlar turlari.
17. Turmush darajasi, turmush sifati kabi tushunchalarni aytib bering.
18. Oila byudjeti deganda nimani tushunasiz?

Adabiyotlar

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. "O'zbekiston", T.,2008.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Xalq so'zi, 30 yanvar, 2010.
3. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi.T., 2009, 22 b.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.T., 2009, 56 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Jaxon moliyaviy –iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning asosiy yo'llari va choralari" nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. Tuzuvchilar: B.YU.Xodiev, A.SH.Bekmurodov, U.V.G'ofurov, B.K.To'xliev. – T.: Iqtisodiyot, 2009.-120 b.
6. Karimov I.A. Erishgan marralarimizni mustaxkamlab isloxotlar yo'lidan izchil borish asosiy vazifamiz. Toshkent oqshomi., 24-son.10 fevral, 2004.
7. Karimov I.A. Biz uchun xalqimiz, vatanimiz manfaatidan ulug maqsad yo'q. T., O'zbekisto, 2001
8. Zaynutdinov SH.N. va boshqalar. Menejment asoslari. –T: Moliya, 2001.
9. Sharifxo'jaev M., Abdullaev YO. Menejment. –T: O'qituvchi, 2002.
10. Kazantseva A.K. Osnovi proizvodstvennogo menedjmenta. –M: Seriya "V", 2008.
11. Kozlovskiy V.A. Proizvodstvenniy menedjment. Uchebnik: M, 2008.
12. Novitskiy N.I. Organizatsiya proizvodstva na predpriyatiyax: Uch.usul. posobie – M: Finansi statistika, 2008.
13. Fatxutdinov R.A. Proizvodstvenni menedjment -M, 2008.
14. Bukin S.O. Osnovi menedjmenta v voprosax i otvetax –M, 2008.
- 15.Paraxina V.N. Teoriya organizasii -M, 2008.
16. Lafta Dj. K. Teoriya organizasii -M, 2008.
17. Smirnov E.A. Teoriya organizasii -M, 2008.
- 18.Turovets O.G., Rodionova V.N. Teoiya organizasii -M, 2008.
19. www.cer.uz Vse o menedjmente.

III BO'LIM. ISHLAB CHIQUARISH MENEJMENTINI LOYIHALASHTIRISH

1-bob. ISHLAB CHIQUARISH MENEJMENTI LOIYHASINING MAZMUNI VA UNI ISHLAB CHIQUISH TARTIBI

- 1.1. Ishlab chiqarish menejmentining tashkiliy - iqtisodiy modelini ishlab chiqish.
- 1.2. Ishlab chiqarish menejmentini loyihasining mazmuni.
- 1.3. Ishlab chiqarish menejmentini loyihalashtirishning asosiy bosqichlari.

Mavzuning maqsadi - bozor munosabati sharoitlarida ishlab chiqarish menejmenti tashkiloti loyihasining mazmuni va uni ishlab chiqish tartibini, respublikaning bozor munosabatlariga o'tishining asosiy tamoyillarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish menejmenti tashkiloti loyihasining mazmuni va loyihalashtirishning asosiy bosqichlarini o'rganishdan iborat.

1.1. Ishlab chiqarish menejmentining tashkiliy - iqtisodiy modelini ishlab chiqish

Tashkilotni loyihalashtirish ishlab chiqarish menejmenti fanining amaliy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ishlab chiqarish menejmentini tashkil etish loyihalashtirish turli vaziyatlarda olib boriladi. Yangi ishlab chiqarish tashkiloti uchun loyihalar juda ko'p ishlab chiqiladi. Bu yangi korxona qurish, aktsiyadorlik jamiyati yoki xususiy korxona tuzish loyihasi bo'lishi mumkin.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitlarida ishlab chiqarish menejmentini tashkil etish har bir korxona yoki tarmoqda qayta ko'rib chiqishga to'g'ri keladi, chunki boshqaruvning tashkiliy - iqtisodiy asoslari tubdan o'zgaradi.

Tashkilotni loyihalashtirishning kompleks va alohida loyihalashtirish turlari mavjud.

Tashkilotni kompleks loyihalashtirish ishlab chiqarish menejmentini takomillashtirish bo'yicha tadbirlar majmuini ishlab chiqishni, alohida loyihalashtirish esa boshqaruv apparatida bajariluvchi alohida ish turlarini ratsionalizatsiya qilish tadbirlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda respublika xalq xo'jaligining barcha sohalarida bozor iqtisodiyotini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish, korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlari ketmoqda.

Boshqaruv apparatining tashkiliy va funktsional tuzilmalari ratsionalizatsiya qilinmoqda, turli asosiy vositalar birjalari tashkil etilmoqda, bank tizimi o'zgartirilmoqda, xususiy tadbirkorlik rivojlanmoqda, asosiy vositalar, mehnat resurslari va qimmatbaho qog'ozlar bozorlari vujudga keldi va h.k. Yangi texnika va ilg'or texnologiyalar joriy qilinmoqda, ishlab chiqarishning reklama va axborot ta'minoti, hujjatlashtirish va hujjatli xizmat ko'rsatishni ratsionalizatsiya qilish jarayoni ketmoqda, boshqaruv apparatining tashkiliy va hisoblash texnikasi bilan jihozlanganlik darajasi oshirilib, boshqaruv ishlari kompyuterlashtirilmoqda.

Afsuski, tashkilotni loyihalashtirish hozircha boshqaruv iqtisodiy asoslarining alohida tashkiliy loyihalarini ishlab chiqish bosqichida turibdi. Tashkilot loyihalari alohida tashkilot, muassasa va korxonalarning talablari va xususiyatlariga tatbiqan ishlab chiqilmoqda.

Tashkilotning kompleks loyihalari, ya'ni bozor iqtisodiyotini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy asosiga doir printsiptial echimlar beruvchi tashkiliy loyihalar hozircha

mavjud emas. Xullas, tashkilotni loyihalashtirish hozircha boshqaruv tashkilotining alohida echimlarini yaratish yo'lidano rivojlanmoqda. Bu keyinchalik bozor sharoitlarida boshqaruv apparati tashkilotining namunaviy kompleks loyihalari (modellari)ni yaratish imkonini beradi.

Menejmentga qo'yiladigan muhim talablardan biri uning boshqariluvchi ob'ekt oldida turgan maqsadlar, uning xususiyatlari va rivojlanish tendentsiyalariga mosligi hisoblanadi. Bu moslik asosan boshqaruvning tashkiliy iqtisodiy modellarini ishlab chiqish orqali ta'minlanadi.

Model boshqariluvchi ob'ektning ishlab chiqarish va boshqaruvning maqsadlari, xususiyatlari va rivojlanish tendentsiyalarini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning o'lchamlari ko'rinishidagi imitatsiyasidan iborat bo'ladi. Barcha o'lchamlarni quyidagi bloklarga birlashtirish mumkin: maqsad o'lchamlari bloki, mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilish hajmlari, olinuvchi daromad miqdori, turmush sharoitini yaxshilash, samaradorlik.

Ishlab chiqarish - xo'jalik tashkiloti holati o'lchamlari: ishlab chiqarishning ixtisoslashuv darajasi; alohida ishlab chiqarish birliklari aloqalarining yaqinligi: xodimlar soni, asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymati va h.k., tashqi ishlab chiqarish-xo'jalik aloqalari, etkazib beruvchilar va iste'molchilar soni, olinadigan moddiy-texnik vositalar va sotiladigan mahsulot nomenklaturasi.

Resurslardan foydalanish tavsiflaydigan o'lchamlar: asosiy fondlar, mehnat va moliya resurslaridan foydalanish: fond sig'imi, fondlardan foydalanish unumi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsienti va h.k.

Barcha turdagi o'lchamlar birgalikda ishlab chiqarish menejmentining tashkiliy-iqtisodiy modelini tashkil qiladi va bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Tashkiliy-iqtisodiy model odatda boshqaruv ob'ektini imitatsion tavsiflash maqsadida ishlab chiqiladi.

O'lchamlar modelini qo'llash ishlab chiqarish menejmentini loyihalashtirishning tahliliy hisob-kitob usulini qo'llash sharoitlarida ma'lumotlarga ishlov berish usullaridan biri hisoblanadi.

Bu usul tanlangan o'lchamlar doirasi bo'yicha ma'lumotlar to'plash, ularni mufassal tahlil qilish, tashkilotdagi kamchiliklar natijasida sodir bo'lgan barcha cheklanishlarni bartaraf etish, bog'liqliklarning matematik tavsifini aniqlash, hisob-kitob ma'lumotlarini me'yorlar darajasiga etkazishni nazarda tutadi.

1.2. Ishlab chiqarish menejmenti loyihasining mazmuni

Loyihaning birinchi bo'limida korxonaning tarkibi va tuzilishi, bo'linmalar o'rtasidagi aloqalarning takroriylik darajasi, xodimlar soni, asosiy fondlar qiymati, mahsulot ishlab chiqarish hajmi bo'yicha ular o'rtasidagi nisbat, ko'makchi, xizmat ko'rsatuvchi va qo'shimcha ishlab chiqarishlar tarkibi va h.k. ko'rsatiladi.

Ikkinchi bo'limda eng mas'uliyatli va ko'p takrorlanadigan boshqaruv qarorlarini asoslash, qabul qilish va ratsionalizatsiya qilish jarayonini tashkil etish loyihasi ishlab chiqiladi. Loyihaning bu bo'limida axborotni to'plash, qayta ishlash va unga ishlov berishning mazmuni va tashkil etilishi, uni ko'rib chiqish uchun ekspertlarni jalb qilish, ma'lumotlarga matematik va statistik ishlov berish belgilanadi.

Rahbarga qarorning bir yoki bir nechta variantlarini taqdim etish zarurati, qaror loyihasini kelishish lozim bo'lgan shaxslar tarkibi asoslanadi, qarorlarning ijrosi ustidan nazorat va iqtisodiy samaradorlik belgilanadi. Keyingi bo'lim axborot tizimining loyihasi

bo'lib, u rasmiylashtirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar nomenklaturasi, axborotni saqlash shakli, joyi va hokazolardan tashkil topadi.

Kadrlar ta'minoti bo'limida rahbarlar va turli soha mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj aniqlanadi, xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish va baholash amalga oshiriladi. Bo'lim shtatlar jadvalini tuzish bilan yakunlanadi.

Loyihaning alohida bo'limi ish joylarini tashkil qilish va ularga xizmat ko'rsatish, xonalarni jihozlash, ish vaqtini tartibga solish va shu kabi masalalarga bag'ishlanadi.

Boshqaruvning tashkiliy tuzilmasini ishlab chiqish loyihaning muhim bo'limi hisoblanadi. Unda boshqaruv apparati bo'linmalarining tarkibi, boshqaruv funktsiyalari, bo'lim va sektorlar tarkibi belgilanadi. Bo'limlar haqidagi nizomlar va lavozim yo'riqnomalari ishlab chiqiladi.

Ishlab chiqarish menejmentining yaxshi tashkil qilinishi ishlab chiqarishning samaradorligi va mehnat unumdorligini oshirishda texnologik va iqtisodiy resurslarga qaraganda muhimroq o'rin tutadi.

SHuni qayd etib o'tish kerakki, ish yo'nalishini, ya'ni ishlab chiqarish menejmentni takomillashtirish bo'yicha ishning mazmunini tanlash ma'lum sharoitlarga bog'liq bo'ladi. Har bir korxona (tashkilot)da eskirgan ma'lumotlardan foydalaniluvchi, qarorlar palapartish qabul qilinuvchi, tashkiliy tuzilma puxta ishlab chiqilmagan bo'linmalar mavjudligi hisobga olinishi lozim. Bu kamchiliklar boshqaruv ishiga xalal beradi, ishlab chiqarish menejmentiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish menejmentini takomillashtirish tadbirlarini ishlab chiqishda bu masalalarni hal qilishga alohida e'tibor berish kerak.

Ishlab chiqarish menejmentini takomillashtirish faoliyatini ma'lum izchillikda va kompleks ravishda amalga oshirish lozim.

1.3. Ishlab chiqarish menejmentini loyihalashtirishning asosiy bosqichlari.

Ishlab chiqarish menejmentini loyihalashtirish uch yirik bosqich: loyihalashdan oldingi tayyorgarlik, loyihalash va loyihani joriy qilish bosqichlaridan tashkil topadi.

Loyihalashdan oldingi tayyorgarlik o'z navbatida loyihalashdan oldingi taxminiy o'rganish, ishni mufassal o'rganish, ilm-fan va amaliyot yutuqlarini o'rganish, tadqiqot natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish, tashkiliy tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat bo'ladi.

Loyihalashdan oldingi taxminiy o'rganish tashkilotni loyihalashtirishga tayyorgarlik ko'rish bosqichining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning maqsadi ish tarkibi, hajmi, qiymati va bajarish muddatlarini belgilashdan iborat bo'ladi.

Loyihalashdan oldingi taxminiy o'rganishga ijrochi ko'pi bilan 15-20 kun sarflash mumkin. Bu ish eng malakali xodimlarga topshiriladi.

Ishni mufassal o'rganish ishlab chiqarish menejmentining joriy xolatini tavsiflovchi barcha ma'lumotlarni to'plash, ularni puxta va chuqur o'rganishni nazarda tutadi. Ishlab chiqarish menejmentini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilanadi. Bu yo'nalishlar odatda texnik topshiriq ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

Ishni mufassal o'rganish natijalari asosida ishlab chiqarish menejmentini takomillashtirishga qaratilgan tashkiliy va texnik tadbirlar ishlab chiqiladi. Mufassal tahlil odatda boshqaruv tashkilotining "tor" yo'nalishlarida o'tkaziladi.

Taxminiy va mufassal o'rganish natijalari asosida tashkilotni loyihalashtirish topshirig'i ishlab chiqiladi.

Bu topshiriqda loyihani ishlab chiqishning maqsadi, boshqaruv ob'ektining qisqacha tavsifi, iqtisodiy-texnik o'lchamlari, boshqaruvni tashkil etishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarining qisqacha tavsifi belgilanadi.

Tashkilot loyihasini ishlab chiqish xomaki loyiha va ish loyihasini tuzish, tashkilot loyihasini rasmiylashtirishni o'z ichiga oladi.

Loyihalashtirish - tashkilot loyihasini tuzishning eng ijodiy qismi xisoblanadi. U ishlab chiqarish menejmenti sohasidagi ilm-fan va amaliyot yutuqlariga asoslanadi.

Ish loyihasida batafsil hisob-kitoblarning natijalari, boshqaruvning funktsiyalari va tashkiliy tuzilmalari, tashkilot va ish joylariga xizmat ko'rsatish loyihalari va h.k. ko'rsatiladi. Boshqacha aytganda, ish loyihasida loyihalashtirilayotgan ishlab chiqarish menejmenti tashkilotiga doir barcha ma'lumotlar nazarda tutiladi. Tashkilot loyihasini joriy qilish moddiy-texnik tayyorgarlik, boshqaruv apparatining ijtimoiy-psixologik tayyorgarligi, boshqaruv xodimlarining kasbiy tayyorgarligi, tajriba-eksperimental tekshiruv, ijro jarayoni ustidan nazorat, joriy qilishni rag'batlantirish va uning amaldagi iqtisodiy samaradorligini hisoblashni nazarda tutadi.

Xulosa

Tashkilotni loyihalashtirish boshqaruv fanining amaliy sohalaridan biri hisoblanadi.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitlarida menejmentning tashkiliy-iqtisodiy asoslari tubdan o'zgaradi.

Tashkilotning bozor iqtisodiyotini tashkiliy-iqtisodiy asosda boshqarish bo'yicha printsiplial echimlar beradigan kompleks loyihalari hozircha yo'q. Faqat alohida tashkiliy loyihalar mavjud.

Tashkilot loyihasida korxonaning tarkibi va tuzilishi, bo'linmalar o'rtasidagi aloqalar, xodimlar soni, mahsulot ishlab chiqarish hajmi va h.k. ko'rsatiladi.

Ishlab chiqarish menejmentini loyihalashtirish uch yirik bosqich: loyihalashdan oldingi tayyorgarlik, loyihalashtirish va loyihani joriy qilish bosqichlaridan tashkil topadi.

O'zini-o'zi tekshirish uchun savollar

1.Ishlab chiqarish menejmentining tashkiliy - iqtisodiy modelini ishlab chiqish tartibini gapirib bering.

2.Bozor islohotlarini chuqurlashtirish sharoitlarida ishlab chiqarish menejmentiga qanday talablar qo'yiladi?

3.Ishlab chiqarish menejmentining mazmunini gapirib bering.

4.Ishlab chiqarish menejmentini loyihalashtirishning asosiy bosqichlarini sanab bering.

5.Ishlab chiqarish menejmenti loyihasini joriy qilishni qanday tashkil etish lozim?

6.Tashkiliy iqtisodiy model deganda nimani tushinasiz?

7.Ishlab chiqarish menejmentining tashkiliy iqtisodiy modelini ishlab chiqish.

8.Ishlab chiqarish menejmentini loyihasining mazmuni.

9.Ishlab chiqarish menejmentini loyihlashning asosiy bosqichlarini aytib bering.

Adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. "O'zbekiston", T.,2008.

2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Xalq so'zi, 30 yanvar, 2010.

3. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi.T., 2009, 22 b.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.T., 2009, 56 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Jaxon moliyaviy –iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning asosiy yo'llari va choralari" nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. Tuzuvchilar: B.YU.Xodiev, A.SH.Bekmurodov, U.V.G'ofurov, B.K.To'xliev. – T.: Iqtisodiyot, 2009.-120 b.
6. Karimov I.A. Erishgan marralarimizni mustaxkamlab isloxotlar yo'lidan izchil borish asosiy vazifamiz. Toshkent oqshomi., 24-son.10 fevral, 2004.
7. Karimov I.A. Biz uchun xalqimiz, vatanimiz manfaatidan ulug maqsad yo'q. T., O'zbekisto, 2001
8. Zaynutdinov SH.N. va boshqalar. Menejment asoslari. –T: Moliya, 2001.
9. Sharifxo'jaev M., Abdullaev YO. Menejment. –T: O'qituvchi, 2002.
10. Kazantseva A.K. Osnovi proizvodstvennogo menedjmenta. –M: Seriya "V", 2008.
11. Kozlovskiy V.A. Proizvodstvenniy menedjment. Uchebnik: M, 2008.
12. Novitskiy N.I. Organizatsiya proizvodstva na predpriyatiyax: Uch.usul. posobie – M: Finansi statistika, 2008.
13. Fatxutdinov R.A. Proizvodstvenni menedjment -M, 2008.
14. Bukin S.O. Osnovi menedjmenta v voprosax i otvetax –M, 2008.
- 15.Paraxina V.N. Teoriya organizasii -M, 2008.
16. Lafta Dj. K. Teoriya organizasii -M, 2008.
17. Smirnov E.A. Teoriya organizasii -M, 2008.
- 18.Turovets O.G., Rodionova V.N. Teoiya organizasii -M, 2008.
19. www.cer.uz Vse o menedjmente.

2-bob. ISHLAB CHIQUARISH MENEJMETI LOYIXASINING TAMOYILLARI.

- 2.1. Ishlab chiqarish menejmentini loyihalashning ahamiyati va vazifalari.
- 2.2. Ishlab chiqarish menejmentini loyixalash tamoyillari.
- 2.3. Ishlab chiqarish menejmenti tuzilishlarni shakllantirish jarayonlari.

2.1. Ishlab chiqarish menejmentini loyihalashning ahamiyati va vazifalari.

Boshqaruv tizimlarini loyihalash usullarining rivojlanishisiz boshqaruvni takomillashtirish va ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish qiyin kechadi, chunki:

birinchidan, yangi sharoitlarda qator hollarda bozor munosabatlari talablariga javob bermaydigan, boshqaruv vazifalari uchun deformatsiyalanish xavfini tug'diradigan eski tashkiliy shakllardan foydalanish mumkin emas;

ikkinchidan, xo'jalik boshqaruvi sohasiga texnik tizimlarni boshqarish qonuniyatlarini ko'chirib bo'lmaydi. Tashkiliy mexanizmni takomillashtirishga kompleks yondashuv avval ko'p jihatdan avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari (ABT)ni joriy qilish va ulardan foydalanish ishlari – juda muhim sanalgan, biroq barcha darajadagi boshqaruvni rivojlantirishda yagona bo'lmagan ish bilan almashtirilgan edi. ABTni

yaratish ishining o'zi esa ba'zan boshqaruv tizimini yaxshilashdan ayri holda olib boriladi, tashkiliy omillar bilan etarli darajada bog'lanmaydi;

uchinchidan, tizimni tashkil qilish faqat tajriba, analogiya, odatiy sxema va, nihoyat, intuitsiyagagina emas, balki tashkiliy loyihalashning ilmiy usullariga ham tayanishi kerak;

to'rtinchidan, murakkab mexanizm – boshqaruv mexanizmini loyihalash tashkiliy tizimlarni shakllantirish usulologiyasidan xabardor mutaxassislar zimmasiga yuklatilishi lozim.

Boshqaruv tizimlarini loyihalash printsiplari va usulikasini ishlab chiqishda tizimni boshqaruvning har bir ixtisoslashgan funktsiyasiga mos bo'lgan organlarning to'xtab qolgan majmui sifatida tasavvur qilishdan qochish juda muhimdir. Boshqaruvning tashkiliy tizimi – ko'p qirrali tushuncha. U eng avvalo maqsadlar tizimi va ularni turli bo'g'inlar o'rtasida taqsimlashni o'z ichiga oladi, chunki boshqaruv mexanizmi maqsadlarga erishishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bunga o'zaro aloqa va ma'lum munosabatlarga ega bo'lgan bo'limlarning tarkibi; vazifa va funktsiyalarni barcha bo'g'inlar o'rtasida taqsimlash; majburiyat, vakolat va huquqlarni tashkilot ichida taqsimlash ham kiradi va ular markazlashtirish hamda nomarkazlashtirish nisbatini aks ettirmog'i lozim. Boshqaruv tashkiliy tizimining muhim elementlari kommunikatsiyalar, axborot oqimlari va tashkilotda hujjatlar aylanishi hisoblanadi. Nihoyat, tashkiliy tizim – xulq-atvor tizimi, umumiy vazifalarni hal qilish uchun muntazam ravishda o'zaro turli munosabatlarga kirishuvchi kishilar va ularning guruhlar.

Tashkiliy mexanizmning bunday ko'p qirraliligi qandaydir biryoqlama–yo rasmiy, yo norasmiy usullardan foydalanishga mos kelmaydi. Aynan shuning uchun tizimlarni shakllantirishning ilmiy usul va printsiplari (tizimli yondashuv, izchil dasturiy boshqaruv, tashkiliy modellash)ni katta ekspert-tahliliy ish, mahalliy va xorijiy tajribalarni o'rganish bilan qo'shish, ishlab chiquvchilar bilan loyihalashtirilayotgan tashkiliy mexanizmni amalga joriy qiluvchi va ulardan foydalanuvchilarning yaqin hamkorligidan kelib chiqish kerak. Tizimlarni loyihalashning umumiy metodologiyasi asosiga tashkilot maqsadlarining aniq ta'riflari kiritilgan bo'lishi lozim. Dastlab – maqsadlar, keyin – ularga erishish vositalari. Bunda tashkilot ko'p maqsadli tizim sifatida ko'zdan kechiriladi, chunki bitta maqsadga qaratilgan yo'nalish uning iqtisodiy rivojlanishdagi ko'p qirrali o'rnini aks ettirmaydi.

Tashqi muhitning tashkiliy tuzilishi va tashqi ta'sir elementlariga ega tashkilot elementlarining aloqa tizimiga ta'sir ko'rsatish xususiyati muhim ahamiyatga ega.

Tashkilotni shakllantirishga tizimli yondashuv quyidagilarda ko'rinadi: a) hal qilinuvsiz maqsadlar to'liq amalga oshmaydigan boshqaruv vazifalarining birontasini ham nazardan qochirmaslik; b) boshqaruv vertikal bo'yicha–korxona bosh direktoridan tortib uchastka masterigacha-barcha funktsiyalar, huquqlar va majburiyatlar tizimini aniqlash va ushbu vazifalarga tatbiqan o'zaro bog'lash; v) boshqaruv gorizontali bo'yicha barcha aloqa va munosabatlarni tadqiq qilish va tashkiliy rasmiylashtirish, ya'ni umumiy joriy vazifalarni bajarish va istiqbolli funktsiyalararo dasturlarni amalga oshirish munosabati bilan turli bo'g'in va organlarning faoliyatini muvofiqlashtirish; g) boshqaruv vertikal va gorizontali uyg'un qo'shilishini ta'minlash, bunda ushbu sharoitlar uchun optimal sanalgan boshqaruvdagi markazlashtirish va nomarkazlashgan nisbatini topishni nazarda tutish.

Bularning barchasi tashkilotlarni loyihalashning puxta ishlab chiqilgan bosqichma-bosqich protsedurasini, maqsadlar tizimini aniqlash va mukammal tahlil qilishni, tashkiliy bo'linmalar va ularni muvofiqlashtirish shakllarini puxta o'ylab ajratishni talab etadi.

So'nggi vaqtgacha qo'llanib kelingan boshqaruvning tashkiliy tizimlarini tuzish usullari haddan ortiq me'yor xususiyatga egaligi, etarli darajada rang-barang emasligi, bir qolipdagi qarorlarning haddan tashqari ko'p qo'llanishi bilan xarakterlanib, bu o'tmishda qo'llangan tashkiliy shakllarning yangi sharoitlarga o'z-o'zidan ko'chib o'tishiga olib kelardi. Turli darajadagi boshqaruv apparati ko'pincha faqat son jihatidan farq qiluvchi bir xil sxemalar, funktsiyalar majmui va bo'linmalar tarkibini takrorlardi. Tizimlarni shakllantirishning birlamchi omillari tashkilot maqsadlari o'rniga personal soni; organlar tarkibini o'zgartirish va teng sharoitlarda kombinatsiya qilish o'rniga doimiy organlar majmui; o'zgarayotgan vazifalardan ayri holda, asosiy e'tiborni o'zgarmas funktsiyalarni bajarishga qaratish; eski sxema va shtatlar mavjud tashkilotlarning o'rtacha ko'rsatkichlari sifatida, ularning kamchiliklari va yaroqliligi tahlilisiz ilmiy nuqtai nazardan juda tor talqin qilinardi.

Qo'llanib kelingan usulikalarning asosiy kamchiliklaridan biri ularning funktsional yo'nalishi, boshqaruv jarayonlari natijalarini emas, balki ularning o'zini qat'iy reglamentatsiya qilishi hisoblanadi. Biroq bozor munosabatlari sharoitlarida boshqaruv funktsiyalarining tarkibi va mazmuni turg'un bo'lmaydi. Shuning uchun boshqaruv tizimi turli bo'g'inlarining maqsad va o'zaro aloqalari ko'pincha ularning funktsional ixtisoslashuvini qat'iy belgilashdan ko'ra muhimroq ahamiyat kasb etadi. Bu, masalan, korporatsiyalar, aksionerlik jamiyatlari, ishlab chiqarish-moliya guruhlarini tuzish, ishlab chiqarish faoliyatini iste'molchilar talabidan kelib chiqqan holda buyurtma va shartnomalarni bajarishga yanada ko'proq bo'ysundirish, fan va ishlab chiqarishning aloqasini ta'minlash, mahsulot sifati muammosini kompleks hal qilish bilan bog'liq muammolarni hal qilishda ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi. Ishlab chiqarish tashkilotlari boshqaruv apparatining va funktsional xarakteristikalarini va son me'yorlarining hattoki eng asoslangan ishlovlari ham hududiy-ishlab chiqarish komplekslarini shakllantirish, maqsadli dasturlarni tashkillashtirish muammolarini hal qilish uchun konstruktiv tavsiyalar bermaydi. Boshqaruvni tashkil qilish sohasida kompleks ravishda, ijodiy asosda o'zaro bog'lagan holda hal qilishni talab etuvchi bunday yangi muammolar fan-texnika taraqqiyoti tezlashgan, iqtisodiyotning barcha bo'g'inlarida o'zaro bog'liqlik va dinamizm kuchaygan sharoitlarda tobora ko'p yuzaga kelmoqda.

Tizimli yondashuv, boshqaruv funktsiyalari va son me'yorlarining tashkiliy-boshqaruv tizimini shakllantirish jarayonining umumiy qismi sifatidagi ilmiy asoslangan ta'rifiga muhim o'rin bergan holda, tadqiqotchi va ishlab chiquvchilarni tashkilotlarni loyihalashning yanada umumiyroq bo'lgan printsiplariga yo'naltiradi. Eng avvalo u boshqaruv apparatining vazifalari tuzilishi va funktsiyalarining mazmunini belgilovchi tashkilot maqsadlari tizimini birlamchi belgilashni nazarda tutadi.

Tashkilotning yuqori, o'rta va quyi pog'onalaridagi maqsadlarning har xilligini bitta o'lchov bilan o'lchab bo'lmaydi. Aksariyat ishlab chiqarish tashkilotlarining asosiy vazifalari jamiyat nuqtai nazaridan bozor talabini ishlab chiqargan mahsulot va xizmatlar bilan qondirish maqsadlari bilan belgilanadi. Har qanday holda ham har bir maqsad tashkiliy tizimning faoliyati va rivojlanishining ob'ektiv jihatdan zarur tomonlaridan birini aks ettiradi. SHu bilan birga, boshqaruv maqsadlari va tashkiliy tuzilishi o'rtasidagi muvofiqlik biryoqlama bo'lmaydi.

2.2. Ishlab chiqarish menejmentini loyihalash tamoyillari.

Boshqaruv apparatining ichki tuzilishini shakllantirishning tizimli printsiplarini amalga oshirishga tatbiqan shuni hisobga olish kerakki, tashkiliy tuzilish boshqaruv tizimining murakkab xarakteristikasi hisoblanadi.

Boshqaruvning tashkiliy tuzilishini shakllantirishning turli usullarini ham yagona tizimda ko'zdan kechirish kerak. Ularning ko'pchiligi faqat so'nggi yillarda paydo bo'ldi. Bu usullarning tabiati turlicha, ularning har biri alohida holda boshqaruv apparatining tashkiliy tuzilishini qurishning deyarli barcha muhim muammolarini hal qilish imkonini bermaydi va shuning uchun bir-biri bilan uyg'un holda qo'llanishi kerak. Tashkiliy tuzilmani barpo qilishning samaradorligini biron-bir ko'rsatkich bilan baholab bo'lmaydi. Bir tomondan, bu erda tuzilma uning oldiga qo'yilgan ishlab chiqarish-xo'jalik maqsadlariga mos keluvchi natijalarga erishuvni qay darajada ta'minlashini, ikkinchi tomondan esa – uning ichki qurilishi va faoliyat jarayonlari ularning mazmuni, tashkillashtirilishi va xususiyatlariga nisbatan ob'ektiv talablarga qay darajada muvofiqligini hisobga olish kerak bo'ladi.

Tashkiliy tuzilishning turli variantlarini solishtirishda samaradorlikning yakuniy mezonini bo'lib ishlab chiqarish, iqtisodiyot, texnik taraqqiyot va ijtimoiy rivojlanish sohalarida qo'yilgan maqsadlarga eng to'liq va turg'un erishish hisoblanadi. Biroq ushbu mezonni amalga qo'llanuvchi oddiy ko'rsatkichlarga etkazish, har bir aniq tashkiliy qarorni uning yakuniy natijalari bilan bog'lash, odatda, juda qiyin. Shuning uchun boshqaruv apparatining me'yor xarakteristikalari to'plamidan foydalanish maqsadga muvofiq, bular: uning axborotga ishlov berishdagi mahsuldorligi; boshqaruv qarorlarini qabul qilishning operativligi; boshqaruv apparatining qarorlarni belgilangan muddat va manbalar doirasida ijro etish sifatida aks etuvchi ishonchliligi; tashkiliy muammolarni o'z vaqtida aniqlash va ishni tegishli ravishda qayta qurish qobiliyati bilan foydalanuvchi moslashuvchanlik. Boshqaruv apparatining tejamkorligi ayniqsa muhimdir. Biroq bu o'rinda tejamkorlik mezonini personal sonini qisqartirish bilan bog'lash kerak emas. Uni iqtisodiy samaradorlik mezonini sifatida ta'riflash zarur va bunga muvofiq natijalarni boshqaruv sarf-xarajatlariga nisbatan maksimallashtirishni ta'minlash lozim. Boshqaruv apparati sonini qisqartirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim shartlaridan biri bo'lib qolmoqda. Umuman olganda, boshqaruv apparati soni tashkiliy tizimning maqsadlaridan kelib chiquvchi vazifalarni to'liq hal qilish imkonini berishi uchun ob'ektiv asoslangan bo'lishi kerak.

2.3. Ishlab chiqarish menejmentituzilishlarini shakllantirish jarayonlari.

Tashkiliy tuzilishni shakllantirish jarayonining mazmuni ma'lum darajada universal bo'ladi. U maqsad va vazifalarni ta'riflash, bo'linmalarning tarkibi va o'rni, ularni manba bilan ta'minlash (bunga ishlovchilar soni ham kiradi), tartibga soluvchi protseduralarni, boshqaruvning tashkiliy tizimida amalga oshiriluvchi jarayonlarning shakl va usullarini rasmiylashtiruvchi va tartibga soluvchi hujjatlar, asoslarni ishlab chiqish.

Bu jarayonni uch yirik bosqichda tashkil qilish mumkin: 1) boshqaruv apparatining umumiy tuzilishi sxemasini shakllantirish; 2) asosiy bo'linmalar tarkibi va ular o'rtasidagi bog'liqliklarni ishlab chiqish; 3) tashkiliy tuzilishni reglamentatsiya qilish.

Umumiy tuzilish sxemasini shakllantirish barcha hollarda printsiplial ahamiyatga ega bo'ladi, chunki bunda tashkilotning asosiy xarakteristikalar va tashkiliy tuzilish hamda tizimning boshqa muhim tomonlari (ichki tashkiliy iqtisodiy vositalar, axborotga ishlov berish, kadrlar bilan ta'minlash usullari)ni chuqur loyihalash amalga oshirilishi lozim bo'lgan yo'nalishlar belgilanadi.

Tashkiliy tuzilishning *bu* bosqichida belgilanadigan printsiplial xarakteristikalariga ishlab chiqarish-xo'jalik tizimining maqsadlari va hal qilish talab etiluvchi muammolari; ularga erishishni ta'minlovchi funktsional va dasturiy-maqсадli tizimchalarning umumiy ixtisoslashuvi; boshqaruv tizimidagi pog'onalar soni; vakolat va majburiyatlarni turli pog'onalarda markazlashtirish va detsentralizatsiya qilish darajasi; ushbu tashkilotning atrof muhit bilan munosabatlarining asosiy shakllari; iqtisodiy vositalar, axborotga ishlov berish shakllari, tashkiliy tizimni kadrlar bilan ta'minlashga bo'lgan talablar.

Boshqaruvning tashkiliy tuzilishini loyihalash jarayonining ikkinchi – *asosiy bo'linmalar tarkibi va ular o'rtasidagi bog'liqliklarni ishlab chiqish* - bosqichining asosiy xususiyati shundan iboratki, unda faqat yirik funktsional-tarmoq va dasturiy-maqсадli bloklar bo'yicha tashkiliy qarorlarni amalga oshirishgina emas, balki boshqaruv apparatining mustaqil (o'zak) bo'linmalari, ularning o'rtasida aniq vazifalarni taqsimlash va ichki tashkiliy aloqalarni qurishgacha bo'lgan tadbirlar nazarda tutiladi. O'zak bo'linmalar deganda funktsional-tarmoq va dasturiy-maqсадli tizimchalar tashkiliy jihatdan bo'linuvchi mustaqil tuzilish birliklari (bo'limlar, boshqarmalar, byurolar, sektorlar, laboratoriyalar) tushuniladi. O'zak bo'linmalar o'zining ichki tuzilishiga ega bo'lishi mumkin.

Uchinchi bosqich – tashkiliy tuzilmani reglamentatsiya qilish – boshqaruv apparatining miqdoriy xarakteristikalar va boshqaruv faoliyati protseduralarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi: o'zak bo'linmalarning ichki elementlari tarkibi (byuro, guruhlar va lavozimlar)ni belgilash; bo'linmalarning loyihaviy sonini, asosiy ish turlarining mehnat talab qilish darajasini va ijrochilarning malakaviy tarkibini belgilash; aniq ijrochilar o'rtasida ish va vazifalarni taqsimlash; ularni bajarish uchun javobgarlikni o'rnatish; bo'linmalarda boshqaruv ishlarini, shu jumladan avtomatlashtirilgan axborot tizimlari asosida bajarish protseduralarini ishlab chiqish; o'zaro bog'langan ish komplekslarini bajarishda hamkorlik qilish tartibini ishlab chiqish; boshqaruv sarf-xarajatlari va boshqaruv apparatining loyihalanayotgan tashkiliy tuzilish sharoitlaridagi samaradorligi ko'rsatkichlarini hisob-kitob qilish.

Ishlovning alohida bosqichlari bo'yicha javobgarlikni hamda boshqaruvning ko'plab bo'g'inlari va pog'onalari hamkorligini talab qiluvchi o'ta murakkab vazifalarni bajarishda qarorlar qabul qilishni mukammal tartibga solish talab etiluvchi hollar uchun organigrammalar deb nomlangan maxsus hujjatlar ishlab chiqiladi.

Organigrama boshqaruv funktsiyalari, ularning bosqichlari va ularga kiruvchi ishlarni bajarish jarayonining grafik ifodasi bo'lib, bo'linmalar, ularning ichki tarkibiy organlari va alohida ishlovchilari o'rtasida qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilishning tashkiliy protseduralarni tavsiflaydi. Organigrammalar tuzish yo'li bilan amalga oshiriluvchi boshqaruv mexanizmining tashkiliy algoritmini axborotga texnologik ishlov berish algoritmgiga moslashtirish texnologik marshrutlar va axborot oqimlarini ratsionalizatsiya qilish jarayonini boshqaruv tizimining tarkibiy elementlari o'rtasida ularning vazifa va funktsiyalari muvofiq ravishda bajarilishini uyushtirishda yuzaga keladigan o'zaro bog'liqliklarni tartibga solish bilan bog'lash imkonini beradi.

Dokumentogrammalardan farqli ravishda, organigrammalar bajarilayotgan ishlarning mazmunini axborot tarzida ifodalamaydi, balki faqat boshqaruv qarorlarini ta'minlash, ishlab chiqish va qabul qilish uchun javobgarlik va vakolatlarni taqsimlash ko'rinishidagi boshqaruv jarayonining tashkil qilinishini qayd etadi.

Dasturiy-maqсадli boshqaruv tuzilishlarini shakllantirishda organigrammalar bilan bir qatorda yoki ularning o'rniga funktsional-tarmoq organlari va dasturiy-maqсадli tuzilmalar o'rtasida huquq va majburiyatlarni taqsimlash kartalari (matritsalar)ni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Ushbu hujjatlarda qarorlar qabul qilishga doir qo'shma huquqlar, bir nechta organlarning bitta natijaning turli aspektlari uchun bo'lingan javobgarliklari, qarorlar qabul qilishning kollegial va konsultativ organlarining o'ni organigrammalardagiga qaraganda mukammal va aniqroq qayd etiladi.

Loyihalashning barcha bosqichlarida ishlab chiqilgan hujjatlar yig'indisi, izohnoma bilan birgalikda, boshqaruvning tashkiliy tuzilishi loyihasini tashkil etadi.

Tuzilishni o'zgargan sharoitlarga moslashtirish boshqaruvning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ko'pgina hollarda tuzilishlarni o'zgartirish haqidagi qarorlar tashkilotning yuqori rahbariyati tomonidan, ularning asosiy majburiyatlarining bir qismi sifatida qabul qilinadi. Keng ko'lamli tashkiliy o'zgarishlar buning zarurligini ko'rsatuvchi jiddiy sabablar mavjudligiga qat'iy ishonch paydo bo'lmagunicha amalga oshirilmaydi. Tuzilishni o'zgartirish yoki yangi loyihani ishlab chiqishga sarflangan xarajatlar o'zini oqlagan ayrim holatlarni alohida yoki birga qo'shib aytib o'tish mumkin.

Korxonaning qoniqarsiz faoliyat ko'rsatishi. Tashkilotning yangi loyihasini ishlab chiqish zarurligining eng keng tarqalgan sababi xarajatlarning o'sishini pasaytirish, mahsuldorlikni oshirish, torayib borayotgan ichki va tashqi bozorlarni kengaytirish yoki yangi moddiy manbalarni jalb qilishning biron-bir boshqa usullarini qo'llashga urinishdagi muvaffaqiyatsizliklar hisoblanadi. Odatda eng avvalo ishlovchilarning tarkibi va malaka darajasida o'zgarishlar qilish, boshqaruvning yanada mukammal usullarini qo'llash, maxsus dasturlarni ishlab chiqish singari chora-tadbirlar qo'llanadi. Biroq, oxir natijada, eng yuqori pog'onadagi rahbarlar korxonaning qoniqarsiz faoliyat ko'rsatishi sababi boshqaruvning tashkiliy tuzilishidagi ma'lum kamchiliklardan iborat degan xulosaga keladi.

Yuqori rahbariyatga haddan ortiq ko'p ish yuklanishi. Ayrim korxonalar faqat yuqori pog'onadagi bir nechta rahbarga haddan tashqari ko'p ish yuklash tufayli qoniqarli faoliyat ko'rsatishga erishadi. Agar boshqaruv usul va protseduralarini o'zgartirish chora-tadbirlari yuqori rahbariyat elkasidagi yukni engillashtirish imkonini bermasa, huquq va funktsiyalarni qayta taqsimlash, tashkilot shakliga o'zgartirish va aniqliklar kiritish bu vazifani hal qilishning xiyla samarali vositasiga aylanadi.

Istiqbolga bo'lgan intilishning yo'qligi. Korxonani rivojlantirishning kelajagi, uning xususiyati va faoliyat turidan qat'i nazar, yuqori rahbariyatdan strategik vazifalarga jiddiy e'tibor berishni talab qiladi. SHu bilan bir vaqtda, ko'pgina yuqori darajadagi rahbarlar hanuzgacha asosiy e'tiborni operativ masalalarga qaratib, ularni hal qilishda uzoq istiqbolga emas, balki joriy tendentsiyalarni kelajakka oddiy ekstrapolyatsiya qilishga asoslanmoqdalar. Yuqori pog'onadagi rahbar (yoki rahbariyat) uning asosiy majburiyati strategik dasto'zni korxonani uning huquqiy va iqtisodiy mustaqilligi imkon beradigan darajada mukammal ishlab chiqish va amalga oshirishga qobil qilishdan iborat ekanligini chuqur anglashi kerak. Bunday qobiliyatni ta'minlash deyarli doimo tashkiliy shakllarni

o'zgartirish hamda qarorlar qabul qilishning yangi yoki tubdan o'zgartirilgan jarayonlarini joriy qilish bilan bog'liq bo'ladi.

Tashkiliy masalalarga doir ixtiloflar. Har bir tajribali yuqori darajadagi rahbar korxonaning tashkiliy tuzilishidagi barqarorlik, odatda, ichki uyg'unlikning mavjudligidan ko'ra ko'proq nizoli vaziyatlarni muvaffaqiyatli hal qila bilish qobiliyatidan dalolat berishini yaxshi biladi. Mavjud tuzilish, qanday bo'lishidan qat'i nazar, samarali ishlashga to'sqinlik qiladi, ayrim bo'lim yoki bo'linmalarning maqsadlariga erishishini qiyinlashtiradi, ayrim funktsional rollarning ahamiyatini etarli darajada aniq aks ettirmaydi, hokimiyat, mavqe va vakolatlarning nohaq taqsimlanishiga yo'l qo'yadi va h.k. Tashkiliy tuzilish yuzasidan chuqur va turg'un ixtiloflar yuzaga kelganida va, ayniqsa, yuqori rahbariyat bu tuzilishning optimalligiga shubha qilganida, muammoni hal qilishning yagona yo'li ushbu tuzilishni puxta o'rganish hisoblanadi. Rahbariyatni almashtirish ko'pincha qayta tuzish haqida qaror chiqishiga olib keladi. Bir guruh rahbarlar ma'lum tuzilish doirasida samarali faoliyat ko'rsata olishi mumkin. Ularning o'rniga kelgan guruh esa korxona muammolariga yondashuviga mutlaqo mos kelmaydigan shaklni topishi mumkin.

Boshqaruvning tashkiliy tuzilishlari rivojlanishida bugungi kunda ko'zga tashlangan ayrim tendentsiyalar haqida rasmda ko'rsatilgan o'zgarish yo'nalishlari dalolat beradi.

Tajribadan ko'rinishicha, odatda tashkilotning keng miqyosda o'rganilishiga olib keladigan bu holatlar qator sabablarning simptomi bo'lib, ularni ayrimlari korxona ichida amal qiladi, ayrimlari esa uning ta'sir doirasidan butunlay chiqadi.

Faoliyat ko'lamining o'sishi. Hatto mahsulot assortimenti turg'un, ishlab chiqarish jarayonlari va sotish barqaror bo'lgan sharoitlarda ham korxona davomiy ravishda kengaytirib borilganida tuzilishda jiddiy o'zgartirishlarni amalga oshirish zarurati tug'iladi. Faoliyat ko'lamining o'sishiga tuzilishda uncha katta bo'lmagan o'zgarishlarni amalga oshirish yo'li bilan ham moslashish mumkin. SHunga qaramay, agar asosiy tuzilish o'zgarishsiz qolsa, bu muvofiqlashtirishni qiyinlashtiradi, rahbarlarga haddan ortiq ko'p ish yuklanadi, korxonaning faoliyat ko'rsatishi yomonlashadi.

Rang-baranglikning oshishi. Chiqarilayotgan mahsulot yoki xizmatlarning nomenklaturasini kengaytirish, turli bozorlarga chiqish, qo'shimcha ravishda yangi ishlab chiqarish jarayonlarini o'zlashtirish tashkillashtirishga mutlaqo yangi holatlarni kiritadi. Bu turfa elementlar uncha katta bo'lmagan paytda ularni mavjud tuzilishning biron-bir qismiga moslashtirish mumkin. Biroq ular qo'llanayotgan manbalar, ehtiyoj, tavakkal, kelgusidagi imkoniyatlar jihatidan ulkan darajaga etgach, tarkibiy o'zgarishlarning amalga oshishi muqarrar bo'ladi.

Xo'jalik sub'ektlarining birlashuvi. Hatto bir xil xususiyatli ikki yoki bir nechta korxonaning qo'shilishi ham albatta tashkiliy tuzilishga ayrim o'zgarishlar kiritadi. Funktsiyalarning mosligi, ortiqcha personal muammolari, huquq va majburiyatlarni taqsimlashdagi chigalliklar zudlik bilan hal qilishni talab etadi. Hajman uncha katta bo'lmagan birliklar bilan qo'shilish odatda tuzilishga kam ta'sir qiladi, biroq bunday qo'shilish uzoq vaqt mobaynida amalga oshgan taqdirda, asosiy tuzilishning o'zgarishi muqarrar bo'lib qoladi. Ikki yoki bir nechta katta korxonalar qo'shilgan taqdirda, yirik tarkibiy o'zgarishlarni kutish kerak bo'ladi.

Boshqarish texnologiyalaridagi o'zgarishlar. Boshqaruv sohasida erishilgan ilmiy yutuqlar (axborotga ishlov berish, operatsiyalar va loyihalashni tadqiq qilishning progressiv usullari, qurishning loyihaviy va matritsa shakllari va h.k.) tashkiliy tuzilish va

jarayonlarga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatib bormoqda. Yangi lavozimlar va funktsional bo'linmalar paydo bo'lmoqda, qaror qabul qilish jarayonlari o'zgarmoqda. Ayrim tarmoqlar – ommaviy mahsulot ishlab chiqarish, qayta ishlash, transport va taqsimot tizimlari, ayrim moliya muassasalarida boshqarish texnologiyalari sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar tufayli tubdan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu tarmoqlarda zamonaviy boshqaruv usullarini qo'llash borasida qoloq hisoblangan korxonalar tobora ortib borayotgan og'ir raqobat sharoitida noqulay ahvolda qoldilar.

Ishlab chiqarish jarayonlari texnologiyasining ta'siri. Ilmiy va texnik o'zgarishlarning tashkiliy tuzilishga bo'lgan ta'siri so'nggi yillarda juda ko'p tadqiq qilindi. Sohalarga doir tadqiqotlarning tez rivojlanishi, ilmiy muassasalarning o'sishi, loyihaviy boshqaruvning keng tarqalishi, matritsaviy tashkilotlar obro'sining oshib borayotgani – bularning barchasi aniq fanlarning ishlab chiqarish tashkilotlariga ta'siri keng tarqalganidan dalolat beradi.

Tashqi iqtisodiy vaziyat. Ko'pgina ishlab chiqarish korxonalari muttasil o'zgaruvchi iqtisodiy muhitda bo'ladi. Ayrim o'zgarishlar keskin ro'y berishi natijasida korxonaning avval normal sanalgan faoliyati qo'qqisdan qoniqarsiz bo'lib qoladi. Sekin kechadigan va nisbatan fundamental xususiyatga ega bo'lgan boshqa o'zgarishlar korxonani boshqa faoliyat sohasiga ko'chishga yoki avvalgi faoliyat sohasida boshqaruvning mohiyatan yangi vosita va usullariga o'tishga majbur qiladi. Har qanday holda ham boshqaruvning asosiy vazifalari o'zgaradi, demak, yangi tashkiliy tuzilish hosil bo'ladi.

Qayd etilgan holatlarning har bittasi tuzilishning o'zgarishiga olib keladi va xuddi shu darajada korxonaning bosh strategiyasini qayta ko'rish zarurligiga ishora qilishi mumkin. Strategiyaning ham, tuzilishni ham bir-biridan ayri holda o'rnatib bo'lmaydi. Shunga qaramay, ustunlik korxonaning strategiyasini tashkil qiluvchi vazifalar, maqsadlar, manbalarni taqsimlash va asosiy dasturlarga beriladi. Bu yirik korxonalardagi jiddiy muammolarning aksariyati tashkiliy emas, ko'proq strategik xususiyatga egaligi bilan izohlanadi.

Korxonalarning yashab qolish va samarali faoliyat ko'rsatishga noqobilligiga ko'pincha quyidagilar sabab bo'ladi:

- asossiz strategik qarorlar qabul qilish;
- korxonaning o'z faoliyatini tejimli sanalmagan hajmda davom ettirishga urinishi;
- yangi mahsulot chiqarishni yo'lga qo'ya olmaslik yoki sotilmay qolayotgan mahsulot chiqarish;
- bitta sotish bozoriga ega bo'lgan firmalarning ishlab chiqarishni diversifikatsiya qila olmasligi.

Vazifalar, huquqlar, javobgarlik va axborot oqimlarini qayta taqsimlash mahsuldorlikni o'stirish yo'li tashkilotning samaradorligini oshiradi va hech bo'lmasa vaqtincha xarajatlarning o'sishini to'xtatib, daromadgirlikni oshiradi. Tashkiliy shakllarning yaxshilanishi ko'pincha yangi va mukammal strategik qarorlarning ishlab chiqilishiga olib keladi.

Tuzilish strategiyasiz mavjud bo'lmagani singari, strategiya ham tegishli tuzilishsiz muvaffaqiyatli bo'la olmaydi. Deyarli har bir yirik korxonada yaxshi o'ylangan strategik rejalarni amalga oshirishga tashkiliy tuzilish xalaqit bergani, ularni bajarishga to'sqinlik qilgani yoki afzallikni ikkinchi darajali masalalarni hal qilishga berganiga doir misollarga duch kelish mumkin.

Shunday qilib, tuzilish strategiyaga uzviy bog'liqdir. Bir vaqtlar tashkilot loyihasini ishlab chiqish va unga o'zgarish kiritishga statik yondashuv mavjud edi. Korxonaning joriy faoliyati vazifalari belgilanib, so'ngra an'naviy piramida shaklida o'sib boruvchi tartibda agregatsiya qilinardi. Endilikda katta korxonaning bironta tashkiliy sxemasi ham faqat joriy faoliyatga asoslana olmaydi. U korxonaning bosh vazifalarida ro'y berishi mumkin bo'lgan har qanday o'zgarishlarni, yuqori rahbariyatning maqsadlari va strategik dasturlarini albatta aks ettirishi shart.

Strategiya va tuzilishning bu bog'liqligi korxona tomonidan boshqaruvning tashkillashtirilishini o'zgartirishga doir barcha tavsiyalarning asosida yotadi. Korxonaning strategiyasini o'rganishga doir tahliliy jarayon, ishlab chiqarish ko'p tarmoqli yoki bir turli, xususiy yoki davlat tasarrufida bo'lishidan qat'i nazar, tuzilishni o'zgartirishning ajralmas elementi hisoblanadi. Qo'llanuvchi tahlil usullari, odatda, beshta bosqichdan iborat bo'ladi.

Birinchi bosqich korxonaning vazifalari, mavhum sohalar va rivojlanishning eng ma'qul muqobillarini aniqlashdan iborat. Korxonaning vazifalariga doir savolga aniq javob berish ko'p jihatdan umumiy tuzilishni belgilab beradi. Bunday savolga ko'pgina tashkilotlar yoki ularning qismlari uchun deyarli har vaqt aniq-ravshan javob berish mumkin. Mutlaqo yangi korxonalar tashkil topgan taqdirda vazifani belgilash loyiha hajmlarini o'rnatish bilan kifoyalanishi mumkin.

Tashkiliy tuzilishni tahlil qilishning ikkinchi bosqichi vazifaning bajarilishiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi o'zgarishlarni aniqlashdan iborat. Bu bosqichda korxonaning iqtisodiy va ishlab chiqarishga doir tuzilishi hamda uning asosiy komponentlarini chuqur tahlil qilish zarur. Shuningdek, bu o'rinda korxona faoliyat ko'rsatayotgan yoki uning faoliyati rejalashtirilayotgan atrof muhitni tahlil qilish ham juda muhim. Bu uzviy bog'liq bo'lgan sohalar (tashqi va ichki)ni tadqiq qilish korxonaning muvaffaqiyatini belgilashi mumkin bo'lgan hal qiluvchi qarorlarning chiqarilishiga olib kelishi mumkin.

Uchinchi bosqichda korxonani rivojlantirish maqsad va dasturlari o'rganiladi. Joriy maqsadlar korxonaning bosh vazifasiga mos kelishi, dasturlar esa muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishning asos omillariga muvofiqlashtirilganiga ishonch hosil qilish muhim. Bu jiddiy holat hisoblanadi, chunki maqsad va rejalar tashkiliy tuzilishga afzalliklarni va avval qabul qilingan qarorlarning ahamiyatini aniqlash yo'li bilan bevosita ta'sir ko'rsatadi. Har qanday tashkiliy loyiha muqarrar o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarishning samaradorligi va yangiliklar, sotish bozorining hajmi va texnik sifat, qisqa va uzoq muddatli rejalashtirish o'rtasida turli nisbatga ega bo'lish kerak. Korxonaning dasturlari, uning strategiyasi tashkilotni loyihalashtirishda bunday qarorlarni qabul qilish uchun printsipl asos bo'lib xizmat qiladi.

To'rtinchi bosqichda tashkiliy tuzilish uning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi bog'liq bo'lgan vazifa, maqsad va omillarga qay darajada javob berishi baholanadi. Buning uchun mavjud shakliy tuzilishni puxta o'rganish, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, shakliy tuzilishdagi kamchiliklar o'rnini qanday noshakliy elementlar to'ldirishi va ular nechog'li samarali ekanligini aniqlash zarur.

Tashkilotni tahlil qilishdagi og'ir, biroq muqarrar holat korxonaning inson manbalarini baholash hisoblanadi. Ba'zan ma'lum ixtisosli ishlovchilarning jiddiy tanqisligini ularni korxona ichida shoshilinch ravishda tayyorlash yoki chetdan tanlab olish bilan to'ldirib bo'lmaydi, buni mavjud tuzilish doirasida funktsiyalarni taqsimlashda hisobga olib bo'lmaydi. Tadqiqotchi shuningdek boshqaruvning asosiy jarayonlari –

rejalashtirish, manbalarni taqsimlash, operativ nazoratni ham o'rganadi. Bundan u bular vazifa, maqsad va strategik dasturlarni bajarishga qay darajada ko'maklashishini aniqlashni ko'zlaydi. Jarayonlarning o'zini o'zgartirish ehtimoli va buning asoslanganligi ham ko'zdan kechiriladi. Tashkilot va atrof muhitning tahlili ulkan axborot hajmini taqdim etadi. Ularni baholash va buning asosida tuzilish haqida qaror chiqarish tahlil jarayonining yakuniy bosqichi hisoblanadi.

Bunday qarorni ishlab chiqarish juda og'ir, deyarli butkul empirik jarayon sanaladi. Katta tashkilotlarning tuzilishi ko'p sonli o'zgarishlar tufayli haddan tashqari chigallashib ketadi. Ularning orasidan tanlab olish juda qiyin, biroq bu o'zgarishlarga qarshilikni engib o'tish bundan ham og'ir. O'zgarishlarning tezligi shu qadar oshib bormoqdaki, o'ziga xos bo'lgan, doimiy tuzilish emas, ko'proq tashkilot rivojlanishining ma'lum bosqichini ifodalovchi muvaqqat tuzilish qidirilmoqda. Va nihoyat, sxema va nizomlarda qayd etilgan tuzilish tashkilot loyihalaridan tobora kam o'rin olib bormoqda. Axborot oqimlari, qaror qabul qilish jarayonlari, loyihaviy grafiklar yoki muvaqqat farmoyishlar o'rinlar hamda huquq va majburiyatlarning taqsimlanishi haqidagi axborotlarning jiddiy manbalariga aylanib borayotir. Tuzilishni faqat korxona va uning atrof muhitidagi o'zgarishlarga keng, kompleks yondashuv bilangina tanlash va tushunish mumkindir.

Tajriba boshqaruvning tashkiliy tuzilishini o'zgartirish jarayoni quyidagilarni nazarda tutishi lozimligini ko'rsatadi:

- tashkilot faoliyati va uning muhitini muammoli mintaqalarni aniqlash maqsadida tizimli tahlil qilish. Tahlil iqtisodiy faoliyatning boshqa sohalaridagi raqobatdosh yoki turdosh tashkilotlarga qiyoslash asosiga qurilishi mumkin;
- tashkiliy tuzilishni takomillashtirishning bosh rejasini ishlab chiqish;
- yangiliklar kiritish dasturi o'zgartirishga doir maksimal darajada oddiy va aniq takliflardan tashkil topishini kafolatlash;
- rejalashtirilayotgan yangilashlarni izchil amalga oshirish. Uncha katta bo'lmagan o'zgarishlarni joriy qilish yirik o'zgarishlarga qaraganda ko'proq muvaffaqiyat qozonish imkoniga ega;
- xodimlarning xabardorlik darajasini oshirishni rag'batlantirish. Bu ularga o'zlarining aloqadorliklarini yaxshiroq baholash imkonini beradi va o'z navbatida ularning bu yangilanishlar uchun mas'uliyatlarini oshiradi.

Xulosa.

Boshqaruv tizimlarini loyihalash usullarining rivojlanishisiz boshqaruvni takomillashtirish va ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish qiyin kechadi, chunki:

birinchidan, yangi sharoitlarda qator hollarda bozor munosabatlari talablariga javob bermaydigan, boshqaruv vazifalarining deformatsiyalanishi xavfini tug'diradigan eski tashkiliy shakllardan foydalanish mumkin emas;

ikkinchidan, xo'jalik boshqaruvi sohasiga texnik tizimlarni boshqarish qonuniyatlarini ko'chirib bo'lmaydi. Tashkiliy mexanizmni takomillashtirishga kompleks yondashuv avval ko'p jihatdan avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari (ABT)ni joriy qilish va ulardan foydalanish ishlari – juda muhim sanalgan, biroq barcha darajadagi boshqaruvni rivojlantirishda yagona bo'lmagan ish bilan almashtirilgan edi. ABTni yaratish ishining o'zi esa ba'zan boshqaruv tizimini yaxshilashdan ayri holda olib boriladi, tashkiliy omillar bilan etarli darajada bog'lanmaydi;

uchinchidan, tizimni tashkil qilish faqat tajriba, analogiya, odatiy sxema va, nihoyat, intuitsiyagagina emas, balki tashkiliy loyihalashning ilmiy usullariga ham tayanishi kerak;
6. Boshqaruv qarorlarini tarkibini loyihalashtirish.
7. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlarini loyihalashtirish.
8. Qabul qilingan boshqaruv qarorlarini loyihalashtirish.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. "O'zbekiston", T., 2008.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Xalq so'zi, 30 yanvar, 2010.
3. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi. T., 2009, 22 b.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T., 2009, 56 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Jaxon moliyaviy –iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning asosiy yo'llari va choralari" nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. Tuzuvchilar: B.YU.Xodiev, A.SH.Bekmurodov, U.V.G'ofurov, B.K.To'xlijev. – T.: Iqtisodiyot, 2009.-120 b.
6. Karimov I.A. Erishgan marralarimizni mustaxkamlab isloxotlar yo'lidan izchil borish asosiy vazifamiz. Toshkent oqshomi., 24-son. 10 fevral, 2004.
7. Karimov I.A. Biz uchun xalqimiz, vatanimiz manfaatidan ulug' maqsad yo'q. T., O'zbekisto, 2001
8. Zaynutdinov SH.N. va boshqalar. Menejment asoslari. –T: Moliya, 2001.
9. Sharifxo'jaev M., Abdullaev YO. Menejment. –T: O'qituvchi, 2002.
10. Kazantseva A.K. Osnovi proizvodstvennogo menedjmenta. –M: Seriya "V", 2008.
11. Kozlovskiy V.A. Proizvodstvenniy menedjment. Uchebnik: M, 2008.
12. Novitskiy N.I. Organizatsiya proizvodstva na predpriyatiyah: Uch.usul. posobie – M: Finansi statistika, 2008.
13. Fatxutdinov R.A. Proizvodstvenni menedjment -M, 2008.
14. Bukin S.O. Osnovi menedjmenta v voprosax i otvetax –M, 2008.
15. Paraxina V.N. Teoriya organizasii -M, 2008.
16. Lafta Dj. K. Teoriya organizasii -M, 2008.
17. Smirnov E.A. Teoriya organizasii -M, 2008.
18. Turovets O.G., Rodionova V.N. Teoiya organizasii -M, 2008.
19. www.cer.uz Vse o menedjmente.

7-bob. ISHLAB CHIQRISH MENEJMENTI QARORLARINING SAMARADORLIGI.

- 7.1. Boshqaruvi tizimining samaradorligini belgilovchi mezonlar.
- 7.2. Ishlab chiqarish menejmenti qarorlarini samaradorligini baxolash.
- 7.3. Boshqaruv apparat iva uning tashkiliy tuzilishi samaradorligini baxolashda kullanuvchi kursatkichlar.

7.1. Boshqaruvi tizimining samaradorligini belgilovchi mezonlar.

Samaradorlikni baholash amaldagi tuzilish, ishlab chiqilayotgan loyihalar yoki rejalashtirilgan tadbirlarning progressivligi darajasini aniqlash imkonini beruvchi loyihaviy va rejaviy qarorlarni ishlab chiqishning muhim elementi hisoblanadi va tuzilishning eng ratsional variantini yoki uni takomillashtirish usulini tanlash maqsadida amalga oshiriladi. Tashkiliy tuzilishning samaradorligi loyihalash bosqichida, amaldagi tashkilotlarning boshqaruv tuzilishlarini tahlil qilishda boshqaruvni takomillashtirish chora-tadbirlarini rejalashtirish va amalga oshirish uchun baholanishi kerak.

Tashkiliy tuzilishning turli variantlarining samaradorligini baholashga bo'lgan yondashuv uning boshqaruv tizimini xarakterlovchi o'rni bilan belgilanadi. Boshqaruv tizimining samaradorligini belgilovchi mezonlar majmui uning faoliyatini baholashning ikki yo'nalishini hisobga olish orqali shakllanadi:

- erishiluvchi natijalarning tashkilot ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatining belgilangan maqsadlariga mosligi darajasiga ko'ra (rejalashtirilgan vazifalarning bajarilish bosqichidan boshlab);
- tizimning faoliyat jarayonining uning mazmuni, tashkillashtirilishi va natijalariga bo'lgan ob'ektiv talablariga mosligi darajasiga ko'ra.

Boshqaruv tizimining samaradorligini baholashda qiyoslash uchun asosni tanlash yoki samaradorlik darajasini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda ma'lum holatlarga tatbiqan different ravishda qo'llanishi mumkin bo'lgan bir qancha yondashuvlarni ko'rsatish mumkin. Ulardan biri boshqaruv tizimining etalon varianti bo'lgan tashkiliy tuzilishning samaradorligini xarakterlovchi ko'rsatkichlarga solishtirishga borib taqaladi. Etalon variant boshqaruv tizimini loyihalashning barcha mavjud usul va vositalaridan foydalangan holda, ilg'or tajriba va progressiv tashkiliy qarorlar asosida ishlab chiqilgan va loyihalashtirilgan bo'lishi mumkin. Bunday variantning xarakteristikolari me'yor xarakteristikalar sifatida qabul qilinadi, bunda tahliliy yoki loyihaviy tizimning qiyosiy samaradorligi tizimning me'yor va amaliy (loyihaviy) parametrlarini solishtirish asosida belgilanadi. Shuningdek, tashkiliy tuzilishning yo'l qo'yilgan yoki etarli darajadagi samaradorligini belgilovchi etalon sifatida tanlangan boshqaruv tizimining samaradorlik ko'rsatkichlari va xarakteristikalariga solishtirish ham qo'llanishi mumkin.

Biroq ko'rsatilgan yondashuvlarni qo'llash bilan bog'liq ayrim qiyinchiliklar ham yuzaga keladiki, ular qiyosiy variantlarning solishtirilish darajasini ta'minlash zarurati bilan izohlanadi. Shuning uchun ko'pincha ularning o'rniga tahliliy va loyihaviy tizim hamda uning alohida tizimchalari va qabul qilinuvchi loyihaviy va rejaviy qarorlarning tashkiliy-texnik darajasini ekspert baholash yoki son va sifat jihatidan yondashuvni qo'llashga asoslangan, boshqaruvning samaradorligini qator omillar yig'indisiga ko'ra

baholash imkonini beruvchi boshqaruv tizimini kompleks ravishda baholash qo'llanadi. Ekspert baholash sanab o'tilgan barcha yondashuvlarni o'z ichiga olgan boshqaruv tizimining samaradorligini kompleks ravishda baholashning tarkibiy elementi bo'lishi ham mumkin.

Boshqaruv apparati va uning tashkiliy tuzilishi samaradorligini baholashda qo'llanuvchi ko'rsatkichlar quyidagi uch o'zaro bog'liq guruhlariga ajratilishi mumkin.

1. Boshqaruv tizimining samaradorligini xarakterlovchi, tashkilot faoliyatining yakuniy natijalari va boshqaruv xarajatlari orqali ifodalanuvchi ko'rsatkichlar guruhi. Samaradorlikni tashkilot faoliyatining yakuniy natijalarini xarakterlovchi ko'rsatkichlar asosida baholashda boshqaruv tizimining faoliyati yoki rivojlanishi bilan izohlanuvchi samara sifatida hajm (mahsulot chiqarish hajmining oshirilishi), daromad (daromadning oshishi), tannarx (tannarxning pasaytirilishi), kapital sarflarning hajmi (kapital sarflarning tejalishi), mahsulot sifati, yangi texnikani joriy qilish muddati va shu kabilar ko'zdan kechirilishi mumkin.

2. Boshqaruv jarayonining mazmuni va tashkillashtirilishini, shu jumladan boshqaruv mehnatining bevosita natijalari va boshqaruv xarajatlarini xarakterlovchi ko'rsatkichlar guruhi. Boshqaruv xarajatlari sifatida boshqaruv apparatini saqlash, texnik vositalardan foydalanish, bino va xonalarni saqlash, boshqaruv kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlash xarajatlari hamda boshqaruv tizimlarini yaratish va takomillashtirish sohasidagi tadqiqot va loyihalash ishlari uchun bir martalik sarf-xarajatlar, boshqaruvda qo'llash uchun hisoblash texnikasi va boshqa texnik vositalarni xarid qilish xarajatlari, qurilish xarajatlari hisobga olinadi.

Boshqaruv jarayonining samaradorligini baholashda ham son, ham sifat jihatidan baholanishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichlar qo'llanishi mumkin. Bu ko'rsatkichlar me'yor xususiyat kasb etadi va tashkiliy tuzilish samaradorlikning bir yoki bir guruh ko'rsatkichlarini yaxshilash yo'nalishida o'zgartirilgan taqdirda samaradorlik va cheklovlar mezoni sifatida qo'llanishi mumkin bo'ladi. Boshqaruv apparatining me'yor xarakteristikalariga quyidagilarni kiritish mumkin: mahsuldorlik, tejamkorlik, moslashuvchanlik, o'zgaruvchanlik, operativlik, ishonchlilik.

Boshqaruv apparatining mahsuldorligi, jumladan, tashkilot ishlab chiqargan yakuniy mahsulot soni yoki boshqaruv apparatida band qilingan bitta xodimga to'g'ri keluvchi boshqaruv jarayonida ishlab chiqilgan axborot hajmlari sifatida belgilanishi mumkin.

Boshqaruv apparatining tejamkorligi deganda uning faoliyatiga sarflanuvchi, ishlab chiqarish faoliyati hajmlari yoki natijalari bilan o'lchanuvchi xarajatlar tushuniladi. Tejamkorlikni baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlar qo'llanishi mumkin: boshqaruv apparatini saqlashning solishtirma og'irligi sotilgan mahsulot qiymati hisobida; boshqaruv xodimlarining solishtirma og'irligi ishlab chiqarishda band qilingan personal hisobida; alohida ish turlari hajmi birligini bajarish qiymati.

Boshqaruv tizimining moslashuvchanligi uning buyurilgan funktsiyalarni o'zgarayotgan sharoitlarning ma'lum diapazonida samarali bajarishga qodirligi bilan belgilanadi. Bu diapazon nisbatan qancha keng bo'lsa, tizim ham shu qadar moslashuvchan hisoblanadi.

O'zgaruvchanlik boshqaruv apparati organlarining o'z o'rinlarini yuzaga keluvchi vazifalarga muvofiq o'zgartirish, ushbu tuzilishga xos bo'lgan munosabatlar tartibini buzmaganda yangi aloqalarni yo'lga qo'yish xususiyatini xarakterlaydi. Boshqaruv tuzilishining o'zgaruvchanligi boshqaruv organlarining hamkorlik shakllari turlariga ko'ra,

bo'linmalar tomonidan hal qilinuvchi vazifalarning nomenklaturasiga ko'ra, javobgarlikning markazlashtirilish darajasiga ko'ra va boshqa belgilarga ko'ra baholanishi mumkin.

7.2. Ishlab chiqarish menejmenti qarorlarini samaradorligini baxolash.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilishning operativligi boshqaruvdagi muammolarning o'z vaqtida aniqlanishini va yo'lga qo'yilgan ishlab chiqarish jarayonlarining turg'unligini saqlagan holda qo'yilgan maqsadlarga maksimal darajada erishishni ta'minlashi mumkin bo'lgan darajada tez hal qilinishini xarakterlaydi.

Boshqaruv apparatining ishonchliligi uning izchil (qo'yilgan maqsadlarga mos ravishda) faoliyat ko'rsatishi bilan xarakterlanadi. Agar maqsadlarni belgilash va muammolarni qo'yish sifati etarli hisoblansa, boshqaruv apparatining ishonchliligi uning ijrochiligi, ya'ni vazifalarni belgilangan muddat va ajratilgan manbalar doirasida bajarishni ta'minlashga qodirligi bilan nisbatan to'liq xarakterlanishi mumkin. Boshqaruv apparati va uning tizimchalari ijrochiligini baholash uchun shunday ko'rsatkichlar qo'llanishi mumkin: rejalashtirilgan vazifalarning bajarilish darajasi va tasdiqlangan me'yorlar rioya qilinishi; ko'rsatmalarni bajarishda chetga og'ishlarning yo'qligi, ma'muriy-huquqiy va texnologik reglamentning buzilmaganligi va h.k.

3.Tashkiliy tuzilishning ratsionalligi va uning tashkiliy-texnik darajasini xarakterlovchi ko'rsatkichlar guruhi. Ular tashkiliy tuzilishlarning loyihalashtirilayotgan variantlari samaradorligini tahlil qilishda me'yor sifatida qo'llanishi mumkin. Bularga quyidagilar kiradi: boshqaruv tizimining bo'g'inlari, boshqaruv funktsiyalarining markazlashtirilish darajasi, qabul qilingan boshqaruv normalari, huquq va javobgarlikni taqsimlashning balanslanganligi, tizimchalarning ixtisoslashish va funktsional biqinish darajasi va h.k.

Boshqaruvning samaradorligini baholashda boshqaruv tizimi va uning tashkiliy tuzilishining boshqaruv ob'ektiga mosligini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu funktsilar tarkibi va boshqaruv maqsadlarining balanslanganligi, boshqaruv jarayonlarining mazmunan to'liqligi va yaxlitligi, ishlovchilar soni va tarkibining ishlar hajmi va murakkabligiga mosligi, ishlab chiqarish-texnologiya jarayonlari talab etiluvchi axborotlar bilan to'liq ta'minlanganligi, boshqaruv jarayonlari ularning quvvati va sur'atlari nomenklaturasiga ko'ra texnologik vositalar bilan ta'minlanganligida ifodalanadi.

7.3. Boshqaruvi apparat iva uning tashkiliy tuzilishi samaradorligini baxolashda fullanuvchi kursatkichlar.

Tashkiliy tuzilishning samaradorligini baholash uchun ko'rsatkichlar tizimini shakllantirishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim talablar ko'rsatkichlarning tashkilot maqsadlari tizimiga tashkiliy-ierarxik mosligini ta'minlash, boshqariluvchi jarayonlarning dinamikasini adekvat aks ettirish qobiliyati, ko'rsatkichlarning balanslanganligi va bir-biriga zid emasligi hisoblanadi. Boshqaruv tizimi va uning tashkiliy tuzilishini takomillashtirish bo'yicha alohida tadbirlarning samaradorligini baholashda umumiy tizimga birlashtirilmagan xususiy ko'rsatkichlardan foydalanishga yo'l qo'yiladi. Ularni tanlab olishga bo'lgan asosiy talab—har bir ko'rsatkichning o'tkazilayotgan tadbirning maqsad va yo'nalishiga maksimal darajada mosligi hamda erishiluvchi samaraning to'liq aks ettirilishidan iborat.

Samaradorlikni baholash amaldagi tuzilish, ishlab chiqilayotgan loyihalar yoki rejalashtirilgan tadbirlarning progressivligi darajasini aniqlash imkonini beruvchi loyihaviy va rejaviy qarorlarni ishlab chiqishning muhim elementi hisoblanadi va tuzilishning eng ratsional variantini yoki uni takomillashtirish usulini tanlash maqsadida amalga oshiriladi. Tashkiliy tuzilishning samaradorligi loyihalash bosqichida, amaldagi tashkilotlarning boshqaruv tuzilishlarini tahlil qilishda boshqaruvni takomillashtirish chora-tadbirlarini rejalashtirish va amalga oshirish uchun baholanishi kerak.

Boshqaruv apparati va uning tashkiliy tuzilishi samaradorligini baholashda qo'llanuvchi ko'rsatkichlar quyidagi uch o'zaro bog'liq guruhlariga ajratilishi mumkin.

Boshqaruv tizimining samaradorligini xarakterlovchi, tashkilot faoliyatining yakuniy natijalari va boshqaruv xarajatlari orqali ifodalanuvchi ko'rsatkichlar guruhi. Boshqaruv jarayonining mazmuni va tashkillashtirilishini, shu jumladan boshqaruv mehnatining bevosita natijalari va boshqaruv xarajatlarini xarakterlovchi ko'rsatkichlar guruhi.

Xulosa.

Samaradorlikni baholash amaldagi tuzilish, ishlab chiqilayotgan loyihalar yoki rejalashtirilgan tadbirlarning progressivligi darajasini aniqlash imkonini beruvchi loyihaviy va rejaviy qarorlarni ishlab chiqishning muhim elementi hisoblanadi va tuzilishning eng ratsional variantini yoki uni takomillashtirish usulini tanlash maqsadida amalga oshiriladi. Tashkiliy tuzilishning samaradorligi loyihalash bosqichida, amaldagi tashkilotlarning boshqaruv tuzilishlarini tahlil qilishda boshqaruvni takomillashtirish chora-tadbirlarini rejalashtirish va amalga oshirish uchun baholanishi kerak.

Boshqaruv apparati va uning tashkiliy tuzilishi samaradorligini baholashda qo'llanuvchi ko'rsatkichlar quyidagi uch o'zaro bog'liq guruhlariga ajratilishi mumkin.

Boshqaruv tizimining samaradorligini xarakterlovchi, tashkilot faoliyatining yakuniy natijalari va boshqaruv xarajatlari orqali ifodalanuvchi ko'rsatkichlar guruhi. Boshqaruv jarayonining mazmuni va tashkillashtirilishini, shu jumladan boshqaruv mehnatining bevosita natijalari va boshqaruv xarajatlarini xarakterlovchi ko'rsatkichlar guruhi.

O'zini-o'zi tekshirish uchun savollar

1. Boshqaruv tizimining samaradorligini belgilovchi mezonlar.
2. Boshqaruv apparati va uning tashkiliy tuzilishi samaradorligini baholashda qo'llanuvchi ko'rsatkichlar.
3. Qabul qilingan qarorni bajarish qanday tashkil qilinadi?
4. Qabul qilingan qarorning bajarilishini kim va qanday nazorat qilinadi?
5. Boshqaruv qarorlarini tarkibini loyihalashtirish.
6. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlarini loyihalashtirish.
7. Qabul qilingan boshqaruv qarorlarini loyihalashtirish.
8. Boshqaruv qarorlarining turlarini ayting.
9. Boshqaruv qarorlarini asoslash usullarini sanab bering.
10. Boshqaruv qarorlarining maqbul varianti qanday tanlab olinadi?

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. "O'zbekiston", T., 2008.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Xalq so'zi, 30 yanvar, 2010.
3. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi. T., 2009, 22 b.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T., 2009, 56 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Jaxon moliyaviy –iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning asosiy yo'llari va choralari" nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. Tuzuvchilar: B.YU.Xodiev, A.SH.Bekmurodov, U.V.G'ofurov, B.K.To'xliev. – T.: Iqtisodiyot, 2009.-120 b.
6. Karimov I.A. Erishgan marralarimizni mustaxkamlab isloxotlar yo'lidan izchil borish asosiy vazifamiz. Toshkent oqshomi., 24-son. 10 fevral, 2004.
7. Karimov I.A. Biz uchun xalqimiz, vatanimiz manfaatidan ulug' maqsad yo'q. T., O'zbekisto, 2001
8. Zaynutdinov SH.N. va boshqalar. Menejment asoslari. –T: Moliya, 2001.
9. Sharifxo'jaev M., Abdullaev YO. Menejment. –T: O'qituvchi, 2002.
10. Kazantseva A.K. Osnovi proizvodstvennogo menedjmenta. –M: Seriya "V", 2008.
11. Kozlovskiy V.A. Proizvodstvenniy menedjment. Uchebnik: M, 2008.
12. Novitskiy N.I. Organizatsiya proizvodstva na predpriyatiyax: Uch.usul. posobie – M: Finansi statistika, 2008.
13. Fatxutdinov R.A. Proizvodstvenni menedjment -M, 2008.
14. Bukin S.O. Osnovi menedjmenta v voprosax i otvetax –M, 2008.
15. Paraxina V.N. Teoriya organizasii -M, 2008.
16. Lafta Dj. K. Teoriya organizasii -M, 2008.
17. Smirnov E.A. Teoriya organizasii -M, 2008.
18. Turovets O.G., Rodionova V.N. Teoiya organizasii -M, 2008.
19. www.cer.uz Vse o menedjmente.

8-bob. TOVARNI BOZORGA YO'NALTIRISH JARAYONINI LOYIHALASHTIRISH

- 8.1. Savdo apparatining tashkiliy tuzilmasini tanlash.
- 8.2. Savdo agentlarini jalb qilish, tanlab olish va o'qitib o'rgatish.
- 8.3. Savdo agentlari ishining samaradorligini baholash.

Mavzuning maqsadi - tovarlarning bozorga tashkiliy harakatini, savdo apparatining tashkiliy tuzilmasi va ishini o'rganish, tovarlarni sotish va savdo agentlari ishining samaradorligini baholash borasida ma'lum ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

8.1. Savdo apparatining tashkiliy tuzilmasini tanlash.

Korxona bozorni egallash, mijozlarning buyurtmalariga ega bo'lish uchun boshqa korxonalar bilan o'zaro raqobatlashishi kerak bo'ladi. Shuning uchun korxona o'z

strategiyasini tovarlarni bozorda sotish xususiyatlarini anglash asosiga qurishi, iste'molchini tushunishi, uning ehtiyojlarini bilishi lozim.

Korxona savdo apparatining tashkiliy tuzilmasi uning bozorda maksimal darajada samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashi kerak.

Korxona savdo apparati hududiy, tovar yoki mijozlarni bo'lish tamoyiliga ko'ra tashkil qilinishi mumkin.

Hududiy tamoyilga asosan qurilgan tashkiliy tuzilmada har bir savdo agentiga ma'lum hudud biriktiriladi. Savdo agenti faqat shu hudud doirasida korxonaning butun tovarlar nomenklaturasi bilan savdo qiladi. Bunday tashkiliy tuzilma qator afzalliklarga ega. Birinchidan, savdo agentining majburiyatlari aniq belgilangan bo'ladi. Ushbu hududdagi yagona vakil hisoblangan bu savdo agenti mazkur hududda mahsulotni sotish borasidagi barcha yutuq va kamchiliklar uchun to'liq javobgar bo'ladi.

Ikkinchidan, savdo agenti bozorning mahalliy arboblari bilan shaxsiy va ishbilarmonlik aloqalarini mustahkamlaydi. Uchinchidan, yo'l xarajatlari katta bo'lmaydi, chunki savdo agenti uncha katta bo'lmagan jug'rofiy mintaqada faoliyat ko'rsatadi.

Korxonaning sotuv bo'yicha tuman boshqaruvchisi bir nechta savdo hududlaridagi ishni boshqaradi, sotuv bo'yicha vitse-prezident esa bir nechta mintaqalardagi ishga rahbarlik qiladi.

Savdo agentlari o'z tovarlarini-ayniqsa, agar ular texnik jihatdan murakkab, xilma-xil yoki ko'p sonli bo'lsa-yaxshi bilishlari lozim. Shuning uchun ko'pgina korxonalar o'z savdo apparatini tovar tamoyiliga ko'ra tuzadilar.

Bunday tashkiliy tuzilma bitta iste'mol firmasida ishlab chiqaruvchi korxonaning bir nechta savdo agentlari paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Korxona savdo apparatini mijozlarni bo'lish asosida ham tashkil qilishi mumkin. Bunday bo'lish faoliyat sohalari, yirik va oddiy buyurtmachilar, mavjud va yangi mijozlar bo'yicha bo'lishi mumkin.

8.2. Savdo agentlarini jalb qilish, tanlab olish va o'qitib o'rgatish.

Korxona savdo apparatining tashkiliy tuzilmasini belgilab olganidan keyin savdo agentlarini jalb qilish, tanlab olish va o'qitib o'rgatish tizimini, ularning ishini nazorat qilish tizimini va ularning ish natijalarini baholash tizimini ishlab chiqishi lozim. Foydali savdo agentlarini tanlab olish savdo apparati muvaffaqiyatli ishlashining garovi hisoblanadi. F.Kotlarning qayd etishicha, "Amerikaning besh yuzdan ortiq firmalarini o'rganish sotuvlarning 53% ular bilan ishlaydigan savdo agentlarining 27% ga to'g'ri kelishini ko'rsatdi. Muvaffaqiyatli ish olib borayotgan savdo agentlari orasida erkaklar va ayollar, yoshlar va qariyalar, gapga ustalar va no'noqlar, orasta va pala-partish kiyinadiganlar bor".

Insonning savdogarlik qobiliyatini qanday aniqlash mumkin? Amerikalik olim Makmarri mohir savdo agentiga xos bo'lgan besh xislatni qayd etadi: "serg'ayratlik, o'ziga ishonch, pulga o'chlik, ustasi faranglik, har qanday e'tiroz, qarshilik yoki to'sqinlikni o'ziga qarshi chaqiriq sifatida qabul qilish". Amerikalik olimlar Meyer va Grinberg chinakam foydali savdo agenti kamida ikkita asosiy xislatga ega bo'lishi lozimligini uqtiradilar: 1) empatiya hissi, ya'ni mijozning his-tuyg'ulariga moslashish qobiliyati; 2) maqsadga intiluvchanlik, sobitqadamlik, sotuv ishini takomillashtirishga kuchli shaxsiy ehtiyojning mavjudligi.

Tanlash mezonlarini ishlab chiqqanidan keyin rahbariyat nomzodlarni tanlashga kirishishi kerak. Kadrlar bo'limi nomzodlarni turli yo'llar bilan qidiradi, ko'plab mijozlarni jalb qiladi va firma ularning orasidan eng yaxshilarini tanlab oladi.

Tanlov protseduralari xilma-xil: bitta norasmiy suhbatdan uzoq davom etuvchi sinovlargacha, faqat nomzodlar bilangina emas, ularning oila a'zolari bilan ham suhbat o'tkazish va h.k. Savdo agentlari ishga sinov muddati bilan qabul qilinadi. Tanlov usullaridan biri test o'tkazish hisoblanadi. Bunga nomzodning shaxsiy xislatlarini baholash ham kiradi. Shuningdek, nomzodni tanlashda unga berilgan tavsiyalar va xizmatlari ro'yxati ham hisobga olinadi.

“Jillet” firmasining qayd etishicha, testlash natijasida kadrlarning qo'nimsizligi 42% ga qisqargan va yangi qabul qilingan agentlarning yutuqlarini bashorat qilishning real imkoniyati paydo bo'lgan.

Ko'pgina firmalar savdo agentlarini qabul qilganlari zahoti ularga ish topshiradilar. Ularni o'qitib o'rgatishga ortiqcha xarajat deb qaraydilar. Ayrim korxonalar (QK) da ishga yangi olingan savdo agentlari bir neta haftadan va bir necha oygacha ta'lim oladilar. Amerikaning sanoat mollari bilan savdo qiluvchi firmalarida o'quv kursi o'rtacha 28 hafta, xizmat ko'rsatuvchi firmalarda - 12 hafta, keng iste'mol tovarlari bilan savdo qiladigan firmalarda esa - 4 hafta davom etadi. “IBM” korporatsiyasida esa yangi agentlar mustaqil ishlashga faqat 2 yildan keyingina qo'yiladilar! Bundan tashqari, har yili ish vaqtining 15% ularga qo'shimcha ta'lim berishga ajratiladi. O'quv dasturlaridan bir qancha maqsadlar ko'zlanadi, bular: savdo agentini firma bilan tanishtirish, uning tarixi, vazifalari, boshqaruv tizimlarini o'rgatish, agentni firmaning mahsulotlari, ular qanday ishlab chiqarilishi, agentning turli vaziyatlardagi funktsiyalari, mijozlar va raqiblarning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish, unga samarali savdo bitimlari tuzish, mijozlar bilan qanday munosabatda bo'linishi, hisobotlar qanday tuzilishini o'rgatish va h.k.

8.3. Savdo agentlari ishining samaradorligini baholash.

Rahbariyat savdo agentlarining faoliyatiga doir ma'lumotlarni har xil yo'llar bilan oladi. Sotuv haqidagi hisobotlar eng muhim ma'lumot manbai bo'lib hisoblanadi. Qo'shimcha ma'lumotlar shaxsiy kuzatishlar, buyurtmachilar o'rtasida so'rov o'tkazish yo'li bilan, mijozlarning xatlari va shikoyatlari, boshqa agentlar bilan suhbatlardan olinadi.

Sotuv haqidagi hisobotlar va kuzatishlar savdo agentining ishini baholash uchun asos bo'la oladi. Rahbariyat savdo agentining ishini vaqti-vaqti bilan rasman baholab turadi.

Baholash usullaridan biri turli savdo agentlarining ish ko'rsatkichlarini taqqoslash hisoblanadi. Firma tomonidan olingan sof foydaga har bir savdo agenti qo'shgan hissa baholashning asosiy ko'rsatkichidir. Baholashning yana bir usuli savdo agentlarining joriy ish natijalarini avvalgi ish natijalariga taqqoslashdan iborat. Bunday taqqoslash uning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizliklarini ko'rsatadi.

Har bir firma o'zining baholash mezonlarini barcha savdo agentlariga bildirishi, savdo agentlari o'z ishlari qanday baholanishini bilishlari, uni yaxshilash imkoniyatiga ega bo'lishlari lozim.

Sotuvni rag'batlantirish iste'molchilarni rag'batlantirishni (namunalar tarqatish, pulni qaytarishni taklif qilish, mukofotlar, tanlovlar, namoyishlar), savdo sohasini rag'batlantirishni (tovarlarni bepul tarqatish, tovarni nomenklaturaga kiritish, reklamani birgalikda o'tkazish, dilerlarning savdo tanlovlarini o'tkazish), firmaning savdo agentlarini rag'batlantirish (mukofotlar berish, sotuvchilarning tanlovlari, konferentsiyalarini

o'tkazish)ni nazarda tutadi. Rag'batlantirish xarajatlari yildan yilga oshib bormoqda, chunki sotuvni rag'batlantirish tovarni bozorga sotishning samarali omillaridan biri hisoblanadi.

Sotuvni rag'batlantirish faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar soni tobora ortib borayotir.

Xulosa

Korxona o'z ishini tovarni bozorga sotishning o'ziga xosliklarini tushunish, iste'molchining ehtiyojlarini bilish asosiga qurishi lozim.

Korxonaning savdo apparati hududiy belgiga ko'ra yoki tovarning turidan kelib chiqib tashkil qilinishi mumkin.

Savdo agentlarini tanlash va o'qitib o'rgatish, ularning faoliyatini nazorat qilish va ish natijalarini baholash muvaffaqiyat garovi hisoblanadi.

Sotuv haqida hisobotlar va kuzatishlar savdo agentining ishini baholash uchun asos bo'ladi.

Sotuvni rag'batlantirishni reklama bilan uyg'unlikda qo'llash yanada katta samara beradi.

O'zini-o'zi tekshirish uchun savollar

1. Savdo apparati qanday tamoyilga ko'ra tashkil qilinishi mumkin?
2. Savdo agentlari nimani yaxshi bilishlari kerak?
3. Savdo agenti qanday xislatlarga ega bo'lishi lozim?
4. Savdo agenti ishining samaradorligi qanday baholanadi?
5. Savdoni rag'batlantirish bilan kim shug'ullanadi?
6. Savdo apparatini tashkiliy tuzilmalari.
7. savdo agentlarini jalb etish.
8. Savdo agetlari ishini samaradorligini baxolash.

Adabiyotlar.

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. "O'zbekiston", T.,2008.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Xalq so'zi, 30 yanvar, 2010.
3. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi.T., 2009, 22 b.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.T., 2009, 56 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Jaxon moliyaviy –iqtisodiy inqrozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning asosiy yo'llari va choralari" nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. Tuzuvchilar: B.YU.Xodiev, A.SH.Bekmurodov, U.V.G'ofurov, B.K.To'xliev. – T.: Iqtisodiyot, 2009.-120 b.
6. Karimov I.A. Erishgan marralarimizni mustaxkamlab isloxotlar yo'lidan izchil borish asosiy vazifamiz. Toshkent oqshomi., 24-son.10 fevral, 2004.
7. Karimov I.A. Biz uchun xalqimiz, vatanimiz manfaatidan ulug maqsad yo'q. T., O'zbekisto, 2001
8. Zaynutdinov SH.N. va boshqalar. Menejment asoslari. –T: Moliya, 2001.
9. Sharifxo'jaev M., Abdullaev YO. Menejment. –T: O'qituvchi, 2002.

10. Kazantseva A.K. Osnovi proizvodstvennogo menedjmenta. –M: Seriya “V”, 2008.
11. Kozlovskiy V.A. Proizvodstvenniy menedjment. Uchebnik: M, 2008.
12. Novitskiy N.I. Organizatsiya proizvodstva na predpriyatiyax: Uch.usul. posobie – M: Finansi statistika, 2008.
13. Fatxutdinov R.A. Proizvodstvenni menedjment -M, 2008.
14. Bukin S.O. Osnovi menedjmenta v voprosax i otvetax –M, 2008.
15. Paraxina V.N. Teoriya organizasii -M, 2008.
16. Lafta Dj. K. Teoriya organizasii -M, 2008.
17. Smirnov E.A. Teoriya organizasii -M, 2008.
18. Turovets O.G., Rodionova V.N. Teoiya organizasii -M, 2008.
19. www.cer.uz Vse o menedjmente.

9-bob. ISHLAB CHIQARISHNI ILMIY-TEXNIK BOSHQARISHNI LOYIHALASHTIRISH

- 9.1. Korxonada ilmiy-texnik boshqaruvning maqsad va vazifalari.
- 9.2. Ilmiy-texnik boshqaruvni loyihalashtirishning asosiy yo’nalishlari.
- 9.3. Boshqaruvning texnik vositalariga bo’lgan ehtiyojni aniqlash.

Mavzuning maqsadi- ilmiy-texnik boshqaruv tashkilotining asosiy yo’nalishlarini o’zlashtirish, ilmiy-texnik boshqaruv tashkilotini loyihalashtirish va boshqaruvning texnik vositalariga bo’lgan ehtiyojni aniqlash borasida ma’lum ko’nikma hosil qilishdan iborat.

9.1. Korxonada ilmiy-texnik boshqaruvning maqsad va vazifalari.

Bozor iqtisodiyotiga o’tish jahon texnika va texnologiyasining eng yangi namunalarini korxonalarga joriy qilishga keng yo’l ochadi. Korxonalarga yangi texnika va ilg’or texnologiyalardan foydalanish borasida chet mamlakatlar bilan aloqalarni o’zaro manfaatdor asosda mustaqil o’rnatish imkoniyati berilgan.

Korxonada ilmiy-texnik boshqaruvning asosiy maqsadi ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, boshqaruv sarf-xarajatlarini qisqartirish va boshqaruv apparati mehnatining unumdorligini oshirishdan iborat.

Bu maqsadga erishish uchun korxona ilmiy-texnik boshqaruv organlarining faoliyati qator vazifalar, jumladan ishlab chiqarishning tashkiloti va texnik darajasini muntazam ko’tarib borish, boshqaruv jarayonlari va texnologiyasini takomillashtirish, boshqaruv sifatini oshirish, iste’molchilarning ehtiyoj va talablarini yana to’laroq qondirishga yo’naltirilishi lozim.

Ilmiy-texnik boshqaruvning umumiy funktsiyalari jumlasiga texnik rejalashtirish, texnik tashkilot, texnik operativ boshqaruv, texnik hisobga olish va nazorat kiradi.

Bu funktsiyalar korxonada bosh muhandis xizmati va texnik yo’nalishdagi jamoat tashkilotlari tomonidan yangi texnikani joriy qilish va tashkiliy-texnik tadbirlar rejalarini ishlab chiqish, ilmiy-texnik targ’ibot yo’li bilan amalga oshiriladi.

Ilmiy-texnik boshqaruvning maxsus funktsiyalari jumlasiga quyidagilar kiradi: texnika va texnologiyalar sohasida ilmiy tadqiqotlarni ta’minlash, ishlab chiqarishning konstruktorlik ta’minoti, dastgohlarga xizmat ko’rsatilishini boshqarish, ishlab chiqarishni

mexanizatsiyalashtirish va avtomatizatsiyalashtirishni tashkil qilish, ishlab chiqarishning texnologik ta'minotini tashkil qilish, nazorat-o'lchash asboblari xizmat ko'rsatishni tashkil qilish, mahsulot sifatini boshqarish, fan-texnika targ'iboti va tajriba almashuv, texnik ijodkorlik va kashfiyotchilikni boshqarish va h.k. Texnik boshqaruvning ko'rsatilgan va boshqa funktsiyalarining aniq bajarilishi zaminida ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat unumdorligi va mahsulot sifatini oshirishning ulkan zaxiralari yotadi.

Ilmiy-texnik ishlovlarni korxona o'z kuchi bilan va chetdan jalb qilinadigan ilmiy-tadqiqot institutlari, loyihalash tashkilotlari yordamida amalga oshiradi.

Buning uchun korxonada o'z tajriba va ilmiy-tadqiqot bazasini rivojlantirish, ilmiy-texnik va loyihalash-konstruktorlik bo'linmalarini tashkil qilish, ularni ilmiy xodimlar va mutaxassislar jumlasidan bo'lgan kadrlar bilan ta'minlash, kashfiyotchilik va ratsionalizatorlik faoliyatini tashkil etish, tanlovlar o'tkazish, tajriba almashish, xodimlar ijodiy ishtirokining boshqa shakllarini qo'llash lozim.

Korxona ilmiy-tadqiqot, loyihalash-konstruktorlik va texnologik tashkilotlar bilan barqaror aloqalar o'rnatishi, ilmiy muassasalar va oliy o'quv yurtlari bilan ilmiy tadqiqotlar o'tkazish uchun shartnomalar tuzishi kerak. AQSH va boshqa rivojlangan mamlakatlarda "1-10-100" formulasi amal qiladi. Bu fundamental tadqiqotga 1 dollar sarflangan bo'lsa, texnologiyani ishlab chiqishga 10, uni joriy qilishga esa - 100 dollar sarflanishini anglatadi.

Dadillik va tavakkalsiz fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilib bo'lmaydi. Bunda muvaffaqiyatsizliklarning bo'lishi ham tabiiydir.

9.2. Ilmiy-texnik boshqaruvni loyihalashtirishning asosiy yo'nalishlari

Ilmiy-texnik boshqaruvni loyihalashtirishda ko'plab fan sohalari: iqtisodiyot va kibernetika, sotsiologiya va psixologiya, tizimli texnika, operatsiyalar tadqiqoti va boshqa sohalarning yutuqlaridan foydalaniladi.

Loyihalashtirish ilmiy-texnik, iqtisodiy, tashkiliy va ijtimoiy-ruxiy yo'nalishlar bo'yicha kompleks ravishda amalga oshiriladi.

Loyihalashtirishda korxonaning o'z ishlab chiqarish bazasini takomillashtirish va ishlab chiqarishning texnik darajasini oshirish, yangi yuqori sifatli texnika va ilg'or texnologiya namunalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor beriladi.

Ishlab chiqarish boshqaruvini takomillashtirish, boshqaruv mehnatini kompleks mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishni amalga oshirish, boshqaruvning ilg'or usullarini joriy qilish, ishlab chiqarish va mehnat tashkiloti muhim ahamiyatga ega. Korxonada yangi texnika namunalarini ishlab chiqish va ularni ishlab chiqarishga joriy qilish, ishlab chiqarish va boshqaruvning ilg'or texnologiyalari va fan yutuqlarini joriy qilish rejaları loyihalashtiriladi.

Ilmiy-texnik boshqaruvni loyihalashtirishni quyidagi izchillikda amalga oshirish lozim:

1. Ishlovlarning maqsadlarini aniqlash, ularni amalga oshirish uchun ratsional tashkiliy tizimni tuzish.
2. Maqsadlarni funktsional bo'linmalar - ishlovlarning uchastkalari o'rtasida to'g'ri taqsimlash. Yaratilgan tizimning ishini yo'lga qo'yish.
3. Tizimning ishlashi uchun tegishli iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar yaratish, barcha zarur moddiy, mehnat va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash.

4. Qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish rejasini tuzish, qo'yilgan maqsadlarga erishish bo'yicha ishlarni tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish.
5. Maqsadlarni tanlash bosqichi va ularni amalga oshirish jarayonida ishlovning samaradorligini ma'lum mezonlarga ko'ra muntazam baholab borish.

Korxonada ilmiy-texnik boshqaruvning ikki yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi:
-korxonaning o'z ishlab chiqarish bazasini takomillashtirish va ishlab chiqarishning texnik darajasini oshirish;
-yangi yuqori sifatli, mahsuldor texnika namunalarini ishlab chiqish va ishlab chiqarishga joriy qilish.

Birinchi yo'nalish ishlab chiqarishni rejalashtirish va boshqaruv tashkilotini takomillashtirish, kompleks mexanizatsiyalashtirish va avtomatizatsiyalashtirishni amalga oshirish, ilg'or texnologiyalarni joriy qilish, boshqaruvning zamonaviy iqtisodiy usullarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish va mehnat tashkilotini nazarda tutadi.

Ikkinchi yo'nalish yangi texnikani joriy qilish tashkiloti, chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish borasidagi ilmiy-texnik g'oyalarni amalga oshirish maqsadini ko'zlaydi.

Ilmiy-texnik boshqaruvni takomillashtirishda ishlab chiqilayotgan tadbirlarning iqtisodiy samaradorligi hisob-kitob qilinishi yoki ijtimoiy samaradorligi aniqlanishi lozim.

Mahsulot sifatini boshqarishni loyihalashtirish quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Chiqarilayotgan mahsulot sifatini o'rganish va baholash;
2. Etkazib beruvchilar ishining sifatini tahlil qilish;
3. Ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni amalga oshirish paytida sifatni baholash, tayyor mahsulot sifatini nazorat qilish;
4. Mahsulot sifatiga doir axborot tizimini loyihalashtirish;
5. Sifatni nazorat qilish usullari va vositalarini ishlab chiqish;
6. Mahsulot sifatini nazorat qilish sohasida kadrlarni tayyorlash;
7. Iste'molchilarga xizmat ko'rsatish tizimini ishlab chiqish va reklamatsiyalarni tahlil qilish;
8. Mahsulotning yuqori sifatini ta'minlash borasidagi muammolarni tadqiq qilish.

Mahsulot sifati mehnat, texnologik uskunarlar va texnologik jarayonlarning sifati, xom ashyo, materiallar va yarim fabrikatlarning sifati bilan ta'minlanadi.

9.3. Boshqaruvning texnik vositalariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash.

Tashkilot texnikasi va texnik vositalarning turi boshqaruv ishlarining hajmidan kelib chiqib aniqlanadi.

Tashkilot texnikasi vositalarining soniga bo'lgan ehtiyojni aniqlash usullaridan biri bunday vositalarning mahsuldorligi (quvvati) ko'rsatkichlariga asoslangan hisob-kitoblardir.

Shaxsan foydalaniladigan tashkilot texnikasiga bo'lgan ehtiyoj boshqaruv xodimlarining soniga muvofiq belgilanishi, ko'pgina tashkilot texnikasi vositalari (stollar, stullar, shakaflar va h.k.) bilan barcha xodimlar ta'minlanishi lozim.

Jamoaviy foydalaniladigan vositalarni korxonaning funktsional bo'linmalari va bo'limlari o'rtasida teng taqsimlagan ma'qul.

Agar korxona tashkilot texnikasi bilan barcha bo'limlarni ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lmasa, ulardan foydalanishni yondosh bo'limlarni birlashtirish tamoyiliga ko'ra tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Tashkilot texnikasining ma'lum qismi bo'limlar o'rtasida taqsimlanmasligi kerak. Undan foydalanish uchun maxsus bo'limlar ajratiladi va boshqaruv apparatining qolgan bo'g'inlari xizmat ko'rsatishni so'rab ularga murojaat qiladi. Masalan, hisoblash markazlarini barcha bo'limlarda tashkil qilish shart emas.

Funktsional tashkilot texnikasi vositalarining soni ularning mahsuldorligidan va ushbu korxonada bir ish kunida o'rta hisobda bajariladigan tegishli ishlarning hajmidan kelib chiqib belgilanadi.

Texnika boshqaruvning barcha pog'onalarida, qarorlarni tayyorlash va qabul qilishning barcha bosqichlarida, boshqaruv tizimining barcha bo'limlarida qo'llanishi lozim. Tashkilot texnikasi, ayniqsa, hisoblash texnikasini barcha rahbarlar va mutaxassislar bilishlari va ulardan foydalana olishlari shart.

Tashkilot texnikasidan kompleks foydalanish katta samara beradi.

Xulosa

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jahon texnika va texnologiyasining eng yangi namunalarini korxonalarga joriy qilishga keng yo'l ochadi.

Ilmiy - texnik boshqaruvning maqsadi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, boshqaruv sarf-xarajatlarini qisqartirish va mehnat unumdorligini oshirishdan iborat.

Ilmiy - texnik boshqaruvni loyihalashtirish ilmiy-texnik, iqtisodiy, tashkiliy va ijtimoiy-psixologik yo'nalishlar bo'yicha kompleks ravishda amalga oshiriladi.

Mahsulot sifati mehnat, texnologik uskunalar, xom ashyo, materiallar va yarim fabrikatlarning sifati bilan ta'minlanadi.

Tashkilot texnikasi vositalari soni boshqaruv ishlarining hajmidan kelib chiqib aniqlanadi.

O'zini-o'zi tekshirish uchun savollar

1. Ilmiy - texnik boshqaruvning umumiy funktsiyalarini sanab bering.
2. Ilmiy - texnik boshqaruvning maxsus funktsiyalarini ayting.
3. AQSh da amal qiluvchi "1-10-100" formulasining ma'nosini tushuntirib bering.
4. Ilmiy-texnik boshqaruvni loyihalashtirish ishlari qanday izchillikda amalga oshiriladi?
5. Korxonada ilmiy - texnik boshqaruvni maqsadi.
6. Ishlab chiqarish korxonalarida ilmiy-texnik boshqaruvning vazifalari.
7. Ilmiy-texnik boshqaruvni loyihalashtirishning asosiy yo'nalishlari.
8. Korxonaning texnik vositalarga bo'lgan ehtiyojini aniqlash.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston", T., 2008.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Xalq so'zi, 30 yanvar, 2010.
3. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi. T., 2009, 22 b.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T., 2009, 56 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Jaxon moliyaviy –iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning asosiy yo'llari va choralari" nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. Tuzuvchilar: B.YU.Xodiev,

- A.SH.Bekmurodov, U.V.G'ofurov, B.K.To'xliev. – T.: Iqtisodiyot, 2009.-120 b.
6. Karimov I.A. Erishgan marralarimizni mustaxkamlab isloxotlar yo'lidan izchil borish asosiy vazifamiz. Toshkent oqshomi., 24-son.10 fevral, 2004.
 7. Karimov I.A. Biz uchun xalqimiz, vatanimiz manfaatidan ulug maqsad yo'q. T., O'zbekisto, 2001
 8. Zaynutdinov SH.N. va boshqalar. Menejment asoslari. –T: Moliya, 2001.
 9. Sharifxo'jaev M., Abdullaev YO. Menejment. –T: O'qituvchi, 2002.
 10. Kazantseva A.K. Osnovi proizvodstvennogo menedjmenta. –M: Seriya "V", 2008.
 11. Kozlovskiy V.A. Proizvodstvenniy menedjment. Uchebnik: M, 2008.
 12. Novitskiy N.I. Organizatsiya proizvodstva na predpriyatiyax: Uch.usul. posobie – M: Finansi statistika, 2008.
 13. Fatxutdinov R.A. Proizvodstvenni menedjment -M, 2008.
 14. Bukin S.O. Osnovi menedjmenta v voprosax i otvetax –M, 2008.
 15. Paraxina V.N. Teoriya organizasii -M, 2008.
 16. Lafta Dj. K. Teoriya organizasii -M, 2008.
 17. Smirnov E.A. Teoriya organizasii -M, 2008.
 18. Turovets O.G., Rodionova V.N. Teoiya organizasii -M, 2008.
 19. www.cer.uz Vse o menedjmente.

10-bob. ISHLAB CHIQARISHNI IJTIMOIIY BOSHQARISHNI LOYIHALASHTIRISH

- 10.1. Ijtimoiy boshqaruv
- 10.2. Huquqiy boshqaruv
- 10.3. Nizo va stresslarni boshqarish

Mavzuning maqsadi - boshqaruvning ijtimoiy-psixologik jihatlarini o'rganish, ijtimoiy va huquqiy boshqaruv tashkilotini loyihalashtirish borasida ma'lum ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

10.1. Ijtimoiy boshqaruv

Bozor iqtisodiyoti eng avvalo aholini ijtimoiy himoya qilishni nazarda tutadi. SHuning uchun bozor sharoitlarida ijtimoiy boshqaruv tashkiloti masalalari yangi ahamiyat kasb etadi.

Korxonani muvaffaqiyatli boshqarish uchun mehnat jamoasini jipslashtirish, uning sa'y-harakatlarini qo'yilgan maqsadlarga erishish va vazifalarni hal qilishga qaratish kerak. Hamkorlik va o'zaro yordam, demokratiya va oshkoralik bo'lishi lozim. Mehnat jamoasida muntazam tashkiliy va tarbiyaviy ishlarni olib borish zarur.

Har qanday rahbar mehnat jamoasida ijtimoiy munosabatlar tuzilmasini yaxshilash haqida muttasil qayg'urishi lozim.

Korxonada ijtimoiy boshqaruv tashkiloti bilan mutaxassislar - sotsiologlar va psixologlar shug'ullanishi kerak.

Ijtimoiy boshqaruvni loyihalashtirish boshqaruvning ijtimoiy-psixologik usullari: ijtimoiy rejalashtirish, ijtimoiy tartibga solish, ijtimoiy me'yorlashtirish, mehnat jamoasida barqarov ijtimoiy-psixologik muhitni yaratishni takomillashtirishga yo'naltirilishi kerak.

Ijtimoiy rejalashtirish jamoani ijtimoiy rivojlantirish rejalarini tuzish va amalga oshirishdan iborat bo'ladi.

Ijtimoiy tartibga solish usullari jamoadagi munosabatlarni barqarorlashtirish, xodimlarning faolligini oshirish, boshqaruvni demokratlashtirish, inson omilini oshirish uchun qo'llanadi.

Ijtimoiy me'yorlashtirish usullari ichki tartib qoidalarini o'rnatish, intizomiy ta'sir ko'rsatish shakllari, progressiv ma'naviy va axloqiy normalar orqali amalga oshiriladi.

Psixologik usullar jumlasiga mehnatni ijtimoiylashtirish, kadrlarni tanlab olish va tayyorlash, xodimlarni mehnatga rag'batlantirish, yuksak ong, burch va mas'uliyat tuyg'ularini tarbiyalash kiradi.

10.2. Huquqiy boshqaruv

Korxonada huquqiy boshqaruv deganda boshqaruvning huquqiy munosabatlarini tartibga solish tushuniladi. Bu korxonaning ma'muriy va xo'jalik faoliyati qonunlar va tegishli huquqiy hujjatlarga asosan amalga oshirilishi zarur deganidir.

Huquqiy boshqaruvni tashkil etishda huquqni suiiste'mol qilish volyuntarizm va boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik usullari vujudga kelishi uchun ob'ektiv sharoitlar yaratishini hisobga olish kerak. Afsuski, korxonalardagi ko'pgina ijrochilarga majburiyatlar istalgancha yuklanadi-yu, ammo hech qanday huquqlar berilmaydi. Barcha huquqlarni rahbarlar o'z qo'llariga oladilar. Bu xodimlarning boshqaruv tashkilotiga ta'sirini chegaralaydi, ularning manfaatlarini kamsitadi. Huquqiy boshqaruv tashkiloti har qanday mansabdor shaxs va boshqaruv organi belgilangan qonun-qoidalar va normalarni buzganlik uchun javob berishini nazarda tutadi. Boshqaruv mehnat huquqi, ma'muriy va xo'jalik huquqi, fuqarolik huquqini chuqur bilish, me'yor va qonun hujjatlari tizimi asosiga qurilishi lozim.

Huquqiy boshqaruv tashkilotining vazifasi alohida shaxslar va ishlab chiqarish jamoalariga faol ta'sir ko'rsatib, har qanday qonunbuzarliklarning oldini oladigan huquqiy munosabatlarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

Huquqiy boshqaruv tashkiloti qabul qilinadigan huquqiy hujjatlarning qonun va huquq normalariga mosligi, mehnat jamoasi a'zolarining manfaatlarini huquqiy himoyalash, mehnat, ma'muriy va xo'jalik qonunlarini takomillashtirish hamda huquqiy bilimlar targ'ibotini ta'minlashi lozim.

Korxonada huquqiy boshqaruv boshqaruv tizimida mehnatdan foydalanish sohasida (intizomni mustahkamlash, shaxsiy mas'uliyatni oshirish, kadrlarning qo'nimsizligi darajasini pasaytirish, tashkilot tuzilmasini takomillashtirish va h.k.), boshqaruv apparati xodimlarining mehnat predmetlaridan foydalanish sohasida (axborot oqimlarini ratsional tashkil qilish, axborotni o'z vaqtida tayyorlash, materiallar, qog'oz, elektr energiyasi va yokilg'ini sarflash normalarini ishlab chiqish) hamda iqtisodiyotning boshqaruv tizimida mehnat vositalaridan foydalanish sohasida (bino va inshootlar, texnik vositalar, avtotransport, asbob-uskunalar, hisoblash texnikasidan foydalanish) zaxiralardan maksimal foydalanishga yo'naltirilishi lozim.

10.3. Nizo va stresslarni boshqarish

Sotsiologlar bergan ma'lumotlarga qaraganda, ishlab chiqarishda nizolarning 70% rahbarlarning aybi bilan chiqadi.

Nizo - ma'lum shaxs yoki guruhlardan iborat ikki yoki undan ortiq tomonlar o'rtasida kelishuvning yo'qligidir. Har bir tomon o'zining fikrini o'tkazishga urinadi va boshqa tomonga xuddi shunday qilishga xalaqit beradi.

Ko'pgina hollarda nizo fikrlar xilma-xilligini aniqlash va qo'shimcha ma'lumotlar olish imkonini beradi, ko'plab muqobil echimlarni topishga ko'maklashadi. Bu qaror qabul qilish jarayonining samaradorligini yanada oshiradi.

SHunday qilib, nizo ijobiy bo'lishi, korxona ishining samaradorligini oshirishi mumkin, xuddi shuningdek nizo salbiy ahamiyatga ega bo'lib, samaradorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Nizolar va stresslarni boshqarish tashkil qilish uchun ularning vujudga kelish sabablarini tushunib etish lozim.

Barcha nizolarning bir nechta sabablari bo'ladi: resurslarning chegaralanganligi, vazifalarning o'zaro bog'liqligi, maqsadlardagi tafovutlar, tasavvurlar va kadriyatlardagi tafovutlar, xulq-atvordagi tafovutlar va h.k.

Kommunikatsiyalarning qoniqarsizligi, ya'ni axborot almashuvning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi ham nizoli vaziyatning vujudga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Nizoni bartaraf etish uchun uning vujudga kelish sabablarini bartaraf etish kerak.

Nizoli vaziyatlarni boshqarishning bir nechta usullari mavjud.

Ishga qo'yiladigan talablarni tushuntirish nizoli vaziyatni boshqarishning eng yaxshi usullaridan biri hisoblanadi. SHuning uchun boshqaruv tashkilotchisi o'z xodimlarining lavozim yo'riqnomalari va ayrim ishlarni bajarish yo'riqnomalarini aniq ishlab chiqishi lozim. Korxonaning har bir xodimi va bo'limidan qanday natijalar kutilishini tushuntirish, ularni huquq va majburiyatlar tizimi bilan tanishtirish zarur.

Agar ikki yoki undan ortiq xodimlar o'rtasida biron-bir masala yuzasidan kelishmovchilik tug'lsa, ularning umumiy boshlig'iga murojaat qilib va undan bu masala yuzasidan qaror qabul qilishni so'rab, nizoning oldini olish mumkin.

Yakkaboshchilik tamoyili nizoli vaziyatlarni boshqarishni engillashtiradi. Kishilarning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish yo'li bilan rag'batlantirishdan ham nizolarni boshqarishning usuli sifatida foydalanish mumkin. Masalalarni kompleks ravishda hal qiladigan, boshqalarga yordam beradigan xodimlar mukofot, tashakkurnoma berish, xizmat bo'yicha ko'tarish yo'li bilan rag'batlantirilishi lozim.

Nizolarni hal qilishning besh asosiy shaxslararo usuli mavjud: o'zini chetga tortish, silliqlash, majburlash, kelishish va muammoni hal qilish.

O'zini chetga tortish ixtilofli vaziyatlarga aralashmaslikni nazarda tutadi. Bu nizoni hal qilish emas, balki uni ozgina yumshatishdir. Silliqlash ham jahl qilmaslik, quyushqondan chiqmaslikka da'vat etadi.

Majburlash taklif qilinayotgan fikrni hokimiyat kuchi bilan qabul qilishga majburlaydi. Nizo nazorat ostiga olinadi, xodimlarning tashabbusi bo'g'iladi.

Kelishish nizoni umumiy sa'y-harakatlar bilan, bir-biriga yon berish orqali hal qilishni nazarda tutadi. Kelishishga qobillik yuksak baholanadi, chunki ikkala tomonni ham qoniqtirib, nizoni tez hal qilish imkonini beradi.

Muammoni hal qilish yo'llarini qidirish kerak. Buning uchun teran aql va odamlar bilan ishlash san'atiga ega bo'lish talab etiladi. Masalani hal qilishning barchaga ma'qul bo'lgan variantini topa bilish kerak.

Stress - oddiy va juda ko'p uchraydigan hodisa. Biz hammamiz vaqti-vaqti bilan uni serjahlilik yoki uyqusizlik ko'rinishida his qilamiz. Mayda stresslar muqarrar va zararsiz, ammo kuchli stresslar inson va korxona uchun jiddiy muammolar tug'diradi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, stressning fiziologik sabablari qatoriga ichki yaralar, zotiljam, migren, yurak qisishi, artrit, oshqozon og'rig'i va boshqa kasalliklar kiradi.

Psixologik sabablar jumlasiga serzardalik, ishtahaning yo'qolishi, depressiya, shaxsiy va jinsiy munosabatlarga maylning susayishi kiradi.

Stresslar ish natijalarida aks etadi va insonning o'ziga ham, ishbilarmonlarga ham qimmatga tushadi. Stressning sabablari xilma-xildir: haddan tashqari ko'p ish yuklash yoki etarlicha ish yuklamaslik, xodimga ziddiyatli talablar qo'yilishi, rahbarlar tomonidan har xil topshiriqlar berilishi, xodim undan nima kutayotganliklarini bilmasligi va h.k.

Stresslarni boshqarish mumkin va kerak. Rahbar stressga qarshi qalqon bo'lishi lozim. Yaxshi rahbar doim qo'l ostidagi xodimlari haqida qayg'uradi, ularning stressiz ishlashlari uchun sharoitlar yaratib beradi.

Yaxshi rahbar o'z xodimlarini keraksiz muammolardan himoya qiladi.

Xulosa

Bozor iqtisodiyotining yakuniy maqsadi aholini ijtimoiy himoya qilish, inson uchun munosib mehnat va turmush sharoitlarini yaratishdan iborat.

Ijtimoiy boshqaruvni tashkil etish deganda mehnat jamoasidagi ijtimoiy munosabatlarni tashkil qilish va tartibga solish tushuniladi.

Har qanday rahbar jamoadagi ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash haqida muntazam qayg'urishi lozim.

Ijtimoiy boshqaruvni tashkil etish xodimlarning mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash, ularni turar joy, tibbiy xizmat, dam olish uylari bilan ta'minlash va h.k. nazarda tutadi.

Inson er yuzidagi eng nozik, ta'sirchan jonzot, shuning uchun ham uni boshqarish juda mushkul ish.

O'zini-o'zi tekshirish uchun savollar

1. Menejer mehnat jamoasini muvaffaqiyatli boshqarish uchun nima qilishi kerak?
